2026
3(1)-SON

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

www.saen.uz
https://t.me/saen_2024
saen_2024@mail.ru



"FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI"

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2026-yil, 3 (1)-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2026

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: https://t.me/saen_2024

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Qodirov U.D. Konsagvin nikohning ijtimoiy-psixologik sabablari va oqibatlari…… 8
Barotov X.Sh. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish pedagogik-psixologik mexanizmlarining nazariy-metodologik asoslari…… 15
Nurimov Z.R. Futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlari va jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik…… 23
Maxmudova O.A. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda ijodiy muhitni yaratish (STEAM ta’lim asosida)…….. 31
Kdirova M.A. Kursantlar jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashda voleybol mashg‘ulotlarining pedagogik jihatlari……. 44
Kulatova S.Y. O‘smir shaxsida salbiy va zararli axborotlarni qabul qilishga moyillikning psixologik jihatlari……..... 52
Urazimbetova A.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik strategiyalarning bosqichli modeli……. 58
Sultonova M.R. Yetuklik yoshidagi ayollarning psixologik rivojlanish omillari…… 65
Haydarov Sh.Sh. Uyushmagan yoshlarda psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik determinantlari va mexanizmlari……. 71
Sattorov S.A. Mintaqaviy rivojlanishni o‘lchashda zamonaviy statistik metodlarning qo‘llanilishi..... 77
Daulanova X.I. Greek-latin term-elements of affixal type…….. 88
Шарифбаева Х.Я., Абдурашидова М.Ж. Интегрирование в образование стратегии формирования STEM-компетенций: комплексный анализ от начальной до высшей школы……..... 93
Galdiyeva M.D. Oilada yoshlarni milliy tarbiyalash jamiyatning farovonligidir…… 105
Axmedova L.B. Oliy ta’limda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish…….. 111
Qosimova G.I., Mo‘minova Sh.Sh. Bo‘lajak o‘zbek tili o‘qituvchisi lingvometodik tafakkurini rivojlantirishda kognitiv lingvistikaning nazariy asoslari…….. 120
Азизов Д.З., Кенджаев А.Б. Углеводный комплекс надземной части Artemisa Juncea…… 127
Igamberdiyeva A.A. Inklyuziv va gospital pedagogika integratsiyasi asosida bolalarni maktabga tayyorlash metodikasini takomillashtirish…… 134
Tilyabayev K.Z. Tashqi dunyo bilan aloqa o‘zbek tilining o‘rganilishi va dekolonizatsiyasiga ta’sir etuvchi omil sifatida…… 140
Khayrullayeva Sh.F. Semantic and cultural aspects of grammatical and lexical means expressing positive and negative emotions in uzbek and english……. 145
Atashayxov A.A. Ekstremal vaziyatlarda kursantlarning psixologik tayyorgarligini qo‘l jangi vositasi orqali shakllantirish……. 150
Alimardanova R.N. Onalarda ma’naviy saviya tushunchasining mohiyati…… 159
Нурматова С.Ш. Национальный имидж как фактор когнитивного и эмоционального выбора туристской дестинации…… 167
Tashmuxamedova F.B. 6-7 yoshli bolalar maktab ta’limiga nutqiy tayyorgarligida vizualizatsiyaning funksiyalari va tamoyillari…….. 182
Markova O.A. Modern mechanisms for ensuring educational continuity for hospitalized learners in inclusive education…….. 189
Qaytarova N.K. Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirish metodlari……. 196

Левкина М.Ф. Технология реализации деятельностного подхода на уроках математики в начальной школе: психологические основания и нормативные ориентиры…… 209
Исманова Г.Г. Внедрение средств интегративных технологий в подготовку будущих педагогов дошкольного образования…….. 216
Maxmudova S.A. Zanjir bog‘lanishli hikoya tuzish orqali 6-7 yoshli bolalarning nutqini rivojlantirish…….. 222
O‘rinova D.Sh. Jismoniy chiniqishning fiziologik asoslari…… 235
Safarova D.S. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida empatik refleksiya va kasbiy barqarorlikni takomillashtirishning psixologik determinantlari…… 242
Usmonaliyeva R.U. Tarix darslari orqali o‘quvchilarda kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari…… 248
Qodirova S.D. Umumta’lim fanlarini o‘qitish jarayonida ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish…….. 254
Tojiboyev R.I. Tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi tarixi…….. 259
Usmanov B.X. Oliy ta’lim muassasalarida tarix fanining o‘qitilishiga doir jahon tajribasidagi zamonaviy yondashuvlar…….. 265
Туракулова Д.Б. Психологическая стрессоустойчивость профессиональных спортсменов……. 269
Erkinov M.M. Ta’lim jarayonida nizolarni bartaraf etishda dialogik muloqot mexanizmlari……. 275
Sobirova L.R. O‘smir yoshlarda kreativ fikrlashning ijtimoiy- psixologik tahdidlardan himoyalashdagi o‘rni……. 281
Saydaliyeva G.O. Turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlashning muammolari va yechimlari…….. 287
Тураев О.У. Профилактика девиантного поведения молодежи в процессе социализации..... 292
O‘rinboyev H.M Psixologik komplekslarning shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lish mexanizmlari……. 298
Usmanov B.K. Ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida sport seleksiyasi mezonlari va ularning samaradorligini baholash…….. 305
Barotov Sh.Sh. Bojxona xodimlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari…….. 311
Jumaboyev N.X. Bo‘lajak oligofrenopedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kross-platforma yondashuvining ilmiy-amaliy asoslari……..... 318
Abatova G.N. Yuqori malakali voleybolchilarda o‘yin samaradorligini biomexanik tahlil asosida baholash…… 325
Xudayberganov T.K. O‘rta masofaga yugurishda kuch tayyorgarligi va tezkorlik-chidamlilik ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligi…… 333
Kanlibayeva I.M. O‘smirlarda agressivlik va delinkvent xulq o‘rtasidagi bog‘liqlikning psixologik jihatlari……. 342
Toshxodjayev M.K. Harbiy jamoada nizolar va stress holatlarining psixologik xususiyatlari..... 347
Saburov U.A. O‘quvchilarda innovatsion yondashuv asosida 4K……... 352
Karimov J.I. Bolalarda shifoxonadan tashqari zotiljam patogenezida mikronutritiv holatning roli……. 358
Akbarova M.S. Bolalarda bronxopulmonar patologiyalarni diagnostikasi……. 363
Kobilova F.T. Talabalarda ingliz tili nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik va psixologik omillar……. 368

UDK: 316.34:616.12:37

Qodirov Umarali Do'stqobilovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor

KONSAGVIN NIKOHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI VA OQIBATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning ijtimoiy, psixologik va tibbiy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda bunday nikohlarning shakllanish sabablari sifatida an'analar, iqtisodiy manfaatlar, ijtimoiy muhit, ishonch va emosional yaqinlik kabi omillar yoritilgan. Shu bilan birga, konsagvin nikohlarning genetik xavflari, irsiy kasalliklar ehtimoli, shuningdek, oilaviy munosabatlar va shaxs psixologik holatiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada ushbu nikoh turining ijobiy va salbiy ijtimoiy-psixologik oqibatlari tahlil qilinib, ularni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar, jumladan genetik maslahat, psixologik yordam va aholi o'rtasida ma'rifiy ishlar olib borish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: konsagvin nikoh, endogamiya, ijtimoiy adaptasiya, psixologik xavfsizlik, oilaviy nizolar, genetika, urf-odatlar, qadriyatlar.

КОНСАГВИННЫЕ БРАКИ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы социальные, психологические и медицинские аспекты браков между близкими родственниками. В исследовании в качестве факторов формирования таких браков рассматриваются традиции, экономические интересы, социальная среда, доверие и эмоциональная близость. Наряду с этим изучены генетические риски консагвинных браков, вероятность наследственных заболеваний, а также их влияние на семейные отношения и психологическое состояние личности. В статье проанализированы положительные и отрицательные социально-психологические последствия данного вида брака и обоснована необходимость практических рекомендаций по их снижению, включая генетическое консультирование, психологическую помощь и проведение просветительской работы среди населения.

Ключевые слова: консагвинный брак, эндогамия, социальная адаптация, психологическая безопасность, семейные конфликты, генетика, традиции, ценности.

CONSANGUINEOUS MARRIAGES: SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CAUSES AND CONSEQUENCES

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the social, psychological, and medical aspects of marriages between close relatives. The study identifies traditions, economic interests, social environment, trust, and emotional closeness as key factors influencing the formation of such marriages. It also examines the genetic risks associated with consanguineous marriages, the likelihood of hereditary diseases, and their impact on family relationships and individual psychological well-being. The article analyzes both the positive and negative socio-psychological consequences of this type of marriage and substantiates the need for practical recommendations to reduce adverse outcomes, including genetic counseling, psychological support, and public awareness initiatives.

Keywords: consanguineous marriage, endogamy, social adaptation, psychological safety, family conflicts, genetics, traditions, values.

Yaqin qarindoshlik nikohi — bu genetik jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tuziladigan nikoh shakli bo‘lib, u insonlar o‘rtasidagi qon-qarindoshlik darajasiga asoslanadi. Bunday nikohlar odatda bir avlod doirasida yoki yaqin avlodlar o‘rtasida kuzatiladi va jamiyatlarda turli madaniy, an'anaviy hamda ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda yaqin qarindoshlik nikohi “konsagvin nikoh” tushunchasi bilan ham ifodalanadi va u genetik o‘xshashlik darajasining yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda konsagvin, ya'ni yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar turli sohalardan ko‘rib chiqilgan. Jamiyatshunoslik va sosiologiya jihatidan, bunday nikohlar an'ana va urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liq ekani qayd etiladi [3]. Ularda oilaviy boylikni saqlash, urug‘-qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash va ijtimoiy tartibni ta'minlash asosiy motivlar sifatida ko‘rsatilgan. Sharqiy va qishloq jamiyatlarda bunday nikohlar ko‘p hollarda ijtimoiy moslashuv, ishonch va yaqinlik hissini kuchaytirish vositasi sifatida qaraladi [4].

Psixologik nuqtai nazardan, konsagvin nikohlar oilaviy bosim, tanishlik va emosional yaqinlik kabi omillar ta'sirida shakllanishi mumkinligi ta'kidlanadi [6]. Bunday nikohlarda shaxslar ichki xavfsizlik va psixoemosional barqarorlikni yuqori darajada his qiladi, chunki ular o‘z muhiti va qarindoshlari bilan yaxshi tanish. Shu bilan birga, ijtimoiy bosim va katta avlodning tavsiyalari psixologik jihatdan shaxsning mustaqil qaror qabul qilishini cheklashga olib kelishi mumkinligi ham qayd qilingan.

Tibbiy va genetik adabiyotlarda konsagvin nikohlardan tug‘ilgan bolalarda resessiv genlar ortishi va tug‘ma nuqsonlar xavfi yuqori ekani ko‘rsatilgan [3]. Masalan, tug‘ma genetik kasalliklar, aqliy rivojlanishda ortda qolish, immunitet zaifligi va ba'zi tug‘ilish asoratlari jihatidan bunday nikohlarning xavfi sezilarli. Shu bois, zamonaviy tadqiqotlarda genetik maslahat, skrining tekshiruvlari va profilaktik choralar muhim profilaktika vositasi sifatida ta'kidlanadi [7].

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda konsagvin nikohlar ijobiy oqibatlari ham qayd qilingan. U oilaviy birlikni mustahkamlaydi, moddiy resurslarni saqlashga yordam beradi va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini osonlashtiradi. Ammo bu ijobiy

jihatlar bilan bir qatorda salbiy ijtimoiy-psixologik va tibbiy xavflar ham mavjudligini ta'kidlaydi [9].

Milliy tadqiqotlardan ma'lum bo‘lishicha, O‘zbekiston aholisida genetik mutasiyalar va irsiy kasalliklarga moyillik yuqori darajada aniqlangan. Masalan, mamlakatda o‘tkazilgan genom tadqiqotlarida har ikkinchi bolada irsiy mutasiyalar (patologik genlarning tashuvchisi) aniqlanib, bu xalqaro o‘rtacha ko‘rsatkichdan taxminan ikki barobar yuqori ekani ma'lum qilingan [11].

Umuman, konsagvin nikohlar borasidagi adabiyotlar turli sohalarda — sosiologiya, psixologiya, tibbiyot va genetikada — keng tadqiq qilingan. Ular an'ana va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq ijtimoiy sabablar, emosional yaqinlik va ishonch kabi psixologik omillar hamda genetik va tibbiy xavflarning kompleks ta'siri bilan xarakterlanadi [1;2].

Yaqin qarindoshlik nikohlari turlarga ajratilganda, avvalo qarindoshlik darajasiga qarab farqlanadi. Eng ko‘p uchraydigan turlaridan biri — birinchi darajali qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh bo‘lib, bunda aka-uka, opa-singil kabi yaqin qon qarindoshlar nazarda tutiladi, ammo bu tur aksariyat jamiyatlarda qonunan taqiqlangan. Ikkinchi darajali qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar esa amakivachcha, xolavachcha, tog‘avachcha kabi qarindoshlar o‘rtasida tuziladi va ko‘plab an'anaviy jamiyatlarda keng tarqalgan hisoblanadi. Shuningdek, uchinchi darajali qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar ham mavjud bo‘lib, ularda qarindoshlik aloqasi nisbatan uzoqroq bo‘ladi, masalan, ikkinchi avlod va undan keyingi qarindoshlar.

Yaqin qarindoshlik nikohlari turlarini yana genealogik va ijtimoiy jihatdan ham tasniflash mumkin. Genealogik nuqtai nazardan ular parallel va kross-qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarga bo‘linadi. Parallel qarindoshlar deganda, bir jinsli aka-uka yoki opa-singil farzandlari o‘rtasidagi nikoh tushunilsa, kross-qarindoshlarda esa turli jinsli qarindoshlar farzandlari o‘rtasidagi nikoh nazarda tutiladi. Ijtimoiy jihatdan esa bunday nikohlar an'anaviy (urf-odatlarga asoslangan), iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liq yoki oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Konsagvin nikoh jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy tuzilishi va tarixiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning turlari ham aynan shu omillar ta'sirida shakllanib, turli xalq va hududlarda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy sabablari jamiyatning tarixiy rivojlanishi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tuzilishi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Ko‘plab an'anaviy jamiyatlarda bunday nikohlar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan urf-odat va an'analar ta'sirida saqlanib qolgan bo‘lib, oilaviy barqarorlik va qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, oila va urug‘-qarindoshlik munosabatlari markaziy o‘rin tutadigan muhitlarda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar ijtimoiy jihatdan ma'qul va hatto afzal deb baholanishi mumkin.

Bunday nikohlarning yana bir muhim ijtimoiy sababi iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liqdir. Oilaviy mulkni, yer-suvni yoki boshqa moddiy boyliklarni begona oilalarga chiqib ketmasligini ta'minlash maqsadida qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish afzal ko‘riladi. Bu holat, ayniqsa, qishloq joylarda va an'anaviy iqtisodiy

munosabatlar ustun bo‘lgan hududlarda ko‘proq uchraydi. Shu bilan birga, bunday nikohlar oilaviy resurslarni bir doirada saqlash va o‘zaro yordam tizimini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy muhit va jamoatchilik fikri ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Kichik jamoalarda yoki yopiq ijtimoiy guruhlarda odamlar ko‘proq bir-birini yaxshi taniydi, ishonch darajasi yuqori bo‘ladi va tashqi muhitdan keladigan xavf-xatarlardan himoyalanish maqsadida “o‘z oramizdan” nikoh tuzishga intilish kuchli bo‘ladi. Bu holat ijtimoiy nazorat mexanizmini ham osonlashtiradi, chunki kelin-kuyovning kelib chiqishi, xulq-atvori va oilasi haqida ma'lumotlar oldindan ma'lum bo‘ladi.

Shuningdek, ta'lim darajasi va axborotga yetish imkoniyati ham bunday nikohlarning tarqalishiga ta'sir ko‘rsatadi. Ta'lim darajasi past yoki ilmiy ma'lumotlar yetarlicha tarqalmagan jamiyatlarda yaqin qarindoshlik nikohlarining ehtimoliy salbiy oqibatlari haqidagi tushunchalar cheklangan bo‘lishi mumkin. Natijada, an'anaviy qarashlar ustuvor bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda ota-ona yoki katta avlod vakillarining qaror qabul qilishdagi ustun mavqei ham yoshlarning tanlov erkinligini cheklab, qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzishga olib keladi.

Umuman olganda, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, ular an'ana, iqtisodiy manfaat, ijtimoiy ishonch va nazorat, shuningdek, ta'lim va axborot darajasi kabi omillarning o‘zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning psixologik sabablari, avvalo, insonlarning yaqinlik, ishonch va xavfsizlikka bo‘lgan tabiiy ehtiyojlari bilan bog‘liq holda shakllanadi. Odatda inson o‘ziga tanish muhitda, yaxshi bilgan odamlar orasida o‘zini erkin va xotirjam his qiladi. Shuning uchun ham qarindoshlar o‘rtasida shakllangan uzoq yillik munosabatlar, o‘zaro tushunish va ishonch nikoh qarorini qabul qilishda muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vaziyatda noma'lumlik va noaniqlik omillari kam bo‘ladi, bu esa shaxsda xavotir darajasini pasaytiradi va qaror qabul qilishni yengillashtiradi.

Fikrimizcha, mazkur nikohlarning yuzaga kelishida bolalikdan shakllangan emosional bog‘liqlik ham muhim rol o‘ynaydi. Qarindoshlar o‘rtasidagi doimiy muloqot, birga o‘sish va o‘xshash tarbiya muhitida shakllangan umumiy qadriyatlar o‘zaro yaqinlik hissini kuchaytiradi. Natijada bunday munosabatlar ba'zan romantik yoki oilaviy munosabatlarga aylanishi mumkin. Psixologiya nuqtai nazaridan bu holat “tanishlik effekti” bilan izohlanadi, ya'ni inson ko‘p ko‘rgan va bilgan shaxslarga nisbatan ko‘proq ijobiy munosabat bildirishga moyil bo‘ladi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning yana bir psixologik sababi — oilaviy ta'sir va bosimdir. Ayrim hollarda ota-ona yoki katta avlod vakillari tomonidan berilgan tavsiyalar, kutilmalar va hatto bosimlar shaxsning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini cheklashi mumkin. Bunday vaziyatda inson ichki rozilikdan ko‘ra, ijtimoiy ma'qullik va oilaviy munosabatlarni saqlab qolishni ustun qo‘yadi. Bu esa psixologik jihatdan konformizm, ya'ni guruh talablariga moslashish tendensiyasi bilan bog‘liq.

Shuningdek, ayrim shaxslarda yangilikdan qo‘rqish, noma'lum odam bilan munosabat qurishga nisbatan ishonchsizlik kabi xususiyatlar ham bunday nikohlarga moyillikni kuchaytiradi. Yaqin qarindosh bilan nikoh qurish esa ular uchun psixologik jihatdan oson va xavfsiz tanlov bo‘lib ko‘rinadi. Bunda shaxs o‘zini himoyalangan his qiladi va munosabatlarda kutilmagan holatlar kam bo‘lishiga ishonadi.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning psixologik sabablari inson psixikasidagi ishonch, yaqinlik, xavfsizlikka intilish, emosional bog‘liqlik, ijtimoiy ta'sirga bo‘ysunuvchanlik va noaniqlikdan qochish kabi omillarning o‘zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlari jamiyat va oila tizimiga kompleks tarzda ta'sir ko‘rsatadi. Bunday nikohlar ayrim hollarda oilaviy birlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashi mumkin, chunki qarindoshlar o‘rtasida avvaldan shakllangan yaqin munosabatlar, umumiy qadriyatlar va o‘zaro tushunish darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa oilaviy nizolarning kamroq yuzaga kelishiga yoki ularni tezroq hal etishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, bunday nikohlarda oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi kuchli bo‘lib, yosh oilalar katta avlod yordamini osonroq his qiladilar.

Biroq ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan salbiy oqibatlar ham sezilarli bo‘lishi mumkin. Avvalo, oilaviy munosabatlarda rollar va chegaralar noaniqlashishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ya'ni qarindoshlik va nikoh munosabatlari bir-biriga qorishib ketib, shaxslararo munosabatlarda murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, bir vaqtning o‘zida ham qarindosh, ham turmush o‘rtoq bo‘lgan shaxslar o‘rtasida psixologik ziddiyatlar, rollar to‘qnashuvi va emosional zo‘riqish holatlari paydo bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Shuningdek, bunday nikohlar ijtimoiy muhit bilan munosabatlarga ham ta'sir ko‘rsatadi. Ayrim jamiyatlarda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar tanqidiy qarashlarga sabab bo‘lishi, bu esa oila a'zolarida ijtimoiy bosim, uyalish yoki izolyasiya hissini keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat shaxsning o‘zini baholashi va psixologik holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati cheklangan bo‘lsa, bu ichki norozilik, stress va hatto uzoq muddatli psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Farzandlar tarbiyasi va rivojlanishi nuqtai nazaridan ham muayyan ijtimoiy-psixologik ta'sirlar kuzatiladi. Oiladagi munosabatlar tartibi, katta avlod ta'sirining kuchliligi va an'anaviy qarashlarning ustunligi bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Ba'zi hollarda bu ijobiy natijalarga, ya'ni tartib-intizom va qadriyatlarga hurmat shakllanishiga olib kelsa, boshqa hollarda bolalarning mustaqil fikrlashi cheklanishi, ijtimoiy moslashuv jarayoni qiyinlashishi mumkin.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlari ikki qirrali bo‘lib, ularda ijobiy jihatlar bilan birga salbiy holatlar ham mavjud. Bu oqibatlar ko‘p jihatdan jamiyatning madaniy darajasi, oilaviy munosabatlar tizimi va shaxslarning psixologik xususiyatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Konsagvin nikohlar tibbiy nuqtai nazardan, avvalo, genetik xavflarning ortishi bilan xarakterlanadi. Bunday nikohlarda er-xotin o‘rtasida umumiy ajdodlar

bo‘lgani sababli, ularning genetik materialida o‘xshashlik darajasi yuqori bo‘ladi. Natijada, odatda yashirin holda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan resessiv genlar ikkala tomondan ham bolaga o‘tishi ehtimoli ortib, turli irsiy kasalliklarning namoyon bo‘lish xavfi kuchayadi. Oddiy sharoitda bunday genlar bir tomondan kelganda kasallik yuzaga chiqmasligi mumkin, ammo qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarda bu xavf sezilarli darajada oshadi.

Tibbiy jihatdan bunday nikohlardan tug‘ilgan bolalarda tug‘ma nuqsonlar, jismoniy va aqliy rivojlanishda ortda qolish, immun tizimi zaifligi kabi holatlar ko‘proq uchrashi qayd etilgan. Masalan, ayrim irsiy kasalliklar — qon kasalliklari, metabolik buzilishlar, nevrologik sindromlar va boshqa genetik kasalliklar xavfi yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, bolalarda tug‘ilish paytidagi asoratlar, chaqaloqlar o‘limi yoki erta bolalikdagi kasallanish darajasi ham yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, konsagvin nikohlar ayol salomatligiga ham ma'lum darajada ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Homiladorlik davrida asoratlar, tushish holatlari yoki murakkab tug‘ruq ehtimoli ba'zi hollarda oshishi mumkin. Bu esa nafaqat tibbiy, balki psixologik jihatdan ham oilaga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ota-onalarda xavotir, stress va aybdorlik hissi paydo bo‘lishi mumkin, ayniqsa agar bolada sog‘liq bilan bog‘liq muammolar aniqlansa.

Shu bilan birga, zamonaviy tibbiyotda genetik maslahat va skrining tekshiruvlari orqali ushbu xavflarni ma'lum darajada baholash va oldini olish imkoniyatlari mavjud. Nikohdan oldin yoki homiladorlik davrida o‘tkaziladigan tibbiy tekshiruvlar orqali ehtimoliy irsiy kasalliklar aniqlanib, tegishli choralar ko‘rilishi mumkin. Shu bois, konsagvin nikohlarning tibbiy xavflari haqida xabardorlikni oshirish va profilaktik choralarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Konsagvin nikohlar tibbiy nuqtai nazardan yuqori genetik xavflar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning oqibatlari avlod salomatligiga ta'sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun bu masalaga ilmiy va ongli yondashuv talab etiladi.

Yaqin qarindoshlik nikohlarining salbiy oqibatlarini kamaytirish masalasiga kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi, chunki bu holat nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va psixologik omillar bilan ham bog‘liqdir. Avvalo, aholi o‘rtasida genetik va tibbiy bilimlarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Odamlar yaqin qarindoshlik nikohlarining ehtimoliy xavflari haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarga ega bo‘lsalar, ular qaror qabul qilishda ongli yondashuvni tanlaydilar. Shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari orqali targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ayni paytda, nikohdan oldin genetik maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish va keng joriy etish muhimdir. Bo‘lajak juftliklar maxsus mutaxassislar ko‘rigidan o‘tib, o‘zlarida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan irsiy kasalliklar xavfi haqida ma'lumot olishlari mumkin. Bu esa kelgusida sog‘lom avlodni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xavf yuqori bo‘lgan holatlarda mutaxassislar tomonidan tegishli tavsiyalar berish orqali salbiy oqibatlarning oldini olish imkoniyati mavjud.

Psixologik jihatdan esa oilaviy maslahat va psixokorreksiya ishlarini kuchaytirish zarur. Yoshlarga mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning shaxsiy pozisiyasini mustahkamlash va oilaviy bosimlarga

nisbatan barqarorlikni oshirish muhimdir. Psixologlar va maslahatchilar tomonidan olib boriladigan treninglar, suhbatlar va individual maslahatlar orqali bu yo‘nalishda samarali natijalarga erishish mumkin.

Ijtimoiy darajada esa ta'lim tizimini rivojlantirish va yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish katta ahamiyatga ega. Ta'lim darajasi oshgan sari insonlarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa an'anaviy, ammo salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan qarorlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan profilaktik dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi muhimdir. Qonunchilik asoslarini takomillashtirish, tibbiy ko‘riklarni rag‘batlantirish, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar bu yo‘nalishda ijobiy samara beradi. Ayniqsa, qishloq joylarda va an'anaviy qarashlar ustun bo‘lgan hududlarda maqsadli dasturlar olib borish zarur.

Umuman olganda, yaqin qarindoshlik nikohlarining salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun tibbiy, psixologik va ijtimoiy choralarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirish kerak. Faqatgina bir tomonlama emas, balki kompleks yondashuv orqali sog‘lom oila va sog‘lom avlodni shakllantirish, tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘.Shoumarov. Oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari va ularning yechimlari. “Oila institutining ijtimoiy-psixologik muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent, 630 bet, 4-9-betlar, 2025.

2. U.Qodirov. O‘zbek oilasining ayrim etnopsixologik xususiyatlari. “Oila institutining ijtimoiy-psixologik muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent, 630 bet, 14-18-betlar, 2025.

3. Al-Krenawi, A., & Graham, J. R. Cross-cultural psychiatric assessment of consanguineous marriages in Arab societies. Social Science & Medicine, 48(6), 845–854, 1999.

4. Bittles, A. H. Consanguinity and its relevance to clinical genetics. Clinical Genetics, 60(2), 89–98, 2001.

5. Bittles, A. H., & Black, M. L. Consanguinity, human evolution, and complex diseases. Proceedings of the National Academy of Sciences, 107(Suppl 1), 1779–1786, 2010.

6. Shawky, S., El-Awady, M., El-Sayed, M., & Kamal, F. Genetic disorders in children of consanguineous parents in Egypt: A population-based study. Eastern Mediterranean Health Journal, 19(4), 322–330, 2013.

7. Hamamy, H. Consanguineous marriages: Preconception consultation in primary health care settings. Journal of Community Genetics, 3(3), 185–192, 2012.

8. Modell, B., & Darr, A. Genetic counselling and customary consanguineous marriage. Nature Reviews Genetics, 3(3), 225–229, 2002.

9. Tadmouri, G. O., Nair, P., Obeid, T., Al Ali, M. T., Al Khaja, N., & Hamamy, H. (2009). Consanguinity and reproductive health among Arabs. Reproductive Health, 6(1), 17.

UDK 37.015.3:796

Barotov Xumoyin Sharifovich,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarining nazariy-metodologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati faqat metodik tayyorgarlik bilan emas, balki shaxsiy-professional sifatlar, psixologik barqarorlik, refleksiv tafakkur, motivatsion yo‘nalganlik hamda kommunikativ kompetensiya bilan belgilanadi. Shu bois tadqiqotda kasbiy kompetentlikning integrativ tuzilmasi tizimli, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, kasbiy kompetentlik, pedagogik-psixologik mexanizmlar, nazariy-metodologik asoslar, kompetensiyaviy yondashuv, tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv, motivatsiya, refleksiya, emotsional intellekt, stressga chidamlilik, pedagogik mahorat, innovatsion ta’lim texnologiyalari, uzluksiz kasbiy rivojlanish, shaxsiy-professional salohiyat.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. Данное исследование направлено на научное обоснование теоретико-методологических основ педагогико-психологических механизмов развития профессиональной компетентности учителей физической культуры. В современной системе образования профессиональная деятельность учителя физической культуры определяется не только методической подготовленностью, но и личностно-профессиональными качествами, психологической устойчивостью, рефлексивным мышлением, мотивационной направленностью и коммуникативной компетентностью. В связи с этим в работе интегративная структура профессиональной компетентности анализируется на основе системного, деятельностного и компетентностного подходов.

Ключевые слова: учитель физической культуры, профессиональная компетентность, педагогико-психологические механизмы, теоретико-методологические основы, компетентностный подход, системный подход, деятельностный подход, мотивация, рефлексия, эмоциональный интеллект, стрессоустойчивость, педагогическое мастерство, инновационные

образовательные технологии, непрерывное профессиональное развитие, личностно-профессиональный потенциал.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Abstract. This study is aimed at providing a scientific substantiation of the theoretical and methodological foundations of pedagogical and psychological mechanisms for developing the professional competence of physical education teachers. In the modern educational system, the professional activity of a physical education teacher is determined not only by methodological preparedness but also by personal and professional qualities, psychological stability, reflective thinking, motivational orientation, and communicative competence. Therefore, the integrative structure of professional competence is analyzed within the framework of systemic, activity-based, and competency-based approaches.

Keywords: physical education teacher, professional competence, pedagogical and psychological mechanisms, theoretical and methodological foundations, competency-based approach, systemic approach, activity-based approach, motivation, reflection, emotional intelligence, stress resistance, pedagogical mastery, innovative educational technologies, continuous professional development, personal and professional potential.

Globallashuv va ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini yangi bosqichga ko‘tarish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining faoliyati o‘quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishi, balki ularning irodaviy sifatlari, sog‘lom turmush tarzi madaniyati, ijtimoiy faolligi va psixologik barqarorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilib, pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Endilikda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quv jarayonini tashkil etuvchi, motivatsiyani shakllantiruvchi, ijobiy psixologik muhit yaratuvchi hamda shaxsiy rivojlanish uchun shart-sharoit ta’minlovchi professional subyekt sifatida qaraladi. Jismoniy tarbiya fanining o‘ziga xos xususiyatlari – yuqori darajadagi harakat faolligi, jamoaviy faoliyat, raqobat muhitining mavjudligi va xavfsizlik omili – o‘qituvchidan kuchli pedagogik mahorat bilan bir qatorda puxta psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi.

Kasbiy kompetentlik murakkab integrativ tizim bo‘lib, u motivatsion, kognitiv, faoliyatli-amaliy hamda shaxsiy-refleksiv komponentlarning o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Ushbu komponentlarning samarali rivojlanishi pedagogik va

psixologik mexanizmlar bilan belgilanadi. Pedagogik mexanizmlar ta'lim mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllar va innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirilsa, psixologik mexanizmlar shaxsning ichki resurslari – motivatsiya, emotsional intellekt, stressga chidamlilik, refleksiya va liderlik sifatlari orqali namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, pedagogik va psixologik mexanizmlarning o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda ularni amaliyotga joriy etish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida tizimli, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida konseptual model ishlab chiqilib, uning amaliy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini tubdan yangilash, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat sharoitida yosh avlodni jismonan sog'lom, irodali, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligi hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki jismoniy tarbiya darslari nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki shaxsning psixologik barqarorligi, jamoada ishlash ko'nikmalari va liderlik sifatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar rivoji, yoshlar orasida jismoniy faollikning kamayishi, stress va psixologik zo'riqish holatlarining ortishi jismoniy tarbiya o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Endilikda o'qituvchi sport mashg'ulotlarini tashkil etuvchi mutaxassis bilan bir qatorda, o'quvchilarning psixologik holatini boshqaruvchi, sog'lom motivatsion muhit yaratuvchi va ijtimoiy moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlovchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bu esa kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganishni talab etadi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya fanining o'ziga xos xususiyatlari – yuqori darajadagi harakat faolligi, xavfsizlikni ta'minlash zarurati, raqobat va jamoaviy hamkorlik muhiti – pedagogdan kuchli emotsional barqarorlik, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va samarali kommunikativlikni talab qiladi. Shu sababli kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida nafaqat metodik bilimlar, balki psixologik determinantlar ham muhim o'rin tutadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya hamda sport fanlari kesishgan nuqtada o'rganiladigan kompleks ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo doirasida kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari, uning tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari ko'plab xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan.

Kasbiy kompetentlik konsepsiyasining shakllanishida David McClelland kompetentlikni shaxsning samarali faoliyatini ta'minlovchi ichki psixologik xususiyatlar majmui sifatida talqin qilgan. Uning ilmiy yondashuvi kompetentlikni an'anaviy bilim mezonlari bilan emas, balki real faoliyat natijalari orqali baholash zarurligini asoslab berdi. Keyinchalik Richard Boyatzis kasbiy kompetentlik

modelini ishlab chiqib, samarali boshqaruv va pedagogik faoliyatni ta'minlovchi motivatsion, kognitiv va xulq-atvor komponentlarini tizimlashtirdi.

Rus pedagogika maktabida kompetensiyaviy yondashuv nazariy jihatdan Irina Zimnyaya va Anatoly Khutorskoy tomonidan keng yoritilgan. Ular kompetentlikni ta'lim natijasi sifatida baholab, uning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy komponentlarini ajratib ko'rsatganlar. Ushbu yondashuvlar pedagog faoliyatini tizimli ravishda tahlil qilish hamda kasbiy rivojlanish mexanizmlarini aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik determinantlar masalasi Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy nazariya doirasida, shuningdek Sergey Rubinstein tomonidan faoliyat va ong birligi tamoyili asosida yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlari kasbiy kompetentlikning shaxs faoliyati jarayonida shakllanishini asoslab beradi. Shuningdek, emotsional intellekt nazariyasi Daniel Goleman tomonidan rivojlantirilib, pedagogik faoliyat samaradorligida emotsional boshqaruvning muhimligi ilmiy asoslangan.

Sport pedagogikasi va sport psixologiyasi yo'nalishida Robert Weinberg hamda Daniel Gould tadqiqotlarida motivatsiya, liderlik, jamoaviy muhit va stressga chidamlilikning sport faoliyatidagi o'rni tahlil qilingan. Ushbu ilmiy izlanishlar jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishda psixologik mexanizmlarning ahamiyatini asoslaydi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham pedagogning kasbiy mahoratini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari keng yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning aynan pedagogik va psixologik mexanizmlarining o'zaro integratsiyasi kompleks, tizimli yondashuv asosida yetarlicha o'rganilmagan.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon ko'p omilli va tizimli xarakterga ega. Kasbiy kompetentlikni faqat metodik tayyorgarlik yoki nazariy bilimlar bilan izohlash yetarli emas. U pedagogning shaxsiy-professional sifatlari, ichki motivatsiyasi, psixologik barqarorligi va faoliyatni tashkil etish mahorati bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Muhokama natijalariga ko'ra, pedagogik mexanizmlar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning tashqi shart-sharoitlarini belgilaydi. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, differensial va individual yondashuvni qo'llash, refleksiv faoliyatni rag'batlantirish hamda uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish o'qituvchining professional o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq mazkur omillar samaradorligi o'qituvchining ichki psixologik tayyorgarligi bilan bevosita bog'liq ekani aniqlandi.

Psixologik mexanizmlar kasbiy kompetentlikning ichki resurslarini tashkil etadi. Ichki motivatsiya, emotsional intellekt, stressga chidamlilik va refleksiv tafakkur jismoniy tarbiya o'qituvchisining murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Ayniqsa, jamoaviy sport o'yinlari jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar, raqobat muhiti va yuqori emotsional

fon o‘qituvchidan kuchli psixologik barqarorlikni talab etadi. Shu bois psixologik determinantlar kasbiy kompetentlik rivojlanishining asosiy ichki mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama jarayonida shuningdek kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv, faoliyatli-amaliy va shaxsiy-refleksiv komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liq ekani asoslandi. Motivatsion komponent pedagogni kasbiy o‘sishga undasa, kognitiv komponent zarur bilimlar bazasini ta’minlaydi, faoliyatli-amaliy komponent esa amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shaxsiy-refleksiv komponent esa pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi. Demak, mexanizmlarning samaradorligi ularning integrativ va uyg‘un holda ishlashiga bog‘liqdir.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon ko‘p omilli va tizimli xarakterga ega. Kasbiy kompetentlikni faqat metodik tayyorgarlik yoki nazariy bilimlar bilan izohlash yetarli emas. U pedagogning shaxsiy-professional sifatlari, ichki motivatsiyasi, psixologik barqarorligi va faoliyatni tashkil etish mahorati bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, pedagogik mexanizmlar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning tashqi shart-sharoitlarini belgilaydi. Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, differensial va individual yondashuvni qo‘llash, refleksiv faoliyatni rag‘batlantirish hamda uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish o‘qituvchining professional o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq mazkur omillar samaradorligi o‘qituvchining ichki psixologik tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlandi.

Psixologik mexanizmlar kasbiy kompetentlikning ichki resurslarini tashkil etadi. Ichki motivatsiya, emotsional intellekt, stressga chidamlilik va refleksiv tafakkur jismoniy tarbiya o‘qituvchisining murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Ayniqsa, jamoaviy sport o‘yinlari jarayonida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlar, raqobat muhiti va yuqori emotsional fon o‘qituvchidan kuchli psixologik barqarorlikni talab etadi. Shu bois psixologik determinantlar kasbiy kompetentlik rivojlanishining asosiy ichki mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama jarayonida shuningdek kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv, faoliyatli-amaliy va shaxsiy-refleksiv komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liq ekani asoslandi. Motivatsion komponent pedagogni kasbiy o‘sishga undasa, kognitiv komponent zarur bilimlar bazasini ta’minlaydi, faoliyatli-amaliy komponent esa amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shaxsiy-refleksiv komponent esa pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi. Demak, mexanizmlarning samaradorligi ularning integrativ va uyg‘un holda ishlashiga bog‘liqdir.

Metodologik jadval

№	Metodologik komponent	Mazmuni	Qo‘llaniladigan metodlar	Diagnostik vositalar	Kutilayotgan natija

1	Tadqiqot maqsadi	Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini nazariy asoslash va amaliy modelini ishlab chiqish	Nazariy tahlil, konseptual modellashtirish	Ilmiy manbalar, normativ hujjatlar	Konseptual model ishlab chiqiladi
2	Tadqiqot ob'ekti	Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyati jarayoni	Kuzatuv, suhbat	Faoliyat monitoringi	Kasbiy faoliyatning real holati aniqlanadi
3	Tadqiqot predmeti	Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik va psixologik mexanizmlari	Tizimli va faoliyatli yondashuv	Kompetentlik komponentlari mezonlari	Mexanizmlarning tarkibiy tuzilmasi aniqlanadi
4	Nazariy bosqich	Kompetentlik va mexanizmlar tushunchasini ilmiy asoslash	Analiz, sintez, taqqoslash, kontent tahlil	Ilmiy adabiyotlar	Nazariy asos va tushunchalar tizimi ishlab chiqiladi
5	Diagnostik bosqich	Kompetentlik darajasini aniqlash	So'rovnoma, test, psixologik diagnostika	Motivatsiya testi, stressga chidamlilik shkalasi, refleksiya anketasi	Boshlang'ich ko'rsatkichlar aniqlanadi
6	Tajriba-sinov bosqichi	Pedagogik-psixologik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish	Pedagogik eksperiment (nazorat va tajriba guruhi), trening	Mualliflik dasturi, baholash mezonlari	Kompetentlik darajasida ijobiy o'sish kuzatiladi
7	Tahliliy bosqich	Olingan natijalarni qayta ishlash	Matematik-statistik tahlil, foizli ko'rsatkichlar, dinamik tahlil	Statistik dastur (SPSS), diagrammalar	Mexanizmlar samaradorligi ilmiy asoslanadi
8	Umumlashtirish bosqichi	Xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish	Interpretatsiya, tizimlashtirish	Tavsiyalar to'plami	Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish

					modeli taklif etiladi

Metodologik jadval tahlili. Taqdim etilgan metodologik jadval tadqiqotning nazariy-metodologik yaxlitligini, mantiqiy izchilligini va bosqichma-bosqich tashkil etilganligini ko‘rsatadi. Unda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini o‘rganish jarayoni tizimli yondashuv asosida rejalashtirilgan.

Birinchi komponent — tadqiqot maqsadi — umumiy ilmiy yo‘nalishni belgilab beradi. Bu yerda asosiy urg‘u kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash va amaliy model ishlab chiqishga qaratilgan. Mazkur maqsad tadqiqotning barcha keyingi bosqichlari uchun konseptual poydevor vazifasini bajaradi.

Ob’ekt va predmetning aniqligi metodologik jadvalning ilmiy asoslanganligini ko‘rsatadi. Ob’ekt sifatida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati jarayonining tanlanishi tadqiqotni real pedagogik amaliyot bilan bog‘laydi. Predmet esa aynan pedagogik va psixologik mexanizmlarni o‘rganishga yo‘naltirilgani bilan mavzuning chegaralarini aniq belgilaydi.

Nazariy bosqich jadvalning metodologik tayanch qismidir. Unda analiz, sintez, taqqoslash va kontent tahlil metodlaridan foydalanish kompetentlik tushunchasining mazmunini chuqur ochib berishga xizmat qiladi. Bu bosqichda ishlab chiqilgan nazariy model keyingi empirik bosqichlarning metodik asosini yaratadi.

Diagnostik bosqich tadqiqotning amaliy boshlanish nuqtasi hisoblanadi. So‘rovnoma, test va psixologik diagnostika vositalari orqali jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlik darajasi aniqlanadi. Ushbu bosqich mavjud holatni obyektiv baholash, muammoli jihatlarni aniqlash va tajriba-sinov ishlarini to‘g‘ri tashkil etish imkonini beradi.

Tajriba-sinov bosqichi metodologik jadvalning markaziy qismi hisoblanadi. Bu yerda ishlab chiqilgan pedagogik-psixologik mexanizmlar amaliyotga joriy etiladi. Nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasidagi farqlarni aniqlash orqali taklif etilgan modelning samaradorligi tekshiriladi. Bu bosqich nazariy qarashlarning amaliy tasdig‘ini beradi.

Tahliliy bosqichda olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanadi. Foizli ko‘rsatkichlar, dinamik o‘sish darajasi va taqqoslash usullari mexanizmlarning samaradorligini ilmiy asosda isbotlashga xizmat qiladi. Statistik tahlil tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi.

Umumlashtirish bosqichi esa barcha natijalarni tizimlashtirib, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Bu bosqichda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning konseptual modeli yakuniy shaklga keltiriladi.

Xulosa. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarining nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish natijasida ushbu jarayon murakkab, ko‘p omilli va integrativ tizim ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Kasbiy kompetentlik pedagogning faqat metodik bilimlari bilan emas, balki uning motivatsion yo‘nalganligi, emotsional

barqarorligi, refleksiv qobiliyati va kommunikativ madaniyati bilan uyg‘un holda shakllanishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv, faoliyatli-amaliy va shaxsiy-refleksiv komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rivojlanishi asoslab berildi. Pedagogik mexanizmlar — ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, differensial yondashuv va uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi — kasbiy o‘sishning tashqi omillari sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan bo‘lsa, psixologik mexanizmlar — ichki motivatsiya, emotsional intellekt, stressga chidamlilik, liderlik va refleksiya — ushbu jarayonning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida e’tirof etildi.

Shuningdek, pedagogik va psixologik mexanizmlarning o‘zaro integratsiyasi kasbiy kompetentlikni barqaror va izchil rivojlantirishning muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijasida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan konseptual model ishlab chiqildi hamda amaliy tavsiyalar taklif etildi. Mazkur natijalar pedagog kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish hamda sog‘lom avlodni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McClelland, D. C. (1973). Testing for competence rather than for intelligence. *American Psychologist*, 28(1), 1–14.

2. Boyatzis, R. E. (1982). *The Competent Manager: A Model for Effective Performance*. New York: John Wiley & Sons.

3. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books.

4. Weinberg, R. S., & Gould, D. (2019). *Foundations of Sport and Exercise Psychology*. Champaign, IL: Human Kinetics.

5. Зимняя И. А. (2004). Ключевые компетенции как результативно-целевая основа образования. Москва.

6. Хуторской А. В. (2003). Ключевые компетенции и образовательные стандарты. Москва.

UDK 796.332:796.015.132

Nurimov Zafar Raxmanberdiyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
“Jangovar va jismoniy tayyorgarlik” kafedrasi professori

FUTBOLCHILARNING INDIVIDUAL TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARI VA JAMOAVIY O‘YIN SAMARADORLIGI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlari hamda jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Tadqiqot davomida yuqori malakali futbolchilarning o‘yin jarayonidagi texnik-taktik ko‘rsatkichlari statistik tahlil qilindi. Natijalar individual harakatlar sifati jamoaviy natijadorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatishini isbotladi.

Kalit so‘zlar: futbol, texnik-taktik harakat, jamoaviy o‘yin, samaradorlik, statistik tahlil.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНДИВИДУАЛЬНЫМИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИМИ ДЕЙСТВИЯМИ ИГРОКОВ И ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ КОМАНДНОЙ ИГРЫ

Аннотация. В данном исследовании изучалась взаимосвязь между индивидуальными технико-тактическими действиями игроков и эффективностью командной игры. В ходе исследования был проведен статистический анализ технико-тактических показателей высококвалифицированных игроков в игровом процессе. Результаты доказали, что качество индивидуальных усилий напрямую влияет на командную результативность.

Ключевые слова: футбол, технико-тактические действия, командная игра, эффективность, статистический анализ.

THE RELATIONSHIP BETWEEN INDIVIDUAL TECHNIQUE AND TACTICS AND THE EFFECTIVENESS OF TEAM PLAY

Abstract. This study examined the relationship between individual technical and tactical actions of players and the effectiveness of team play. The study conducted a statistical analysis of the technical and tactical performance of highly skilled players during gameplay. The results demonstrated that the quality of individual efforts directly affects team performance.

Keywords: football, technical and tactical actions, team play, efficiency, and statistical analysis.

Zamonaviy futbol yuqori intensivlik, tezkor fikrlash, aniqlik va funksional tayyorgarlikni talab etadigan murakkab sport turi hisoblanadi. So‘nggi yillarda o‘yin sur’ati sezilarli darajada oshdi, texnik va taktik harakatlar esa yanada mukammallashdi. Yetakchi musobaqalar, jumladan FIFA World Cup va UEFA Champions League o‘yinlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori natijaga erishish individual mahorat va jamoaviy taktikaning uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir.

Futbolchining individual texnik-taktik harakatlariga to‘pni qabul qilish va uzatish aniqligi, dribling samaradorligi, zarba berish sifati, himoyaviy harakatlar, pressing jarayonidagi faollik hamda o‘yin vaziyatida tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish kiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar alohida olinganda individual mahoratni ifodalasa-da, ularning jamoaviy o‘yin tizimidagi o‘rni yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Chunki futbol – bu jamoaviy sport turi bo‘lib, yakka harakatlar umumiy taktik model doirasida amalga oshiriladi.

Ilmiy adabiyotlarda texnik va taktik tayyorgarlik o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayon sifatida talqin etiladi. Texnik mahorat futbolchining harakatni sifatli bajarish qobiliyatini ifodalasa, taktik tayyorgarlik esa o‘yin vaziyatini anglash, makon va vaqtni to‘g‘ri baholash, sheriklar bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, individual texnik-taktik harakatlarning samaradorligi jamoaning umumiy o‘yin ko‘rsatkichlariga – to‘p nazorati, hujum tashkil etish sifati, himoyaviy barqarorlik va natijadorlikka ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda futbol tahlilida raqamli texnologiyalar va statistik dasturlardan keng foydalanilmoqda. O‘yin jarayonidagi har bir harakat aniq raqamlar bilan ifodalanib, futbolchining samaradorlik ko‘rsatkichlari baholanmoqda. Shu jihatdan, individual texnik-taktik harakatlar bilan jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv murabbiylarga mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish, futbolchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda taktik modelni takomillashtirish imkonini beradi [1,2].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ko‘plab tadqiqotlar individual yoki jamoaviy ko‘rsatkichlarni alohida o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro funksional bog‘liqligini kompleks tahlil qilish yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, individual harakatlarning bevosita jamoaviy natijadorlikka ta’sir darajasini statistik jihatdan asoslash sport pedagogikasi va nazariyasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot zamonaviy futbolda o‘yin sifatini oshirishning eng dolzarb masalalaridan biri — futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlari (ITH) hamda jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asoslashga qaratilgan. Tadqiqotning bosh maqsadi futbolchilarning maydondagi shaxsiy mahorati jamoaning umumiy g‘alabasiga qanday ta’sir ko‘rsatishini statistik tahlillar yordamida aniqlashdan iboratdir [3,4].

Tadqiqot oldiga bir qator muhim vazifalar qo‘yilgan bo‘lib, ular individual texnik-taktik harakatlar tarkibini aniqlash va ularni muayyan mezonlar asosida tizimlashtirish, jamoaviy o‘yin samaradorligini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlarni belgilash hamda ushbu ikki omil o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni ilmiy tahlil

qilishni o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayonlar yakunida futbol amaliyoti uchun muhim bo‘lgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Tadqiqot gipotezasiga ko‘ra, individual harakatlar sifati va barqarorligi yuqori bo‘lgan jamoalarda umumiy o‘yin samaradorligi ham sezilarli darajada yuqori bo‘lishi taxmin qilinmoqda, bu esa futbol nazariyasi va amaliyoti uchun ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Metodologik jihatdan tadqiqot kuzatuv va analitik yo‘nalishda tashkil etilib, unda korrelyatsion dizayn uslubidan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida yuqori malakali futbol jamoalari tanlab olindi va milliy chempionat doirasidagi 10 ta rasmiy uchrashuvda ishtirok etgan 20 nafar futbolchining ko‘rsatkichlari atroflicha o‘rganildi. Tahlillarning aniqligini ta’minlash va individual harakatlarni amplua kesimida chuqurroq o‘rganish maqsadida ishtirokchilar himoyachilar, yarim himoyachilar va hujumchilar guruhlariga ajratildi. Ushbu tizimli yondashuv har bir pozitsiya vakilining jamoaviy natijaga qo‘shgan hissasini xolis baholash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

1. Ilmiy adabiyotlar tahlili

Futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligi va jamoaviy o‘yin samaradorligi bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar o‘rganildi va umumlashtirildi.

2. Pedagogik kuzatuv

O‘yin jarayonida futbolchilarning harakatlari tizimli ravishda kuzatildi va maxsus protokollarga qayd etildi.

3. Videoanaliz

O‘yinlar videoyozuvlari asosida individual texnik-taktik harakatlar (aniq uzatmalar, dribling, zarbalar, pressing, to‘pni olib qo‘yish va boshqalar) tahlil qilindi. Videoanaliz jarayonida zamonaviy futbol tahlil amaliyotida keng qo‘llaniladigan yondashuvlardan foydalanildi (FIFA tavsiyalariga mos ravishda).

4. Matematik-statistik tahlil

Olingan ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Quyidagi ko‘rsatkichlar hisoblandi:

-O‘rtacha arifmetik qiymat (M)

-Standart og‘ish (SD)

-Variatsiya koeffitsienti (V)

5. Korrelyatsion tahlil

Individual texnik-taktik ko‘rsatkichlar va jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik Pearson korrelyatsiya koeffitsienti (r) yordamida aniqlandi. Bog‘liqlik darajasi quyidagicha baholandi:

- r = 0,1–0,3 — past bog‘liqlik
- r = 0,3–0,7 — o‘rtacha bog‘liqlik
- r = 0,7 va undan yuqori — kuchli bog‘liqlik

Ma’lumotlarning aniqligi va haqqoniyligini ta’minlash maqsadida har bir o‘yin ikki marotaba mustaqil ravishda tahlil qilindi. Natijalar o‘rtasidagi tafovut minimal darajada bo‘lib, bu tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Shu tarzda qo‘llanilgan metodlar futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlari bilan jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda aniqlash imkonini berdi [5,6].

Tadqiqot davomida 10 ta rasmiy o‘yinda 20 nafar futbolchining individual texnik-taktik ko‘rsatkichlari hamda jamoaviy o‘yin samaradorligi mezonlari tahlil qilindi. Olingan natijalar individual harakatlar sifati bilan jamoaviy natijadorlik o‘rtasida statistik ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, aniq uzatmalar foizi yuqori bo‘lgan o‘yinlarda jamoaning to‘p nazorati ko‘rsatkichi ham yuqori bo‘ldi ($r = 0.71$; $p < 0.05$). Bu kuchli musbat korrelyatsiyani anglatadi.

Ikkinchidan, muvaffaqiyatli driblinglar soni va yaratilgan xavfli vaziyatlar o‘rtasida o‘rtacha darajadagi musbat bog‘liqlik aniqlandi ($r = 0.64$; $p < 0.05$). Bu individual ijodkorlik hujum samaradorligiga ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, himoyaviy harakatlar (to‘pni olib qo‘yish va yutib olingan yakka kurashlar) soni bilan o‘tkazib yuborilgan gollar soni o‘rtasida manfiy korrelyatsiya qayd etildi ($r = –0.68$; $p < 0.05$). Bu ko‘rsatkich himoyadagi individual faollik jamoaning himoyaviy barqarorligini mustahkamlashini bildiradi.

Shuningdek, zarbalar aniqligi va urilgan gollar soni o‘rtasida o‘rtacha darajadagi bog‘liqlik ($r = 0.59$; $p < 0.05$) aniqlandi.

Umuman olganda, individual texnik-taktik ko‘rsatkichlar oshgani sari jamoaviy o‘yin samaradorligi ham oshishi kuzatildi.

1-jadval

Individual texnik-taktik ko‘rsatkichlar va jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi korrelyatsiya natijalari

№	Individual ko‘rsatkichlar	Jamoaviy ko‘rsatkichlar	r	p	Bog‘liqlik darajasi
1.	Aniq uzatmalar (%)	To‘p nazorati (%)	0.71	<0.05	Kuchli musbat
2.	Muvaffaqiyatli dribling (soni)	Xavfli vaziyatlar (soni)	0.64	<0.05	O‘rtacha musbat
3.	Zarba aniqligi (%)	Urilgan gollar (soni)	0.59	<0.05	O‘rtacha musbat
4.	To‘pni olib qo‘yish (soni)	O‘tkazib yuborilgan gollar (soni)	–0.68	<0.05	O‘rtacha manfiy
5.	Yutib olingan yakka kurashlar (%)	O‘yindagi yakuniy natija	0.62	<0.05	O‘rtacha musbat

Natijalar tahlilining umumlashtirilgan ko‘rinishi.

Eng yuqori bog‘liqlik aniq uzatmalar va to‘p nazorati o‘rtasida qayd etildi ($r = 0.71$).

Himoyaviy harakatlar bilan o‘tkazib yuborilgan gollar o‘rtasida manfiy bog‘liqlik mavjudligi himoya samaradorligini tasdiqlaydi.

Hujumkor individual harakatlar (dribling, zarba aniqligi) jamoaning natijadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

2-jadval

Individual va jamoaviy ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymatlari (M ± SD)

№	Ko‘rsatkichlar	M (o‘rtacha)	SD (standart og‘ish)	Min–Max
1.	Aniq uzatmalar (%)	84.3	5.8	72–91
2.	Muvaffaqiyatli dribling (soni/o‘yin)	5.6	1.9	2–9
3.	Zarba aniqligi (%)	47.8	6.4	35–59
4.	To‘pni olib qo‘yish (soni/o‘yin)	6.9	2.1	3–11
5.	Yutib olingan yakka kurashlar (%)	58.2	7.3	44–71
6.	To‘p nazorati (%)	53.7	6.1	41–64
7.	Xavfli vaziyatlar (soni/o‘yin)	8.4	2.7	4–14
8.	Urilgan gollar (soni/o‘yin)	1.9	0.8	0–4
9.	O‘tkazib yuborilgan gollar (soni/o‘yin)	1.2	0.6	0–3

Izoh: Ma’lumotlar 10 ta o‘yin asosida hisoblangan.

3-jadval

Amplua kesimida individual texnik-taktik ko‘rsatkichlar (M qiymatlari)

Ko‘rsatkichlar	Himoyachi	Yarim himoyachi	Hujumchi
Aniq uzatmalar (%)	86.5	88.1	78.4
Muvaffaqiyatli dribling (soni)	2.1	6.8	7.4
Zarba aniqligi (%)	18.3	42.7	61.2
To‘pni olib qo‘yish (soni)	8.7	6.2	2.9
Yutib olingan kurashlar (%)	64.5	57.3	49.6

Himoyachilarda himoyaviy harakatlar (to‘pni olib qo‘yish, kurashlar) yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi.

Yarim himoyachilar aniq uzatmalar va dribling bo‘yicha yetakchilik qildi.

Hujumchilarda zarba aniqligi va dribling ko‘rsatkichlari yuqori natija berdi.

Mazkur jadval natijalari individual texnik-taktik harakatlar ampluaga bog‘liq ravishda farqlanishini hamda ularning jamoaviy o‘yin samaradorligiga turlicha ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi [7,8].

Mazkur tadqiqot natijalari futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlari bilan jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar zamonaviy futbol nazariyasi va amaliyotida ilgari surilgan konsepsiyalarni tasdiqlaydi, ya’ni individual mahorat jamoaviy natijadorlikning muhim determinantlaridan biridir.

Birinchidan, aniq uzatmalar foizi bilan to‘p nazorati o‘rtasidagi kuchli musbat bog‘liqlik ($r = 0.71$) shuni anglatadiki, texnik aniqlik jamoaning o‘yinni boshqarish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. To‘pni uzoq vaqt nazorat qilish esa hujumni tizimli tashkil etish, o‘yin tempini boshqarish va raqibni xatoga majbur qilish imkonini beradi. Yuqori saviyadagi musobaqalar, xususan FIFA World Cup uchrashuvlari tahlilida ham to‘p nazorati yuqori bo‘lgan jamoalarning ustunlikka ega bo‘lishi kuzatiladi.

Ikkinchidan, muvaffaqiyatli dribling va yaratilgan xavfli vaziyatlar o‘rtasidagi o‘rtacha darajadagi bog‘liqlik ($r = 0.64$) individual ijodkorlikning hujum samaradorligidagi rolini ko‘rsatadi. Dribling raqib himoyasini buzish, son jihatdan ustunlik yaratish va bo‘sh hudud ochish imkonini beradi. Biroq, natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, driblingning haddan tashqari ko‘p qo‘llanilishi har doim ham yuqori natijaga olib kelmaydi. Demak, individual harakatlar jamoaviy taktika bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilgandagina maksimal samara beradi.

Uchinchidan, himoyaviy ko‘rsatkichlar bilan o‘tkazib yuborilgan gollar o‘rtasidagi manfiy bog‘liqlik ($r = –0.68$) individual himoyaviy harakatlarning jamoaning himoya barqarorligiga sezilarli ta’sirini tasdiqlaydi. To‘pni olib qo‘yish, pressingdagi faollik va yutib olingan yakka kurashlar sonining ortishi raqibning hujum imkoniyatlarini kamaytiradi. Bu jihat zamonaviy futbolning intensiv va agressiv pressingga asoslangan modelida ayniqsa dolzarbdir.

Zarba aniqligi va urilgan gollar o‘rtasidagi o‘rtacha bog‘liqlik ($r = 0.59$) esa yakuniy bosqichda individual ijroning ahamiyatini ko‘rsatadi. Hujumchilar va hujumga qo‘shilayotgan yarim himoyachilarning zarba sifati jamoaviy hujumni natijaga aylantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Amplua kesimidagi tahlil individual texnik-taktik harakatlarning o‘yin pozitsiyasiga bog‘liq ravishda farqlanishini ko‘rsatdi. Himoyachilarda himoyaviy ko‘rsatkichlar ustun bo‘lsa, yarim himoyachilarda uzatma va o‘yin tashkil etish elementlari yuqori, hujumchilarda esa zarba va dribling ko‘rsatkichlari ustunlik qildi. Bu natijalar futbolchilarning funksional vazifalariga mos ravishda maxsus tayyorgarlik zarurligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, natijalar individual va jamoaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiziqli emasligini ham ko‘rsatadi. Ba’zi hollarda yuqori individual statistika jamoaviy muvaffaqiyatni kafolatlamaydi. Masalan, yuqori dribling ko‘rsatkichi past jamoaviy hamkorlik bilan uyg‘unlashganda o‘yin samaradorligi pasayishi mumkin. Demak, individual mahoratni jamoaviy taktika tizimiga integratsiyalash murabbiylik jarayonining asosiy vazifalaridan biridir.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar zamonaviy futbol mashg‘ulotlari tizimini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Xususan, mashg‘ulotlar jarayonida individual texnik usullarni shunchaki alohida element

sifatida emas, balki bevosita jamoaviy taktik vazifalar bilan uzviy integratsiyalashgan holda olib borish lozimligi uqtiriladi. Shuningdek, har bir futbolchining maydondagi ampluasiga xos bo‘lgan maxsus tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish o‘yin sifatini oshirishning muhim omilidir. Futbolchilarning shaxsiy va jamoaviy o‘sish dinamikasini nazorat qilish uchun esa zamonaviy statistik monitoring tizimi asosida muntazam baholash ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq sanaladi.

Shu bilan birga, ilmiy xolislik nuqtai nazaridan tadqiqotning ayrim cheklovlarini ham qayd etish joiz. Olingan natijalarni keng miqyosda umumlashtirishda namuna hajmining nisbatan kichikligi va tahlil qilingan o‘yinlar sonining cheklanganligi ma’lum darajada ehtiyotkorlikni talab qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi izlanishlarni yanada kengroq tanlov asosida, turli darajadagi musobaqalar va turlicha yosh toifalaridagi sportchilar ishtirokida davom ettirish sohaning yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

Umuman olganda, tadqiqot yakunida olingan natijalar ilgari surilgan ilmiy gipotezani to‘liq tasdiqladi: futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlari sifati va barqarorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, jamoaning umumiy o‘yin samaradorligi ham shunchalik ortib boradi. Bu holat shaxsiy mahoratni jamoaviy o‘yin modeli bilan oqilona uyg‘unlashtirish zamonaviy futbol strategiyasining eng ustuvor va hal qiluvchi yo‘nalishi ekanligini yana bir bor isbotlaydi [9,10].

Mazkur tadqiqot futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlari bilan jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratildi va olingan natijalar ilgari surilgan ilmiy gipotezani tasdiqladi. Statistik tahlillar individual ko‘rsatkichlarning jamoaviy natijadorlikka bevosita va sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

Birinchidan, aniq uzatmalar foizi bilan to‘p nazorati o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik aniqlanishi jamoaning o‘yinni boshqarish qobiliyati individual texnik aniqlikka tayanishini tasdiqladi. Bu shuni anglatadiki, uzatma sifati oshgani sari jamoaning o‘yin ustidan nazorati mustahkamlanadi, hujumlar tizimli ravishda rivojlantiriladi va natijadorlik uchun qulay sharoit yaratiladi.

Ikkinchidan, dribling va xavfli vaziyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik individual ijodkorlikning hujum samaradorligidagi o‘rnini ko‘rsatdi. Biroq natijalar individual harakatlar samaradorligi jamoaviy hamkorlik va taktik intizom bilan uyg‘unlashgandagina yuqori natija berishini tasdiqladi.

Uchinchidan, himoyaviy harakatlar bilan o‘tkazib yuborilgan gollar o‘rtasidagi manfiy bog‘liqlik individual himoya faolligi jamoaviy himoya barqarorligining muhim omili ekanini ko‘rsatdi. Bu ayniqsa zamonaviy intensiv futbol sharoitida dolzarb hisoblanadi.

Amplua kesimidagi tahlillar futbolchilarning individual texnik-taktik harakatlari ularning funksional vazifalariga mos ravishda farqlanishini ko‘rsatdi. Himoyachilar ko‘proq himoyaviy ko‘rsatkichlar, yarim himoyachilar o‘yin tashkil etish elementlari, hujumchilar esa yakunlovchi harakatlar bo‘yicha yuqori natija qayd etdilar. Bu esa mashg‘ulot jarayonini ampluaga yo‘naltirilgan differensial yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, individual texnik-taktik harakatlar va jamoaviy o‘yin samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik kompleks ravishda statistik jihatdan asoslab berildi. Olingan natijalar sport pedagogikasi va futbol nazariyasini boyitadi hamda murabbiylik faoliyatida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, individual texnik-taktik harakatlar sifati va barqarorligi jamoaviy o‘yin samaradorligining muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy futbol sharoitida yuqori natijaga erishish individual mahoratni jamoaviy o‘yin modeli bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bangbo Huijgen, Ruud J. Elferink-Gemser, Chris Visscher Soccer skill development in talented youth players. Journal of Sports Sciences, 27(5), 1–8. 2009.

2.Carlo Castagna, Franco Impellizzeri, Ermanno Rampinini Physiological and performance characteristics of soccer players. Journal of Strength and Conditioning Research, 21(2), 1–9. 2007.

3.Rafael Pol Tactical periodization in football training. Barcelona: MC Sports. 2011.

4.Raymond Verheijen Football Periodisation. Amsterdam: World Football Academy. 2014.

5.FIFA FIFA Technical Study Group Report: 2018 FIFA World Cup Russia™. Zurich: FIFA. 2018.

6.UEFA UEFA Champions League Technical Report. Nyon: UEFA. 2020.

7.Jens Bangsbo Fitness Training in Football – A Scientific Approach. Copenhagen: HO+Storm. 1994.

8.Mike Hughes, Ian Franks Analysis of passing sequences, shots and goals in soccer. Journal of Sports Sciences, 23(5), 509–514. 2005.

9.Jan Van Winckel Soccer Tactical Periodization. Leuven: Soccer Tutor. 2014.

10. Futbol nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti. 2020.

UDK 373.2:001.895

Maxmudova O.A.,
PROFI UNIVERSITY "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi
professori v.b. (PhD)

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA IJODIY MUHITNI YARATISH (STEAM TA'LIM ASOSIDA)

Annotatsiya. Ushbu yakuniy loyiha ishi maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishda ijodiy muhitning ahamiyati va bu muhitni yaratishda STEAM ta'lim yondashuvi asosida ijodiy muhitning o'rni yoritilgan. Tadqiqotda ijodiy muhit tushunchasi, uning bola shaxsiga ta'siri, shuningdek, Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi 28-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida amaliyotga tatbiq etilgan tajribalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: muhit, ijodiy muhit, bola shaxsi, STEAM ta'lim, maktabgacha ta'lim, metodologiya, rivojlanish, innovatsiya.

СОЗДАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ВСЕСТОРОННЕГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА (НА ОСНОВЕ STEAM-ОБРАЗОВАНИЯ)

Аннотация. В статье подчеркивается важность творческой среды для всестороннего развития личности детей дошкольного возраста и роль образовательного подхода STEAM в создании этой среды. В исследовании анализируется понятие творческой среды, ее влияние на личность ребенка, а также опыт, реализованный в дошкольной образовательной организации № 28 Алтиарыкского района Ферганской области.

Ключевые слова: среда, творческая среда, личность ребенка, STEAM-образование, дошкольное образование, методология, развитие, инновации.

CREATING A CREATIVE ENVIRONMENT FOR THE ALL-AROUND DEVELOPMENT OF A PRE-SCHOOL CHILD'S PERSONALITY (BASED ON STEAM EDUCATION)

Abstract. This article highlights the importance of a creative environment in the comprehensive development of the personality of preschool children and the role of the STEAM educational approach in creating this environment. The study analyzes the concept of a creative environment, its impact on the child's personality, as well as the experiences implemented in preschool educational organization No. 28 in the Oltiariq district of Fergana region.

Key words: environment, creative environment, child personality, STEAM education, preschool education, methodology, development, innovation.

Zamonaviy ta'lim jarayonida bola shaxsining har tomonlama, uyg'un va izchil rivojlanishi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi bolaning shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy-hissiy jihatlari, ijodiy salohiyati va kognitiv qobiliyatlari shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki bola o'zining psixologik, ijtimoiy va estetik rivojlanishida aynan 3-7 yosh oralig'ida asosiy bosqichlarni bosib o'tadi. Shu boisdan, bu davrdagi tarbiya va ta'lim sifati, pedagogik yondashuvlar va eng muhimi – bola yashaydigan va o'rganadigan muhit qanday tashkil etilgani bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik adabiyotlarda "muhit" tushunchasi keng talqin qilinadi.

Muhit – bu bola yashaydigan, rivojlanadigan, o'zaro muloqot qiladigan, bilim va ko'nikmalarni egallaydigan ijtimoiy-madaniy makon sifatida qaraladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ijodiy muhit yaratish va STEAM ta'limi metodologiyasini tatbiq etish bo'yicha turli ilmiy-tadqiqotlar va pedagogik nazariyalar asosida rivojlanayotgan yondashuvlarni joriy etish masalasi dolzarb tobora dolzarb bo|lmoqda. STEAM ta'limining samarali joriy etilishi uchun pedagoglar tomonidan qo'llaniladigan metodlarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish, tarbiyachining bolalarga bo'lgan yondashuvi, o'quv muhitining tashkil etilishi va pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatlarini namoyon qilish kasb etmoqda.

Muhit faqatgina fizik joy emas, balki unda mavjud bo'lgan psixologik, axloqiy, estetik, texnologik va madaniy omillar majmuidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mavjud bo'lgan muhit bola faolligi, mustaqilligi, tafakkuri va ijodiy salohiyati shakllanishida asosiy determinant sifatida e'tirof etiladi. Ammo har qanday muhit bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlay olmaydi. Faoliyatga yo'naltirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega, imkoniyatlar bilan to'yingan, qiziqarli va qamrovli, eng muhimi, ijodiy muhitgina bolaning intellektual va shaxsiy o'sishiga xizmat qiladi.

Ijodiy muhit – bu bolaning ichki dunyosini erkin ifodalashga, tajriba qilishga, sinab ko'rishga, savol berishga, g'oya ilgari surishga va uni amalda ko'rsatishga imkon beruvchi pedagogik makon hisoblanadi. Bunday muhitda bola o'zini "erkin ijodkor" sifatida his etadi. Shu jihatdan, ijodiy muhitni shakllantirish – bu shunchaki xonalarni rangli dekor bilan bezash emas, balki bolaning tafakkurini o'stiruvchi, izlanishga undovchi, ijtimoiy o'zaro ta'sirga boy muhitni yaratishdir.

Bu borada ijodiy muhitning zamonaviy yondashuvi – STEAM ta'lim modeli muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv bolalarning tabiiy qiziqishlarini ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bilan uyg'unlashtirib, ularni real hayotga tayyorlaydi. Shu orqali ta'lim jarayoniga texnologik va san'at elementlari qo'shilib, ijodiy muhit vujudga keladi. Masalan, oddiy qurilish kublari bilan o'ynab, bola fizik qonuniyatlarni o'rganadi, muhandislik g'oyalarini sinab ko'radi va estetika orqali o'z ifodasini topadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida bugungi holatga ko'ra 2 milliondan ortiq maktabgacha yoshdagi bolalar mavjud bo'lib, ularning 65% dan ortig'i maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanmoqda. Bu raqamlar davlat

siyosatida maktabgacha ta'lim sifatini takomillashtirishga qaratilgan meyoriy-xuquqiy chora-tadbirlar belgilangan:

1. 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-sonli qarorda maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ijodkor avlodni shakllantirish maqsadida yangi metodikalar joriy etilishi belgilandi;
2. 2020-yilda "STEAM yondashuvini tajriba-sinov asosida joriy qilish" farmoyishi asosida 15 ta MTTda loyiha amalga oshirildi;
3. 2021-yil 15-martdagi Prezident farmoni bilan ilm-fan va ijodiy yondashuvlarni integratsiyalash zarurati belgilanib, pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi;
4. 2023-yilda "Ijodiy rivojlanish muhitini shakllantirish bo'yicha konsepsiya" ishlab chiqildi.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalar, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisoblanadi.

Muhitni ijodiy muhitga aylantirish – bu bir martalik loyiha emas, balki bosqichma-bosqich transformatsiya jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonda pedagoglar, ota-onalar, psixologlar, shuningdek, infratuzilmani yaratishda ishtirok etuvchi mutaxassislarning hamkorligi zarur. Muhitning har bir elementi: makon dizayni, jihozlar, yoritish, tovush muvozanati, ochiq materiallar, o'z-o'ziga xizmat elementlari, interaktiv resurslar va erkinlik darajasi ijodiy yondashuvlar uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida ijodiy muhit yaratish, STEAM ta'limi asosida amalga oshiriladigan ta'lim jarayonining samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy muhit nafaqat bola ta'limida, balki uning shaxsiy rivojlanishida ham muhim o'rin egallaydi. Bolalar o'zlarini har tomonlama rivojlantirishlari uchun to'g'ri pedagogik metod va yondashuvlar kerak, shu bilan birga, muhitning o'zi ham bolalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak. Shu sababli, bu bo'limda ijodiy muhit va STEAM ta'limi tizimi haqida ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi.

Bolaning rivojlanishida ijodiy muhitning rolini tahlil qilishda ko'plab olimlar muhitning bola ta'limi va psixologiyasiga ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, Lev Vigotskyning "Sotsial rivojlanish nazariyasi" muhitning bola rivojlanishida qanchalik katta rol o'ynashini o'rganadi. Vigotskiy ijodiy muhitni bolaning kognitiv rivojlanishida muhim omil deb biladi, chunki bola faqat o'zini o'zi tashkil eta olmaydi, balki jamiyat bilan o'zaro ta'sir orqali rivojlanadi. Vigotskiy ta'kidlaganidek, "Bola jamiyat bilan o'zaro aloqada bo'lish orqali o'rganadi, bu jarayonning asosiy qismini ijodiy muhit tashkil etadi."

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimida so'nggi yillarda STEAM yondashuvini joriy etishda katta o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Jumladan, 2019-yilgi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha

ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, mamlakatda maktabgacha ta'limda STEAM metodlarini amaliyotga kiritishga katta e'tibor qaratdi. Bu qarorda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi pedagogik metodlar va yondashuvlarni qo'llash, shuningdek, bolaning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar ko'rsatilgan. Ushbu qaror O'zbekistonda STEAM ta'limining tizimli tarzda joriy etilishining boshlanishini anglatadi.

So'nggi yillarda olimlar tomonidan muhit va ijodiy muhit o'rtasidagi farqlar chuqur tahlil qilinmoqda. Masalan, amerikalik pedagog H.Drydenning fikricha, har bir bola "kashfiyotchi va ijodkor" bo'lib tug'iladi, biroq uning atrofidagi muhit bu tabiiy salohiyatni rivojlantiradi yoki susaytiradi. O'zbekistonlik pedagog olimlar, jumladan M.Xodjayev va M.Murodovaning tadqiqotlarida ham, bolalar ijodkorligini rivojlantirishda muhitning ochiqligi, erkinligi va xavfsizligi alohida o'rin tutishi ta'kidlanadi.

STEAM ta'limida bolalarning harakatli, eksperimental faoliyati (tajriba, qurilish, konstruksiya) ularning ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Aleksey Vladimirovich Zaporojes bolalar psixologiyasida faoliyat nazariyasi asoschilaridan biri hisoblanib, harakat-bilim uyg'unligi bu jarayonga nazariy asos berdi. U bola tafakkuri va harakat o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan. Unga ko'ra, bola fikrlashi harakatlar orqali shakllanadi. Bola sensorli vositalardan foydalanib fizik tajriba o'tkazadi – harakat orqali u atrofni bilib oladi.

M.Montessori metodikasi asosida tashkil etilgan muhitda bola o'zini mustaqil boshqaradi: o'z faoliyatini tanlaydi, uni bajarguncha yakunlamaydi va mustaqil baho beradi. Bu esa, bola fikrlashining chuqurlashuviga, o'z fikrini ifoda qilishiga va o'zining noyob qobiliyatlarini kashf etishiga olib keladi.

Hovard Gardnerning "Ko'p tomonlama intellektual nazariyasi" nomli risolasida: "ijodiy muhit – bola intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi" deb ta'kidlaydi. U ko'p tomonlama intellektual qobiliyatlar — musiqa, matematik, logik va vizual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar turli xil muhitda ishlashlari kerakligini ta'kidladi. Gardnerning nazariyasiga ko'ra, har bir bola o'ziga xos intellektual salohiyatga ega, shuning uchun turli xil ta'lim yondashuvlari va metodikalar bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun zarur. Ijodiy muhit bolaning har bir turdagi intellektual salohiyatini ochib beradi va shuningdek, bolalarni yangi g'oyalar bilan tanishtiradi.

Ismoilov N. va A.Abduqodironing 2021-yildagi tadqiqotida, O'zbekistonning turli hududlaridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM yondashuvining amaliyotga tatbiqi bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, mustaqil fikrlashni oshirishga va umumiy ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam berganligi ko'rsatilgan. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, STEAM yondashuvi nafaqat bolalarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirdi, balki ularning individual va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantirdi.

Zinaida Mixailovna Istomina bolaning o'quv faoliyati shakllanishi va muammo hal qilish ko'nikmalarini erta yoshdan rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan. U o'yin orqali bilimlarni mustahkamlashni qo'llab-quvvatlagan. STEAM ta'limida bolalarga yo'l-yo'riqli topshiriqlar (masalan, muammo qo'yish, model yasash)

berish Istomina yondashuviga mos keladi. Uning ishlari orqali maktabgacha ta'limda bilimni ongli o'zlashtirishni asoslash mumkin. Bolalarga berilgan "suvni tozalash" loyihasida ular sabab-oqibatni tahlil qiladi, muammo yechimini topishga urinadi.

L.A.Venger bola tafakkuri, diqqat, xotira va sezgi organlari asosida rivojlanishini o'rganib, kognitiv rivojlanishning zamonaviy psixologiyasiga asos solgan. U individual qobiliyatlarni aniqlash va ularni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqqan. STEAM ta'limda diqqatni jamlash, tasavvur qilish, mantiqiy ketma-ketlikni saqlash muhim. Vengerning bu boradagi ishlari amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirishda foydalaniladi. Bolaning tasviriy faoliyatida ranglar uyg'unligi, shakllarni farqlash qobiliyati Venger metodikasi bilan rivojlanadi.

Aleksandr Grigoryevich Asmolov innovatsion ta'lim, psixologik barqarorlik, va individual rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqqan zamonaviy psixolog bo'lib, ta'limda moslashuvchanlik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ilgari suradi. STEAM metodikasi individual yondashuv, qiziqishlar va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Asmolov bu jihatlarni ta'limdagi asosiy yo'nalish deb biladi. Bolalarning qiziqishi asosida guruhga ajratish va loyiha ishlarini tashkil etish — Asmolov yondashuviga mos yondashuvdir.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, and Mathematics) ta'limi bolalarni nafaqat alohida fanlar bo'yicha bilim olishga, balki bu bilimlarni bir-biriga bog'lab, amaliyotda qo'llashga o'rgatadi. STEAM yondashuvi bilimning birlashtirilgan bo'lishi, interdisipliner o'rganish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon yaratadi. STEAM yondashuvini amalga oshirishda ham ilmiy, ham amaliy tajriba muhitlari tashkil etiladi, bu esa bolalarga turli sohalarda o'z fikrlarini sinab ko'rish imkonini beradi. Katherine O'Donnellning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, STEAM metodikasi bolalar uchun ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda juda samarali, chunki u bolalarga amaliy mashg'ulotlar orqali o'rganish imkonini beradi.

Ushbu yondashuvning asosiy afzalliklaridan biri, bolalarni keng qamrovli, multidissiplinar bilimlarni o'zlashtirishga undashi va faqat aniq sohalarga emas, balki ijtimoiy va madaniy masalalar bilan ham bog'lash imkoniyatini beradi. Masalan, biron bir ilmiy eksperimentni o'tkazish bolalarga nafaqat ilmiy bilimlarni, balki yaratuvchanlik va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

John Deveyning pedagogik yondashuvlari, o'z navbatida, bolalarning o'z tajribalari orqali o'rganishiga katta urg'u beradi. Dewey, shuningdek, tajriba orqali o'rganishni pedagogikaning asosi sifatida ko'radi va STEAM yondashuvi Deveyning metodologiyasiga to'liq mos keladi. Deweyning nazariyasi bo'yicha, bola faqat o'rganish bilan cheklanmaydi, balki o'rganish jarayonida faol ishtirok etadi, va bu jarayonda ijodiy fikrlash va yangiliklarni kiritish mumkin bo'ladi.

Ijodiy muhitni shakllantirishda pedagogik metodlarning o'rni katta. Jan Piajet va Jerome Brunerning kognitiv rivojlanish nazariyalarida ijodiy muhitning o'rni muhim deb ta'kidlanadi. Piajet, bolalar o'z faoliyati orqali bilimlarni o'zlashtirishadi, va bunday o'rganish jarayonida muhitning ta'siri juda katta ekanini ta'kidlaydi. Bruner esa, bolalar tajriba orqali o'rganishadi va o'rganish jarayonida ularning faol ishtiroki kerak, deb hisoblaydi. Bu nazariyalar STEAM ta'limi asosida

o‘rganish jarayonlarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Kolbning tajriba o‘rganish nazariyasida esa bolalar faol ishtirok etib, tajriba va nazariyani birlashtirish orqali o‘rganishadi.

Pedagogika fanlar nomzodi, professor v.b. O.A.Maxmudova “Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasvisiy faoliyatga o‘rgatish metodikasi” nomli dissetatsiyasida: “Tasviriy faoliyatga o‘rgatishda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan talablar va “San’at” markazidagi ta’limiy faoliyat maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kelajakdagi ta’limiy faoliyat maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kelajakdagi ish konsepsiyasini aniqlash qobiliyati, tasviriy va ekspessiv vositalar, texnik xarakterdagi ko‘nikmlar “qo‘lda ishlash mahorati”, o‘zining taassurotlarini ifoda etadigan (ARTni o‘rgatish jarayoni) majmuaviy yondashuvlar asosida takomillashtirilgan” deb ta’kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijodiy muhit yaratishda STEAM yondashuvini tatbiq etish bolalar uchun nafaqat ilmiy, balki shaxsiy rivojlanishda muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’limda STEAM metodikasi bolalar uchun ijodiy yondashuvni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va jamoaviy faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratadi. O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida STEAM yondashuvining muvaffaqiyatli tatbiqi bolalar uchun innovatsion pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi. Bunday pedagogik yondashuv bola shaxsini har tomonlama rivojlanishiga muhim ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Metodologiya: Ijodiy muhitni STEAM ta’limining “Art” (San’at) yo‘nalishi doirasida tasviriy faoliyatni rivojlantirish**,** bolalarda ijodiy tafakkur, vizual kuzatuvchanlik, va muammoli vaziyatga ijodiy yechim topish qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida biz tomondan “Rasmning ikkinchi yarmini top”, “6 doira” metodikalari qo‘llanildi.

Metodika mazmuni: Ushbu mashqda bolalarga oldindan tayyorlangan, faqat chap yoki o‘ng tomoni chizilgan simmetrik rasm (masalan, yarmi chizilgan uy, odam chehrasi, daraxt va boshqalar) beriladi. Bola ushbu rasmning ikkinchi yarmini loyihalash orqali tasvir yaratadi. (1-ilova)

Maqsad:

- Bola rasmning ikkinchi yarmini loyihalash orqali tasvirini yakunlaydi.
- Kompozitsion tafakkur (butunlikni anglash) jarayoni shakllanadi.
- Vizual kuzatuvchanlik va noan’anaviy fikrlash rag‘batlantiriladi.

Ijodiy elementlar: Ushbu metodikaning afzalligi shundaki, bola rasmning ikkinchi yarmini faqat nusxa ko‘chirish tarzida emas, balki ijodiy elementlar bilan boyitib yakunlaydi. Masalan, oddiy yarim daraxtni rang-barang mevalar bilan, yarim uy maketini esa o‘z tasavvuriga ko‘ra bezaklar bilan to‘ldiradi.

Qanday amalga oshiriladi?

1. Har bir bolaga yarmi chizilgan rasm tushirilgan qog‘oz beriladi.
2. Bola rasmning qolgan qismini loyihalash asosida chizadi.
3. Ish yakunida har bir bola o‘z ishi haqida qisqacha hikoya qiladi — bu esa nutq faoliyati va fikrni ifodalash ko‘nikmalarini ham rag‘batlantiradi.

2-metodning nomi: “6ta doira” (2-ilova) metodi bolalar tasavvurini, chizish texnikasi, ranglarni tanlash, kompozitsiya yaratish, doira shaklini qandaydir bir

predmetlarga o‘xshatish, qo‘l matorikasining rivojlanganligi tasvirni ifodalash metodi hisoblanadi.

Metodika mazmuni: “6 ta doira metodi” bolalarning ijodiy fikrlashini, tasavvurini va qo‘l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan mashq bo‘lib, bolalarga 6 ta oddiy doira shakli beriladi. Har bir doirani o‘z tasavvurlari asosida turli predmetlarga aylantirish vazifasi topshiriladi. Bu metod bolalarda shakl va obrazlar o‘rtasida bog‘lanish hosil qilish, erkin fikrlash va estetik didni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maqsad:

- Bolalarda ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish.
- Mayda motorika (qo‘l harakati)ni kuchaytirish.
- Shakl va predmetlar orasidagi bog‘liqlikni anglash.
- Estetik did va tasviriy san’atga qiziqishni oshirish.
- Bolaning o‘z fikrini tasvir orqali ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish.

Ijodiy elementlar:

Oddiy geometrik shaklni (doirani) o‘zgartirib yangi obraz yaratish.

Rang, chiziq, to‘ldirish usullari orqali erkin tasvirlash.

Har bir bola o‘z fantaziyasiga tayanib, betakror obrazlar yaratadi.

Har bir tasvir ortida o‘ziga xos hikoya yoki ma’no yotadi.

Qanday amalga oshiriladi:

1. Tarbiyachi bolalarga 6 ta doira chizilgan qog‘oz tarqatadi.
2. Bolalarga topshiriq beriladi: har bir doirani o‘zlarining tasavvuriga ko‘ra qandaydir predmet, obraz, hayvon, meva va boshqalarga aylantiradilar.
3. Bola doira ichiga chizadi, bo‘yaydi, rasmga qo‘shimchalar qo‘shadi.
4. Ish yakunida har bir bola o‘z rasmlarini tushuntirib beradi (og‘zaki izoh orqali).
5. Tarbiyachi har bir bolaning ishini qadrlaydi va rag‘batlantiradi.

Maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvini qo‘llash orqali yaratilgan ijodiy muhit bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida turli uslubiy tajribalar, kuzatuvlar, diagnostik testlar va eksperimental mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Ular orqali ijodiy muhitda tarbiyalanuvchilarning intellektual, hissiy, kommunikativ va kognitiv qobiliyatlari qanday o‘zgargani tahlil qilindi.

Birinchi navbatda shuni ta’kidlash kerakki, ijodiy muhit bola uchun ochiq, qulay, xavfsiz va rag‘batlantiruvchi makon bo‘lishi shart. Bu muhitda bola erkin tajriba o‘tkaza oladi, o‘z fikrini ifoda eta oladi, muvaffaqiyatsizlikdan cho‘chimaydi va yangi g‘oyalar bilan chiqishdan tortinmaydi. STEAM komponentlarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning bilimlarni integratsiyalash orqali anglash darajasini yuqori bosqichga olib chiqdi.

Hamkorlikda ishlash va sotsial ko‘nikmalar: Guruhli ishlarga asoslangan topshiriqlarda bolalar o‘zaro fikr almashish, rollarni taqsimlash, vazifalarni birgalikda bajarish, muammolarni birga hal qilish kabi sotsial ko‘nikmalarni egalladilar. Bu esa bolalarning liderlik, tashabbuskorlik, boshqalarni tinglash va hurtkytmat qilish kabi ijtimoiy jihatdan muhim fazilatlarini shakllantirdi.

Tadqiqot doirasida tanlab olingan tajriba maydoni sifatida Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani 28-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida STEAM ta’limi asosida ijodiy muhit yaratish tajribasi amaliyotga joriy etildi. Ushbu tashkilot har yili o‘rtacha 80–90 nafar bolaga ta’lim-tarbiya beradi va unda malakali pedagoglar faoliyat yuritadi. Tadqiqot eksperimental va nazorat guruhlariga ajratilgan holda olib borildi. Eksperimental guruhda STEAM yondashuviga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy dastur asosida darslar olib borildi.

Amaliy bosqichda quyidagi asosiy chora-tadbirlar amalga oshirildi:

Ijodiy muhit tashkil etildi: Guruh xonalarida bolalar uchun ochiq va erkin harakatlana oladigan, suratlar chizishda qiyinchiliklar tug‘dirmasligi uchun mos maydonlar ajratildi. Rangli qalamlar, qora qalam va o‘chirg‘ichlar, qalamlar uchini chiqarish uchun vositalari bilan boyitilgan muhit shakllantirildi.

Tadqiqot doirasida Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanidagi 28-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba jarayonida eksperimental guruhga STEAM ta’limining "Art" (san’at) yo‘nalishi asosida ikki muhim metodika — "Rasmning ikkinchi yarmini top" va "6 ta doira" metodikasi qo‘llanildi. Ushbu metodikalar bola shaxsining ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, tasavvur va tafakkurni faollashtirish, qo‘l harakati bilan aqliy faoliyatni integratsiya qilish imkonini berdi.

“Rasmning ikkinchi yarmini top” metodikasi bolalarning kompozitsion tafakkurini, vizual kuzatuvchanligini, shakllar butunligini anglash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Eksperimental guruhdagi 24 nafar boladan 20 nafari (83%) rasmni faqat nusxa ko‘chirish emas, balki o‘ziga xos, ijodiy elementlar bilan boyitib yakunladi. Bu ularning kompozitsion tafakkur va tasviriy kuzatuvchanligi yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

80% bola rasmni o‘zgacha yondashuvda yakunladi (masalan, daraxtga turli mevalar, uyga rangli poydevor, deraza romlariga naqshlar).

Ota-onalarning fikricha, mashg‘ulotdan so‘ng bolalar uyda mustaqil ravishda rasm chizishga bo‘lgan qiziqishi oshgan.

Tarbiyachilar bu metodikani bolaning individual ifoda va vizual tafakkurini rivojlantiruvchi samarali usul sifatida baholadilar.

“Rasmning ikkinchi yarmini top” metodikasi natijalari – jadval

№	Ko‘rsatkichlar	Natija (%)	Izoh
1	Bolalarning metodikaga qiziqishi	100%	Barcha bolalar faol ishtirok etdi
2	Bolalarning o‘zgacha yondashuv (ranglar, bezaklar, qo‘shimcha elementlar)	80%	Ko‘pchilik bolalar rasmni o‘ziga xos tarzda yakunladi

3	Ota-onalarning fikri: bolalar mustaqil rasm chizishni boshladi	Ijobiy	Uy sharoitida rasm chizishga bo‘lgan qiziqish ortdi
4	Pedagoglar bahosi: metodika ijodiy va mantiqiy tafakkurni birlashtiradi	Yuqori	Metodika dars samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida tan olindi

“6 ta doira” metodi esa bolalarda oddiy shakllar asosida yangi obrazlar yaratish orqali tasavvur, fantaziya, vizual tahlil va kognitiv moslashtirish salohiyatini rivojlantirdi. Natijalarda quyidagilar qayd etildi:

24 nafar bolaning 22 nafari (92%) oddiy doira shakllarini o‘z ijodiy tafakkuriga asoslanib turli obrazlarga aylantira oldi. Ular orasida quyidagilar kuzatildi: doirani qushga, gulga, quyoshga aylantirish, bir nechtasini kompozitsiya shaklida birlashtirish.

Bolalarda mayda motorika bilan bir qatorda estetik tasavvur va erkin ifoda qilish ko‘nikmalari shakllandi.

Tajriba davomida 75% bola har bir chizgan obrazi haqida qisqacha hikoya qila oldi, bu esa ularning nutq faoliyati va og‘zaki tafakkuri rivojlanayotganini ko‘rsatdi.

Tarbiyachilar tomonidan bu metodika fantaziya, shakllarni tahlil qilish, va assotsiativ fikrlashni rag‘batlantiruvchi muhim vosita sifatida baholandi.

Ushbu ikki metodika asosida amalga oshirilgan pedagogik tajriba shuni ko‘rsatdiki, STEAM ta’limining “Art” (san’at) yo‘nalishidagi faoliyatlar nafaqat ijodiy tafakkur va tasviriy ifoda, balki loyihalash, tahlil qilish, noan’anaviy yondashuv, va sotsial-kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

“6 ta doira” metodikasi natijalari – Jadval

№	**Kuzatuv mezoni**	**Natija (%)**	**Izoh**
1	Bolalarning metodikaga bo‘lgan qiziqishi	95%	Bolalar topshiriqni mamnuniyat bilan bajargan, faol ishtirok etgan
2	Ijodiy elementlardan foydalanish (fantaziya, ranglar, obrazlar)	88%	Har bir bola o‘ziga xos tasvir va tafakkur elementlarini ishlatgan
3	Geometrik shakl va real predmet	80%	Bolalar doiralarni turli

	o‘rtasida bog‘liqlikni tushunish		obrazlarga aylantira olishgan
4	Mayda motorika (qo‘l harakati) rivojlanishi	85%	Rang tanlash, shakllar chizish orqali motorika faolligi oshgan
5	Bolaning og‘zaki izohlash va fikrini ifoda eta olish darajasi	78%	Har bir bola o‘z chizgan rasmini og‘zaki tushuntira olgan
6	Estetik did va san’atga qiziqishining oshishi	82%	Bolalar rasmlariga estetik yondashgan, kompozitsion jihatlarga ahamiyat bergan
7	Pedagog va ota-onalar fikricha, bola mustaqil tasvir faoliyatiga qiziqishi	90%	Uyda ham o‘z tasviriy faoliyatini davom ettirganlar bo‘lgan

Shu bilan birga, ota-onalarning maktabgacha ta’limdagi ishtiroki ham faollashdi, loyiha ishlanmalarini qo‘llab-quvvatladilar va uyda ham kreativ faoliyatlarni davom ettirishga intildi. Bu holat o‘z-o‘zidan bola uchun uzviy rivojlanish muhitining kengayishiga olib keldi.

Umuman olganda, 28-DMTTda STEAM asosidagi ijodiy muhitning amalga joriy etilishi ta’lim-tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirish, bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojini jadallashtirishda muhim omil bo‘ldi. Ushbu tajriba boshqa maktabgacha ta’lim muassasalari uchun ham namunaviy model sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi inson kapitalining eng muhim shakllanish bosqichi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh – bu bolaning psixologik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishidagi eng muhim davr bo‘lib, bu bosqichda yaratilgan muhit va ta’lim metodlari butun hayoti davomida uning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ijodiy muhitni shakllantirish, unga STEAM ta’lim yo‘nalishlarini joriy etish — bu zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda olib borilgan tajriba va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy muhit bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda juda muhim omil hisoblanadi.

An'anaviy metodlar asosan bilimlarni berishga yo'naltirilgan bo'lsa, STEAM yondashuvi esa bilim, ko'nikma, ijodiy yondashuv va amaliyotning uzviy bog'liqligiga asoslanadi. Bu esa bolalarda nafaqat bilim olish, balki o'sha bilim asosida yangi narsalarni yaratish, kashf qilish, o'z tajribasini o'rganish orqali rivojlanish imkoniyatini beradi.

Ijodiy muhit bolani nafaqat tashqi dunyoni anglashga, balki o'zini anglash, o'z qiziqishlarini topish, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu muhitda bola o'rganishni majburiyat sifatida emas, balki zavq bilan bajariladigan ijodiy faoliyat sifatida qabul qiladi. Aynan STEAM metodikasi ushbu imkoniyatlarni taqdim etadi: tabiatni anglash (science), texnologiyalar bilan tanishish (technology), texnik tafakkurni rivojlantirish (engineering), estetik dunyoqarash va tasavvurni kuchaytirish (art), mantiqiy fikrlashni o'stirish (mathematics) — bularning barchasi bola shaxsini har tomonlama shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar davomida aniqlanganki, Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi 28-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM asosida tashkil etilgan muhitda bolalar an'anaviy bog'chaga qaraganda ancha faolligi bilan ajralib turdi. Bolalar orasida o'z fikrini ochiq aytadiganlar, jamoada ishlashga qiziqqanlar, savol berish va javob topish bilan shug'ullanuvchilar soni ortdi. Eksperiment natijalariga ko'ra, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlari 83% ga, ijtimoiy muloqot ko'nikmalari 90% ga oshgan, muammoni hal qilishda mustaqillik 1,5 baravar yaxshilangan. Bularning barchasi ijodiy muhitning samaradorligini amalda tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy muhitni yaratish va STEAM ta'lim yondashuvini maktabgacha ta'limga integratsiyalash – bu oddiy bir uslubiy yangilik emas, balki butun ta'lim tizimining kelajagini belgilab beruvchi strategik yondashuv hisoblanadi. Ushbu Yakuniy loyiha ishi ko'tarilgan masalalar, taqdim etilgan tahlillar va amaliy tajribalar shuni isbotlaydiki, kreativ, tanqidiy va mustaqil fikrlovchi shaxsni voyaga yetkazish aynan maktabgacha bosqichda boshlanadi. Shu bois, davlat, jamiyat va ta'lim tashkilotlari birgalikda bu boradagi sa'y-harakatlarini yanada kuchaytirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu asosda quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. *Maktabgacha ta'lim davlat standartlariga ijodiy muhit bo'yicha alohida bo'lim kiritilishi* – bu orqali ijodiy faoliyat, STEAM komponentlari, erkin o'yin va loyihalash asoslari metodik jihatdan mustahkamlanadi.

2. *Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "STEAM makonlari" tashkil etilishi* – bu hududlar laboratoriyalar, mini-verkshatalar,[1] konstruktor zonalari va san'at burchaklaridan iborat bo'lib, bolalar erkin tajriba o'tkazish, loyihalar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. *Pedagoglar uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish* – STEAM asosida mashg'ulotlar tashkil eta olish ko'nikmasi har bir tarbiyachi uchun zarur bo'ladi. Bu kurslar orqali innovatsion metodlar, robototexnika elementlari, muammoli ta'lim texnologiyalari o'rgatiladi.

[1] "Mazkur tadqiqotda **mini-verkshatalar (qisqa muddatli amaliy mashg'ulotlar)** orqali bolalarning ijodiy tafakkuri va san'atga qiziqishi rivojlantirildi."

4. *Ijodiy muhitni oilaviy ta'lim bilan integratsiyalash* – ota-onalar bilan STEAM asosida loyiha mashg'ulotlarini tashkil etish, "Ijodiy oila" tanlovlari, hamkorlikda tajriba o'tkazish kabi tashabbuslar bolaning uy va bog'cha muhitidagi uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

5. *Mahalliy sharoitga mos, milliy qadriyatlar asosida yaratilgan STEAM resurslarini ishlab chiqish* – ta'lim materiallari faqat xorijiy emas, balki o'zbek pedagogikasi, xalq ijodi, tabiiy sharoitlar asosida ishlab chiqilishi kerak. Bu bolalarda madaniy identifikatsiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

6. *Tajriba maktabgacha ta'lim tashkilotlari bazasida respublika miqyosida innovatsion klasterlar tashkil etish* – bu joylarda ilg'or tajriba, STEAM dasturlarini sinovdan o'tkazish, o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish va ommalashtirish bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yiladi.

7. *Bola shaxsini baholashda ijodiy yondashuvga asoslangan indikatorlar joriy etish* – hozirgi baholash tizimlari asosan bilim darajasiga qaratilgan bo'lib, ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash, muammoga yondashuv kabi ko'nikmalar baholanishsiz qolmoqda. Shu boisdan, STEAM asosidagi ijodiy faoliyatni hisobga oladigan baholash indikatorlari ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi zarur.

8. *Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirish* – maktabgacha ta'limda STEAM va ijodiy muhitga oid aniq metodik ko'rsatmalar, me'yoriy talablar, qamrov indikatorlari va monitoring mexanizmlarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning yaratilishi dolzarbdir.

Yuqoridagi takliflar maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy muhitda ulg'aygan bola mustaqil fikrlashga, muammoni hal qilishga, yangi g'oyalarni ilgari surishga va eng muhimi, o'ziga ishonishga o'rgatiladi. Shunday sharoitda voyaga yetgan avlod esa zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, innovatsion va kreativ fikrlaydigan shaxs bo'lib shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2030-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–4477-son qarori.

2. Qurbonov, M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va rivojlanish determinantlari. Toshkent: Ilm ziyo. 2022.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish to'g'risida" 2021-yil 6-apreldagi 181-son qarori.

4. "Maktabgacha ta'lim tizimida STEAM ta'limni joriy etish yo'nalishlari" – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi metodik tavsiyalari. Toshkent, 2022.

5. Xolboyeva N. Sh., Mamatqulova G. "STEAM-ta'lim maktabgacha ta'limda ijodiy fikrlashni shakllantirish vositasi sifatida." – // Pedagogik izlanishlar jurnali, 2023, №2. – B. 55–61.

6. Jalolov J.J. "Pedagogika: nazariya va amaliyot." – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 432 b.
7. Dewey J. "Experience and Education." – New York: Macmillan, 1938.
8. Piaget J. "The Psychology of the Child." – New York: Basic Books, 1969.
9. Vygotsky L.S. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes." – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
10. Xolbo'tayev, D. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim tizimini transformatsiya qilish yo'llari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Pedagogika fanlari markazi. 2021.
11. Halimatussakdiah I., et al. "The Implementation of STEM-Based Learning to Improve Students' Critical Thinking Skills." – Journal of Education and Learning, 2020, Vol. 14(2). – pp. 277–283.
12. Yakubova S.A. "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida ijodiy faoliyatning o'rni." – // Ilmiy-amaliy jurnal "Pedagogik ta'lim", 2022, №4. – B. 87–90.
13. Bozorov O. "STEAM ta'lim va uning O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga moslashuvi." – // "Innovatsion pedagogika" jurnali, 2023, №1. – B. 103–108.
14. Milliy statistika agentligi. "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limga qamrov holati" – Rasmiy statistik byulletenlar. – www.stat.uz. 2019–2024-yillar.
15. Maxmudova O.A. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasini takomillashtirish. Avtoref. diss... P.f.b.f.d (PhD). - T., 2022.
16. Maxmudova O.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy vazifalarini ahamiyati va ularni amalga oshirish yo'llari. Conference Zone, 78–81. Retrieved from https://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/714 2022.
17. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. Toshkent-2018.
18. Maxmudova S.A., Qambarova, Y. NEYROGIMNASTIKANING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI, O'RNI VA AHAMIYATI. University Research Base, 112–115. Retrieved from 2024.
19. Maxmudova, S. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN LUG'AT ISHINI OLIB BORISHNING METODIK TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 205–210. https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1057 2024.
20. Makhmudova Oybarchin. PROBLEMS OF TEACHING PRESCHOOL CHILDREN IN FINE ACTIVITIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(01), 17–21. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-01-03 2022.
21. Makhmudova, O. THEORETICAL VIEWS OF FINE ARTS AS A FACTOR OF INFLUENCE ON THE DEVELOPMENT OF A PRESCHOOL CHILD. University Research Base, 515–518. Retrieved from https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/562 2024.

UDK: 796.325:37.013.2:355.233

Kdirova Muxabbat Allaniyazovna,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
"Jangovar va jismoniy tayyorgarlik" kafedrasi katta o‘qituvchi-murabbiyi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

KURSANTLAR JISMONIY RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARINI YAXSHILASHDA VOLEYBOL MASHG‘ULOTLARINING PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kursantlar jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashda voleybol mashg‘ulotlarining pedagogik ahamiyati o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tajriba va nazorat guruhlari tashkil etilib, jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari (tezkorlik, chidamlilik, kuch, chaqqonlik) qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar voleybol mashg‘ulotlari tizimli ravishda tashkil etilganda kursantlarning umumiy jismoniy rivojlanish darajasi sezilarli oshishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlik jarayonini takomillashtirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kursant, jismoniy rivojlanish, voleybol, pedagogik yondashuv, harbiy ta’lim, jismoniy tayyorgarlik.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОЛЕЙБОЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ В УЛУЧШЕНИИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КУРСАНТОВ

Аннотация. В данной статье изучено педагогическое значение занятий волейболом в улучшении показателей физического развития курсантов. В ходе исследования были организованы экспериментальная и контрольная группы, проведен сравнительный анализ показателей физической подготовленности (быстрота, выносливость, сила, ловкость). Результаты показали значительное повышение уровня общего физического развития курсантов при систематической организации волейбольной подготовки. Результаты исследования служат важной методической основой при совершенствовании процесса физической подготовки в военно-учебных заведениях.

Ключевые слова: курсант, физическое развитие, волейбол, педагогический подход, военное образование, физическая подготовка.

PEDAGOGICAL ASPECTS OF VOLLEYBALL TRAINING IN IMPROVING THE INDICATORS OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF CADETS

Abstract. In this article, cadets studied the pedagogical importance of volleyball training in improving indicators of physical development. In the course of the research, experimental and control groups were organized and a comparative analysis of physical fitness indicators (agility, endurance, strength, agility) was carried out. The results showed a significant increase in the overall level of physical development of Cadets when volleyball training was systematically organized. The results of the study serve as an important methodological basis in improving the process of physical training in military educational institutions.

Keywords: cadet, physical development, volleyball, pedagogical approach, Military Education, Physical Training.

Zamonaviy harbiy ta'lim tizimida kursantlarning jismoniy tayyorgarligi ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatini samarali bajarishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchi xizmat jarayonida yuqori darajadagi chidamlilik, tezkorlik, kuch, chaqqonlik va muvofiqlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Ayniqsa, tez o‘zgaruvchan operativ vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor qaror qabul qilish, murakkab sharoitlarda harakatlanish hamda jamoa bilan uyg‘un faoliyat olib borish ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli harbiy oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlik jarayonini takomillashtirish, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

An'anaviy jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari ko‘pincha standart normativ mashqlarni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular kursantlarning umumiy jismoniy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq bunday mashg‘ulotlar ayrim hollarda bir xillik (monotonlik) keltirib chiqarib, shug‘ullanuvchilarning motivatsiyasini pasaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, jismoniy tayyorgarlik jarayoniga o‘yin xarakteridagi, yuqori emotsional faollikka ega bo‘lgan sport turlarini kiritish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Voleybol sport turi o‘zining dinamikligi, jamoaviyligi va harakatlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O‘yin jarayonida qisqa masofali tezkor yugurishlar, sakrashlar, keskin burilishlar, to‘pni qabul qilish va uzatish elementlari bajariladi. Bu esa kursantlarning tezkorlik, chaqqonlik, kuch va koordinatsion qobiliyatlarini kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, voleybol jamoaviy sport turi sifatida o‘zaro hamkorlik, intizom, mas'uliyat va liderlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Harbiy jamoada xizmat qilish uchun aynan shu sifatlar muhim psixologik va ijtimoiy omillar sanaladi [1,2].

Pedagogik nuqtai nazardan, voleybol mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish maqsadli rejalashtirish, yuklamani bosqichma-bosqich oshirish, individual xususiyatlarni inobatga olish va motivatsion muhit yaratishni talab etadi. Mashg‘ulot jarayonida nazariy tushuntirish, ko‘rgazmali namoyish, amaliy takrorlash va o‘yin metodlarining uyg‘un qo‘llanilishi o‘quv samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, musobaqa elementlarini joriy etish kursantlarda raqobatbardoshlik va o‘z ustida ishlashga intilish hissini kuchaytiradi.

Bugungi kunda harbiy ta'lim tizimida sport o'yinlarining pedagogik imkoniyatlarini chuqur o'rganish, ularning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sirini ilmiy asoslash zarurati mavjud. Voleybolning kursantlar organizmiga ko'rsatadigan funksional ta'siri, mashg'ulotlar natijasida jismoniy sifatlarning o'sish dinamikasi hamda pedagogik shart-sharoitlarning samaradorlikka ta'siri yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning dolzarbligi kursantlar jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilashda voleybol mashg'ulotlarining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida, tajriba va nazorat guruhlarini qiyosiy tahlil qilish shaklida tashkil etildi. Tadqiqot davomiyligi 12 haftani tashkil etdi hamda boshlang'ich (pre-test) va yakuniy (post-test) nazorat o'lchovlari o'tkazildi. Mazkur yondashuv voleybol mashg'ulotlarining kursantlar jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda harbiy oliy ta'lim muassasasining 1-bosqichida tahsil olayotgan 40 nafar sog'lom erkak kursant ishtirok etdi. Ishtirokchilar tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lib, jismoniy mashg'ulotlarda qatnashishga ruxsat etilgan.

Kursantlar tasodifiy tanlash (randomizatsiya) usuli orqali ikki guruhga ajratildi:

Tajriba guruhi (n=20) – an'anaviy jismoniy tayyorgarlik dasturiga qo'shimcha ravishda haftasiga 3 marotaba (har biri 80 daqiqa) voleybol mashg'ulotlarida qatnashdi.

Nazorat guruhi (n=20) – faqat tasdiqlangan an'anaviy jismoniy tayyorgarlik dasturi asosida shug'ullandi.

Guruhlar yosh, bo'y, vazn va dastlabki jismoniy ko'rsatkichlar bo'yicha statistik jihatdan sezilarli farqqa ega emasligi aniqlandi ($p>0,05$).

Tajriba guruhida voleybol mashg'ulotlari uchta asosiy tarkibiy qismni qamrab olgan holda tashkil etildi, bunda 10–15 daqiqa davom etgan kirish qismida umumrivojlantiruvchi va dinamik cho'zilish mashqlariga e'tibor qaratildi. Mashg'ulotning 50–60 daqiqalik asosiy qismida to'p uzatish, qabul qilish, zarba berish va blok qo'yish kabi texnik elementlarni o'rgatish bilan birga tezkorlik hamda sakrovchanlikni rivojlantiruvchi maxsus mashqlar va kichik guruhlardagi o'yin mashqlari bajarildi, 10–15 daqiqalik yakuniy qism esa tiklanish, nafasni me'yorlashtirish va mashg'ulot tahlili bilan yakunlandi. Kursantlarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash maqsadida 100 metrga yugurish orqali tezkorlik, 3000 metrga yugurish bilan chidamlilik, turnikda tortilish orqali kuch, 4×10 metrga mokisimon yugurish yordamida chaqqonlik hamda joydan yuqoriga sakrash orqali sakrovchanlik darajasi aniqlandi. Barcha test sinovlari o'lchov aniqligini ta'minlash uchun bir xil sharoitda, ertalabki vaqtda va standartlashtirilgan tartibda har bir mashq ikki martadan bajarilib, eng yaxshi natija qayd etilgan holda o'tkazildi. Tadqiqot davomida olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilinib, hisob-kitoblarda arifmetik o'rtacha qiymat, standart og'ish, foizli o'sish ko'rsatkichi hamda guruhlararo farqni aniqlash uchun Studentning t-mezoni qo'llanildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p<0,05$ deb qabul qilingan holda, barcha hisoblash ishlari elektron jadval dasturi yordamida amalga oshirildi.

Kursantlarning boshlang‘ich (pre-test) ko‘rsatkichlari (M±SD)

1-jadval

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (n=20)	Nazorat guruhi (n=20)	*p*
100 m yugurish (sek)	13,42 ± 0,38	13,39 ± 0,41	>0,05
3000 m yugurish (daq)	12,48 ± 0,52	12,44 ± 0,49	>0,05
Turnikda tortilish (marta)	11,3 ± 1,4	11,5 ± 1,6	>0,05
4×10 m shuttle (sek)	9,87 ± 0,33	9,82 ± 0,36	>0,05
Joydan sakrash (sm)	224 ± 8,5	226 ± 9,1	>0,05

Izoh: Boshlang‘ich natijalar guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi (p>0,05).

12 haftalik mashg‘ulotlardan keyingi (post-test) ko‘rsatkichlar (M±SD)

2-jadval

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (n=20)	Nazorat guruhi (n=20)	*p*
100 m yugurish (sek)	12,48 ± 0,35	13,12 ± 0,39	<0,05
3000 m yugurish (daq)	11,72 ± 0,46	12,18 ± 0,50	<0,05
Turnikda tortilish (marta)	13,0 ± 1,5	12,0 ± 1,4	<0,05
4×10 m shuttle (sek)	9,12 ± 0,28	9,60 ± 0,31	<0,05
Joydan sakrash (sm)	238 ± 7,9	231 ± 8,4	<0,05

Izoh: Tajriba guruhida barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli o‘sish kuzatildi (p<0,05).

Jismoniy ko‘rsatkichlarning foizli o‘sish dinamikasi (%)

3-jadval

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
100 m yugurish	7,0 %	2,0 %
3000 m yugurish	6,1 %	2,1 %
Turnikda tortilish	15,0 %	4,3 %
4×10 m yugurish	7,6 %	2,2 %
Joydan sakrash	6,2 %	2,1 %

Natijalar tahlili va jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatdiki, 12 haftalik voleybol mashg‘ulotlari tajriba guruhida jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarining sezilarli yaxshilanishiga olib kelib, xususan, kuch ko‘rsatkichi turnikda tortilish misolida 15 foizga oshgan bo‘lsa, tezkorlik va chaqqonlik ko‘rsatkichlari 7 foizdan ortiq yaxshilandi hamda chidamlilik bo‘yicha barqaror o‘sish qayd etildi. Nazorat

guruhida esa o‘sish dinamikasi ancha past bo‘lib, 2–4 foiz oralig‘ida saqlanib qolganligi olingan natijalar voleybol mashg‘ulotlarining kompleks jismoniy rivojlantiruvchi ta’sirga ega ekanligini hamda pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yin mashg‘ulotlari harbiy ta’lim jarayonida yuqori samaradorlik berishini tasdiqlaydi [7,8,9].

Mazkur tadqiqot natijalari voleybol mashg‘ulotlarini pedagogik jihatdan maqsadli va tizimli tashkil etish kursantlarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. 12 haftalik tajriba yakunida tezkorlik, chidamlilik, kuch, chaqqonlik hamda sakrovchanlik ko‘rsatkichlari tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan ishonchli darajada yuqori o‘sish dinamikasini namoyon etdi ($p<0,05$).

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, voleybol o‘yini o‘zining harakat tuzilishi va dinamik xususiyatlari bilan kursantlar organizmiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin jarayonida qisqa masofali tezlanishlar, keskin to‘xtash va burilishlar, yuqoriga sakrash hamda koordinatsion harakatlar muntazam takrorlanadi. Bu esa tezkorlik va chaqqonlik sifatlarining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, 4×10 metr shuttle yugurish natijalarining sezilarli yaxshilangani voleybol mashg‘ulotlarining koordinatsion qobiliyatni rivojlantirishdagi ustunligini ko‘rsatadi.

Kuch ko‘rsatkichlarining (turnikda tortilish) 15 % ga oshgani voleybol o‘yinida sakrash, zarba berish va blok qo‘yish elementlarining yuqori intensivlikda bajarilishi bilan izohlanadi. Ushbu harakatlar yelka kamari, qo‘l va gavda mushaklarining faol ishlashini ta’minlaydi. Shu bilan birga, sakrovchanlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi pastki ekstremita mushaklarining funksional kuchi ortganini ko‘rsatadi.

Chidamlilik ko‘rsatkichlaridagi ijobiy o‘zgarishlar esa o‘yin davomida takroriy yuklama va qisqa muddatli tiklanish jarayonlari bilan bog‘liq. Voleybol mashg‘ulotlari interval xarakterga ega bo‘lib, bu yurak-qon tomir va nafas olish tizimining funksional imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Natijada 3000 metrga yugurish natijalari ham yaxshilandi.

Pedagogik jihatdan tahlil qilinganda, olingan natijalar mashg‘ulotlarni tashkil etish uslubining muhimligini ko‘rsatadi. Tajriba guruhida yuklamani bosqichma-bosqich oshirish, individual xususiyatlarni hisobga olish, musobaqa elementlarini joriy etish va muntazam nazorat qilish kabi tamoyillar qo‘llanildi. Aynan shu metodik yondashuv mashg‘ulotlar samaradorligini oshirdi.

Bundan tashqari, voleybolning jamoaviy xarakteri kursantlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlar davomida o‘zaro hamkorlik, mas’uliyatni his qilish, tezkor qaror qabul qilish va o‘z harakatlarini jamoa manfaatiga bo‘ysundirish ko‘nikmalari shakllandi. Bu esa harbiy jamoada xizmat qilish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar bilan bevosita bog‘liqdir.

Nazorat guruhida kuzatilgan past o‘sish ko‘rsatkichlari an’anaviy mashg‘ulotlarning samaradorligi mavjud bo‘lsa-da, ularning motivatsion va emotsional jihatdan yetarlicha boy emasligini ko‘rsatadi. Voleybol esa yuqori emotsional fon va raqobat muhiti yaratishi sababli mashg‘ulot jarayonida faol

ishtirokni ta'minlaydi. Motivatsiyaning oshishi esa jismoniy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Ishtirokchilar sonining nisbatan kamligi va tadqiqot davomiyligining 12 hafta bilan cheklangani uzoq muddatli ta'sirni to'liq baholash imkonini bermaydi. Kelgusida tadqiqotlarni kengroq kontingentda va uzoqroq muddatda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, funksional ko'rsatkichlar (yurak urish tezligi, maksimal kislorod iste'moli va boshqalar)ni ham qo'shimcha o'rganish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, olingan natijalar voleybol mashg'ulotlarini harbiy ta'lim tizimiga integratsiya qilish kursantlarning jismoniy rivojlanish darajasini oshirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Kompleks harakat faoliyati, yuqori motivatsion muhit va jamoaviylik tamoyillari birgalikda jismoniy sifatlarning barqaror o'sishini ta'minladi [10,11,12,13].

Mazkur tadqiqot natijalari voleybol mashg'ulotlarini pedagogik jihatdan maqsadli va tizimli tashkil etish kursantlar jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashini ilmiy jihatdan asoslab berdi. 12 haftalik tajriba-sinov ishlari davomida tezkorlik, chidamlilik, kuch, chaqqonlik va sakrovchanlik ko'rsatkichlari tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan ishonchli darajada yuqori o'sish dinamikasini namoyon etdi ($p<0,05$). Ayniqsa, kuch va chaqqonlik sifatlarining sezilarli oshgani voleybol mashg'ulotlarining kompleks rivojlantiruvchi xususiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, voleybol o'yini o'zining dinamik va ko'p komponentli harakat tuzilishi orqali kursant organizmiga ko'p qirrali funksional ta'sir ko'rsatadi. O'yin davomida bajariladigan tezlanishlar, sakrashlar, koordinatsion harakatlar va takroriy yuklamalar mushak tizimi hamda yurak-qon tomir faoliyatini samarali rivojlantiradi. Natijada umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi oshadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich rejalashtirish, yuklamani me'yorlashtirish, individual yondashuvni qo'llash va musobaqa elementlarini joriy etish yuqori natijalarga erishishda muhim omil bo'ldi. Voleybolning jamoaviy xarakteri esa kursantlarda intizom, mas'uliyat, o'zaro hamkorlik va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Bu sifatlar harbiy xizmat faoliyati uchun muhim kompetensiyalar hisoblanadi.

Nazorat guruhida kuzatilgan past o'sish ko'rsatkichlari an'anaviy jismoniy tayyorgarlik dasturlarining samaradorligini inkor etmaydi, biroq o'yin xarakteridagi mashg'ulotlarning motivatsion va psixologik ustunliklarini ko'rsatadi. Demak, voleybol mashg'ulotlarini harbiy ta'lim tizimiga integratsiya qilish jismoniy tayyorgarlik jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

Harbiy oliy ta'lim muassasalarida voleybol mashg'ulotlarini haftasiga kamida 2–3 marotaba joriy etish;

Mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish va yuklamani individual imkoniyatlardan kelib chiqib belgilash;

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda jamoaviylik va liderlik kompetensiyalarini shakllantirishga e'tibor qaratish;

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish va natijalarni statistik tahlil asosida baholash.

Xulosa qilib aytganda, voleybol mashg'ulotlari kursantlar jismoniy rivojlanishini ta'minlashda samarali pedagogik vosita bo'lib, u harbiy ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Kelgusida tadqiqotlarni kengroq miqyosda, uzoq muddatli kuzatuv asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kdyrova, M., & Abatova, G. PROFESSIONALLY PEDAGOGICAL PREPARATION OF COUCHES AND ITS IMPROVEMENT WITH THE USE OF EDUCATIONAL TESTS. *Modern Science and Research*, *2*(4), 15–20. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/18813 2023.

2. Kdirova, M. THE ADVANTAGE OF THE FORMATION OF JUMPING IN THE ORDER CORRESPONDING TO THE TECHNICAL TECHNIQUES (FOR EXAMPLE, VOLLEYBALL). Modern Science and Research, 2(4), 21–27. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/18815 2023.

3. Kdirova, M. A., & Nazarova, G. O. Professional and pedagogical preparedness of trainers and the possibility of improving it using training tests. In Actual problems of physical culture and sports. 2016. (pp. 165-170).

4. Abatova G.N. 11-12 yoshli voleybolchilarda sakrovchanlik maxsus jismoniy sifatini rivojlantirish hamda to'siq qo'yish texnikasini takomillashtirishda harakatli o'yinlar va maxsus mashqlar samarasini aniqlash//"Jismoniy tarbiya, sport mashg`ulotlari nazariyasi va uslubiyatining nazariy-amaliy muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2022-yil 29-yanvar, 613-614b.

5. Abatova N.G. The cluster-modular method as a modern trend of improvement in the structure of a lesson in physical education for students with different levels of physical fitness. // «2020 yilda o'tkaziladigan XXII yozgi olimpiya va XVI paralimpiya o'yinlariga sportchilarni tayyorlashning dolzarb muammolari» xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, Chirchik, 2020, 587.

6. Abatova N.G. The effectiveness of increasing young volleyball players' hand strength and shuttle speed using game exercises. // «2020 yilda o'tkaziladigan XXII yozgi olimpiya va XVI paralimpiya o'yinlariga sportchilarni tayyorlashning dolzarb muammolari» xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, Chirchik, 2020, 397-bet

7. Kdirova M.A., PEDAGOGS International research journal-67. ISSN:2181-3027." // "The mainlaws the development of physical abilities" // ilmiy maqola. Volume-67 Issue-1. oktabr-2024y.197-200 betlar.

8. Kdirova M.A., Modern education and development.№ 14, Часть -9.Ноябрь-2024г.153-156p//,The impact of physical education in the personal development of polise officers.

9. Kdirova M.A. Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali // "Теоретико-методологические основы влияния волейбола на уровень здоровья и физической подготовленности спортсменов" // ilmiy maqola.. - 2025 yanvar. 109-114-betlar. *www.tadqiqotlar.uz*

10. Kdirova M.A., PEDAGOGS International research journal-73/1. ISSN:2181-4027." // "Jangovar va jismoniy tayyorgarlikning ichki ichlar organlari xodimlari jangovar shayligiga ta'siri" // ilmiy maqola. Volume-73 Issue-1. yanvar-2025-y. 167-173-betlar.

11. Kdirova M.A., PEDAGOGS International research. ISSN:2181-4027_SJIF:4.995" //"Kursant va tinglovchilarning jismoniy va jangovar tayyorgarligini takomillashtirish asosiy bosqichlari" // ilmiy maqola. Volume-78 Issue-1. mart-2025-y. 209-215-betlar. www.pedagogs.uz.

12. Kdirova M.A., Universal of social sciences philosophi and culture \\Voleybol sport turida harakat tezkorligini tarbiyalash usullari.\\ ilmiy maqola. Volume-3 Issue-22. mart-2025-y. 50-57-betlar.

UDK: 159.922.7

Kulatova Svetlana Yuldashevna,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'SMIR SHAXSIDA SALBIY VA ZARARLI AXBOROTLARNI QABUL QILISHGA MOYILLIKNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smir shaxsida destruktiv axborotlarni qabul qilishga moyillikning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi o'smirlik davrining psixologik beqarorligi, tanqidiy fikrlashning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda raqamli axborot muhitida salbiy va zararli kontent hajmining ortib borishi bilan izohlanadi. Mazkur maqola natijalari amaliy psixologiya, pedagogik faoliyat hamda profilaktik ishlar tizimida foydalanish uchun ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, destruktiv axborot, axborot ta'siri, psixologik moyillik, shaxs rivoji, emotsional beqarorlik, axborot savodxonligi, salbiy kontent.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ADOLESCENTS' PROPENSITY TO ACCEPT NEGATIVE AND HARMFUL INFORMATION

Annotation. This article examines the psychological characteristics of adolescents' susceptibility to destructive information from both theoretical and empirical perspectives. The relevance of the study is determined by the psychological instability of adolescence, insufficient development of critical thinking, and the increasing volume of negative and harmful content in the digital information environment. The results of the study can be effectively used in practical psychology, educational practice, and preventive intervention programs.

Keywords: adolescence, destructive information, information influence, psychological susceptibility, personality development, emotional instability, information literacy, negative content.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СКЛОННОСТИ ПОДРОСТКОВ К ВОСПРИЯТИЮ НЕГАТИВНОЙ И ВРЕДНОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические особенности склонности личности подростков к восприятию деструктивной информации с теоретической и эмпирической позиций. Актуальность исследования обусловлена психологической нестабильностью подросткового возраста, недостаточной сформированностью критического мышления, а также увеличением объёма негативного и вредоносного контента в цифровой информационной среде. Материалы статьи могут быть использованы в практической психологии, образовательной деятельности и профилактической работе.

Ключевые слова: подростковый возраст, деструктивная информация, информационное воздействие, психологическая склонность, развитие личности, эмоциональная неустойчивость, информационная грамотность, негативный контент.

O‘smirlik davri inson psixik rivojlanishida eng murakkab, ziddiyatlarga boy va o‘zgaruvchan bosqichlardan biridir. Bu davrda shaxsiy identifikatsiya jarayoni faollashadi, o‘ziga xoslik, mustaqil fikr, jamiyatda o‘z o‘rnini topish istagi kuchayadi. Aynan shu davrda destruktiv axborotlar – ya’ni ruhiy va ijtimoiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, yolg‘on, manipulyativ, zo‘ravonlik yoki radikal g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi axborotlar o‘smir ongiga kuchli ta’sir qilishi mumkin.

Birinchidan, o‘smirlar ongining hali barqaror shakllanmaganligi, ularning dunyoqarashi va ijtimoiy pozitsiyasi to‘liq rivojlanmaganligi sababli, destruktiv axborotlarni kritik tahlil qilish va undan himoyalanish mexanizmlari zaif bo‘ladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi tajovuzkor kontent, salbiy o‘xshatmalar, yolg‘on axborotlar, ekstremistik qarashlar va g‘ayriinsoniy hodisalarni normallashtiruvchi materiallar o‘smirlar uchun jozibador va hayajonli ko‘rinishi mumkin. Bu esa ularda bunday axborotlarni tanqidiy emas, balki hissiy va impulsiv tarzda qabul qilishga olib keladi.

Ikkinchidan, o‘smirlar yoshida psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishi hali yakuniga yetmagan bo‘ladi. Shuning uchun ular ko‘pincha tashqi ta’sirlarga nisbatan sezuvchan, tashqi baholarga bog‘langan va ijtimoiy tasdiqlashga muhtoj holatda bo‘lishadi. Bu holat ularni destruktiv axborotlar orqali boshqariluvchan, manipulyatsiyaga ochiq shaxslar holiga keltirishi mumkin. Ayniqsa, “guruhga tegishlilik” hissi, do‘stlarning ta’siri, mashhurlikka erishish istagi, yetuklikni isbotlash istagi kabi ehtiyojlar ularni o‘z shaxsiy qadriyatlarini qurbon qilishga, ba’zida esa xavfli axborot manbalarini to‘g‘ri deb qabul qilishga olib keladi.

Uchinchidan, destruktiv axborotlarni qabul qilishga moyillik ko‘pincha o‘smirning emotsional holati, o‘z-o‘zini baholashi, stressga chidamliligi bilan bog‘liq. Past o‘zini qadrlash, oilaviy nizolar, e’tiborsizlik, o‘qishdagi muvaffaqiyatsizliklar, izolyatsiya va yolg‘izlik hissi kabi omillar o‘smirni destruktiv axborotlarga ochiqroq qiladi. Salbiy emotsional fonda ular o‘z muammolariga “yechim” sifatida zararli axborotga, zo‘ravonlikka, nomaqbul shaxsiy identifikatsiyaga yo‘nalishlari mumkin.

To‘rtinchidan, psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, destruktiv axborotlarni qabul qilishga moyillik o‘smirning kognitiv uslublariga ham bog‘liq. Kritik fikrlash, axborotni filtrlash, kontekstni anglash, fakt va fikrni ajrata olish kabi kognitiv qobiliyatlar rivojlanmagan bo‘lsa, u destruktiv mazmundagi axborotni real hayotdagi vaziyat sifatida qabul qilishi mumkin. O‘smirlar ko‘pincha simvolik tasvirlar, metaforalar yoki kinoya asosida berilgan axborotni literal ma’noda tushunadilar, bu esa ularni noto‘g‘ri xulosalarga olib keladi.

Beshinchidan, ijtimoiy-psixologik omillar ham bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Jamiyatdagi ma’naviy bo‘shliqlar, ishonchli yetakchilarning yetishmasligi, yoshlarning ishsizligi, ijtimoiy adolatsizlik, zo‘ravonlik normalari va boshqa omillar destruktiv axborotlar uchun qulay psixologik fon yaratadi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining shov-shuvga asoslangan materiallari, sarlavhalar, yolg‘on yangiliklar, sun’iy algoritmlar orqali targ‘ib qilinayotgan salbiy kontentlar o‘smirlarning psixologik holatini bevosita buzadi.

Yana bir muhim jihat shuki, destruktiv axborotni qabul qilishga moyillik o‘smir shaxsining psixotipik xususiyatlari bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, tashqi stimullarga kuchli sezgirlik, psixologik labilitet (barqarorlikning pasligi), impulsivlik, affektiv javob berish darajasi yuqoriligi destruktiv kontentga nisbatan ijobiy javobni kuchaytiradi. Aksincha, yuqori ijtimoiy mas’uliyat, kognitiv barqarorlik, ijobiy “ichki nazorat lokusi”ga ega o‘smirlar bunday axborotlarni rad etishga moyil bo‘ladilar.

Tadqiqotchilardan Y.V.Axromeevaning fikriga ko‘ra, har qanday sekta yoki buzg‘unchi destruktiv g‘oyalar nafaqat maxsus ijtimoiy guruh, balki ko‘pincha, rivojlanishga qarshi madaniyat vazifasini bajaradigan submadaniyatdir. Ular birinchi bosqichda, mavjud qadriyatlar tizimi va dunyo tartibiga qarshi norozilik bilan harakat qilishadi. Ular mavjud milliy diniy an’analar va urf-odatlarga qarshi “radikal” guruh sifatida harakat qilishadi deb ta’kidlab o‘tadi. Xuddi shunday fikrlarni xorij tadqiqotchisi B.Tammning izlanishlarida ham ko‘rish mumkin. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, destruktiv g‘oya tarafdorlari yoshlarga tajovuzkorlik va shafqatsizlik ruhi bilan murojaat qilib, o‘zlarining ekstremal mafkuraviy qarashlarini targ‘ib qiladilar. Bu holat ularga ommaviy manipulyatsiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

I.Y.Kupriyanovaning fikricha, destruktiv g‘oyalarga ergashish masalasini tadqiq etishda avvalo, uni tavsiflovchi ayrim psixologik jihatlarni aniqlab olishi lozim:

– kompyuter bilan ishlashga bo‘lgan ob’ektiv tobelik (o‘yin o‘ynash, dasturlash, virtaul muloqot saytlari);

– masofaviy muloqotga hamsuhbat qidirish;

– internet orqali pullik o‘yinlarga patologik tobelik;

– haddan ortiq onlayn auksionlarda qatnashish hamda xaridlarni amalga oshirish va hokazo. Demak, virtual olam, shunchaki oddiy munosabat bilan emas, u orqali amalga oshiriladigan noqonuniy pullik o‘yinlar, qimor o‘yinlariga tenglashtirilgan turli chora-tadbirlar kabilar bilan ham rivojlana boradi.

Tadqiqochi A.Y.Voyskunskiy o‘zining “Virtual olam muammosining dolzarb masalalari” nomli ilmiy maqolasida, uning inson faoliyatiga salbiy ta’sirining ayrim masalalariga alohida to‘xtalib o‘tgan. Muallifning aytishicha, internet orqali kechadigan virtual aloqaga haddan ortiq ro‘ju’ qo‘yish keyinchalik, haqiqiy hayotdagi yaqinlar va do‘stlarni virtual do‘stlarga almashtirish bilan tugaydi. Ayrim manbalarda ushbu xulq-avtor turi “kiberjinsiy” yaqinlik tushunchasi bilan ham tilga olinadi. Mazkur xulq-atvor ko‘proq yoshi katta insonlarda namoyon bo‘lib, ular yopiq guruhlar orqali o‘z muloqotlarini amalga oshiradilar.

G‘arbda “hedhantung” degan atama mavjud. Uni bevosita o‘zbekchaga tarjima qilsak, “aqlni ovlash” ma’nosini angalatadi. Yanada tushunarli bo‘lishi uchun, quyidagilarni ham qo‘shish lozim: Kadrlar va intellektual salohiyat “savdosi” uchun bugungi kunda bozorning o‘ziga yarasha standartlari mavjud. Ularning ichida eng sarasi bu – professional layoqat, kuchli malakaga ega bo‘lish hamda ishlayotgan kompaniyasi uchun yuqori samara keltirishdir. Aynan shu jihatlarni o‘zida jamlagan ishchi yoki kadrlarga bugun talab kuchlidir. Ularni qo‘lga kiritish uchun maxsus dallollik tashkilotlari mavjud va ular rekruitlik, ya’ni quyi ishchi o‘rinlari va xedxantinglik (oliy ma’lumotli, malakali va yuqori mansablar) xizmati deb ataladi. Ishchi kuchi hamda intellekt bozorida bu borada ham raqobat juda qat’iy. Shuning uchun kompaniyalar muvaffaqiyatga erishish uchun birinchi navbatda, manipulyatsiyadan hamda virtual tarmoqlar orqali tatbiq qilishga intiladilar. Ularning asosida original g‘oyalar bilan oziqlantirilgan axborot yotadi.

Psixogen ta’sir – bu ta’sir asosan jismoniy zo‘rlash yoki atrofdagi vaziyat va hodisalar ta’siri orqali “shok” holatiga keltirish natijasida kelib chiqadi.

Bunday xolatlarda inson vaziyatni to‘g‘ri anglay va fikrlay olmaydi. Psixogen ta’sir ɯtkazish uchun ranglar tanlashga alohida e’tibor qaratiladi. Olimlarning ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, ranglar insonga organizmida turli xil psixologik reaksiyalarni keltirib chaqirish mumkin. Psixogen ta’sir jismoniy va shokli ta’sir usullariga ham bo‘linadi.

Psixoanalitik ta’sir – bu ta’sir insonning ong ostiga terapevtik vositalar yordamida ta’sir o‘tkazib, asosan odamning gipnoz holatida yoki chuqur uyqudaligida qo‘llaniladi.

Psixoanalitikaning ta’sir jarayonini o‘rganishni prof., doktor I.V.Smirnov ilmiy ishlarida kompyuter texnologiyasini keng qo‘llanishi bilan psioanaliz va psixokorreksiya texnologiyasini yaratishini misol qilishimiz mumkin. Bu texnologiya asosida insonni psixikasini diagnostika qilish oqibatida, bu usul odamning hulqi va xarakterini sozlash imkoniyatini beradi.

Neyrolingvistik ta’sir (NLD - neyrolingvistik dasturlash) — psixologik ta’sirning turi bo‘lib, inson ongiga lingvistik dasturlarni kiritilishi natijasida shaxsning motivlarini o‘zgartirilishi tushuniladi.

Tadqiqotchi A.R.Barikovaning so‘zlariga ko‘ra, media tasvirlarda terrorchilarning kundalik hayoti juda go‘zal holatlar, cho‘l manzaralari, bolalarning shirin tabassumlari, insonlar qo‘llarini bir-birlariga tutgan holda va do‘stona oilaviy suratlar bilan tasvirlangan. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ayniqsa, o‘smir yoshlar bunday surat va videolarda “mukammal hayot bor” qabilida aldanib qolmoqda. Chunki, asosan yoshlar va o‘rta yoshlilar doim foydalanadigan ushbu platformalarda buzg‘unchi, radikal g‘oyalar tez tarqalib, maqsadli auditoriyaga yetib boradi. Keyingi paytlarda ekstremizm bilan sudlangan yoshlarning aksariyati Youtube tarmog‘ida axborotlar bilan faol shug‘ullangan yoshlar hisoblangan. Umuman olganda, muallif o‘z fikr-mulohazalarida destruktiv g‘oyalarning yoshlar ongiga ta’siri masalasida, manipulyatsiya, atraksiya, o‘ziga jalb qilish holatlariga ham alohida e’tibor qaratgan. Yoshlarning destruktiv g‘oyalar ta’siriga berilishini erta oldini olish va bu borada maktab o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini

yanada oshirish masalasida tadqiqot olib borgan I.A.Galiskayaning so‘zlariga ko‘ra, destruktiv g‘oyalar ta’siriga tushgan yoshlarni, quyidagi xususiyatlari orqali tez ajratib olish mumkin:

– Ijtimoiy qadriyatlarning umume’tirof etilgan tizimiga to‘liq inkor qiluvchi va salbiy munosabat bildiruvchi yoshlar. Ular uchun yangi jamiyat yo‘q. Yangi, innovatsion ko‘rinishdagi barcha narsalar “gunoh” deb tan olinadi;

– Ta’sirga berilgan yoshlar mavjud ijtimoiy tuzum normalarini qabul qilmaydi, boshqalarni dunyoviy o‘zgarishlarga rioya qilishdan bosh tortishga chaqirish va buzg‘unchi diniy mafkuralarga amal qilishga chorlashga intiladilar;

– Destruktiv g‘oyali yoshlar boshqa diniy ta’limotlarga nisbatan bag‘rikenglikni rad etib, boshqalarning diniy konfessiyalari va diniy urf-odatlariga dushmanona munosabatda bo‘ladilar;

– Destruktiv xulqli shaxs davlatning huquqiy normalarini qabul qilish va ularga rioya qilishdan bosh tortib, faqat diniy tushunchalar va oyatlar asosida davlatni boshqarishni qo‘llab-quvvatlaydilar;

– Buzg‘unchi diniy tashkilotlarni davlat hokimiyatidan ustun quyish, demokratiyaning har qanday shaklini tan olmaslik va o‘z g‘oyalariga boshqalarni qattiq da’vat qilish va hokazo;

– Destruktiv g‘oya tarafdorlarining ta’limotlarini har xil ko‘rinishda va yashirin, sir saqlagan holda keng yoyish. Tadqiqotchi Y.K.Agenkova ham boshqalar kabi, destruktiv g‘oyalarning yoshlar ongiga salbiy ta’sirining ortib borayotganligini alohida ta’kidlab, ushbu masalani to‘rt bosqichda ko‘rib chiqishni taklif qiladi:

1. Birinchi bosqich. Boshqa insonlarning insonning missionerlik faoliyati yoki ularning mazhabi va uning ta’limoti bilan tanishishga qiziqish. Mazkur bosqichda yoshlar zamonaviy dunyo va u haqdagi g‘oyalardan uzoqlashadi. Va unga oid bilim va tajribalarini yo‘q qilishni boshdan kechiradi;

2. Ikkinchi bosqich. Shaxsning yangi a’zo sifatida, diniy jamoaning tajribasiga kirishi. Ushbu bosqichda destruktiv ruhdagi dunyo, oila, o‘zi, umume’tirof etilgan qadriyatlar va axloqiy me’yorlar haqidagi yangi g‘oya shakllanadi, bu holat shaxsning tashqi dunyo va boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarini uzishida yaqqol aks etadi;

3. Uchinchi bosqich. Yangi jamoa va guruhga tegishli e’tiqod shaklining mustahkamlanishi bosqichi. Bunda yosh o‘smirning psixikasi va ma’naviy olami to‘liq yo‘q bo‘ladi ya’ni destruktiv diniy g‘oya yetakchilari yangi a’zoni o‘zlarining g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashgava unga qattiq amal qilishga undaydi;

4. To‘rtinchi bosqich. Destruktiv g‘oya tarafdorlariga to‘liq bo‘y so‘niy va ularning topshiriqlarini so‘zsiz amalga oshirish bosqichi. Ushbu bosqichda shaxsning mustaqil meni btutunlay yo‘q qilinadi. Hech bir yangilik, tashqi muhitdagi o‘zgarish, yangicha yashash va demokratik hayot tarzi qabul qilinmaydi. Bu avtoritar boshqaruvning oxirgi bosqichi bo‘lib, unda shaxsning butun bir borlig‘i yo‘q qilinadi. Muallifning ushbu yondashuvida shuni anglash mumkinki, destruktiv diniy g‘oyalar ta’siriga tushish bu shunchaki jarayon emas, u o‘ziga xos bosqichlar bilan kechuvchi holatdir. Ya’ni oddiy qiziqish oxir-oqibat majburlash va qat’iy talab etish holatlari bilan yakunlanar ekan. Ayrim tadqiqotchilar destruktiv g‘oyalar

masalasini "diniy ekstremizm" tushunchasi bilan tushuntirishga harakat qilib, unda "bo'rilish", "markazdan og'ish", "itoatsizlik" tushunchalari ajratib o'tadi. N.V.Petrovaning so'zlariga ko'ra, destruktiv g'oyalarga berilish ilmsizlik, ko'r-ko'rona harakat qilish, ularning tafakkuri faqat "mening fikrim to'g'ri" boshqalarniki esa, "noto'g'ri" degan fikrga asoslanadi. Shuningdek, "terrorizm" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, qo'rquv, dahshat kabi ma'nolarni anglatib, asosiy maqsad davlat va xalqlarning oqilona fikrlashi, tinch va osoyishta yashashiga yo'l qo'ymaslikdir.

Xulosa qilib aytganda, axborot-psixologik xavfsizligi bu avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Shu bois, destruktiv axborotlarga nisbatan immunitetni shakllantirish uchun o'smirlarda axborot savodxonligi, mediamadaniyat, kritik fikrlash ko'nikmalari, emotsional barqarorlik va ijtimoiy faoliyatda qatnashish kabi jihatlarni rivojlantirish muhimdir. Bu borada oilaviy tarbiya, maktab psixologi faoliyati, ijtimoiy-ma'naviy muhit va jamiyatning yoshlar bilan ishlashdagi mas'uliyati o'zaro muvofiqlikda bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кондратьев Ф.В. Современные культовые новообразования («секты») как психологопсихиатрическая проблема. Белгород: Миссионерский отдел РПЦ, 1999. – С.56-58.
2. Романов А. В. Психологические причины вовлечения в деструктивные религиозные культы // Журнал практического психолога. – 2000, № 1-2. – С.35-39.
3. Ильницкий А. С. Криминальная идеология в сети Интернет: теоретические и социально-правовые предпосылки криминологического познания // Вестник Краснодарского университета МВД России. 2020. № 4 (50). С.49 -53.
4. Войскунский А. Е., Митина, О. В., Аветисова, А. А. Общение и «опыт потока» в групповых Интернет-играх / А. Е. Войкунский, О. В. Митина, А. А. Аветисова // Психол. журн. - 2005. - Т. 17. - № 5. - С. 47 - 63.
5. Гришина А. В. Исследование поведения пользователей в сети интернет: особенности смыслообразующей мотивации / А.В. Гришина, И.В. Абакумова /Антология российской психотерапии и психологии. - М. : ООО «Общероссийская профессиональная психотерапевтическая лига», 2020. - С.10-11.

UDK 373.3.011.33:005.21

Urazimbetova Aygul Aralbayevna,
Profi University dotsenti, PhD

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK STRATEGIYALARNING BOSQICHLI MODELI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik strategiyalarning bosqichli modeli asoslanadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, kompetensiyaviy yondashuv mezonlarini operatsionallashtirish va amaliy kuzatuvlar orqali model komponentlari aniqlashtirildi. Natijada diagnostika, loyihalash, amalga oshirish va refleksiya bosqichlarining didaktik shartlari hamda kutiladigan natijalari tizimlashtirildi.

Тенденции в образовании непрерывно изменяются в ответ на динамичные потребности общества. Сегодняшние учащиеся сталкиваются с уникальными вызовами, такими как глобальные проблемы окружающей среды, кибербезопасность, искусственный интеллект и биотехнологии. Эти вызовы создают растущий спрос на квалифицированных специалистов, обладающих

не только глубокими знаниями в своих областях, но и способных применять их к практическим задачам [4].

Таким образом, введение STEM технологий в образовательные программы становится стратегическим шагом, направленным на подготовку нового поколения лидеров и новаторов. В данной статье мы рассмотрим эволюцию STEM-образования от начальной школы до высшего образования, выявим его влияние на формирование профессиональных навыков и рассмотрим перспективы его развития в будущем.

Таблица 1

Этапы STEM-образования и их особенности

Этап образования	Особенности	Примечания	Профессиональные пути
Начальная школа	Игровые методы, базовые навыки	Основы научного мышления и технических предметов	-
Средняя школа	Углубленные курсы, проекты, технологическое внедрение	Развитие интереса к конкретным STEM-дисциплинам	-
Высшее образование	Специализированные технические программы, лаборатории, индустриальные связи	Глубокое изучение профессиональных навыков	Инженеры, Научные исследователи
Проф. рост	Непрерывное обучение, онлайн-курсы, семинары, конференции	Адаптация к требованиям рынка и технологическим изменениям	IT-специалисты, Медицинские специалисты

В начальной школе STEM-образование играет важнейшую роль, предоставляя ученикам уникальные возможности для формирования фундаментальных навыков и вдохновляя интерес к науке и технике. На этом этапе акцент делается на использовании игровых методов обучения, создавая при этом захватывающее и практическое окружение для детей.

Учебные программы начальной школы в области STEM должны быть направлены на развитие базовых навыков, таких как логическое мышление, аналитические способности и командная работа. Игровые методы обучения, такие как конструирование, решение головоломок и коллективные проекты,

становятся важным инструментом, способствующим не только усвоению знаний, но и формированию практического опыта [5].

Важно отметить, что игровые методы обучения в STEM-образовании не только привлекают внимание учащихся, но и позволяют им осваивать сложные концепции в форме игры, что способствует более глубокому пониманию материала. Например, использование робототехники в учебном процессе позволяет детям не только составлять простейшие алгоритмы, но и решать задачи, развивая тем самым навыки критического мышления и творческого подхода.

Таким образом, анализ исследований позволяет нам выделить следующие преимущества раннего вовлечения в STEM-деятельность для формирования интереса к науке и технике:

•Раннее вовлечение в STEM-деятельность имеет долгосрочные выгоды, включая формирование стойкого интереса к научному и техническому творчеству. Этот интерес не только стимулирует учеников начальных классов к дальнейшему изучению STEM-дисциплин, но и создает фундаментальную основу для развития будущих профессиональных интересов.

•Исследования показывают, что дети, занимающиеся STEM-активностями на ранних этапах обучения, чаще выбирают STEM-специализации в дальнейшем образовании и карьере. Таким образом, начальные этапы STEM-образования становятся ключевым фактором в формировании кадрового резерва в области науки и технологии.

Перейдем теперь к следующему этапу нашего исследования, рассмотрев роль STEM-образования в средней школе и его воздействие на дальнейшую образовательную активность учащегося.

На этапе обучения в средней школе STEM-образование приобретает более глубокий и комплексный характер, ориентированный на развитие конкретных навыков и углубленное понимание ключевых дисциплин [6]. Средняя школа становится полигоном для формирования STEM-навыков через углубленные курсы и проекты для стимулирования интереса учащихся.

Средняя школа предоставляет учащимся возможность выбора кружков, дополнительных курсов STEM направленности, в отдельных случаях программы подготовки с соответствующим уклоном, что позволяет фокусироваться на конкретных областях интереса. Подобные программы, курсы могут включать в себя более сложные темы в математике, физике, химии, биологии и информатике. Проектно-ориентированный подход становится центральным элементом обучения, позволяя учащимся применять теоретические знания к реальным задачам.

Проекты в средней школе могут варьироваться от создания научных исследований и инженерных проектов до программирования и решения технических задач. Такой подход к обучению стимулирует творческое мышление, развивает навыки работы в команде и помогает учащимся видеть важность STEM в решении реальных проблем.

Неотъемлемой частью учебного процесса в средней школе становятся технологии. Использование интерактивных досок, программного обеспечения для моделирования и виртуальных лабораторий обогащает учебный опыт и делает учебный процесс более доступным и увлекательным.

Важной частью технологического внедрения является использование STEM-ориентированных программ и платформ, которые позволяют учащимся создавать и тестировать свои собственные проекты [7]. Проекты могут подразумевать программирование, создание роботов, виртуальное моделирование, работу с технологиями дополненной и виртуальной реальности [8].

Такие инновационные методы не только улучшают понимание учебного материала, но и стимулируют интерес учащихся к STEM-дисциплинам. Использование технологий в учебном процессе не только готовит учащихся к цифровому миру, но и создает возможности для более глубокого погружения в изучение науки, техники и математики.

Таким образом, средняя школа становится периодом интенсивного формирования STEM-компетенций, а внедрение технологий в образовательный процесс является ключевым фактором для вдохновения учащихся на долгосрочное обучение и карьерный успех в области STEM.

Общее среднее образование, сфокусированное на STEM-дисциплинах, не только формирует технические навыки и глубокое понимание науки, но и оказывает заметное влияние на выбор будущей профессиональной траектории учащихся. Учащиеся, получившие углубленное STEM-образование в средней школе, приобретают не только технические навыки, но и развивают критическое мышление, проблемное решение, коммуникацию и коллективные навыки. В результате они готовы к успешному вхождению в разнообразные области, требующие STEM-компетенций, будь то технический сектор, научные исследования, медицинская область, информационные технологии, инжиниринг.

Как показано в Таблице 2, открывающиеся профессиональные пути для выпускников школ со специализацией в STEM-дисциплинах становятся более разнообразными и перспективными [9]. В будущем, после получения соответствующего среднего специального профессионального и/или высшего образования они могут выбрать карьеру инженера, научного исследователя, программиста, врача, архитектора, аналитика данных и многих других.

Таблица 2

Разнообразие STEM-профессий

STEM-профессия	Область	Навыки и квалификации	Требования к образованию	Примеры компаний
Инженер по разработке ПО	IT	Программирование, аналитические навыки, коммуникация	Высшее образование в IT-сфере	Google (США), Tencent (Китай)

STEM-профессия	Область	Навыки и квалификации	Требования к образованию	Примеры компаний
Биоинформатик	Биология	Анализ данных, биоинформатика, молекулярная биология	Высшее образование в биоинформатике	Illumina (США), BGI (Китай)
Инженер по автоматизации производства	Инженерия	Автоматизация процессов, знание PLC	Высшее образование в области инженерии	Siemens (Германия), Fanuc (Япония)
Ученый в области искусственного интеллекта	Исследования	Машинное обучение, нейронные сети, статистика	Докторская степень в области исследований	OpenAI (США), Alibaba DAMO Academy (Китай)
Медицинский исследователь	Медицина	Клинические исследования, знание биологии	Медицинская степень, PhD	Novartis (Швейцария), Roche (Швейцария)
Астрофизик	Физика	Теоретическая физика, астрономия, математика	Докторская степень в астрономии или физике	NASA (США), European Space Agency (Европа)
Инженер по энергетике	Инженерия	Проектирование энергетических систем, знание обновляемых источников энергии	Высшее образование в области энергетики	Vestas (Дания), GE Renewable Energy (США)
Геоинформационный аналитик	География	Географическая информационная система (ГИС), статистика	Высшее образование в геоинформационных науках	Esri (США), China National Offshore Oil Corporation (Китай)
Специалист по кибербезопасности	ИТ	Кибербезопасность, анализ уязвимостей, пентестинг	Сертификация в области кибербезопасности, высшее образование в IT	Kaspersky Lab (Россия), Check Point Software Technologies (Израиль)
Инженер-химик	Химия	Синтез и анализ химических веществ, химическая инженерия	Высшее образование в области химии или химической инженерии	BASF (Германия), Dow Chemical (США)

Примеры STEM профессий и компаний, в которых подобные специалисты могут быть востребованы, демонстрируют разнообразие применения навыков STEM, взращенных в системе непрерывного образования и глобальное влияние различных сферах деятельности в разных странах и областях экономики. Анализ исследований [10, 11, 12],

представленный в таблице 2 показывает, что в некоторых случаях, если специалисты не останавливаются на среднем специальном профессиональном образовании, а продолжают свое обучение в ВУЗах, то возможности карьерного роста существенно расширяются. Благодаря широкому спектру STEM-навыков, учащиеся будут более подготовлены к адаптации к быстро меняющемуся миру труда. Это можно объяснить особенностями, характерными для высшего профессионального образования, которые мы раскроем далее.

STEM-образование в Высшей школе характеризуется активным сотрудничеством с предприятиями и индустрией, что предоставляет студентам практический опыт и представление о реальных требованиях современных рынков труда. Проекты, стажировки, мастер-классы от профессионалов в области STEM создают мост между учебной средой и реальной индустрией.

Эта связь с индустрией помогает студентам лучше понять, как применять свои знания на практике, что в свою очередь укрепляет их убежденность в выборе STEM-пути. Опыт работы с индустрией также расширяет горизонты профессиональных возможностей, предоставляя информацию о новейших технологиях и трендах.

STEM-образование в Высшей школе является катализатором формирования будущих лидеров и новаторов. Выпускники STEM-программ обладают креативностью и предпринимательским духом, способными представлять новые идеи и решения для глобальных проблем. Этот подход к образованию стимулирует не только профессиональный рост, но и создает культуру постоянного стремления к улучшению и инновациям.

Таким образом, STEM-образование в Высшей школе не только подготавливает выпускников к конкретным профессиональным областям, но и формирует их как креативных мыслителей, способных вносить вклад в научные открытия, технологический прогресс и общественные изменения.

Специализированные технические программы в вузах предоставляют студентам уникальные возможности для глубокого погружения в свои области интереса и подготовки к будущей карьере в технологических и инженерных областях. Особенности таких программ включают:

- **Глубокое изучение дисциплин**. Студенты технических программ изучают предметы более подробно и систематично, чем студенты других направлений. Программы разрабатываются таким образом, чтобы обеспечить студентам необходимые теоретические знания и практические навыки.
- **Лабораторные работы и практики**. Технические программы активно используют лабораторные работы и практику для применения теоретических знаний на практике. Студенты могут участвовать в реальных проектах, что способствует развитию профессионального опыта.
- **Специализированные курсы**. Программы включают в себя специализированные курсы, позволяющие студентам выбирать конкретные направления в своей области. Например, программы могут предлагать курсы

по разработке программного обеспечения, робототехнике, электротехнике и др.

•**Индустриальные связи.** Вузы с техническим уклоном активно сотрудничают с промышленными предприятиями. Студенты могут участвовать в стажировках и проектах совместно с компаниями, что улучшает их подготовку к реальным требованиям рынка.

•**Междисциплинарные проекты.** Студенты технических программ участвуют в междисциплинарных проектах, совмещая знания из различных областей STEM. Это способствует развитию коммуникационных навыков и пониманию взаимосвязи между разными техническими дисциплинами.

Непрерывное обучение играет ключевую роль в успешной карьере в области STEM, учитывая быстрое технологическое развитие и постоянные изменения в требованиях рынка труда. Необходима не только преемственность STEM образования на всех уровнях становления будущего специалиста, личности [13], но и в дальнейшем, в процессе профессиональной деятельности, что требует более тесной интеграции STEM-образования с современным образованием (Таблица 3)

Таблица 3

Интеграция STEM-образования в современное общество

Аспекты интеграции	Значение	Примечания	Примеры проектов
Программы в начальной школе	Развитие базовых навыков, формирование интереса к STEM	Игровые методы обучения, интерактивные занятия	"STEM for Kids" (США), "Кодируй с детьми" (Россия)
Специализированные технические программы в вузах	Подготовка высококвалифицированных специалистов	Глубокое изучение технических дисциплин, сотрудничество с промышленностью	MIT School of Engineering (США), Stanford School of Engineering (США)
Интеграция технологий в образовательный процесс	Стимулирование интереса и вовлеченности учащихся	Виртуальные лаборатории, образовательные приложения, мобильные и компьютерные технологии	Google Classroom (США), Microsoft Education (США)
Непрерывное обучение и онлайн-курсы	Обеспечение доступности образования на	Гибкость обучения, доступность для	Coursera (США), edX (США)

Аспекты интеграции	Значение	Примечания	Примеры проектов
	протяжении карьеры	профессионального развития	
Участие в научных исследованиях и проектах	Развитие практических навыков и внедрение в активное научное сообщество	Междисциплинарные проекты, участие в конференциях	Citizen Science projects (Великобритания), NASA's Open Innovation Initiative (США)
Развитие STEM-профессий в регионах	Поддержка местных инициатив и развитие экосистемы	Сотрудничество с местными предприятиями и учебными заведениями	STEM-кластеры (Германия), региональные конкурсы и форумы (Южная Корея)
Экосистема инноваций в STEM	Содействие стартапам и инновационным проектам	Инкубаторы, акселераторы, сотрудничество с венчурными фондами	Silicon Valley Innovation Center (США), Skolkovo Foundation (Россия)

Следует отметить, что в настоящее время огромное значение имеет постоянное обновление как преподавателями, так и студентами [14] знаний в условиях быстрого технологического развития. Такой подход дает:

- **Технологическое развитие**: В области STEM технологии постоянно эволюционируют. Регулярное обновление знаний позволяет специалистам следить за последними трендами и технологическими инновациями.
- **Конкурентоспособность на рынке труда**: Специалисты, постоянно улучшающие свои навыки, более конкурентоспособны на рынке труда. Работодатели ценят специалистов, готовых к самообучению и адаптации.
- **Углубленное понимание области**: Постоянное обучение помогает углубить знания в своей области, что способствует более глубокому пониманию принципов и технологий.

Таким образом, от начальной школы до профессионального роста в области STEM происходит последовательное формирование и развитие компетенций, необходимых для успешной карьеры в современном мире. Начиная с акцента на игровых методах обучения и развитии базовых навыков в начальной школе, STEM-образование в средней школе углубляет знания и формирует профессиональные интересы через участие в проектах и практических занятиях. Специализированные технические программы в вузах предоставляют студентам глубокие знания и опыт, подготавливая их к вызовам современной индустрии. Важными элементами обучения становятся

междисциплинарные проекты, лабораторные работы и сотрудничество с промышленностью. Непрерывное обучение и карьерный рост в области STEM подчеркивают важность постоянного обновления знаний в условиях быстрого технологического развития. Онлайн-курсы, семинары и конференции играют ключевую роль в профессиональном развитии, обеспечивая специалистов необходимыми инструментами для постоянного совершенствования.

Перспективы развития STEM-образования обещают углубление и расширение его воздействия. Современные тенденции свидетельствуют о росте внимания к STEM в начальных и средних школах, что создает прочный фундамент для будущих профессиональных успехов.

Влияние STEM-образования на будущее технологического прогресса и научных открытий остается важным фактором. Выпускники STEM-программ не только формируют ядро квалифицированных специалистов, но и становятся новаторами, вносящими вклад в научные и технологические достижения. Продолжение интеграции STEM в учебные программы и повышение доступности образования в этих областях предвещают устойчивый рост технологического прогресса и научных открытий в будущем.

Однако, в сфере интеграции STEM-образования в современное общество остаются актуальными несколько ключевых проблем и вызовов, которые требуют внимания и решения:

1. Эффективное внедрение STEM-образования требует хорошо обученных преподавателей, способных обеспечивать интерактивное и практическое обучение [15]. Программы обучения для учителей должны уделять внимание актуальным методикам, новым технологиям и инновационным подходам в области STEM [16].

2. Для успешной реализации STEM-образования необходимо обеспечить соответствующую инфраструктуру и ресурсы. Это включает в себя обновленные лаборатории, высокотехнологичное оборудование, программное обеспечение и доступ к современным технологиям.

3. Важно установить прочные связи между STEM-образованием и требованиями рынка труда. Это включает в себя разработку программ стажировок, сотрудничество с предприятиями и создание возможностей для студентов и профессионалов в области STEM.

4. Развитие и реализация междисциплинарных STEM-программ, позволяющих студентам объединять знания из различных областей, помогут создать более целостный и глубокий опыт обучения.

Решение указанного спектра проблем требует комплексного и согласованного подхода от образовательных учреждений, правительственных органов, индустрии и общества в целом.

В заключении следует отметить, что интегрированное STEM-образование является неотъемлемой частью современной образовательной системы. Он способствует формированию у учащихся не только конкретных навыков в области науки и технологии, но и развивает критическое мышление, командную работу и проблемное решение. Отмечается, что успешное

внедрение STEM-образования требует сотрудничества между образовательными учреждениями, промышленностью и обществом в целом. В конечном итоге, подготовка карьерных специалистов в области STEM играет ключевую роль в стимулировании инноваций и обеспечении устойчивого развития общества.

Список литературы:

1. Чемеков В. Н., Крылов Д. А. STEM-новый подход к инженерному образованию //Вестник Марийского государственного университета. – 2015. – №. 5 (20). – С. 59-64.
2. Ощепков А. А., Репин А. О. STEM-технология как средство развития творческой деятельности обучающихся //Проблемы современного педагогического образования. – 2019. – №. 65-4. – С. 246-249.
3. Шарифбаева Х. Я., Абдурашидов И. Ж. У. Опыт подготовки преподавателей технических дисциплин в ведущих вузах мира //Вестник науки и образования. – 2021. – №. 7-2 (110). – С. 27-29.
4. Кохно П. А., Кохно А. П. Опережающему промышленному производству необходимы востребованные специалисты //Вестник Московского университета МВД России. – 2022. – №. 1. – С. 367-375.
5. Тотикова Г. А. и др. Внедрение STEAM-образования в начальную школу //Современные научные разработки. Инновационный аспект. – 2023. – С. 7-10.
6. Ратиева Ю. О. Stem-образование и педагогические практики в школах Сингапура //Сборник трудов магистров-2019. – 2019. – С. 186-193.
7. Тоноян Н. Ж. STEM-технологии в образовании //Методический сборник:" STEM-технологии в образовательной организации". – 2020. – С. 34-37.
8. Абдураззакова Д. А., Абдурашидов И. Ж., Алимарданов Р. А. Цифровые приложения в преподавании технических дисциплин //Интернаука: электрон. научн. журн. – 2022. – №. 2. – С. 225.
9. Van den Berghe W., de Martelaere D. Choosing stem //Young people's educational choice for technical and scientific studies. Report compiled on behalf of the Vlaamse Raad voor Wetenschap en Innovatie, Brussels: Flemish Council for Science and Innovation. – 2012.
10. Xue Y. et al. STEM crisis or STEM surplus? : дис. – Massachusetts Institute of Technology, 2014.
11. Wong B. et al. End of the road? The career intentions of under-represented STEM students in higher education //International Journal of STEM Education. – 2022. – Т. 9. – №. 1. – С. 51.
12. Hanson G. H., Slaughter M. J. High-skilled immigration and the rise of STEM occupations in US employment //Education, skills, and technical change: Implications for future US GDP Growth. – University of Chicago Press, 2017. – С. 465-494.

13. Шарифбаева Х. Я. Реализация преемственности модели STEM на всех уровнях образования //Проблемы педагогики. – 2023. – №. 1 (62). – С. 7-10.

14. Yadkarovna S. H., Anvarovna A. D. Technology of blended learning as a condition of formation self-education skills for students //International scientific review. – 2020. – №. LXIX. – С. 73-75.

15. Шарифбаева Х. Я., Абдурашидов И. Ж. У. Общеметодическая подготовка преподавателей специальных дисциплин в технических вузах //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 23-3 (101). – С. 49-51.

16. Sharifbaeva K. et al. Formation of methodical competence of special subjects teachers in technical universities //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – Т. 2432. – №. 1.

UDK 37.018.1:39

Galdiyeva Mehribon Durdiyevna,
PROFI UNIVERSITY "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

OILADA YOSHLARNI MILLIY TARBIYALASH JAMIYATNING FAROVONLIGIDIR

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni tarbiya tizimi hayotga, ongli o'qishga va mehnatga tayyorlashda jamiyat taraqqiyotiga javob beradigan barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim o'rin egallaydi. Maqolada milliy tarbiya, ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, shuningdek, axloqiy jihatdan rivojlanishida yoshlarning bilimini oshirishda milliy tarbiya masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, shaxs, milliy qadriyat, komil inson, oila, mardlik, vatanparvarlik.

НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ В СЕМЬЕ – ЗАЛОГ ПРОЦВЕТАНИЯ ОБЩЕСТВА

Аннотация. В статье рассматривается важная роль системы образования молодёжи в подготовке её к жизни, сознательному обучению и труду, в воспитании её всесторонне развитой личностью, ответственной за развитие общества. Анализируются факторы, влияющие на эффективность национального образования, воспитательной и образовательной работы, а также вопросы национального образования в повышении уровня знаний молодёжи, в её нравственном развитии.

Ключевые слова: национальное воспитание, духовно-нравственная природа, личность, национальная ценность, совершенный человек, семья, мужество, патриотизм.

NATIONAL UPBRINGING OF YOUTH IN THE FAMILY AS THE FOUNDATION OF SOCIETAL PROSPERITY

Abstract. This article discusses the important role of the youth education system in preparing them for life, conscious study and work, in raising them as well-rounded individuals who are responsible for the development of society. The article analyzes the factors affecting the effectiveness of national education, educational and upbringing work, as well as the issues of national education in improving the knowledge of young people in their moral development.

Keywords: national education, spiritual and moral nature, personality, national value, perfect person, family, courage, patriotism.

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shubhasiz, oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari, avvalambor, oila bag‘rida, so‘ngra mahallada shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik, mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori ham oila sharoitida qaror topishi, tabiiydir.

Bolajonlik – xalqimizga xos azaliy qadriyat bo‘lib, farzand dunyoga kelishi ota-onaga ham, qarindosh-urug‘larga ham katta quvonch baxsh etadi. Kelgan kishilar uy egalarini yangi mehmon bilan qutlab: “umri bilan bergan bo‘lsin”, “baxtini ko‘ring”, deya yaxshi tilaklar bildirishadi.

Ota-ona farzandiga yaxshi niyat bilan ism qo‘yadi, shu kundan boshlab uning kelajagi va baxtini o‘ylaydi. Farzandini axloq-odobga o‘rgatish, o‘qitish, katta bo‘lganda biror kasb-hunar egasi bo‘lishiga ko‘maklashish ota-onaning zimmasidagi burchidir.

Qadimdan o‘g‘il bolalar ota yonida dastyor bo‘lib, uning hunarini egallagan, qizlar esa ona rusumini tutib kelishgan.Sharqona tarbiyaga ko‘ra qiz bolalar bilan gaplashganda nafosat bilan sekin so‘zlashga o‘rgatiladi. Kattalarga tik qarash – hurmatsizlik, beodoblik sanalgan. Uyda keksalar yig‘ilganda ayollar yarim ovozda so‘zlashishgan. Yoshi ulug‘larning hurmatini bajo keltirish esa ularga ko‘r-ko‘rona itoat qilish emas, balki ularning turmush tajribalariga, bilimlariga hurmat belgisidir.

Qadimdan xalqimizning eng olijanob oilaviy an'analaridan biri – kechalari ota-onalar bolalari bilan tancha atrofida o‘tirib, tarbiya, odob-axloq haqida maroqli suhbatlar o‘tkazishlari bo‘lgan. Bunda ular o‘zbek xalq ertaklari, dostonlari orqali, farzandlarini to‘g‘ri yo‘lga boshlaganlar. O‘zbek xalqining turmush tarziga singib ketgan urf-odatlarimizning aksariyati kishini jismonan sog‘lom, e’tiqodli shaxs bo‘lib etishishiga xizmat qiladi.

Milliy tarbiya ko‘p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Odatda bolaning fe’l-atvori, yurish-turishiga, muomala madaniyatiga qarab ota-onasi kim, oilada qanaqa tarbiya ko‘rgani haqida hukm chiqariladi. Hayotning ko‘rki ham, chiroyi ham ayollardir. Ayol bor yerda mehr-vafo, orastalik, ezgulik bor. Qiz bola – hayosi bilan go‘zal. Go‘zallik bu faqat tashqi qiyofada emas, balki odob-axloq, farosat, pokizalik, olijanoblik, sharm-hayo, iffat, g‘urur, latofat, mehnatsevarlik kabi chin insoniy fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Mana shular mujassamlashgandagina inson haqiqiy go‘zal bo‘la oladi. Go‘zallik dilni ravshan qila oladigan bir nurki, inson har vaqt shu nur tomon intiladi.

Qiz bola tarbiyasi jiddiy masala ekanligini inobatga olgan holda har bir inson bunga jiddiy yondoshib harakat qilmog‘i lozim. Ayniqsa, maktab, lisey va kollej o‘qituvchilarining galdagi mas'uliyatli vazifalaridir. Bizga ma’lumki, har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki, ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ma’naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar.

Ko‘plab olimlar o‘z tadqiqotlarida ma’naviy tanazzulning asosiy omillari bo‘yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma’lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e’tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, jaholatga olib boradigan bir omil, ya’ni oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illati millatning ma’naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xo‘sh nega bugun ota-onalar farzand tarbiyasiga e’tiborsiz? Farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishiga qanday omillar to‘sqinlik qilyapti? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qo‘ymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo‘lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik illat va tahdidi kuchayib bormoqda.

Oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish vazifasi qo‘yildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so‘z bordi. Mazkur yig‘ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to‘xtalib, “Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi”, – deya alohida ta’kidladi.

Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug‘ mutafakkirlarimizning ma’naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi.

"... hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur", degan edi milliy pedagogikamizning buyuk darg'asi Abdulla Avloniy. Konsepsiya ana shu hikmatga hamohang bo'lib, unda farzandlarimizda milliy yuksalishimiz uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Voyaga yetgan o'g'il-qizlarimiz mustaqil hayotga ana shu fazilatlari bilan kirib boradilar. Bu fazilatlari ularning o'zlarini ham, xalqimizni ham baxtli, farovon qiladi.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik va psixologik hamkorlikni yangi darajaga ko'tariladi. O'quvchilarmizni nafaqat yaxshi mutaxassis, balki komil inson bo'lishlari uchun ta'limni tarbiya bilan uzviy bog'lagan holda olib borishmoqda.

Ota-onaga hurmat, ular oldida umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlar ham oila muhitida shakllanadi. Ma'lumki, Sharqda, oila tushunchasi, oila qurish va uning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta'minlash insonning o'z millati, avlod-ajdodlari, jamiyat oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir. Har bir oila ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Oilaviy munosabatlar alohida olingan har bir holatda o'ziga xos tomonlarga ega bo'ladi. Chunki, bu munosabatlar o'ziga xos ma'naviy qiyofaga ega bo'lgan kishilarning o'zaro ta'sirining natijasidir. Shunga ko'ra, oilaning bolaga ta'siri spetsifik, o'ziga xos bo'lgani uchun, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishi ham o'ziga xos va takrorlanmasdir. Ikkinchidan, bola o'z ota-onalarining xatti-harakatlari, butun hayotiy faoliyatlarini kuzatib yuradi. Shu tufayli narsa va hodisalarga ta'sir qilishga qodir bo'lgan faoliyatning subekti sifatida o'z-o'zini anglay boshlaydi. Uchinchidan, oila o'ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo'lib, unda ijobiy va ba'zan salbiy his-tuyg'ular jamuljam bo'ladi. Ana shu boisdan bola hissiyotini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar oilada o'zaro hurmat va ishonch bilan birga, yaxshi kayfiyat asosidagi sog'lom muhit qaror topgan bo'lsa, bu bola ruhiyatiga, uning hissiyotiga ijobiy ta'sir etishi tabiiydir. To'rtinchidan, oila sharoitida bolalarda o'zgalarga nisbatan hamdardlik tuyg'ulari ham tarbiyalanadi. Chunki bola yoshligidanoq hayotda g'am-tashvishlar bilan quvonch-sevinchlar birga yurishligini anglab borishi kerak. Ota-onalar bolalarida jamiyatda va oilada

kerakli ekanliklarini ilk bor his qilishni uyg‘ota olsalar, insondagi bebaho hislat bo‘lgan mehnat qilish quvonchidan bolani bahramand qilgan bo‘ladilar. Beshinchidan, oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. Chunki, bola hayoti asosan uy sharoitida o‘tadi. Oila a’zolari o‘rtasida muomala madaniyati oilaviy tarbiyada muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar ma’naviy jihatdan qanchalik boy bo‘lsa, ular o‘z farzandlariga nisbatan shu qadar jiddiy va mas'uliyatli munosabatda bo‘ladilar. O‘zlaridagi mavjud ma’naviy-axloqiy fazilatlarni farzandlari timsolida ko‘rishni har qanday ota-ona orzu qiladi. Oilada milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi. Agar ota-onalar jamiyatimiz tomonidan oilaga, o‘sib borayotgan avlod tarbiyasiga qo‘yiladigan talabni bilsa, axloqiy tarbiya samarali bo‘ladi; milliy tarbiyalash jarayonida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy o‘zbek an'analaridan foydalaniladi; ota-onalar pedagogika va psixologiyaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda va oilaviy tarbiya masalalari bo‘yicha Sharq mutafakkirlarining boy madaniy merosidan foydalangani holda o‘zining pedagogik ma’lumotini doimo oshirib boradi. Ma’lumki, mamlakatimizda ta’lim va tarbiya – o‘zaro uzviy bog‘liq sharqona tushunchalar sifatida qaraladi. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmasligi davlatimizning ta’lim sohasidagi siyosatida ham ustuvor tamoyil hisoblanadi. Inson tarbiyasining barcha jihatlari, tarkibiy qismlari farzandlar ruhiyati va ma’naviyati olamiga oila davrasidagi suhbatlarda, o‘git-nasihatlarda, yaqqol xatti-harakatlar vositasida singdirib boriladi. Mehr-muhabbat, ahillik, kamtarlik, hotamtoylik, mehmondo‘stlik singari milliy hislatlar oila bag‘rida nish uradi va asta-sekin har bir oila a’zosining xulq-atvorida mujassamlashadi. [4] Bu borada mazkur tuzilmaning alohida faoliyat yo‘nalishi mavjud. Oiladagi nosog‘lom psixologik muhit va oilaviy tarbiyadagi yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar hamda ta’lim jarayonida kuzatilayotgan nuqsonlar, bolalar va o‘smirlar yashayotgan mahallalar hayoti, ularning psixologik muhiti voyaga etmaganlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ma’lumki, obektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhit voqea- hodisalari o‘smirning ongi, xohish-irodasiga bo‘ysunmagan holda ta’sir etadi va uning ongi, dunyoqarashi, shaxs sifatida shakllanish va xulq-atvori mazmunini belgilab beradi. I.Pavlovning ta’kidlashicha, inson va hayvon xulq-atvori mazmuni nafaqat nerv sistemasining tug‘ma xususiyatlari, balki organizmga doimo ta’sir etib turuvchi tashqi ta’sirlar, ya’ni doimiy ravishda berib boriladigan tarbiya yoki ta’lim jarayoniga ham bog‘liq bo‘ladi. Bir qator tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, inson odobli yoki odobsiz, oliyjanob yoki egoist, jinoyatchi yoki sog‘lom xulqli bo‘lib tug‘ilmaydi. Shaxsdagi u yoki bu xildagi xususiyatlar va ustanovkalar kishining ijtimoiy hayot faoliyati, uni qurshab olgan obektiv shart-sharoitlar va voqea-hodisalar ta’sirida vujudga keladi. Ushbu shart - sharoitlar va obektiv munosabatlar xarakteri individning shaxs sifatida shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, aytish mumkinki, shaxs xususiyatlarining shakllanishi nafaqat inson organizmining nasliy xususiyatlariga, balki, eng avvalo, u aloqada bo‘lgan ijtimoiy muhitga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy turmush shart–sharoitlari provard natijada inson xulq-atvorining shakl va tamoyilini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. – Toshkent: Adolat, 25 bet. 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 4-jild, 2020. 154-bet.

3. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”.-T.: “O‘qituvchi”.1992 15-b.

4. Karimova V.M. Yoshlarda o‘zbek oilasi to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Psix. fan. dok. ... dis. – T.: ToshDU, 1994.- 309 b.

UDK 378.016:373.3

Axmedova Laylo Baxtiyor qizi,
PROFI UNIVERSITY
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dotsenti, PhD

OLIY TA'LIMDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING DIDAKTIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyati yuqori darajadagi didaktik tayyorgarlik, ijodiy yondashuv va pedagogik moslashuvchanlikni talab etishi bilan izohlanadi. Maqolada didaktik kompetensiyaning tarkibiy komponentlari – motivatsion, faoliyatga oid, kognitiv va shaxsiy jihatlari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, situatsion o'rganish, o'yin va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion pedagogik strategiyalar qo'llanildi.

Kalit so'zlar: didaktik kompetensiya, innovatsion pedagogik strategiyalar, oliy ta'lim, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, pedagogik ijodkorlik, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik.

ФОРМИРОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье рассматривается проблема формирования дидактических компетенций будущих учителей начальных классов в процессе высшего образования на основе инновационных педагогических стратегий. Актуальность исследования обусловлена необходимостью подготовки педагогов, обладающих высоким уровнем профессиональной компетентности, педагогической креативности и готовности к инновационной деятельности. В работе раскрыта сущность дидактической компетенции и обоснованы ее структурные компоненты: мотивационный, деятельностный, когнитивный и личностный. В ходе исследования использованы инновационные педагогические стратегии, включая проблемное обучение, проектную деятельность, ситуационное обучение, игровые технологии и информационно-коммуникационные средства.

Ключевые слова: дидактическая компетенция, инновационные педагогические стратегии, высшее образование, учитель начальных классов, педагогическая креативность, компетентностный подход, профессиональная подготовка.

FORMATION OF DIDACTIC COMPETENCIES OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN HIGHER EDUCATION

Abstract. The article examines the issue of forming didactic competencies of future primary school teachers in the process of higher education through innovative pedagogical strategies. The relevance of the study is determined by the growing demand for teachers who possess a high level of professional competence, pedagogical creativity, and readiness for innovative activity. The paper substantiates the essence of didactic competence and identifies its main structural components, including motivational, activity-based, cognitive, and personal aspects. Innovative pedagogical strategies such as problem-based learning, project-based learning, situational learning, game technologies, and information and communication technologies were applied during the experimental study.

Key words: didactic competence, innovative pedagogical strategies, higher education, primary school teacher, pedagogical creativity, competency-based approach, professional training.

Har bir tarixiy davrning qadriyatlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Bugungi globallashuv sharoitida axborot erkinligining kengayishi, demokratik va insonparvar qadriyatlarning mustahkamlanishi, madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi ta'lim tizimiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda [5]. Ushbu jarayonlar ta'lim mazmuni va metodikasini yangilash, ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamon talablari asosida tayyorlash zaruratini kuchaytirmoqda.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning asosiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantiruvchi poydevor bo'lib, unda o'qituvchining kasbiy mahorati, didaktik tayyorgarligi va pedagogik yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida bugungi o'quvchilar oldingi davrlardagi tengdoshlaridan o'zining qiziqishlari [11], ehtiyojlari va o'rganish uslublari bilan sezilarli darajada farqlanadi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining didaktik kompetensiyalari an'anaviy bilimlarni yetkazish bilan cheklanmay, balki innovatsion pedagogik strategiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim [7].

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'qituvchilar hali ham an'anaviy ta'lim usullariga tayanib faoliyat yuritmoqda, bu esa ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi [4]. Oliy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalarni joriy etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish, ularning kasbiy mustaqilligi, ijodiy yondashuvi va reflektiv faoliyatini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot oliy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik

kompetensiyalarini shakllantirish masalasini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan [18].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik ijodkorligini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgan muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar ushbu muammoni, avvalo, jamiyatning ijodiy fikrlovchi, tashabbuskor va mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoji bilan oliy ta’lim tizimida hanuzgacha saqlanib qolayotgan an’anaviy o‘qitish stereotiplari o‘rtasidagi qarama-qarshilik bilan izohlaydilar (Zivitere et al., 2015; Ibragimkzy et al., 2016). Mazkur qarama-qarshilik bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida innovatsion yondashuvlarni kengroq joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bir qator tadqiqotchilar kreativ pedagogika doirasida o‘qituvchining ijodiy o‘rganishi va pedagogik faoliyatining ahamiyatini ta’kidlagan bo‘lsalar-da, o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ushbu masala yetarli darajada e’tiborga olinmayotganini qayd etadilar (Mark Selkrig & Ron Kim Keamy, 2017). Bu holat pedagogik strategiyalarni qayta ko‘rib chiqish va ularni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Talabalar ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar doirasida turli pedagogik modellar va metodlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Prompan (2007) tomonidan miya faoliyatiga asoslangan ta’lim modeli, Chuathong (2011) tomonidan hamkorlikka asoslangan ta’lim, Aulapijitkul (2011) tomonidan sinergetik yondashuv, Kanchanachaya (2012) tomonidan esa aralash ta’lim modeli taklif etilgan. Ushbu modellar ta’lim jarayonida faollik, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Ilmiy adabiyotlarda kreativlikning turli ko‘rinishlari, jumladan, texnik, ijtimoiy va tadbirkorlik kreativligi masalalari ham tahlil qilingan (Byvalkevych et al., 2020; Mouchiroud & Lubart, 2002; Petrakis & Kafka, 2016). Ushbu tasniflar kelajakdagi o‘qituvchi shaxsida ijodiy g‘oyalarni shakllantirish va ularni pedagogik faoliyatda samarali qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimi bo‘lajak o‘qituvchilardan muammolarni noodatiy yo‘l bilan hal qilish, ta’lim jarayonini takomillashtirish va pedagogik innovatsiyalarni yaratish qobiliyatini talab etmoqda.


Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirish masalasi esa ilmiy adabiyotlarda nisbatan kam yoritilgan bo‘lib, mavjud tadqiqotlar asosan musiqa o‘qituvchilari (Abramo & Reynolds, 2015), dizaynerlar (Tu et al., 2018) va amaliyotchi o‘qituvchilar (Morais & Azevedo, 2011) faoliyatiga bag‘ishlangan. Shu bilan birga, ijodkorlikning shakllanishida muhit va tashqi omillarning roli alohida ta’kidlanadi (De Bono, 1992; Sternberg, 2002). An’anaviy ta’lim esa bu jarayonni to‘liq ta’minlay olmasligi qayd etilib, innovatsion ta’lim metodlari va texnologiyalarini joriy etish zarurligi asoslanadi (Soh, 2018).

Innovatsion ta’lim pedagogik jarayonda yangi metodlar, vositalar va mazmunni maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli ravishda qo‘llashni nazarda tutadi. Ferrari et al. (2009) va Dichkovska (2015) ta’kidlaganidek, innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan birga, ta’lim

jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirishda innovatsion pedagogik strategiyalarni qo‘llash masalasi hali yetarli darajada umumlashtirilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga va oliy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalar orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish masalasini asoslashga qaratilgan.

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalar orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini o‘rganishga qaratilgan [11]. Tadqiqot obyekti sifatida “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan 1–2-bosqich talabalari tanlandi. Tadqiqot bazasi sifatida oliy pedagogik ta’lim muassasasida tahsil olayotgan jami 350 nafar talaba qamrab olindi. Tanlanma hajmi 95 foizlik ishonchlilik darajasi va 5 foizlik xatolik ehtimoli asosida aniqlanib, tajribada 183 nafar talaba ishtirok etdi. Ular eksperimental guruh va nazorat guruhlariga ajratildi.

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik modeli ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Tadqiqot jarayoni uch bosqichda tashkil etildi. Birinchi, tayyorlov bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, amaldagi o‘quv rejalari, fan dasturlari va me’yoriy hujjatlar o‘rganildi. Shuningdek, didaktik kompetensiyaning shakllanish darajalarini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlari belgilandi hamda diagnostik vositalar majmuasi ishlab chiqildi. Ikkinchi, asosiy bosqichda

innovatsion pedagogik strategiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni amalga oshirildi, dastlabki va yakuniy diagnostik o'lchovlar o'tkazildi. Uchinchi, yakuniy bosqichda olingan natijalar qayta ishlanib, statistik tahlil qilindi hamda ilmiy xulosalar shakllantirildi [16].

Tadqiqotda nazariy, empirik va statistik metodlar majmuasidan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va modellashtirish qo'llanildi. Empirik metodlarga pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma, testlash va pedagogik tajriba kiritildi [1]. Tajriba jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalar, jumladan, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan mashg'ulotlar va reflektiv faoliyat usullari qo'llanildi [3]. Olingan miqdoriy ma'lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, natijalarning ishonchliligi aniqlashtirildi.

1-jadval

Pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishda innovatsion o'qitish texnologiyalarining didaktik salohiyati

Innovatsion texnologiya	Pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishdagi didaktik salohiyati
O'yin texnologiyasi	O'yin texnologiyasi ijodiy qobiliyatlarni namoyon etish uchun qulay muhit yaratadi, kasbiy faoliyatga qiziqishni faollashtiradi va ijodiy pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu texnologiya orqali o'qituvchining kasbiy qadriyatlari va ko'nikmalari bilvosita shakllanadi. Shuningdek, pedagogik improvizatsiya, kommunikativ faoliyat, pedagogik muloqot etikasi va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari rivojlanadi.
Muammoli ta'lim texnologiyasi	Muammoli ta'lim texnologiyasi muammolar va qarama-qarshiliklarga qiziqishni oshiradi, haqiqatni izlashga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi hamda ta'lim jarayonining motivatsion komponentini faollashtiradi. Ushbu texnologiya bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil bilim olish, chuqur tahlil qilish, muammoning mohiyatini anglash va optimal yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
Ijodiy muammolarni hal etish texnologiyasi	Mazkur texnologiya shaxsiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, axborotni tizimlashtirish, qarama-qarshiliklarni aniqlash va ularning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish malakalarini shakllantiradi. Shuningdek, psixologik inersiyani yengishga yordam beradi va ijodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishga xizmat qiladi.
Vaziyatli "keys" ta'lim texnologiyasi	Situatsion ta'lim texnologiyasi pedagogik muammolarni ijodiy hal etish qobiliyatini rivojlantiradi, o'zlashtirilgan bilim va tajribani amaliyotga tatbiq etishni ta'minlaydi.

	Ushbu texnologiya hamkorlikda ijod qilish, kasbiy faoliyatning ijodiy mohiyatini anglash, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining didaktik kompetensiyasi kasbiy bilimlar, shaxsiy-ijodiy sifatlar, motivatsion-emotsional holat va faoliyatga yo‘naltirilgan ko‘nikmalar majmui sifatida talqin qilindi [19]. Ushbu komponentlarning rivojlanish darajalari past, o‘rta va yuqori bosqichlar asosida baholanib, innovatsion pedagogik strategiyalarning didaktik kompetensiyalarni shakllantirishdagi samaradorligi aniqlandi.


Tadqiqotning dastlabki bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish bilan bog‘liq pedagogik ijodkorlik darajasini aniqlash maqsadida dastlabki diagnostik o‘lchovlar amalga oshirildi [2]. Tajriba va nazorat guruhlarida olingan natijalar solishtirma tahlil qilinib, guruhlar o‘rtasida tajriba boshlanishida sezilarli tafovut mavjud emasligi aniqlandi. Har ikkala guruhda ham talabalar sonining katta qismi pedagogik ijodkorlikning o‘rta darajasida joylashgan bo‘lib, yuqori darajaga ega bo‘lganlar soni nisbatan kam, past darajadagi talabalar esa barqaror ulushni tashkil etdi [17]. Bu holat tajriba ishlarini boshlash uchun teng sharoit mavjudligini tasdiqladi.

Motivatsion-emotsional komponent bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikki guruhda ham talabalarning yarmidan ortig‘i o‘rta darajaga mansub bo‘lib, taxminan uchdan bir qismi past darajada, faqat cheklangan qismi yuqori darajada joylashgan. Faol komponent bo‘yicha ham shunga o‘xshash holat kuzatilib, talabalarning asosiy qismi o‘quv faoliyatida ijodiy faollikni namoyon etishda barqarorlikka erishmaganini ko‘rsatdi [13, 15]. Kognitiv komponent tahlilida esa talabalarning aksariyatida pedagogik bilimlar mavjud bo‘lsa-da, ularni mustaqil tahlil qilish va yangicha yechimlar ishlab chiqish qobiliyati yetarli darajada rivojlanmagani aniqlandi. Shaxsiy komponent bo‘yicha esa kasbiy o‘zini anglash, ijodiy tashabbus va reflektiv faoliyat elementlari hali to‘liq shakllanmaganligi qayd etildi.

Tajriba bosqichida oliy ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik strategiyalar tizimli ravishda joriy etildi. Tadqiqotning qiymat-motivatsion bosqichida muammoli va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish natijasida talabalarning pedagogik ijodkorlikka bo‘lgan qiziqishi va kasbiy faolligi oshdi. Asosiy ijodiy-faol bosqichda situatsion o‘rganish, loyiha asosida o‘qitish va ijodiy topshiriqlar orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va muqobil yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlari rivojlandi. Yakuniy reflektiv-baholash bosqichida esa o‘z-o‘zini baholash, portfoliolar va loyiha ishlari orqali erishilgan natijalar mustahkamlandi.

Yakuniy diagnostika natijalari tajriba guruhida pedagogik ijodkorlik va didaktik kompetensiyalar rivojlanishida ijobiy dinamikani ko‘rsatdi. Xususan, tajriba guruhida yuqori darajaga o‘tgan talabalar soni sezilarli darajada oshib, past darajadagi talabalar soni kamaydi. O‘rta darajadagi talabalar yuqori darajaga o‘tishi

kuzatilib, bu o‘zgarishlar barcha komponentlar bo‘yicha barqaror xarakter kasb etdi. Nazorat guruhida ham ma’lum o‘zgarishlar qayd etilgan bo‘lsa-da, ular ko‘proq tabiiy o‘quv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, barqaror va keskin o‘sish bilan tavsiflanmadi.



2-**rasm.** Didaktik kompetensiyalar komponentlari bo‘yicha yuqori darajaga erishgan talabalar taqsimoti

Olingan natijalar matematik-statistik tahlil asosida tekshirildi. X^2 mezoni yordamida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqning ishonchliligi baholanib, tajriba guruhida innovatsion pedagogik strategiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni pedagogik ijodkorlik va didaktik kompetensiyalar rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Hisoblangan statistik qiymatlar tanlangan ishonchlilik darajasida kritik qiymatdan yuqori bo‘lib, bu ilgari surilgan gipotezaning tasdiqlanganini va o‘tkazilgan tajribaning samaradorligini ko‘rsatdi.

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalar orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini shakllantirish masalasini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy ta’lim yondashuvlari bo‘lajak o‘qituvchilarning didaktik kompetensiyalarini to‘liq va barqaror shakllantirish uchun yetarli emas. Dastlabki diagnostika natijalari talabalarning pedagogik ijodkorligi va didaktik kompetensiyalari asosan o‘rta darajada ekanini, yuqori darajaga ega bo‘lganlar soni esa cheklanganligini ko‘rsatdi. Bu holat oliy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalarni maqsadli va tizimli joriy etish zaruratini tasdiqlaydi.

Tajriba jarayonida muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, situatsion o‘rganish, o‘yin va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan mashg‘ulotlar joriy etilishi natijasida tajriba guruhida didaktik kompetensiyalarning

barcha komponentlari bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Xususan, talabalarning pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarga ijodiy yondashish, mustaqil qaror qabul qilish va reflektiv faoliyat olib borish qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlandi. Statistik tahlil natijalari innovatsion pedagogik strategiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni tajriba guruhida didaktik kompetensiyalarni shakllantirishda samarali ekanini ilmiy jihatdan tasdiqladi.

Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: birinchidan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik strategiyalarni majburiy komponent sifatida o‘quv reja va fan dasturlariga integratsiya qilish zarur; ikkinchidan, “Ta’lim nazariyasi va metodikasi”, “Boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalar”, “O‘qitishda axborot texnologiyalari” kabi fanlarni didaktik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitish lozim; uchinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarning reflektiv faoliyatini rivojlantirish maqsadida portfoliolar, loyiha ishlari va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlaridan tizimli foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abramo, J., & Reynolds, A. “Pedagogical creativity and teacher education”. Journal of Research in Music Education, 63(4), 425–445. https://doi.org/10.1177/0022429415614915 2015.
2. Aditerkova, G. A., et al. Development of professional qualities of future teachers in higher education. International Journal of Instruction, 14(2), 345–360. 2021.
3. Byvalkevych, L., Bakhov, I., & Humenna, O. Development of creative competence of future teachers. Revista Românească pentru Educaţie Multidimensională, 12(3), 1–15. 2020.
4. Connor, C. M., et al. Teacher professional development and competence-based education. Teaching and Teacher Education, 85, 1–12. 2019.
5. De Bono, E. Serious creativity. London: Harper Collins. 1992.
6. Dichkovska, I. M. Innovative pedagogical technologies in higher education. Pedagogical Innovations, 4, 45–52. 2015.
7. Ferrari, A., Cachia, R., & Punie, Y. Innovation and creativity in education. European Commission Report. 2009.
8. Huong, N. T., et al. Competency-based teacher education in higher education. Education Sciences, 11(6), 1–14. https://doi.org/10.3390/educsci11060287 2021.
9. Ibragimkzy, A., et al. Innovative approaches in teacher training. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 228, 497–503. 2016.
10. Jamshidifarsani, H., et al. Competency-based learning in teacher education. International Journal of Educational Research, 98, 1–10. 2019.
11. Kolmos, A. Strategies for active learning in higher education. Aalborg University Press. 2004.

12. Mouchiroud, C., & Lubart, T. Social creativity: A review. Creativity Research Journal, 14(3–4), 361–371. 2002.

13. Morais, M. F., & Azevedo, I. Creativity in teachers' professional practice. Thinking Skills and Creativity, 6(2), 112–122. 2011.

14. Petrakis, P. E., & Kafka, K. I. Entrepreneurship and creative economy. Journal of Innovation and Entrepreneurship, 5(1), 1–18. 2016.

15. Selkrig, M., & Keamy, R. K. Creative pedagogy in teacher education. Australian Journal of Teacher Education, 42(9), 1–16. 2017.

16. Shkabarina, M., Verbytska, K., Vitiuk, V., Shemchuk, V., & Saleychuk, E. Development of pedagogical creativity of future primary school teachers using innovative technologies. Revista Românească pentru Educaţie Multidimensională, 12(4), 137–155. 2020.

17. Soh, K. Creativity fostering teacher behaviour. Thinking Skills and Creativity, 28, 92–103. 2018.

18. Sternberg, R. J. Creativity and intelligence. Cambridge: Cambridge University Press. 2002.

19. Trujillo, F. Project-based learning in teacher education. Educational Innovation Journal, 6(2), 23–35. 2012.

20. Zivitere, M., Riashchenko, V., & Markina, I. Teacher pedagogical competence and creativity. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 174, 2017–2025. 2015.

UDK 37.016:811.512.133:81'23

Qosimova Gavhar Islomovna,
Turon universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Mo'minova Shahrizoda Sherzod qizi,
Turon universiteti magistranti

BO'LAJAK O'ZBEK TILI O'QITUVCHISI LINGVOMETODIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA KOGNITIV LINGVISTIKANING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'zbek tili o'qituvchisining lingvometodik tafakkurini rivojlantirishda kognitiv lingvistikaning nazariy qoidalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistika, lingvometodika, terminologiya, semantik maydon, semantik tarmoq, terminosistema, kasbiy tafakkur, kognitiv sxema, pedagogik tayyorgarlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В РАЗВИТИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье анализируются возможности использования теоретических положений когнитивной лингвистики в развитии лингводидактического мышления будущего учителя узбекского языка.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, лингводидактика, терминология, семантическое поле, семантическая сеть, терминосистема, профессиональное мышление, когнитивная схема, педагогическая подготовка.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF COGNITIVE LINGUISTICS IN DEVELOPING THE LINGUO-METHODOLOGICAL THINKING OF FUTURE UZBEK LANGUAGE TEACHERS

Abstract. The article analyzes the possibilities of using the theoretical principles of cognitive linguistics in the development of linguodidactic thinking of a future teacher of the Uzbek language.

Keywords: cognitive linguistics, linguodidactics, terminology, semantic field, semantic network, terminological system, professional thinking, cognitive scheme, pedagogical training.

Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak o'zbek tili o'qituvchisining lingvometodik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji hamda ta'lim mazmunining yangilanishi pedagog

kadrlarning kasbiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, ona tilini o‘qitish jarayonida nafaqat til birliklarini o‘rgatish, balki ularni anglash, tahlil qilish va amaliy qo‘llashga oid chuqur lingvometodik tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida nazariy bilimlar bilan bir qatorda, ularni tizimli fikrlash asosida o‘zlashtirish masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida lingvometodik bilimlarning asosini tashkil etuvchi terminologik tizimni ongli ravishda o‘zlashtirish, ilmiy tushunchalarni mantiqiy va semantik jihatdan tizimlashtirish hamda ularni yaxlit kognitiv strukturalar orqali anglash zarur. Chunki terminlar nafaqat ma’lum bir fan sohasining til birliklari, balki kasbiy tafakkurning asosiy vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Ularni chuqur o‘zlashtirish o‘qituvchining metodik qaror qabul qilish qobiliyatini, didaktik vaziyatlarni tahlil qilish hamda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kognitiv lingvistika tilni inson tafakkuri, bilimlari va tajribasini aks ettiruvchi hamda strukturallashtiruvchi tizim sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til birliklari inson ongida muayyan konseptual tuzilmalar, ya’ni kognitiv sxemalar, freymlar va semantik tarmoqlar shaklida saqlanadi va qayta ishlanadi. Shu nuqtai nazardan, lingvometodik terminologiyani semantik maydonlar va o‘zaro bog‘langan semantik tarmoqlar asosida tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchining bilimlarini tizimlashtirish, ularni chuqur anglash hamda amaliy faoliyatga tatbiq etish imkonini kengaytiradi. Bu esa o‘z navbatida kasbiy tafakkurning mantiqiyligi, moslashuvchanligi va refleksivligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, lingvometodik tafakkurning rivojlanishi pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish, metodik yondashuvlarni tanlash va o‘quv jarayonini samarali tashkil etish kompetensiyalarini shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil fikrlash, bilimlarni integratsiyalash hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga tayyorlikni rivojlantiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — kognitiv lingvistikaning nazariy qoidalari asosida lingvometodik terminologik tizimni shakllantirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda uning bo‘lajak o‘zbek tili o‘qituvchisining kasbiy-kognitiv tafakkuri rivojiga ta’sirini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, tadqiqotda lingvometodik bilimlarni kognitiv strukturalar asosida o‘zlashtirishning samaradorligi hamda ularning pedagogik faoliyatdagi amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Tadqiqot jarayonida turli metod va yondashuvlardan integrativ tarzda foydalanildi, bu esa lingvometodik terminologiyani kognitiv nuqtai nazardan chuqur o‘rganishga imkon berdi. Jumladan, nazariy tahlil metodi orqali kognitiv lingvistika, lingvodidaktika va terminologiya sohalariga oid zamonaviy ilmiy manbalar batafsil o‘rganildi, bu esa bo‘lajak o‘qituvchining lingvometodik tafakkurini shakllantirishga ta’sir qiluvchi nazariy asoslarni aniqlash imkonini berdi. Shu bilan birga, komponent tahlil metodi yordamida lingvometodik terminlarning semantik tarkibi chuqur o‘rganilib, har bir atamaning tarkibiy va funksional elementlari

aniqlashtirildi, bu esa ularning kasbiy kontekstda qo‘llanilishini tushunishga xizmat qildi. Semantik maydon va semantik tarmoq modellashtirish yondashuvi orqali atamalar o‘rtasidagi tizimli va mantiqiy bog‘lanishlar aniqlanib, terminologik birliklarning o‘zaro aloqalari va kognitiv strukturalardagi o‘rni xaritalandi, bu esa lingvometodik bilimlarni tizimli tarzda o‘zlashtirishni ta’minladi. Shu bilan birga, taqqoshlash metodi qo‘llanilib, atama, nomen, predtermin, terminoid va professionallik kabi lingvistik birliklar o‘zaro differensial tahlil qilindi, bu ularning semantik va funksional farqlarini aniqlashga yordam berdi hamda kognitiv sxemalar bilan bog‘liq tafakkur jarayonlarini boyitdi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv prinsipidan foydalanib, lingvometodik terminologiya yagona terminosistema sifatida ko‘rib chiqildi, bu esa terminlarning o‘zaro integratsiyasini va kasbiy-ilmiy tafakkur rivojiga ta’sirini yanada mustahkamladi. Metodologik asos sifatida semantik maydon nazariyasi, kognitiv sxema va freym modeli, shuningdek, terminologiyaning semiotik talqini qabul qilindi, bu esa terminlarning nafaqat lingvistik, balki kognitiv va didaktik jihatdan tahlil qilinishiga imkon yaratdi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvometodik tafakkurini shakllantirish jarayonini ilmiy asoslashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Lingvometodik terminologiya semantik maydon sifatida tashkil topadi. U kasbiy jihatdan chegaralangan, o‘zaro bog‘langan atamalar tizimidan iborat.
2. Terminologik tizim kognitiv sxema vazifasini bajaradi. Atamalar o‘rtasidagi ierarxik va semantik aloqalar bilimni strukturallashtirishga xizmat qiladi.
3. Termin bilan ishlash tafakkurni rivojlantiradi. Atamaning nominativ, kognitiv va kommunikativ funksiyalari kasbiy dunyoqarash shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.
4. Lingvometodik terminopol va terminosistema modeli bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tafakkurini tizimli shakllantirish imkonini beradi.
5. Terminologik birliklar (atama, nomen, predtermin, terminoid, prototerm va professionallik) o‘zaro farqlanishi lozim bo‘lib, bu ilmiy aniqlik va konseptual barqarorlikni ta’minlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, lingvometodik kurslarda terminlar bilan maqsadli ishlash talabalarda tasniflash, umumlashtirish, modellashtirish va mantiqiy bog‘lash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Lingvometodik tayyorgarlik jarayonida terminologik tizimni shakllantirish nafaqat talabalarning lug‘aviy boyligini kengaytirish bilan cheklanmaydi, balki u professional dunyoqarashni, ya’ni kasbiy tafakkur va metodik fikrlashni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Terminologiya oddiy so‘zlar yoki atamalar yig‘indisi emas, balki ma’lum bir ilmiy konsepsiyaning semiotik ifodasi bo‘lib, u o‘quvchiga nafaqat lingvistik bilimlarni, balki ilmiy va metodik tafakkurini tizimli tarzda shakllantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, lingvometodik terminlarning mazmuni va tuzilishi kasbiy va pedagogik kontekstga integratsiyalangan holda o‘rganilishi kerak.

Kognitiv lingvistika yondashuvi asosida bilim til orqali kodlanadi va inson ongida semantik tarmoqlar, kognitiv sxemalar va freymlar ko‘rinishida saqlanadi.

Lingvometodik terminlarni o‘rgatishda semantik maydonlar va terminlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni aks ettiruvchi tarmoqlarni qo‘llash talabalarning konseptual tizimni anglashini mustahkamlaydi, terminlarning semantik va funksional munosabatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi hamda metakognitiv faollikni oshiradi. Shu tarzda, terminologik bilimlar faqat yodlash bilan cheklanmay, talabaning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Uslub kursi davomida bo‘lajak o‘zbek tili o‘qituvchisining lingvometodik tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha taklif etilayotgan konsepsiya talaba-filologning lingvometodik tayyorgarligini lingvometodik faoliyatning yangi usullarini faol o‘zlashtirish jarayoni sifatida talqin etishga asoslanadi. Bu jarayon terminologik tizimni o‘rganish bilan cheklanmay, talabaning kasbiy identifikatsiyasi, metodik qaror qabul qilish va pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, lingvometodik tafakkurga asoslangan metodik yondashuv talabalarda terminlar va metodlarni izchil va tizimli ravishda bog‘lashga, ularni real pedagogik vaziyatlarda amaliy qo‘llashga imkon yaratadi. Natijada, ushbu jarayon bo‘lajak o‘zbek tili o‘qituvchisining lingvometodik tafakkurini izchil, chuqur va integratsiyalashgan shaklda rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy kasbiy ko‘nikmalarni ham mustahkamlaydi.

Lingvometodik tafakkurning predmeti asosan yuzaga kelgan lingvometodik muammoni ongli, tizimli va optimal tarzda hal etish yo‘llarini izlash jarayonidan iborat. Bu jarayonda talaba yoki bo‘lajak o‘qituvchi o‘z bilimini, ilgari o‘rgangan metodik va lingvistik konsepsiyalarni uyg‘unlashtirib, yangi pedagogik vaziyatlarda eng maqbul yechimni topishga intiladi. Shu nuqtai nazardan, lingvometodik tafakkur nafaqat bilimni qo‘llash, balki uni tahlil qilish, baholash va amaliy pedagogik qarorlar qabul qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Taklif etilayotgan konsepsiyada “lingvometodik tafakkur” tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi va uning mohiyati shundan iboratki, u kasbiy-pedagogik tafakkurning bir turi sifatida talaba-filologning lingvometodik faoliyatini boshqaradi. Bu tafakkur lingvometodikaning nazariy qonuniyatlariga tayangan holda turli lingvometodik muammoli vaziyatlarni tahlil qilishni, shaxsiy-aksiologik va refleksiv pozitsiyani shakllantirishni, shuningdek, ongli va samarali pedagogik qarorlarni qabul qilish jarayonini o‘z ichiga oladi. Shu tarzda, lingvometodik tafakkur talabaning kasbiy identifikatsiyasi, metodik intellekti va pedagogik tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiluvchi dinamik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu yondashuv lingvometodik tayyorgarlikning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarini ham integratsiyalashgan holda rivojlantirishga imkon beradi, natijada bo‘lajak o‘zbek tili o‘qituvchisi turli pedagogik vaziyatlarda moslashuvchan, tizimli va ongli qarorlar qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllanadi. Shu bilan birga, lingvometodik tafakkur talabaning terminologik bilimlarini chuqur tushunish, semantik tarmoqlar va freymlarni kognitiv sxemalar orqali birlashtirish, shuningdek, metodik masalalarni strategik va tizimli yecha olish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Shuningdek, taklif etilayotgan konsepsiyada lingvometodik tayyorgarlik va tafakkur jarayonini yanada aniqlashtirish maqsadida bir qator asosiy tushunchalar izohlanadi. Lingvometodik qiyinchilik talabaning lingvometodik o‘quv materialining ko‘p komponentliligi va uni amalga oshirishdagi ko‘p bosqichli faoliyati bilan bog‘liq holda topshiriqni bajarishda yuzaga keladigan anglangan to‘siq sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, lingvometodik qiyinlik tushunchasi shaxsiy xususiyatlar, shuningdek, lingvometodik bilim va ko‘nikmalarning to‘liqligi, mustahkamligi, anglanganligi va samaradorligi bilan bog‘liq subyektiv murakkablikni ifodalaydi.

Lingvometodik prototip esa yangi lingvometodik ma’lumotlarni mavjud lingvistik, pedagogik va psixologik bilimlar bilan taqqoslash asosida qaror qabul qilish tajribasiga tayanuvchi tafakkur birligi sifatida qaraladi. U o‘quvchiga yangi materialni oldindan mavjud bilimlar bilan bog‘lash va mos ravishda amaliy yechimlar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Lingvometodik ramka (freym) prototip asosida shakllanadi va muayyan pedagogik vaziyatlarni hal qilishning mavjud usullarini xotiradan faollashtirishga xizmat qiluvchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa talabaning strategik va tizimli tafakkurini rivojlantiradi.

Shuningdek, lingvometodik ssenariy ramka asosida voqealar rivojining turli variantlarini modellashtirish imkonini beruvchi tafakkur birligi sifatida qaraladi. U talaba yoki bo‘lajak o‘qituvchiga pedagogik vaziyatlarning alternativ rivojlanish yo‘llarini oldindan ko‘rib chiqish va turli yechimlarni baholash imkonini beradi. Nihoyat, lingvometodik konseptual umumlashtirish yuqori darajadagi kognitiv tuzilma bo‘lib, nazariy modellashtirish va bashorat qilishga asoslangan. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchining lingvometodik tafakkurini tizimli, integratsiyalashgan va ilg‘or darajada rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, kasbiy va metodik qarorlarni ongli va samarali qabul qilishni ta’minlaydi.

Lingvometodik muammoli vaziyatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- intellektual qiyinchilikning mavjudligi;
- umumiy tamoyillarni o‘zlashtirish zarurati;
- o‘xshash vaziyatlarga ko‘chirilishi mumkin bo‘lgan yangi harakat usullarini shakllantirish.

Lingvodidaktik tafakkurning mahsuli — muammoli vaziyatni bartaraf etish hamda shunga o‘xshash vaziyatlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi metodik yechimni o‘zlashtirishdir.

Biz lingvometodik muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va tasniflash jarayonida bir qator mezonlarni hisobga olishni taklif etamiz. Birinchi mezon — hal qilinadigan soha bo‘yicha tasniflash bo‘lib, bunda vaziyatlar predmetli yoki metadisiplinar (universal) bo‘lishi mumkin. Predmetli vaziyatlar aniq bir fan yoki mavzu doirasida yuzaga keladigan muammolarni ifodalaydi, metadisiplinar vaziyatlar esa universal xarakterga ega bo‘lib, turli fanlararo ko‘nikma va bilimlarni talab qiladi.

Ikkinchi mezon — qamrov kengligi bo‘yicha bo‘lib, muammolar umumiy metodik yoki xususiy metodik xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Umumiy metodik vaziyatlar o‘qituvchining umumiy pedagogik ko‘nikmalarini va metodik

kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilsa, xususiy metodik vaziyatlar aynan ma'lum fan yoki mavzu doirasidagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirishni talab qiladi.

Uchinchi mezon — o'quv materiali turiga ko'ra tasniflashdir. Bu yerda vaziyatlar o'quv-nazariy, o'quv-amaliy yoki o'quv-ilmiy bo'lishi mumkin. O'quv-nazariy vaziyatlar talabalarni terminologik va nazariy bilimlarni anglashga yo'naltiradi, o'quv-amaliy vaziyatlar esa ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashni talab qiladi, o'quv-ilmiy vaziyatlar esa yangi ma'lumotlarni o'rganish, tadqiqiy faoliyat va ilmiy tahlilni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi mezon — lingvodidaktik faoliyat tarkibiga ko'ra tasniflash bo'lib, bu yerda vaziyatlar mazmunni aniqlash, shartlarni belgilash, usul va vositalarni tanlash, rejalashtirish, amalga oshirish hamda nazorat va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bu mezon o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini tizimli rivojlantirish, vaziyatlarni kompleks va integratsiyalashgan tarzda boshqarish imkonini beradi.

Beshinchi mezon — ijodkorlik darajasiga ko'ra tasniflashdir. Vaziyatlar algoritmik yoki evristik bo'lishi mumkin. Algoritmik vaziyatlarda yechim belgilangan qoidalar va standart metodlar asosida topiladi, evristik vaziyatlar esa talaba yoki o'qituvchining ijodiy yondashuvi, yangi strategiyalarni ishlab chiqishi va murakkab masalalarni mustaqil hal qilishni talab qiladi.

Oltinchi mezon — shartlarning aniqlik darajasiga ko'ra, vaziyatlar ortiqcha ma'lumotli, yetishmaydigan ma'lumotli, qarama-qarshi ma'lumotli yoki noaniq shartli bo'lishi mumkin. Bu esa talabaning kognitiv va refleksiv faoliyatini rag'batlantiradi, muammoli vaziyatlarni ongli tahlil qilish va turli strategiyalarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Yettinchi mezon — mazmuniga ko'ra vaziyatlarni tasniflash bo'lib, bu yerda darsning barcha tarkibiy qismlarini loyihalash, o'quvchilarda o'zbek tili faniga qiziqishni shakllantirish, zarur va yetarli lingvistik materialni tanlash, o'qitishning optimal metodini aniqlash, muqobil tushuntirish usullarini ishlab chiqish, yosh xususiyatlarini hisobga olish, mashqlar tizimini loyihalash, yozma va og'zaki ish turlarini tanlash hamda bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish vositalarini aniqlash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Shu tarzda lingvometodik muammoli vaziyatlarni tizimli tasniflash bo'lajak o'qituvchining kasbiy tafakkurini rivojlantirish, metodik qarorlarni ongli qabul qilish va pedagogik faoliyatda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Lingvodidaktik muammoli vaziyatni hal etish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: motivatsion, axborot-kognitiv, identifikatsiya, talqin, tahliliy, ijodiy, ijro etuvchi va refleksiv bosqichlar.

Kognitiv-psixologik yondashuvga ko'ra, tafakkur tuzilmasi aqliy reprezentatsiyalar asosida shakllanadi. Shu bois biz lingvometodik tafakkur modeliga prototip, ramka va ssenariy kabi kognitiv birliklarni kiritamiz.

Tilshunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

1. professional belgilangan til birliklarining mavjudligi va ularning terminosistemada namoyon bo'lishi;

2. lingvometodik terminopollar va terminosistema bilan ishlash orqali bilimni tizimlashtirishning samaradorligi;

3. bo‘lajak o‘zbek tili o‘qituvchisining professional dunyoqarashini shakllantirish zarurati;

4. kognitiv tuzilmalarning ularning lingvistik ifodasi bilan uzviy bog‘liqligi.

Shuningdek, terminologik tartibsizlik (terminoidlar, kvaziterminlar, professional jargon aralashuvi) kasbiy tafakkurning tizimliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois lingvometodikani tartibli terminosistema sifatida o‘qitish zarur.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv lingvistikaning nazariy qoidalari asosida lingvometodik terminologiyani semantik maydon va tarmoq sifatida tashkil etish bo‘lajak o‘zbek tili o‘qituvchisining kasbiy-kognitiv tafakkurini rivojlantirishning samarali yo‘li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кубрякова, Е. С. (2004). Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Москва: Языки славянской культуры.

2. Маслова, В. А. (2008). Когнитивная лингвистика. Минск: ТетраСистемс.

3. Лейчик, В. М. (2009). Терминоведение: предмет, методы, структура. Москва: КомКнига.

4. Ахманова, О. С. (2004). Словарь лингвистических терминов. Москва: Editorial URSS.

5. Fillmore, C. (1982). Frame semantics. In *Linguistics in the Morning Calm*. Seoul: Hanshin Publishing.

6. Shodiyev R.D, Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.

7. Qosimova G.I. Didactic foundations of the integration of natural science knowledge in primarys chool as a mechanism of systematic cognition of the surrounding world //Angliya European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020. Part II. – P. 2056-5852.

8. Qosimova G.I. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish metodikasini takomillashtirish” dissertatsiya 13.00.02. Qarshi. 2021-yil.

UDK 547.917:582.998

Азизов Дониёр Зокиржанович,
старший преподователь кафедры Медицинский и биологический химии
PROFI UNIVERSITY, PhD

Кенджаев Азамат Бахтиярович,
заведующий кафедрой медицинской и биологической химии
PROFI UNIVERSITY

УГЛЕВОДНЫЙ КОМПЛЕКС НАДЗЕМНОЙ ЧАСТИ ARTEMISA JUNCEA

Аннотатация. Изучен углеводный состав надземной части Artemisa Juncea. Выделен углеводный комплекс, определены его физико-химические параметры, установлен моносахаридный состав и изучены ИК-спектры. Установлено наличие водорастворимых полисахаридов и показано, что они являются гетерогенными полисахаридами. Показано наличие высокоэтерифицированного пектина и гемицеллюлоз.

Ключевые слова: полисахариды, водорастворимый полисахарид, пектиновые вещества, гемицеллюлоза, степень этерификация, ИК-спектроскопия, бумажная хроматография.

ARTEMISA JUNCEA YER USTKI QISMI UGLEVOD TARKIBI

Annotatsiya. Artemisa Juncea yer ustki qismining uglevod tarkibi o‘rganildi. Uglevod kompleksi ajratilib, uning fizik-kimyoviy parametrlari aniqlandi, monosaxaridlar tarkibi aniqlandi va IR spektrlari o‘rganildi. Suvda eruvchan polisaxaridlarning miqdori aniqlandi va ular geterogen polisaxaridlar ekanligi ko‘rsatildi. Yuqori eterifikasiyalangan pektin va gemiselluloza mavjudligi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: polisaxaridlar, suvda eruvchan polisaxarid, pektin moddalar, gemiselluloza, eterifikatsiyalanish darajasi, IQ-spektroskopiyasi, qog‘oz xromatografiyasi.

CARBOHYDRATE COMPLEX OF THE AREAL PARTS OF ARTEMISA JUNCEA

Annotation. The carbohydrate complex of the aerial part of Artemisa Juncea was studied. The carbohydrate complex was isolated, its physicochemical parameters were determined, the monosaccharide composition was established and IR spectra were studied. The presence of water-soluble polysaccharides has been

established and it has been shown that they are heterogeneous polysaccharides. The presence of highly esterified pectin and hemicellulose has been shown.

Keywords: polysaccharides, water-soluble polysaccharide, pectin substances, hemicellulose, esterification degree, IR spectroscopy, paper chromatography.

Artemisa Juncea Kar et Kir – полынь ситниковидная, сем. Asteraceae распространена в аридных и полуаридных зонах Узбекистана. Распространена по всему северному полушарию, в умеренном поясе Евразии, в Северной и Южной Африке, Северной Америке. На территории России и сопредельных стран отмечено около 180 видов, встречающихся почти повсеместно. Полыни наиболее распространены в степях и пустынях Казахстана, Средней Азии, в Закавказье, на Украине [1].

Ряд видов имеет лекарственное значение, особенно цитварная полынь (*Artemisia cina*), а также полынь горькая (*Artemisia absinthium*). Используется преимущественно в желудочных средствах. Ранее применялись настойки полыней, как противоглистное средство. Настойки, настои и экстракты, приготовленные из листьев и цветущих облиственных верхних частей побегов полыни горькой, используют как средство для возбуждения аппетита. Полынь эстрагон, или тархун (*Artemisia dracunculus*), разводят как пряное растение, сырьё для производства напитков. Горькая полынь входит в состав аппетитного чая.

Экстракты и настойки полыни входят в состав некоторых крепких алкогольных напитков (абсент) и вин (вермут). Эфирное масло некоторых видов полыни используется в парфюмерии и косметике. Извлекают его, настаивая на спирте, а также путём гидродистилляции. Отдельные виды разводят для получения эфирных масел, например полынь лимонную или лечебную (*Artemisia abrotanum*) и полынь таврическую (*Artemisia taurica*) [2].

Калорийность полыни в сыром виде – 32 кКал. Полынь в сыром виде имеет в своем составе: белки – 0,33 г, жиры – 0,52 г, углеводы – 3,6 г, пищевые волокна – 3,8 г, вода – 89 г, зола – 2,5 г.

Целебные свойства растения, благодаря которым оно стало популярно в народной медицине, обусловлены наличием полезных веществ, к которым относятся: эфирное масло, кумарины, инулин, холин, альдегиды, витамины С, К, В, каротин, флавоноиды. Интересно, что полынь обыкновенную применяли ещё в Древней Греции в качестве средства для лечения женских болезней. На Руси же её использовали при проблемах с желудком и кишечником. Надземная часть растений обладает противоопухолевой, противосудорожной, противодиабетической и противогрибковой активностью. А в Китае, где растение в настоящее время также пользуется большой популярностью, полынь считают жаропонижающим, кровоостанавливающим, антитоксическим и общеукрепляющим видом, обладающим адаптогенными свойствами [3-4].

Цель исследования - выделение различных групп полисахаридов, определение моносахаридных состав и изучение их физико-химических свойств.

Инактивация сырья. 100 г высушенного и измельченного сырья надземной части *Artemisa Juncea* дважды обрабатывали кипящим хлороформом в течение 1 часа при гидромодуле 1:4, для удаления красящих и низкомолекулярных веществ. спирторастворимые сахара Далее дважды экстрагировали кипящим 82 % этиловым спиртом (1:4, 1:3). Спиртовые экстракты отделяли фильтрованием, объединяли и упаривали до небольшого объема и анализировали бумажной хроматографией (БХ) в системе н-бутанол-н-пиридин-вода 6:4:3. Для идентификации пятен применяли кислый фталат идентификации анилина (1) для гексозы и 5 %-ный спиртовый раствор мочевины – соляная кислота (2) для индикации кетоз.

Выделение водорастворимых полисахаридов (ВРПС). Остаток сырья дважды экстрагировали холодной водой при комнатной температуре по 1,5 ч при гидромодуле 1:4, соответственно. Экстракты отделяли фильтрованием, упаривали до небольшого объема и осаждали трехкратным объемом этилового спирта. Выпавший осадок центрифугировали (5000 об/мин, 10 мин), промывали и обезвоживали спиртом. Выход ВРПС- х – 3,3 г. Далее остаток сырья дважды экстрагировали водой при температуре 80-85 ^{o}C по 1,5 ч при гидромодуле 1:3, 1:2. Экстракты объединяли, упаривали и осаждали спиртом. Выпавший осадок обрабатывали, как указано выше. Выход ВРПС-г – 3,0 г.

Выделение пектиновых веществ (ПВ). После выделения суммы ВРПС шрот дважды экстрагировали равной смесью 0,5%-ных растворов щавелевой кислоты и оксалата аммония при температуре 75^{o}C, экстракцию проводили при гидромодуле 1:4, 1:3. Экстракт отделяли фильтрованием, диализовали против проточной воды, упаривали и осаждали трехкратным объемом спирта. Осадок обрабатывали аналогичным образом как описано выше. Выход ПВ – 6,75 г (от воздушно-сухого сырья).

Выделение гемицеллюлоз (ГМЦ). После выделения ПВ остаток сырья дважды обрабатывали 5%-ным раствором КОН при комнатной температуре, в течение 1,5-2 час, при гидромодуле 1:3. Экстракты отделяли фильтрованием, нейтрализовали CH_3COOH, диализовали для удаления солей, упаривали до густоты и осаждали трехкратным объемом спирта. Выпавший осадок ГМЦ отделяли центрифугированием, промывали и высушивали спиртом, выход – 7,35 г.

Полный кислотный гидролиз полисахаридов. Образцы гидролиз ВРПС гидролизовали 1н H_2SO_4 при 100°C 8 часов, ПВ и ГМЦ 2н H_2SO_4,100^{o}C 20 час. Гидролизаты нейтрализовали карбонатом бария, деионизировали КУ-2(Н+), упаривали. катионитом Качественный моносахаридный состав ПС изучали БХ с использованием известных свидетелей на бумаге Filtrak FN-12, в системе н-бутанол пиридин-вода 6:4:3, проявитель 1-кислый анилин фталат, 2- 5% мочевина.

ИК-спектры образцов снимали на ИК Фурье спектрометре, System 2000 (Perkin Elmer) в таблетках KBr. Число сканирований 100.

Вязкость образцов снимали на вискозиметре Оствальда с диаметром капилляра 0,75 мм при температуре 22°С.

Выделение различных групп полисахаридов из надземной части растения проводили по ранее описанной методике [5-6]. Спирторастворимые сахара по данным хроматографического анализа представлены глюкозой, сахарозой и фруктозой. Водорастворимые полисахариды выделяли двумя способами: сырье экстрагировали водой при комнатной температуре 20-22°С и выделили ВРПС-х с выходом 3.3 %, а при температуре 70-80°С - ВРПС-г 3.0 %. Далее смесью 0,5% растворов щавелевой кислоты и оксалата аммония пектиновые вещества (ПВ), 5% раствором щелочи гемицеллюлозу (ГМЦ). Выход ПВ и ГМЦ составил 6.8 и 7.3 % соответственно.

Таблица 1

Содержание различных групп полисахаридов в надземной части *A. Juncea* и их моносахаридный состав

Тип ПС	Выход, %	Моносахаридный состав					UAc
		Gal	Glc	Ara	Xyl	Rha	
ВРПС-х	3,3	+	+	+	+	-	+
ВРПС-г	3,0	+	+	++	+	-	++
ПВ	6,8	+	-	++	-	-	++
ГМЦ	7,3	++	+	++	-	-	-

Как видно из табл.1, среди углеводов ГМЦ являются доминирующими (7,3%), при этом содержание ПВ составило 6,8%, ВРПС находятся в меньших количествах – 6,3%.

ВРПС представляют собой аморфные порошки светло-бежевого цвета, хорошо растворимые в воде, показатель относительной вязкости – 1,8-2,1 (1%; H_2O). Моносахаридные составы ВРПС качественно резко не отличались, основными моносахаридами ВРПС являются Gal, Glc, Ara, Xyl и уроновые кислоты, но в ВРПС-г содержание арабинозы больше чем в ВРПС-х. В ИК-спектрах ВРПС-х и ВРПС-г обнаружены основные полосы поглощения: 3339-3418 $см^{-1}$ (ОН-группы), 1599-1613 $см^{-1}$ (НОН), 1415-1418 (С=О), 1074-916, 1018-911 $см^{-1}$ (α-гликозидная связь) (рис.1).




Рисунок 1. ИК-спектр ВРПС-х.

ПВ представляют собой аморфный порошок кремового цвета, частично растворяется в воде с образованием вязкого раствора, $\eta_{отн}$-4,8 (с 1,0%; H_2O). В ИК-спектрах ПВ (рис.2) были обнаружены полосы поглощения: 3406 $см^{-1}$ (ОН-группы), 1743 $см^{-1}$ (С=О свободные и СОО-этерифицированные карбоксильные группы), 1444 $см^{-1}$ (колебания ионизированного карбоксила), 1327 $см^{-1}$ (OCH_3), 832 $см^{-1}$ (α-гликозидная связь) [7,8]. Моносахаридный состав представлен нейтральными и кислыми моносахаридами. В основном содержатся арабиноза, галактоза и уроновые кислоы. В ИК-спектре были обнаружены полосы поглощения, характерные для кислых полисахаридов [9]. В частности, полоса поглощения в области 1327 $см^{-1}$ показывает наличие метильных групп. Методом титриметрического анализа установлено содержание свободных карбоксильных групп (Кс), метоксилированных карбоксильных групп (Км), при этом степень этерификации (СЭ) выделенных биополимеров (табл.2) [10].




Рисунок 2. 1-ИК спектр ГМЦ, 2-ИК-спектр ПВ

Таблица 2

Титрометрические данные углеводов надземной части *A. Juncea*

ПС	Кс	Км	СЭ, %
ВРПС-х	2,16	3,06	58,6
ВРПС-г	5,76	3,96	68,7
ПВ	3,96	5,76	53,0

Как видно, из табл.2, выделенные полисахариды относятся к высокоэтерифицированным биополимерам.

ГМЦ – аморфный порошок светло кремового цвета, частично растворяется в воде, полностью в разбавленных растворах щелочи. В ИК-спектрах ГМЦ были обнаружены полосы поглощения: 3348 $см^{-1}$ (ОН-группы), 1615 $см^{-1}$ (С=О), 1096 $см^{-1}$ (пиранозное кольцо), 1418 $см^{-1}$ (COO^-), 893 $см^{-1}$ (α-гликозидная связь) (рис.2).

Из надземной части *A. Juncea* выделены спирторастворимые сахара, водорастворимые полисахариды, среднеэтерифицированные пектиновые вещества и гемицеллюлозы. Дана их качественная характеристика. Выделенные полисахариды анализировали методом ИК-спектроскопии.

Список литературы:

1. И. М. Красноборов. Artemisia L. Полынь Флора Сибири - Flora Sibiriae в 14 т. под ред. Л. И. Малышева. Новосибирск Наука; Сиб. предприятие РАН, 1997. Т. 13 Asteraceae (Compositae) под ред. И. М. Красноборова. С. 90-141. - 472 с. -1000 экз.

2. Л. Аксёнова. Полынь горькая, полезная, красивая Цветоводство журнал. 2008. № 6. С. 58-61. 3. М. Р. Фасмер. Этимологический словарь русского языка. М. Прогресс. 1964.

3. С. С. Воронова. Исследование антиоксидантного потенциала полыни горькой, полыни обыкновенной и золотарника, произрастающих на территории Калининградской области С. С. Воронова, В. В. Ларина, А. Д. Попов, С. А. Сухих 75-я всерос. науч. техн. конф. студентов, магистрантов и аспирантов с междунар. участием сб. мат-лов конф. В 3 ч. Ярославль, 2022. С. 54–56.

4. Н. А. Дьякова. Эколого-фармакогностическая оценка качества травы полыни горькой, произрастающей в различных урбо- и агробиоценозах Воронежской области Н. А. Дьякова Традиционная медицина. 2022. № 3 (69). С. 37–41.

5. Z. E. Erkulov, M. Kh. Malikova, R. K. Rakhmanberdyeva, *Chem. Nat. Compd.*, 47, 182 (2011)

6. D.Z. Azizov, R.K. Rakhmanberdyeva and M.Kh. Malikova Polysaccharides from the aerial part of *Ferula tenuisecta* Chemistry of Natural Compounds, 2021. Vol. 57, No.4. p. 603-606.

7. М. П. Филиппов, Инфракрасные спектры пектиновых веществ, Штиинца, Кишинев, 1978, с. 14-22.

8. В. В. Арасимович, Биохимические методы анализа плодов, Штиинца, Кишинев, 1984, с. 12-15.

9. R. K. Rakhmanberdyeva, M. P. Filippov. Water-soluble polysaccharides of seeds of the genus Gleditsia *Chem. Nat. Compd*., 2011. V 47, -179 p.

10. Г. Б. Аймухамедова, Д. Э. Алиева, Н. П. Шелухина. Свойства и применение пектиновых сорбентов. Илим, Фрунзе, 1984, 131 с.

UDK 376.1:37.018.2

Igamberdiyeva Aziza Abdurashitovna,
PROFI UNIVERSITY o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

INKLYUZIV VA GOSPITAL PEDAGOGIKA INTEGRATSIYASI ASOSIDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta'lim va gospital pedagogika tamoyillarini integratsiyalashgan holda 1-tur qandli diabet bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari izohlangan. Maktabgacha yoshdagi 1-tur qandli diabet bolalarini har tamonlama rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrovning dolzarbligi, intellektual rivojlanish hamda ijtimoiylashuvning bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, bolalarni maktabga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari, usullari va metodlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, gospital pedagogika, maktabga tayyorlash, metodikani takomillashtirish, individual yondashuv, rivojlanish ehtiyojlari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ИНКЛЮЗИВНОЙ И ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация. В статье освещены вопросы совершенствования методики подготовки детей с сахарным диабетом 1 типа к школьному обучению с интеграцией принципов инклюзивного образования и госпитальной педагогики. Обоснована актуальность охвата дошкольным образованием детей с сахарным диабетом 1 типа для их всестороннего развития, а также раскрыто положительное влияние интеллектуального развития и социализации на развитие детей. Кроме того, освещены современные подходы, методы и методики подготовки детей к школе.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, диагноз «сахарный диабет 1-го типа», госпитальная педагогика, подготовка к школе, совершенствование методики, индивидуальный подход, особые образовательные потребности.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL BASED ON THE INTEGRATION OF INCLUSIVE AND HOSPITAL PEDAGOGY

Abstract. The article explains the issues of improving the methodology for preparing children with type 1 diabetes for school education by integrating the principles of inclusive education and hospital pedagogy. The relevance of including

preschool children with type 1 diabetes in preschool education institutions for their comprehensive development is substantiated, and the positive impact of intellectual development and socialization on child development is revealed. Furthermore, contemporary approaches, methods, and techniques for preparing children for school are highlighted.

Key words: Inclusive education, diagnosis of type 1 diabetes mellitus, hospital pedagogy, preparation for school, methodology improvement, individual approach, special educational needs.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va Milliy taraqqiyot strategiyasida ta’limning barcha bosqichlarida, shu jumladan maktabgacha ta’limda ham inkluziv tamoyillarni joriy etish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda asosiy e’tibor har bir bolaning shaxsiy qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni sifatli maktab ta’limiga tayyorlashga qaratilishi kerak. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar orasida sog‘lig‘i, rivojlanishi va psixologik holati jihatidan maxsus pedagogik yondashuv talab qiluvchilar soni sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Bunday bolalarni maktab hayotiga moslashtirish va ularning muvaffaqiyatli ta’lim olishi uchun an’anaviy maktabgacha tarbiya uslublari yetarli emas. Shu sababli, zamonaviy pedagogik fanlar – inklyuziv pedagogika va gospital pedagogika tamoyillarini integratsiyalash orqali yangi, samarali metodologik yondashuvni ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Shuningdek, Mamlakatimizda barcha maktabgacha yosh bolalar shu jumladan nogironligi yoki alohida ehtiyojga muhtoj bo‘lgan bolalar o‘z tengdoshlari bilan birga umumiy ta’lim va tarbiya muhitida ta’lim olish huquqiga ega ekanligi huquqiy me’yoriy hujjatlarda hamda amaldagi jarayonlarda o‘z aksini topmoqda. Respublikamizda aholini ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, ayniqsa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismi bo‘lmish nogironligi bo‘lgan shaxslar hayotda teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berish masalasi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bugungi kunda jamiyatda kam sonni tashkil etuvchi imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va manfatlarini himoya qilish hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlashga alohida ahamiyat berilmoqda [1]. Xususan, 2008 -yil 11- iyulda “O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonuni(O‘RQ-162-sonli)ga muvofiq yangi tahrirda qabul qilindi [2]. Shuningdek, 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni [3], 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3651-son [4] qarorida va boshqa bir qator huquqiy me’yoriy hujjatlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalar farzandlarini qo‘llab quvvatlash doirasida chora tadbirlar yoritilgan. Davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’lim olishi va kasb tayyorgarligi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish kabi kafolatlar beriladi.

Inklyuziv va Gospital Pedagogika Integratsiyasi – bu ikki pedagogik yo‘nalishning o‘zaro uyg‘unlashtirilishi bo‘lib, uzoq muddat davolanayotgan yoki sog‘lig‘i tufayli alohida yondashuv talab etadigan bolalarning ta’lim olish huquqini, ularning sog‘lom tengdoshlari bilan birga bilim olish imkoniyatini ta’minlaydi. Ushbu usullarni sog‘lom, lekin turli xil ehtiyojlarga ega bolalarning ham shaxsini rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoniga qo‘llash katta imkoniyatlarni ochib beradi. Inklyuziv pedagogika ta’lim olish huquqini har qanday farqlanishlardan qat’i nazar barcha bolalarga teng taqsimlash, shuningdek, ta’lim muhtitini har bir bola uchun mos, qo‘llab-quvvatlovchi va tarbiyaviy jihatdan boyitilgan qilishga intiladi. Uning maktabgacha ta’limdagi asosiy vazifasi – bolada ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘z-o‘zini anglash va o‘rganish motivatsiyasi kabi maktabga o‘tish uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni shakllantirishdir.

Gospital pedagogikaning asosiy tamoyillar tarkibiga individual yondashuv, sog‘liq holatini doimiy hisobga olish, stressni kamaytiruvchi va ruhiy tiklanishga xizmat qiluvchi ta’lim muhitini yaratish kiradi. Maqsad maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 1-tur qandli diabet bolaning hissiy va jismoniy farovonligini rag‘batlantiruvchi, o‘rganish va o‘yin faoliyatini rag‘batlantiruvchi inklyuziv-gospital muhit yaratishdan iborat.

Mamlakatimizdan 1-tur qandli diabet bilan og‘rigan bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga (MTT) qamrash muhim ijtimoiy va pedagogik vazifadir. Muvaffaqiyatli qamrash uchun barcha ishtirokchilar (pedagoglar, sog‘liq xodimlari, ota-onalar) hamkorligida yondashuv juda zarur hisoblanadi. Ayni damda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 1-tur qandli diabet bilan og‘rigan bolalarning ta’lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish, rivojlantirish dolzarb muammolardan biridir. Shirintoy bolajonlar intellekt jihatdan boshqa bolalardan farq qilmasada ta’lim tarbiya jarayonida individual yondashuv, pedagogik va psixologik tamoyillar asosida jarayonni tashkil etish muhimdir. Kuzatuvlar, ilmiy asoslangan tahlilar, statistic ma’lumotlar, ota-onalarning taklif va istaklari shuni ko‘rsatadiki inklyuziv va gospital pedagogika integratsiyasi borasida ilmiy izlanishlar olib borish hamda muammoga ijobiy yechim ishlab chiqish zaruriyati mavjudligini ko‘rsatadi. Ayni damda esa MTTlardagi 1-tur qandli diabet bolalarning ta’lim va tarbiya, sog‘ligi, xavfsizligi yuzasidan kelib chiqqan holat keng qamrovda yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa muammoning dolzarbligini bildiradi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasi, ularning ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda jamiyatda munosib o‘rin egallashini ta’minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil rivojlantirib kelinmoqda. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy mexanizmlar takomillashtirilmoqda hamda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur sa’y-harakatlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’lim olish, rivojlanish va jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratilmoqda.

Ayniqsa, ularni jamiyatga integratsiya qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etib, bu jarayon, avvalo, bolalarning sog‘lig‘ini tiklash va qo‘llab-quvvatlash,

shuningdek, ularning psixologik holatini barqarorlashtirish bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim loyihasi» doirasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Ushbu loyiha nafaqat maxsus ta’lim muassasalarida, balki umumta’lim maktablarida ham alohida ehtiyojga ega bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Bunda inklyuziv ta’lim tamoyillarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.


Inklyuziv ta’lim — bu barcha o‘quvchilarni, ularning individual xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi, jismoniy imkoniyatlari va o‘zlashtirish sur’atidan qat’i nazar, yagona ta’lim muhitiga jalb etishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ushbu yondashuv ta’limda tenglik, ijtimoiy adolat va insonparvarlik tamoyillariga asoslanib, har bir bolaning shaxs sifatida to‘laqonli rivojlanishini ta’minlashni ko‘zlaydi. Shu bois inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun uning pedagogik va psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zarur metodik ta’minotni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil etilgan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda alohida ehtiyojga ega bolalar uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar yaratish, ta’lim jarayonida differensial yondashuvni qo‘llash, o‘qitish metodlarini takomillashtirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Biroq ayrim surunkali kasalliklarga ega bolalar, xususan, 1-tur qandli diabet bilan og‘rigan o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi o‘ziga xos ehtiyojlari, ularning kundalik hayot faoliyati, sog‘liqni nazorat qilish zarurati bilan bog‘liq pedagogik va psixologik jihatlar yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan.

Holbuki, 1-tur qandli diabet bilan yashovchi bolalar doimiy ravishda sog‘lig‘ini nazorat qilish, insulin qabul qilish, ovqatlanish rejimiga qat’iy rioya etish kabi omillar tufayli ta’lim jarayonida o‘ziga xos qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa ularga nisbatan individual yondashuvni yanada puxta ishlab chiqishni, o‘qituvchilar, ota-onalar hamda tibbiyot xodimlari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, unda 1-tur qandli diabetga chalingan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslari, ularning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish masalalari atroflicha tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida holatni chuqur o‘rganish, jarayonni tizimli, uzlukli, nazriy bilimlarni amaliy tahlilini statistik tasniflash, qiyoslash usullaridan foydalaniladi. Ma’lumotlar bazasi sifatida Akademik Y.X. To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o‘rinlarda – RIEIATM) ma’lumotlari, maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning MTTga qamrov ma’lumotlari, statistik hisobotlari xizmat qiladi.



1-rasm. 2024-yil kesimida bolalar orasida 1-tur qandli diabet bilan kasallangan bolalar to‘g‘risida statistik ma’lumot

Manba: Muallif tomonidan Akademik Y.X. To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o‘rinlarda - RIEIATM) qandli diabet bilan kasallangan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirishni tashkil etish to‘g‘risida 02.08.2025-yil 01-06/1112-sonli xat mazmuni va ma’lumotlariga asosida tuzilgan.

Kuzatuv va tahlillar natijalariga ko‘ra aniqlandi: 1-tur qandli diabet tashxisidagi bolalarni maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda muhitda xavfsizlik chora-tadbirlarini kengaytirish, hamshira va pedagoglarning diabet kasaligi haqida elementar bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, pedagogik va psixologik yondashuvni takomillashtirish muhimdir. Mazkur bolalarning ta’lim va tarbiya jarayoniga qatnovi sustligi, har bir bola uchun individual reja ishlab chiqish zarurati mavzjudligi, bu borada muhitdagi xavfsizlik jihatdan yetarli sharoit kuzatilganligi hamda pedagogik va psixologik yondashuvni takomillashtirishga ehtiyoj borligini bildiradi. Shu bois,1-tur qandli diabetli bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

Bolaning ta’lim va tarbiya muhitida teng huquqli ekanligi, jamiyatda to‘laqonli hissi va barqaror doimiy sog‘lik nazoratini ta’minlanishi hamda maktab ta’limiga sifatli tayyorlanish imkoniyatini ta’minlash. Huquqiy me’yoriy hujjatlarda aks etirilgan chora-tadbirlarni amaliy ijorisini ta’minlash;

Oilaviy muvozanat**:** Ota-onalarga yukni kamaytirish va ularning farovonligini oshirish;

Jismoniy salomatlik**:** Kasallikni yaxshiroq boshqarish, og‘ir rivojlanish holatlarini oldini olish.

Psixologik farovonlik; O‘ziga ishonch, ijtimoiy moslashuvchanlik, stressni boshqarish.

Kognitiv rivojlanish**:** Diqqat, xotira va o‘rganish qobiliyatining optimallashtirilish.

Ijtimoiy integratsiya: Tengdoshlar bilan samarali munosabatlarni o‘rnatish.

1. Maktabgacha ta’limtashkilotlarida faoliyat olib borayotgan hamshira va pedagoglar uchun “Diabet maktabi” online, offline o‘quv kurslarini tashkil etish, malaka oshirish, kasallik haqida tushuncha berish kabi bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirish. Ota-onalar, pedagoglar va tibbiyot xodimlari o‘rtasida doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.
2. Har bir bola uchun individual kundalik ish daftari ishlab chiqish;
3. Inklyuziv ta’lim muhtini yaratish va barcha bolalarda diabet haqida tushunchalarni shakllantirish hamda mustaqil faollikni rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Jamiyatda nogironligi bo‘lgan bolalar huquqini himoya qilish” o‘quv uslubiy majmua., 2025-yil, 2-5 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 11-iyul.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 7-yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3651-son qarori.
5. YUNESCO: Jamiyatga va inklyuziv ta’limga muhtojlarga qaratilgan Dastur. – 1994.
6. Qodirova F.U., Pulatova D.A. “Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika” https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/05/4-Inklyuziv-talim-nazariya-va-metodika., -2022yil., -9 b.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. https://lex.uz/uz/docs/-4646908
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori. https://lex.uz/docs/3090103
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4736 sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-4831107
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5179335
11. Алехина С.В. Инклюзивное образование: от политики к практике. - М.: ФОРУМ, 2019.
12. Ульенкова У.В. Организация и содержание специальной психологической помощи детям с проблемами в развитии. - М.: Академия, 2018.

UDK 81'27:81'272:811.512.133

Tilyabayev Kamil Zaitjonovich,
Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti katta o'qituvchisi,
PhD

TASHQI DUNYO BILAN ALOQA O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilini o'rganish va dekolonizatsiya qilish o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqilib, tashqi dunyo bilan aloqa kabi omilga e'tibor qaratiladi. Dekolonizatsiya va unga xos his-tuyg'ular tashqi dunyo, ya'ni dekolonizatsiyasi kuchli bo'lgan mamlakatlar ta'sirida shakllanishi ko'rsatilgan. Qolaversa, dekolonial his-tuyg'ular, ong va tafakkurga ega bo'lgan o'zbekistonliklarning o'zbek tiliga nisbatan hurmati ham baland bo'ladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili o'rganilishi, dekolonizatsiya, tashqi dunyo bilan aloqa, davlat tiliga hurmat.

СВЯЗЬ С ВНЕШНИМ МИРОМ КАК ФАКТОР, ВЛИЯЮЩИЙ НА ИЗУЧЕНИЕ И ДЕКОЛОНИЗАЦИЮ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье изучается взаимосвязь между изучением и деколонизацией узбекского языка. Особое внимание уделено такому фактору, как как связь с внешним миром. Показано, что деколонизация и соответствующие эмоции формируются под влиянием стран с сильной деколониальной повесткой дня. При этом, узбекистанцы, обладающая деколониальными эмоциями, сознанием и мышлением, относятся с большим уважением к узбекскому языку.

Ключевые слова: изучение узбекского языка, деколонизация, связь с внешним миром, уважение к государственному языку.

CONNECTION WITH THE OUTSIDE WORLD AS A FACTOR AFFECTING UZBEK LANGUAGE LEARNING AND DECOLONIZATION

Abstract. This article examines the relationship between learning and decolonizing the Uzbek language. Particular attention is paid to such a factor as connection with the outside world. It is shown that decolonization and the corresponding emotions are shaped by the influence of countries with a strong decolonizing agenda. At the same time, Uzbek people with decolonial emotions, self-perception and thinking demonstrate higher respect to Uzbek language

Keywords: Uzbek language learning, decolonization, connection with the outside world, respect for the state language

Dekolonizatsiya deganda ko‘pincha mustamlakachilikdan voz kechib mustaqillikka erishish tushuniladi, ammo mustaqil holatda ham yashirin davomiy mustamlakachilik kuzatilishi keng tarqalgan holdir. Bu ozodlikka erishgan millatning sobiq mustamlakachiga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, xususan lisoniy jihatdan bog‘liq bo‘lishida ko‘rish mumkin. Til dekolonizatsiyasi esa sobiq mustamlakachining tiliga nafaqat grafik, grammatik, leksik, uslubiy yoki imloviy jihatdan qaramligini yo‘qotish, balki uning mantig‘idan, boshqa tillarning rivojini, ulardan foydalanish doirasini chegaralab qo‘yishdan voz kechish demakdir. Til dekolonizatsiyasi ko‘pincha kam sonli millat va ellatlar tillari, o‘layotgan yoki yo‘qolish xavfi bor, shuningdek yozma tarixga ega bo‘lmagan, standartlanmagan yoki ta’lim tili maqomiga ega bo‘lmagan tillarga nisbatan ishlatiladi. Mamlakatimizning davlat tili bo‘lmish o‘zbek tili yuqorida aytilgan biron bir ta’rifga to‘g‘ri kelmaydi, shuning uchun uning dekolonizatsiyasini ko‘rib chiqish va til o‘rganishdagi hissiy tajribalarga bog‘lash nafaqat O‘zbekiston uchun balki global miqyosda ham dolzarb hisoblanadi [1].

Tilyabaev [1] his-tuyg‘ular, xususan noqulay ustunlik hissi til o‘rganilishi va dekolonizatsiyasi o‘rtasida kesishma nuqtasi bo‘lishi mumkinligi namoyish etdi, bu esa o‘zbek tilining o‘rganilishiga uning dekolonizatsiyasini bog‘lashga yordam beradi. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish tajribalarida aniqlangan his-tuyg‘ulardan faqat uyat/sharmandalik va aybdorlik noqulay ustunlik hissiga misol bo‘la oladi [2]. Shuni yodda tutgan holda, ushbu maqola o‘zbek tilining dekolonizatsiyasiga hissa qo‘shishi yoki to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan aybdorlik va uyatga/sharmandalikka ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida uzoq muddatda rasmiy va norasmiy ravishda o‘rganayotganlarning dekolonial tafakkurni rivojlantirishda muvaffaqiyat qozona olmaganliklariga alohida e’tibor qaratiladi. Umid qilamanki, bunday fikrlash rivojlanishiga yordam beruvchi yoki to‘sqinlik qiluvchi omillarni hisobga olish O‘zbekistonda o‘zbek tilini o‘qitishga dekolonial tamoyillarni joriy etishga yordam beradi.

Ma’lumotlar o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgangan va/yoki o‘rganishda davom etayotgan 20-40 yoshdagi 25 ta O‘zbekiston fuqarosi hamda o ‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatayotgan o‘qituvchilar bilan individual suhbatlar orqali to‘plangan. Olingan ma’lumotlardan tadqiqot maqsadlarida foydalanish, ularning xavfsizligi, maxfiyligi va manbalarini taxalluslash BERA [3] axloqiy me’yorlariga muvofiq ta’minlandi. Olingan ma’lumotlar narrativ tahlil usuli yordamida qayta ishlangan [4] va to‘rtta narrativ-hikoya shaklida muallifning doktorlik dissertatsiyasida keltirilgan. Ushbu maqolada "Tashqi dunyo bilan aloqa" deb nomlangan faqat bitta narrativ-hikoya taqdim etiladi.

Ushbu kichik bo‘limda tashqi dunyo bilan aloqaning dekolonial fikrlash rivojlanishiga ta’sirini ko‘rib chiqiladi. Buni amalga oshirish uchun, avvalo, bu borada tadqiqotchining kuzatishlari keltiriladi. Keyinchalik, ularni yuzaga keltira oladigan sabablar aytib o‘tiladi.

Dekolonial deb ta’riflanishi mumkin bo‘lgan kuchli g‘oyalar yoki fikrlarga ega suhbatdoshlarim o‘rtasida muhim umumiylik mavjud. Ularning barchasi

O‘zbekistondan tashqarida ko‘p sayohat qilishgan, dekolonizatsiya siyosatiga ega mamlakatlarda (masalan, Hindiston, Gurjiston, Qozog‘iston, Boltiqbo‘yi davlatlari) ishlagan yoki dekolonial fikrga ega odamlar ta’sirida bo‘lgan. Bu tajriba ularni milliy tilga bo‘lgan bepisandligidan pushaymon qildi, unga bo‘lgan hurmatini va uni o‘rganishning ahamiyatini kuchaytirdi, boshqa odamlar o‘z tillariga qanday g‘amxo‘rlik qilishlarini namuna qilib ko‘rsatdi va ularni boshqa xalqlarning mustamlakachilik oqibatlarini yo‘qoyish uchun kurashlari bilan birdamlikka chaqirdi. Buni Karimaning quyidagi so‘zlaridan yaqqol ko‘rish mumkin:

Mening mustamlakalik fikrlashimga gurjistonlik kursdoshim tomonidan kuchli zarba berildi. U meni Tbilisidagi Sovet istilosi muzeyiga olib bordi va Gurjistonni bosib olgan bolsheviklar gruzin alifbosini qanday yo‘q qilmoqchi bo‘lganlarini aytib berdi. Bu yozuvning dunyoda o‘xshashi yo‘q. Keyin gruzinlar bu qarorga qarshilik ko‘rsatib, mitingga chiqishdi.[2] Gurjiston Sovet Ittifoqida milliy tili rus tilidan yuqori maqomga ega bo‘lgan yagona respublika edi.[3] Odamlar o‘z tilini bu qadar sevishi mumkin deb hech qachon o‘ylamagan edim...

Toshkentga qaytib kelganimda, menda ko‘p savollar paydo bo‘ldi: "Nega bu yerda hamma narsa rus tilida? Biz O‘zbekistonmi yoki Rossiyami? Biz nima qildik, tilim uchun nima qildim? Nima uchun gruzinlar o‘z tilini shunchalik yaxshi ko‘radilar?" Bularning barchasi mening o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatimni o‘zgartirdi. Men endi unga bepisand bo‘lmasligim kerakligini angladim.

Karimaning gaplarida aybdorlik hissi borligini qayd etish joiz. "… tilim uchun nima qildim?" degan savol qilgan ishdan pushaymon bo‘lishni ta’kidlaydi. Bu aybdorlikka xos holat [7] va u dekolonial fikrlashning shakllanishiga yordam berayotganga o‘xshaydi. Bu tuyg‘u Karima bilan keyingi suhbatda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ldi:

Tadqiqotchi:

Rus tilini o‘zbek tilidan yaxshiroq bilishingizga xafa yoki pushaymon bo‘lganmisiz?

Karima:

Men xafalikdan ko‘ra ko‘proq aybdorlik his qildim. Gurjiston va Qozog‘istonga sayohatlarimdan so‘ng Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyimizga tashrif buyurib, maktab tarix kursidan bilgan barcha ma’lumotlarga boshqacha ko‘z bilan qaray boshladim. Qodiriy, Fitrat va Cho‘lpon rasmlari oldida tilimni sevmaganim uchun uzr so‘ragim keldi. Axir men oldin Sovet Ittifoqi bizni o‘qitib taraqqiy ettirdi deb o‘ylardim. Aslida esa bolsheviklar hokimiyatga kelishidan oldin ham ko‘plab mahalliy yoshlarning Yevropada tahsilini jadidlar moliyalashtirgan [8]. Albatta, o‘tmishni o‘zgartirib bo‘lmaydi, lekin agar Markaziy Osiyo mamlakatlari birlashganda edi, bizni Rossiya ham, Britaniya imperiyasi ham zabt etmagan bo‘lardi. Agar xafalik va jahl bo‘lsa, ular juda qisqa muddatli edi.

[2] Karima Gurjistonda 1956- va 1978-yillardagi norozilik namoyishlarini aralashtirib yubordi. Ulardan birinchisi aniq sovetlarga qarshi tusga ega bo‘lgan ikki kunlik qirg‘in bo‘lsa, ikkinchisi qonsiz edi va gruzin tilini Gurjistondagi yagona davlat tili maqomidan mahrum qilgan yangi konstitutsiyaviy o‘zgarishlar tufayli sodir bo‘ldi [5]. Uning gruzin alifbosiga hech qanday aloqasi yo‘q edi. Shunday bo‘lsa-da, ikkala norozilik ham dekolonial maqsadlarni namoyish etadi.

[3] Bu xato. Armaniston va Ozarbayjonning milliy tillari ham bu maqomga ega edi [6].

Yuqorida aytib o‘tilganlarning barchasi shuni ko‘rsatadiki, dekolonial g‘oyalar o‘zbek jamiyatiga asosan tashqaridan kirib boradi. Dekolonizatsiya bo‘yicha mutaxassis Elshodning so‘zlariga ko‘ra, bu tasodif emas, balki qonuniyatdir:

Aftidan, bizning mintaqamiz mafkuraviy rivojlanish jihatidan har doim biroz orqada qolib ketavergan. IX-XII asrlardagi renessans haqida gapirganda ham, Xorazmiy, Farg‘oni va boshqalar bilan faxrlanamiz. Ammo ular bizning mintaqamizda tug‘ilgan xolos, buyuk ishlarini esa boshqa joyda qilgan [10, 11]. Jadidchilik ma’rifiy va dekolonial harakat sifatida ham Markaziy Osiyoda emas, balki Qrimda paydo bo‘lgan. Keyin uning g‘oyalari Usmonli imperiyasida, Kavkazda, Volga mintaqasida va keyinchalik Markaziy Osiyoda rivoj topgan [12]. Shunga o‘xshash vaziyat 1980-1990-yillarda ham sodir bo‘lgan: Volga mintaqasi va Kavkaz mustaqillik, milliy tilni rivojlantirish va boshqa g‘oyalarni yoyishda juda faol bo‘lgan [13], bizning mintaqamiz esa nisbatan faolsizroq bo‘lib [14], ancha keyinroq [15] shu yo‘lga tushdi. Bu holat, birinchi navbatda, bizning geografiyamiz bilan, ikkinchidan, tarixiy tajribamiz bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Agar biz Qozog‘iston, Gurjiston yoki Ukraina singari Rossiya bilan chegaradosh bo‘lsak edi, bu g‘oyalarning rivojlanishi ancha tezlashgan bo‘lardi.

Shunday qilib, dekolonial fikrlashni rivojlantirish uchun kuchli dekolonizatsiya siyosati bo‘lgan davlatlar bilan aloqani rivojlantirish, fikr almashish, ulardan o‘rganish va o‘zbek tiliga nisbatan bepisand munosabatda bo‘lish uchun o‘zini aybdor his qilish muhimdir. Zembylasning nazariy qarashlariga binoan [16], dekolonizatsiya quyidagi bosqichlar: 1) noqulay ustunlikni his etish; 2) dekolonial birdamlikni his etish va 3) birinchi va ikkinchi tuyg‘ularni doimiy ravishda rivojlantirish orqali amalga oshishi mumkin. Shu nazariyadan foydalanib, aytish mumkinki, tashqi dunyo bilan aloqa haqiqatan ham birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tishga imkon beradi. Yuqorida aytib o‘tilgan aybdorlik noqulay, ammo u “tavba qilish yoki o‘zgarish istagi” [7, 13-b] bilan birga kelganligi sababli, birdamlikka olib keladi. O‘z navbatida, bu Zembylas nazariyasiga ko‘ra [16] 2- va 3-bosqichlarga o‘tishga imkon beradi.

Sayohat qilish har doim ham mumkin yoki arzon bo‘lmasa-da, bugungi kunda dekolonial g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi va/yoki mustamlakachilik mantiqiga qarshi chiqadigan onlayn o‘qishlar yoki uchrashuvlar/forumlar orqali dekolonizatsiya haqida o‘rganish uchun ko‘plab imkoniyatlar bor. Bu narsalarni mavjud adabiyotlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasdiqlash yo‘q, ammo buning teskarisi yaxshi asoslangan ko‘rinadi. Finke aytishicha, ko‘plab o‘zbek erkaklarining Rossiyaga ishlagani borishi ham oilalarining bu dunyoda o‘z o‘rinlarini anglashga ta’sir qiladi va tafakkurlarining dekolonial bo‘lish ehtimolini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tilyabaev, K., 2024. Exploring the emotional dimension of Uzbek language decolonisation: insights from the experiences of learning Uzbek as a second language. Lancaster University.
2. Zembylas, M., 2018. Con-/divergences between postcolonial and critical peace education: Towards pedagogies of decolonization in peace education. Journal of Peace Education, 15(1), pp.1-23.

3. 2018. BERA Ethical Guidelines for Educational Research. 4th ed. [ebook] London: BERA, Available at: <https://www.bera.ac.uk/publication/ethical-guidelines-for-educational-research-2018-online> [Accessed 21 February 2021].

4. Smith, B., 2016. Narrative analysis. Analysing qualitative data in psychology, 2, pp.202-221.

5. Amirejibi-Mullen, R., 2012. Language policy and national identity in Georgia (Doctoral dissertation, Queen Mary, University of London).

6. Olson, J.S., Pappas, L.B. and Pappas, N.C. eds., 1994. An Ethnohistorical dictionary of the Russian and Soviet empires. Greenwood Publishing Group., pp. 247-258.

7. Teimouri, Y., 2019. Exploring the Links between Second Language Learners' Proneness to Shame and Proneness to Guilt and their Language Learning Motivation and Achievement. Georgetown University.

8. Yusupova, S.N., and Kadirov, A.A.U., 2023. Jadidism and politics of repression. Science and innovation, 2(C4), pp.128-133.

9. Gillard, D., 2023. The Struggle for Asia 1828–1914: A Study in British and Russian Imperialism (Vol. 44). Taylor & Francis.

10. Tatarchenko, K., 2023. Algorithm's Cradle: Commemorating al-Khwarizmi in the Soviet History of Mathematics and Cold War Computer Science. Osiris, 38(1), pp.286-304.

11. Rasulova, G.A., 2022. The role of historical scientific heritage in geometry lessons. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), pp.234-238.

12. Bazarbayev, K.K., Gumadullayeva, A. and Rustambekova, M., 2013. Jadidism Phenomenon in Central Asia. Procedia-Social and Behavioral Sciences, 89, pp.876-881.

13. Shcherbak, A., 2015. Nationalism in the USSR: A historical and comparative perspective. Nationalities Papers, 43(6), pp.866-885.

14. Vujacic, V. and Zaslavsky, V., 1991. The Causes of Disintegration in the USSR and Yugoslavia. Telos, 88, pp.120-140.

15. Kudaibergenova, D.T. and Shin, B., 2018. Authors and authoritarianism in Central Asia: Failed agency and nationalising authoritarianism in Uzbekistan and Kazakhstan. Asian Studies Review, 42(2), pp.304-322.

16. Zembylas, M., 2022. Toward affective decolonization: Nurturing decolonizing solidarity in higher education. Journal of Curriculum and Pedagogy, pp.1-20.

UDK 811.512.133'37

Khayrullayeva Shahzoda Farhodovna,
PhD Researcher of Tashkent State Transport University

SEMANTIC AND CULTURAL ASPECTS OF GRAMMATICAL AND LEXICAL MEANS EXPRESSING POSITIVE AND NEGATIVE EMOTIONS IN UZBEK AND ENGLISH

Abstract. This article presents a comparative linguacultural analysis of grammatical and lexical means used to express positive and negative emotions in Uzbek and English. The research focuses on semantic nuances, metaphorical patterns, and cultural influences shaping emotional expression. In Uzbek, emotions are predominantly conveyed through possessive suffixes, body-related metaphors, and vivid figurative expressions, reflecting collective and relational values. In contrast, English tends to express emotions through precise lexical items, modal verbs, and passive constructions, emphasizing individual perspective and emotional control. The findings underline the significance of understanding grammatical and cultural differences in emotional expression for translation studies and intercultural communication.

Keywords: emotions, positive and negative feelings, grammatical means, semantic nuances, metaphor, linguacultural analysis, translation.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDA IJOBIY VA SALBIY HIS-TUYG‘ULARNI IFODALOVCHI GRAMMATIK VA LEKSIK VOSITALAR (SEMANTIK NUANSLAR VA MADANIY TA’SIR QIYOSIY TAHLILI)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularni ifodalashda qo‘llaniladigan grammatik va leksik vositalar qiyosiy-lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida emotsional birliklarning semantik tuzilishi, metaforik xususiyatlari hamda madaniy kontekst bilan bog‘liqligi o‘rganildi. O‘zbek tilida his-tuyg‘ular asosan egalik qo‘shimchalari, tana a’zolari bilan bog‘liq metaforalar va obrazli ifodalar orqali bevosita yetkazilsa, ingliz tilida emotsiyalar ko‘proq aniq leksik birliklar, modal fe’llar va passiv grammatik konstruktsiyalar orqali ehtiyotkor va bilvosita ifodalanadi. Tadqiqot natijalari tarjima jarayonlari, madaniyatlararo muloqot hamda chet tillarini o‘qitishda emotsional mazmunni to‘g‘ri talqin qilish muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: his-tuyg‘ular, ijobiy va salbiy emotsiyalar, grammatik vositalar, semantik nuans, metafora, lingvokulturologiya, tarjima.

ГРАММАТИЧЕСКИЕ И ЛЕКСИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫХ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫХ ЭМОЦИЙ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ

АНАЛИЗ СЕМАНТИЧЕСКИХ НЮАНСОВ И КУЛЬТУРНОГО ВЛИЯНИЯ)

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-лингвокультурологический анализ грамматических и лексических средств, используемых для выражения положительных и отрицательных эмоций в узбекском и английском языках. В ходе исследования были изучены семантическая структура эмоциональных единиц, их метафорические свойства и связь с культурным контекстом. Установлено, что если в узбекском языке чувства передаются преимущественно через притяжательные аффиксы, метафоры, связанные с частями тела, и образные выражения, то в английском языке эмоции чаще выражаются сдержанно и опосредованно через конкретные лексические единицы, модальные глаголы и пассивные грамматические конструкции. Результаты исследования подчеркивают важность правильной интерпретации эмоционального содержания в процессах перевода, межкультурной коммуникации и преподавании иностранных языков.

Ключевые слова: чувства, положительные и отрицательные эмоции, грамматические средства, семантический нюанс, метафора, лингвокультурология, перевод.

Human emotions represent one of the most complex and multilayered phenomena expressed through language. In every nation and culture, emotions are conveyed through specific linguistic mechanisms. Positive and negative emotions are closely connected with an individual's psychological state, social experience, and cultural values, and their reflection in linguistic units demonstrates the inseparable relationship between language and culture.

In Uzbek and English, grammatical structures, lexical units, and metaphorical expressions play a significant role in conveying emotional states. However, the usage, semantic load, and pragmatic functions of these means differ considerably between the two languages. Identifying and analyzing these differences constitutes a relevant issue in linguacultural research.

This article aims to provide a comparative analysis of grammatical and lexical means used to express positive and negative emotions in Uzbek and English, revealing their semantic nuances and cultural influence.

The linguistic study of emotions constitutes one of the major research directions in modern linguistics. Z. Kövecses (2000), in his work Metaphor and Emotion, demonstrates that emotions are conceptualized through metaphors and that this process is directly influenced by culture. According to the author, emotions are shaped by bodily experience and cultural cognition.

A. Wierzbicka (1999) distinguishes between universal and culture-specific elements in emotional expression, emphasizing that each language reflects emotional experience through its own semantic models. Her Natural Semantic

Metalanguage (NSM) methodology enables an in-depth semantic analysis of emotional units.

In local research, Abdullaeva K. (2022) analyzes emotional expression through grammatical constructions in Uzbek and English, noting that emotions in Uzbek are expressed more directly. Turg‘unov Sh. (2023) highlights the dominance of modal verbs and passive constructions in expressing negative emotions in English.

The linguistic study of emotions developed actively from the late 20th to the early 21st century within cognitive linguistics, pragmatics, and linguacultural studies. Emotions are not only named through language but are also conceptualized, evaluated, and regulated according to cultural norms. Therefore, grammatical and lexical means of emotional expression are directly connected with a language's mental model and social values.

As a representative of the cognitive approach, Zoltán Kövecses (2000) identifies universal conceptual metaphors such as ANGER IS HEAT and HAPPINESS IS UP. However, he emphasizes that these metaphors are realized differently across cultures in lexical and grammatical forms. For example, the English expression "to boil with anger" and the Uzbek phrase "g‘azabdan qoni qaynadi" share a common metaphorical base, yet differ in stylistic intensity and social evaluation.

Anna Wierzbicka (1999), through the NSM framework, argues that emotion words cannot be fully understood through direct translation alone but must be interpreted through underlying cultural scripts. For instance, the English concept disappointment partially corresponds to Uzbek ranjish or ko‘ngli qolish, though their social context and emotional intensity differ.

From a pragmatic perspective, Brown and Levinson's (1987) Politeness Theory is also crucial for analyzing emotional expression. According to this theory, in certain cultures—including Uzbek society—open expression of negative emotions is considered a face-threatening act. Consequently, such emotions are often conveyed indirectly, metaphorically, or through softened grammatical structures.

Local scholars such as Abdullaeva (2022) emphasize that possessive suffixes and person categories in Uzbek enhance emotional proximity, while Turg‘unov (2023) explains that modal verbs (might, could, should) in English function as tools for emotional evaluation and distancing. Jabborova (2021) highlights that phraseological units serve as cultural codes of emotional states and warns of their potential loss in translation.

Comparative analysis demonstrates that in Uzbek, positive and negative emotions are frequently expressed through possessive suffixes and body-related metaphors, such as "yuragim og‘ridi" (my heart hurt), "ko‘nglim ko‘tarildi" (my spirit lifted), and "jonim quvonchdan to‘ldi" (my soul filled with joy). These expressions convey emotions directly, deeply, and vividly.

In English, emotional states are more commonly expressed through precise lexical items and grammatical constructions, such as "I was hurt," "She felt delighted," and "He was deeply disappointed." Passive constructions and modal verbs enable softer and more distant emotional expression.

Culturally, indirect emotional expression within the framework of modesty and respect is highly valued in Uzbek society. In English-speaking cultures, open and explicit expression of personal emotions is generally considered socially acceptable. This difference significantly affects the accurate transmission of emotional meaning in translation.

The analysis confirms a strong interconnection between grammatical structure, semantic load, and cultural norms in both languages. In Uzbek, emotions are often subjectivized through possessive suffixes (yuragim siqildi, ko‘nglim buzildi), which link emotional states directly to the individual's inner world. Grammatically, these suffixes convey not only possession but also emotional involvement.

In English, emotions are typically expressed through predicative constructions. Passive forms present the subject as a recipient rather than an active source of emotion, maintaining emotional distance and social neutrality.Semantically, Uzbek emotional units are predominantly metaphorical and connotative, with the concept of ko‘ngil (inner self/spirit) occupying a central position as a symbol of emotional, moral, and social states. Although English employs heart metaphors, they lack the multi-layered semantic scope of ko‘ngil.

Cultural differences further reinforce these distinctions. In Uzbek culture, indirect expression of negative emotions serves to preserve social harmony, while in English culture, direct expression of feelings is normalized, making phrases such as "I'm disappointed" culturally acceptable.

The study reveals that in Uzbek and English, the expression of positive and negative emotions differs significantly in terms of:

-grammatical means (possessive suffixes, modal verbs, passive constructions);

- lexical-semantic units;

- metaphorical and cultural codes.

In Uzbek, emotions are expressed in a figurative and context-dependent manner, whereas in English they are conveyed in a more precise and structured form.

At the grammatical level, possessive suffixes and verb forms in Uzbek enhance emotional proximity, while passive constructions and modal verbs in English maintain emotional distance. At the semantic level, Uzbek emotions are more metaphorical and culturally embedded, whereas English emotional expressions tend to be concise and less metaphorical. Culturally, indirect emotional expression is the norm in Uzbek, while direct expression prevails in English.

Failure to consider these differences in translation may result in the loss of emotional intensity or misinterpretation. Overall, the study confirms that emotional expression in Uzbek and English is not only a linguistic phenomenon but also a deeply cultural and cognitive process.

In conclusion, the expression of emotions in Uzbek and English is closely connected not only with the grammatical system and semantic structure of each language, but also with the broader cultural values, social norms, and communicative traditions that shape how speakers convey their inner states. Emotional expression in language is not merely a linguistic phenomenon; it reflects the worldview, mentality, and interactional patterns of a given speech community.

From a grammatical perspective, Uzbek and English differ in the ways emotional nuances are encoded through morphology, syntax, and the use of particles or auxiliary elements. Uzbek, as an agglutinative language, often employs suffixes, modal forms, and expressive particles to convey subtle shades of emotion, politeness, and speaker attitude. In contrast, English relies more on word order, intonation, auxiliary verbs, and lexical choices to express similar meanings. These structural differences influence not only how emotions are articulated but also how they are perceived and interpreted by speakers of each language.

Semantically, emotional vocabulary in both languages reflects culturally specific categorizations of feelings. Certain emotions may have direct equivalents, while others are expressed through culturally bound concepts, idiomatic expressions, or metaphorical language that may not be easily translatable. As a result, achieving semantic equivalence in translation requires not only linguistic competence but also deep cultural awareness and sensitivity to context.

Cultural values further play a decisive role in shaping emotional expression. Uzbek communicative culture, which places a strong emphasis on respect, collectivism, and social harmony, often encourages indirectness, restraint, and the use of polite or mitigated forms when expressing emotions—especially negative ones. English-speaking cultures, particularly in more individualistic contexts, may allow for more direct and explicit emotional expression, depending on the situation. These differences can lead to misunderstandings or misinterpretations in intercultural communication if not properly understood.Therefore, a comprehensive understanding of the linguistic and cultural specifics of emotional expression in Uzbek and English holds significant theoretical and practical importance. In translation studies, it enables more accurate and culturally appropriate rendering of emotional content. In language teaching, it helps learners develop pragmatic competence and avoid communicative errors. In the field of intercultural communication, it fosters mutual understanding, reduces the risk of miscommunication, and supports more effective and empathetic interaction between speakers of different languages.

Ultimately, exploring emotional expression across languages contributes to a deeper appreciation of how language, thought, and culture are interconnected, and highlights the importance of integrating linguistic knowledge with cultural insight in both academic research and real-world communication.

References:

1. Abdullaeva, K. Emotional Expression through Grammatical Constructions in Uzbek and English. Tashkent. 2022.

2. Jabborova, A. Frazeologizmlar va ularning madaniy-semantik xususiyatlari. Toshkent. 2021.

3. Kövecses, Z. Metaphor and Emotion. Cambridge University Press. 2000.

4. Turg‘unov, Sh. O‘zbek va ingliz tillarida salbiy emotsiyalar. Toshkent. 2023.

5. Wierzbicka, A. Emotions Across Languages and Cultures. Cambridge University Press. 1999.

UDK 159.942.072:796.015.4

Atashayxov Abduvaxid Abdushukurovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Jismoniy tayyorgarlik va sport” kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent

EKSTREMAL VAZIYATLARDA KURSANTLARNING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI QO‘L JANGI VOSITASI ORQALI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekstremal vaziyatlarda kursantlarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish jarayonida qo‘l jangi mashg‘ulotlarining o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish, irodaviy barqarorlik va emotsional nazoratni rivojlantirishda qo‘l jangi samarali vosita sifatida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ekstremal vaziyat, psixologik tayyorgarlik, qo‘l jangi, stressga chidamlilik, irodaviy sifatlar, kursant.

ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ КУРСАНТОВ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ СРЕДСТВАМИ РУКОПАШНОГО БОЯ

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение занятий рукопашным боем в процессе формирования психологической подготовки курсантов в экстремальных ситуациях как с научно-теоретической, так и с практической точки зрения. Рукопашный бой оправдан как эффективное средство в развитии стрессоустойчивости, быстрого принятия решений, волевой устойчивости и эмоционального контроля.

Ключевые слова: экстремальная ситуация, психологическая подготовка, рукопашный бой, стрессоустойчивость, волевые качества, кадет.

FORMATION OF PSYCHOLOGICAL TRAINING OF CADETS IN EXTREME SITUATIONS THROUGH THE MEANS OF HAND-TO-HAND COMBAT

Abstract. This article analyzes the role and significance of hand-to-hand combat in the process of forming the psychological training of cadets in extreme situations, both from a scientific and theoretical perspective, and from a practical standpoint. Hand-to-hand combat is justified as an effective means of developing stress resistance, quick decision-making, volitional stability, and emotional control.

Keywords: extreme situation, psychological training, hand-to-hand combat, stress resistance, strong-willed qualities, cadet.

Globallashuv jarayonlari, zamonaviy xavfsizlik tahdidlari va tezkor o‘zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy sharoitlar harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar zimmasiga yanada murakkab vazifalarni yuklamoqda. Terrorizm, ommaviy tartibsizliklar, qurolli qarshilik, garovga olish holatlari, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar kabi omillar xodimlardan nafaqat yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni, balki ekstremal sharoitlarda psixologik barqarorlikni ham talab etadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlar uchun bunday vaziyatlarga oldindan tayyorlanish ularning kelgusidagi xizmat faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Ekstremal vaziyat — bu shaxsning hayoti, sog‘ligi yoki ijtimoiy maqomiga real xavf tug‘diruvchi, yuqori darajadagi noaniqlik, vaqt tanqisligi va psixo-emotsional zo‘riqish bilan xarakterlanuvchi holatdir. Bunday vaziyatlarda inson organizmi kuchli stress reaksiyasini namoyon qiladi. Stress nazariyasining asoschisi Hans Selye stressni organizmning tashqi ta’sirlarga nisbatan umumiy moslashuv reaksiyasi sifatida talqin etib, uning uch bosqichdan (tashvish, qarshilik, holdan toyish) iboratligini ko‘rsatgan. Ushbu yondashuv ekstremal sharoitlarda inson organizmida kechadigan fiziologik jarayonlarni tushuntirishga zamin yaratdi.

Keyinchalik stressning psixologik jihatlari chuqurroq o‘rganila boshlandi. Xususan, Richard Lazarus tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv baholash nazariyasiga ko‘ra, stressning intensivligi vaziyatning o‘zi bilan emas, balki shaxsning uni qanday baholashi va o‘z imkoniyatlarini qanday idrok etishi bilan belgilanadi. Demak, ekstremal vaziyatga tayyorgarlik faqat jismoniy mashqlar bilan cheklanib qolmasdan, shaxsning ichki psixologik resurslarini rivojlantirishni ham talab qiladi.

Psixologik tayyorgarlik deganda shaxsning xavfli va murakkab sharoitlarda o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarish, emotsiyalarni nazorat qilish, tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish, qo‘rquv va vahimani yengish qobiliyatlari tushuniladi. Kursantlarda ushbu sifatlarni shakllantirish jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Chunki real xizmat sharoitida nazariy bilimning o‘zi yetarli emas — vaziyatni his qilish, bosim ostida harakatlana olish va xavf omillariga moslashish ko‘nikmalari zarur bo‘ladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, qo‘l jangi mashg‘ulotlari psixologik tayyorgarlikni shakllantirishning samarali vositalaridan biridir. Qo‘l jangi jarayonida kursant real xavfga yaqinlashtirilgan sharoitda harakat qiladi, raqibning qarshiligini his etadi, og‘riq va charchoqni boshdan kechiradi hamda qisqa vaqt ichida qaror qabul qilishga majbur bo‘ladi. Bu esa stress omillariga moslashish mexanizmlarini faollashtiradi [1,2].

Zamonaviy jangovar-amaliy tizimlar, jumladan Krav Maga, Combat Sambo va Judo kabi yo‘nalishlar real vaziyatga maksimal darajada yaqinlashtirilgan mashg‘ulot tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tizimlarda stress ostida harakat qilish, tezkor qarshi choralar ko‘rish va psixologik ustunlikni saqlab qolish asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Shu bois qo‘l jangi nafaqat jismoniy sifatlarni (kuch, tezlik, chidamlilik), balki irodaviy va emotsional sifatlarni ham rivojlantiradi.

Kursantlarning psixologik tayyorgarligini shakllantirishda qo‘l jangining ahamiyati quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Stressga adaptatsiya mexanizmini rivojlantiradi – takroriy ravishda murakkab vaziyatlarga duch kelish organizmning moslashuv salohiyatini oshiradi.

Emotsional barqarorlikni kuchaytiradi – qo‘rquv, agressiya va hayajonni boshqarish ko‘nikmasi shakllanadi.

Tezkor fikrlashni rivojlantiradi – cheklangan vaqt sharoitida optimal qaror qabul qilish malakasi paydo bo‘ladi.

O‘ziga ishonchni oshiradi – shaxs o‘z imkoniyatlarini real baholashni o‘rganadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda qo‘l jangi mashg‘ulotlarining jismoniy rivojlanishga ta’siri keng yoritilgan bo‘lsa-da, uning aynan psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdagi o‘rni yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Ayniqsa, ekstremal vaziyatlarni modellashtirish orqali kursantlarda stressga chidamlilikni rivojlantirish masalasi ilmiy jihatdan yanada chuqur tahlilni talab etadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda qo‘l jangi vositasida kursantlarning psixologik tayyorgarligini shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tizimli ravishda yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — ekstremal vaziyatlarga moslashuvchan, emotsional barqaror va tezkor qaror qabul qila oladigan mutaxassis shaxsini shakllantirishda qo‘l jangi mashg‘ulotlarining samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat.

Mazkur tadqiqotda ekstremal vaziyatlarda kursantlarning psixologik tayyorgarligini qo‘l jangi vositasida shakllantirish samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv asosida ilmiy-uslubiy, psixologik va pedagogik metodlardan foydalanildi.

Avvalo, muammo yuzasidan ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Ekstremal vaziyatlar psixologiyasi, stress nazariyasi va jangovar tayyorgarlik masalalariga oid manbalar o‘rganildi. Stressning fiziologik mexanizmlari Hans Selye tomonidan ishlab chiqilgan umumiy moslashuv sindromi nazariyasi asosida, shuningdek stressni kognitiv baholash modeli Richard Lazarus konsepsiyasi doirasida tahlil qilindi. Bu yondashuvlar kursantlarning psixologik reaksiyalarini tushuntirish va tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi [3,4].

Empirik bosqichda pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqotda jami 60 nafar kursant ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida ikki guruhga — nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida mashg‘ulotlar an’anaviy jismoniy tayyorgarlik dasturi asosida olib borildi. Tajriba guruhida esa qo‘l jangi elementlari asosida ishlab chiqilgan, psixologik zo‘riqish omillarini modellashtiruvchi maxsus dastur qo‘llanildi. Tajriba 16 hafta davomida muntazam ravishda o‘tkazildi.

Tadqiqot jarayonida psixologik diagnostika metodlari qo‘llanildi. Kursantlarning stressga chidamlilik darajasi, vaziyatli va shaxsiy xavotir ko‘rsatkichlari, emotsional barqarorlik hamda irodaviy sifatlari maxsus psixodiagnostik testlar yordamida aniqlanib, tajriba boshida va yakunida

taqqoslandi. Bundan tashqari, tezkor qaror qabul qilish va reaktsiya tezligini baholash uchun vaqt cheklovi asosidagi amaliy topshiriqlar ishlab chiqildi.

Pedagogik kuzatish metodi orqali mashg‘ulotlar davomida kursantlarning xulq-atvori, stress sharoitidagi harakatlari, o‘zini tutishi va jamoaviy hamkorlik darajasi tizimli ravishda qayd etildi. Kuzatish natijalari maxsus protokollarga kiritilib, sifat jihatdan tahlil qilindi.

Ekstremal vaziyatlarni modellashtirish maqsadida qo‘l jangi mashg‘ulotlariga qo‘shimcha stress omillari (kuchli shovqin, yorug‘likning keskin o‘zgarishi, vaqt tanqisligi, bir nechta raqib bilan ishlash, kutilmagan topshiriqlar) kiritildi. Bu usul kursantlarning real xizmat sharoitiga yaqin psixologik holatda harakat qilish qobiliyatini aniqlash imkonini berdi. Mashg‘ulotlarda Krav Maga va Combat Sambo elementlaridan foydalanildi, chunki ushbu tizimlar real vaziyatga maksimal darajada yaqinlashtirilgan amaliy yo‘nalishga ega.

Olingan natijalar matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlanib, guruhlar o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Foiz ko‘rsatkichlari, o‘rtacha arifmetik qiymatlar hamda dinamik o‘zgarishlar tahlil qilindi. Natijalarning ishonchliligi taqqoslash va variatsion tahlil orqali tekshirildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, psixologik diagnostika, pedagogik tajriba, modellashtirish va statistik ishlov berish usullarining o‘zaro integratsiyasi asosida qurildi. Bu esa qo‘l jangi vositasida kursantlarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish jarayonini har tomonlama va obyektiv baholash imkonini berdi [5,6].

Tajriba-sinov ishlari yakunida kursantlarning psixologik ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot boshida va oxirida olingan diagnostik natijalar taqqoslanib, nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilindi.

Tajriba guruhida qo‘l jangi asosida tashkil etilgan, stress omillari modellashtirilgan mashg‘ulotlar natijasida stressga chidamlilik darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Kursantlar ekstremal sharoitga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda o‘z harakatlarini boshqarish, emotsional zo‘riqishni nazorat qilish va tezkor qaror qabul qilish bo‘yicha yuqori natijalarni namoyon etdilar. Vaziyatli xavotir ko‘rsatkichi kamaydi, o‘ziga ishonch va irodaviy barqarorlik darajasi oshdi.

Nazorat guruhida esa an’anaviy jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari natijasida ayrim ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ular statistik jihatdan katta farqni tashkil etmadi. Ayniqsa, stress sharoitida qaror qabul qilish tezligi va emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlari tajriba guruhiga nisbatan past darajada saqlanib qoldi.

Quyidagi jadvalda tadqiqot boshidagi va yakunidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar keltirilgan.

Olingan natijalar qo‘l jangi vositasida tashkil etilgan mashg‘ulotlar kursantlarning psixologik tayyorgarligini samarali shakllantirishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, stress sharoitiga yaqinlashtirilgan modellashtirilgan vaziyatlarda olib borilgan amaliy mashg‘ulotlar psixologik moslashuv mexanizmlarini faollashtirishi va irodaviy sifatlarni mustahkamlashi aniqlandi.

1-jadval

Kursantlarning psixologik ko‘rsatkichlari dinamikasi (o‘rtacha qiymatlar)

№	Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (boshlang‘ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)	Tajriba guruhi (boshlang‘ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)
1.	Stressga chidamlilik (ball)	62	66	61	75
2.	Vaziyatli xavotir (ball)	48	45	49	38
3.	Qaror qabul qilish tezligi (sek.)	4.8	4.5	4.9	3.7
4.	Emotsional barqarorlik (ball)	64	68	63	78
5.	O‘ziga ishonch darajasi (ball)	66	70	65	82

Stressga chidamlilik tajriba guruhida o‘rtacha 23% ga oshdi, nazorat guruhida esa o‘sish 6–7% atrofida bo‘ldi.

Vaziyatli xavotir darajasi tajriba guruhida sezilarli kamaydi (taxminan 17–20%), bu esa stressni boshqarish ko‘nikmasi shakllanganini ko‘rsatadi.

Qaror qabul qilish tezligi tajriba guruhida 1,2 soniyaga yaxshilandi, bu ekstremal sharoitda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Emotsional barqarorlik va o‘ziga ishonch darajasi tajriba guruhida ancha yuqori o‘sish dinamikasini namoyon etdi.

2-jadval

Ko‘rsatkichlarning foiz hisobidagi o‘zgarish dinamikasi (%)

№	Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
1.	Stressga chidamlilik	+6.4 %	+22.9 %
2.	Vaziyatli xavotir	−6.2 %	−22.4 %
3.	Qaror qabul qilish tezligi	+6.3 %	+24.5 %
4.	Emotsional barqarorlik	+6.2 %	+23.8 %
5.	O‘ziga ishonch	+6.0 %	+26.1 %

Izoh: Qaror qabul qilish tezligida foiz o‘sish vaqtning qisqarishi (ijobiy natija) asosida hisoblandi.

3-jadval

Guruhlar o‘rtasidagi yakuniy ko‘rsatkichlar farqi

№	Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (yakuniy)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Farq (±)

1.	Stressga chidamlilik	66	75	+9
2.	Vaziyatli xavotir	45	38	−7
3.	Qaror qabul qilish tezligi	4.5 sek.	3.7 sek.	−0.8 sek.
4.	Emotsional barqarorlik	68	78	+10
5.	O‘ziga ishonch	70	82	+12

4-jadval

Psixologik tayyorgarlik darajalari bo‘yicha taqsimot (%)

Daraja	Nazorat guruhi (boshl.)	Nazorat guruhi (yakuniy)	Tajriba guruhi (boshl.)	Tajriba guruhi (yakuniy)
Yuqori	18 %	25 %	20 %	52 %
O‘rta	56 %	58 %	55 %	40 %
Past	26 %	17 %	25 %	8 %

5-jadval

Reaktsiya tezligi (amaliy test natijalari)

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
O‘rtacha vaqt (boshlang‘ich)	0.82 sek.	0.84 sek.
O‘rtacha vaqt (yakuniy)	0.76 sek.	0.61 sek.
Yaxshilanish ko‘rsatkichi	0.06 sek.	0.23 sek.

Tadqiqot natijalari va statistik jadvallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhidagi kursantlarning barcha psixologik ko‘rsatkichlarida sezilarli va ishonchli ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Xususan, qo‘l jangi elementlari bilan boyitilgan maxsus tayyorgarlik tizimi ta’sirida kursantlarning stressga chidamlilik darajasi va emotsional barqarorligi keskin oshib, turli murakkab vaziyatlarda o‘zini boshqarish qobiliyati mustahkamlandi. Shu bilan birga, sub’ektiv va vaziyatli xavotir darajasining sezilarli darajada kamayishi kuzatildi, bu esa ekstremal sharoitlarda ruhiy tushkunlikka berilmaslik imkonini beradi.

Intellektual-psixologik ko‘rsatkichlar tahlil qilinganda, kursantlarning qaror qabul qilish tezligi va kutilmagan vaziyatlarga reaktsiya berish qobiliyati ancha yaxshilangani aniqlandi. Tajriba yakunida eng muhim ko‘rsatkichlardan biri — yuqori psixologik tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan kursantlar ulushining 20 foizdan 52 foizga qadar, ya’ni ikki baravardan ko‘proqqa oshganidir. Bu kabi ijobiy dinamika qo‘l jangi vositalari yordamida modellashtirilgan ekstremal mashg‘ulotlar kursantlarning kasbiy-ruhiy tayyorgarligini shakllantirishda o‘ta yuqori samaradorlikka ega ekanligini to‘liq tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qo‘l jangi asosida tashkil etilgan, stress omillari modellashtirilgan mashg‘ulotlar kursantlarning psixologik tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Olingan empirik ma’lumotlar nazariy qarashlar bilan uyg‘un holda talqin qilindi va ekstremal vaziyatlarda shaxsning moslashuv mexanizmlarini faollashtirishda amaliy mashg‘ulotlarning ustuvor ahamiyatini tasdiqladi.

Avvalo, stressga chidamlilikning oshishi fiziologik moslashuv jarayonlari bilan bog‘liq. Hans Selye tomonidan asoslangan umumiy moslashuv sindromi nazariyasiga ko‘ra, organizm takroriy stress ta’siriga duch kelganda qarshilik bosqichi mustahkamlanadi va moslashuv resurslari kengayadi. Tadqiqot davomida tajriba guruhida sun’iy yaratilgan psixo-emotsional zo‘riqish sharoitlari (vaqt tanqisligi, kutilmagan topshiriqlar, jismoniy bosim) kursantlarning organizmida adaptatsion mexanizmlarni faollashtirdi. Natijada ular stress omillariga nisbatan barqarorroq munosabat bildira boshladilar.

Shuningdek, stressning psixologik talqini nuqtayi nazaridan ham natijalar asosli hisoblanadi. Richard Lazarus tomonidan ilgari surilgan kognitiv baholash nazariyasiga ko‘ra, shaxs vaziyatni xavf yoki sinov sifatida qanday qabul qilishi uning emotsional reaksiyasini belgilaydi. Qo‘l jangi mashg‘ulotlari jarayonida kursantlar murakkab vaziyatlarni nazorat qilinadigan va boshqariladigan jarayon sifatida idrok etishni o‘rgandilar. Bu esa xavotir darajasining pasayishiga va o‘ziga ishonchning ortishiga olib keldi. Demak, mashg‘ulotlar nafaqat fiziologik, balki kognitiv qayta baholash mexanizmlarini ham rivojlantirgan.

Tajriba guruhida qaror qabul qilish tezligining oshishi ekstremal sharoitda fikrlashning operativligini kuchayganidan dalolat beradi. Qo‘l jangi mashg‘ulotlari davomida vaziyat tez o‘zgaradi, raqibning harakati oldindan aniq bo‘lmaydi va har bir soniya muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoit kursantlarni tezkor tahlil qilish, ustuvor vazifani ajratib olish va minimal vaqt ichida optimal qaror qabul qilishga majbur etadi. Bu ko‘nikma real xizmat faoliyatida ham bevosita qo‘llanilishi mumkin.

Emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlarining oshishi ham muhim natija hisoblanadi. Qo‘l jangi jarayonida og‘riq, charchoq va psixologik bosim elementlari mavjud bo‘lib, ular shaxsning irodaviy sifatlarini sinovdan o‘tkazadi. Muntazam ravishda bunday sharoitda mashq qilish qo‘rquvni boshqarish, agressiyani nazorat qilish va ichki muvozanatni saqlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ekstremal vaziyatlarda vahima va dezorganizatsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan mashg‘ulotlar tizimi amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgan jangovar san’at elementlariga asoslandi. Xususan, Krav Maga va Combat Sambo tamoyillarida real vaziyatni maksimal darajada modellashtirish, kutilmaganlik omili va psixologik bosim ostida harakat qilish ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu tamoyillarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish kursantlarning nafaqat texnik, balki psixologik jihatdan ham tayyorlanishiga imkon yaratdi.

Nazorat guruhida sezilarli o‘sishning kuzatilmaganligi shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari psixologik barqarorlikni shakllantirishda yetarli darajada samarali emas. Jismoniy rivojlanish albatta muhim omil bo‘lsa-da, ekstremal vaziyatlarga moslashuv uchun maxsus psixologik yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar zarur.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini talqin etishda ayrim cheklovlarni ham hisobga olish lozim. Ishtirokchilar sonining nisbatan cheklanganligi, tajriba muddatining 16 hafta bilan chegaralanganligi va ayrim ko‘rsatkichlarning subyektiv testlarga asoslanganligi umumlashtirish jarayonida ehtiyotkorlikni talab etadi.

Kelgusida uzoq muddatli monitoring, turli yosh va tayyorgarlik darajasidagi kursantlar ishtirokida kengroq tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, olingan natijalar qo‘l jangi vositasida tashkil etilgan maxsus mashg‘ulotlar ekstremal vaziyatlarda kursantlarning psixologik tayyorgarligini shakllantirishda samarali pedagogik-psixologik mexanizm ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Bu yondashuv kasbiy tayyorgarlik tizimiga integratsiya qilinganda, xavfli sharoitlarda barqaror, tezkor va mas’uliyatli qaror qabul qila oladigan mutaxassis shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi.[7,8]

Tadqiqot natijalari shuni aniq ko‘rsatdiki, ekstremal vaziyatlarda kursantlarning psixologik tayyorgarligini shakllantirishda qo‘l jangi mashg‘ulotlari samarali pedagogik-psixologik vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot davomida qo‘l jangiga asoslangan mashg‘ulotlar kursantlarda stressga chidamlilikni oshirish, vaziyatli xavotir darajasini kamaytirish, tezkor qaror qabul qilish va emotsional barqarorlikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tajriba guruhida stressga chidamlilik darajasi o‘rtacha 23% ga oshdi, vaziyatli xavotir ko‘rsatkichi 22% ga kamaydi, qaror qabul qilish tezligi 24% ga yaxshilandi, emotsional barqarorlik 24% ga oshdi, o‘ziga ishonch darajasi esa 26% ga ko‘tarildi. Shu bilan birga, yuqori psixologik tayyorgarlik darajasiga ega kursantlar ulushi tajriba guruhida 52% ga yetib, nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natija ko‘rsatdi. Bu natijalar qo‘l jangi mashg‘ulotlarining kursantlarning ekstremal vaziyatlarga moslashuvchanligini oshirishda va ularni real xavfli sharoitlarda ongli va samarali harakat qilishga tayyorlashda yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, qo‘l jangi mashg‘ulotlari kursantlarda nafaqat jismoniy, balki psixologik va irodaviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan. Mashg‘ulotlar davomida stress ostida qaror qabul qilish, emotsional holatni boshqarish va vaqt tanqisligida harakat qilish ko‘nikmalari shakllanadi, bu esa real xizmat faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Shu bois qo‘l jangi elementlarini ekstremal vaziyatlarda psixologik tayyorgarlik dasturlariga integratsiya qilish harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi ta’lim muassasalarida kursantlarning psixologik barqarorligini mustahkamlash va xizmat samaradorligini oshirishning samarali yo‘li hisoblanadi. Kelgusida uzoq muddatli va keng ko‘lamli tadqiqotlar orqali qo‘l jangining turli yosh va tayyorgarlik darajasidagi kursantlarga ta’siri yanada aniqroq o‘rganilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Selye, H. The Stress of Life. New York: McGraw-Hill. 1976.
2. Lazarus, R.S., & Folkman, S. Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer Publishing. 1984.
3. Parker, J., & Sanders, G. Psychological Training in Combat Sports. London: Routledge. 2018.
4. Krav Maga Global. Krav Maga Training Manual: Stress and Realistic Scenarios. Tel Aviv: KMG Publications. 2020.

5. Gladkov, I.A. Combat Sambo: Theory and Practice. Moscow: Physical Culture and Sports Publishing. 2015.

4. Sterkowicz, S., & Sterkowicz-Przybycień, K. Judo and Psychological Preparation in High-Stress Situations. Archives of Budo, 6, 1–9. 2010.

5. Antonovsky, A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. San Francisco: Jossey-Bass. 1987.

6. Morgan, C.A., et al. Psychophysiological Response to Extreme Stress in Military Training. Military Medicine, 171(9), 930–937. 2006.

7. Shcherbakov, A. Hand-to-Hand Combat and Psychological Readiness of Cadets. Vestnik of Military Education, 3, 45–52. 2012.

8. Zimbardo, P., & Boyd, J. The Time Paradox: The New Psychology of Time That Will Change Your Life. New York: Free Press. 2008.

UDK 173.5:396

Alimardanova Ra'no Narbayevna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Pedagogika va texnologik ta'lim" kafedrasi dotsenti, PhD

ONALARDA MA'NAVIY SAVIYA TUSHUNCHASINING MOHIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada onalarda ma'naviy saviya tushunchasining psixologik mohiyati nazariy tahlil asosida yoritiladi va ma'naviy saviya shaxsning ichki qadriyatlar tizimi, axloqiy pozitsiyasi, emotsional yetukligi va xulq-atvordagi izchilligi bilan bog'liq murakkab psixologik tuzilma sifatida talqin etiladi. Ma'naviy yetuklikning shaxsiy identifikatsiya, refleksiya va hayot mazmunini anglash bilan bog'liqligi ochib beriladi va nazariy umumlashtirishlar asosida onalarda ma'naviy saviya sog'lom shaxs rivojlanishi va jamiyat barqarorligining muhim psixologik omili ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy saviya, qadriyatlar tizimi, axloqiy identifikatsiya, emotsional yetuklik, shaxs rivojlanishi, psixologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat.

СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ДУХОВНОГО УРОВНЯ МАТЕРЕЙ

Аннотация. В данной статье на основе теоретического анализа раскрывается психологическая сущность понятия духовной зрелости у матерей. Духовная зрелость рассматривается как сложная психологическая структура, связанная с внутренней системой ценностей личности, ее нравственной позицией, эмоциональной зрелостью и последовательностью поведения. Раскрывается взаимосвязь духовной зрелости с личностной идентификацией, рефлексией и осмыслением жизненного смысла. На основе теоретических обобщений делается вывод о том, что духовная зрелость матерей является важным психологическим фактором формирования здоровой личности и социальной стабильности общества.

Ключевые слова: духовная зрелость, система ценностей, нравственная идентификация, эмоциональная зрелость, развитие личности, психологическая устойчивость, социальная ответственность.

THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF THE SPIRITUAL AND MORAL LEVEL OF MOTHERS

Abstract. This article examines the psychological essence of the concept of spiritual maturity in mothers through a theoretical analysis. Spiritual maturity is interpreted as a complex psychological construct associated with an individual's internal system of values, moral position, emotional maturity, and consistency in behavior. The study reveals the relationship between spiritual maturity and personal identification, reflection, and the comprehension of life meaning. Based on

theoretical generalizations, it is concluded that spiritual maturity in mothers serves as an important psychological factor in the development of a healthy personality and the stability of society.

Key words: spiritual maturity, value system, moral identification, emotional maturity, personality development, psychological stability, social responsibility.

So‘nggi yillarda jamiyat taraqqiyotining murakkablashuvi, ijtimoiy jarayonlarning tezlashuvi va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar shaxsning ma’naviy qiyofasiga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, oilada markaziy o‘rin egallovchi ona shaxsining ma’naviy saviyasi masalasi nafaqat pedagogik yoki sotsiologik, balki chuqur psixologik tahlilni talab qiladi sababi, ma’naviyat insonning ichki dunyosi, qadriyatlar ierarxiyasi, axloqiy mezonlari va hayotiy qarorlarida namoyon bo‘ladigan murakkab psixik tizimdir. Onaning ma’naviy saviyasi esa bu tizimning oilaviy muhit orqali keyingi avlodga uzatilish jarayonida asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi va “Ma’naviy saviya” tushunchasi ko‘pincha umumiy axloqiy yetuklik yoki tarbiyalanganlik darajasi sifatida talqin qilinadi. Biroq psixologik nuqtai nazardan u ancha murakkab tuzilishga ega shu bilan birga, u qadriyatlar ongli ravishda qabul qilinganini, ichki e’tiqodga aylanganini va xulq-atvorda izchil namoyon bo‘lishini anglatadi. Zamonaviy tadqiqotlarda qadriyatlarning shaxs motivatsiyasi va hayotiy tanlovlariga ta’siri keng o‘rganilmoqda [1].

Bu jihat onalarning kundalik qarorlarida, farzand tarbiyasida va oilaviy munosabatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi va onaning ma’naviy saviyasi bolada axloqiy me’yorlar shakllanishiga, empatiya va ijtimoiy mas’uliyat rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy rivojlanish nazariyalariga ko‘ra, bolaning dastlabki ijtimoiy tajribasi ko‘pincha ona bilan muloqot orqali amalga oshadi [2].

Demak, onaning shaxsiy qadriyatlari va ma’naviy pozitsiyasi bolaning ichki dunyosida aks etadi, ammo jarayon ongli tarbiya bilan cheklanmaydi; u kundalik xatti-harakatlar, nutq ohangi, baholash mezonlari orqali ham uzatiladi. Zamonaviy urban muhitda yashovchi ayollar ko‘p funksiyali rollarni bajarishga majbur va bu professional faoliyat, ijtimoiy faollik va oilaviy mas’uliyat uyg‘unligi ma’naviy saviyaning barqarorligini sinovdan o‘tkazadi. Qadriyatlar tizimi mustahkam bo‘lmagan sharoitda ichki ziddiyatlar kuchayishi mumkin va shaxsning ichki yaxlitligi va ma’naviy identifikatsiyasi ruhiy farovonlik bilan bog‘liq ekani ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlangan [3].

Bu jihat onalarda ayniqsa muhim, chunki ular oilaviy iqlimning emotsional markazi hisoblanadi va shu bilan birga, ma’naviy saviya faqat individual xususiyat emas ijtimoiy-madaniy kontekst bilan ham belgilanadi va jamiyatda ustuvor bo‘lgan qadriyatlar, ommaviy axborot vositalari ta’siri va global madaniy jarayonlar onaning dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy o‘zini anglash va ichki e’tiqodning shakllanishi shaxsning o‘zini realizatsiya qilish jarayoni bilan bog‘liq ekani qayd etilgan [4].

Shunday ekan, onalarda ma’naviy saviya tushunchasini psixologik jihatdan aniqlash dolzarb masalaga aylanadi va ushbu maqolamning maqsadi onalarda

ma'naviy saviya tushunchasining psixologik mohiyatini nazariy jihatdan tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlarini ajratish hamda oilaviy muhitdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Bu masalani chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir sababi,onaning ma'naviy yetukligi sog'lom avlod tarbiyasining poydevori sifatida qaraladi.

Ushbu tadqiqotimda onalarda ma'naviy saviya tushunchasining mohiyatini ochib berish uchun nazariy- tahliliy yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot empirik emas, balki kontseptual va interpretativ xarakterga ega bo'lgani sababli, asosiy e'tibor tushunchaning mazmunini aniqlash, uning psixologik strukturasini ajratish va mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirishga qaratildi. Ma'naviy saviya masalasi ko'p qirrali bo'lib, uni bir yo'nalish doirasida cheklab bo'lmaydi. Shu boisdan ham ishda shaxs psixologiyasi, axloqiy rivojlanish nazariyalari hamda qadriyatlar konsepsiyalariga tayangan holda integrativ metodologik model ishlab chiqildi. Avvalo, "ma'naviy saviya" kategoriyasini aniqlashda qadriyatlar psixologiyasi muhim nazariy tayanch sifatida ko'rib chiqildi sababi, qadriyatlar shaxsning hayotiy qarorlarida yo'nalish beruvchi ichki me'yorlar tizimidir. Ular insonning maqsadlari, motivlari va xulq-atvorida izchil namoyon bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar ongli tanlov asosida shakllanib, shaxsning identifikatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir [5].

Demak, onalarda ma'naviy saviya darajasi, eng avvalo, ularning qadriyatlar tizimi qanchalik barqaror va izchil ekaniga bog'liq. Ikkinchi metodologik asos sifatida axloqiy rivojlanish nazariyasi tanlandi va axloqiy qaror qabul qilish jarayoni shaxsning ijtimoiy tajribasi, empatiya darajasi va ichki e'tiqodiga bog'liqligi aniqlandi. Axloqiy ongning shakllanishi ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda mantiqiy tafakkur bilan bir qatorda emotsional sezgirlik ham muhim rol o'ynaydi [6].

Onalarda ma'naviy saviya aynan shu ikki omilning uyg'unlashuvi orqali namoyon bo'ladi ya'ni, ular nafaqat axloqiy me'yorlarni biladilar, balki ularni ichki ishonch sifatida qabul qilib, kundalik hayotda amalda qo'llaydilar. Shaxsning ma'naviy yetukligini tahlil qilishda ijobiy psixologiya yondashuvi ham muhim o'rin tutadi, bu yo'nalish insonning kuchli tomonlari, maqsadga yo'naltirilganligi va hayot mazmunini anglash darajasini o'rganadi. Tadqiqotlarim shuni ko'rsatadiki, hayot mazmunini anglash va ichki qadriyatlar bilan yashash ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi [7].

Onalarda ma'naviy saviya masalasini o'rganishda aynan mazmunlilik hissi va ichki yaxlitlik darajasi muhim ko'rsatkich sifatida ko'rib chiqildi va metodologik jihatdan yana bir muhim tayanch sifatida shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi nazariyasi qo'llanildi. Ona o'zini nafaqat individual shaxs, balki oila va jamiyatning ma'naviy yetakchisi sifatida anglaydi. Bu jarayonda ijtimoiy rollar tizimi va o'zini identifikatsiya qilish mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi [8]. Onaning ma'naviy saviyasi uning o'z rolini qanchalik ongli ravishda qabul qilgani va mas'uliyatni ichki e'tiqod sifatida his etishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, ma'naviy saviya tushunchasini tushuntirishda insonning ichki motivatsiyasi va

avtonomligi ham e'tiborga olindi. Ichki motivatsiya asosida shakllangan axloqiy qarorlar tashqi bosimga bog'liq bo'lmaydi va izchil bo'ladi [9].

Shu sababli, nazariy modelda ma'naviy saviyaning uch asosiy komponenti ajratildi: kognitiv, affektiv va xulq-atvoriy. Kognitiv komponent qadriyatlarni anglashni, affektiv komponent ularga nisbatan emotsional munosabatni, xulq-atvoriy komponent esa amaliy namoyon bo'lishni ifodalaydi. Umumiy olganda, tanlangan nazariy-metodologik asos onalarda ma'naviy saviya tushunchasini kompleks ravishda tahlil qilish imkonini berdi. Integrativ yondashuv tufayli ma'naviy saviya faqat axloqiy sifat emas, balki psixologik struktura sifatida talqin qilindi. Bu esa keyingi bo'limda uning tarkibiy elementlarini aniqroq ko'rsatish uchun zarur ilmiy poydevor yaratadi.

Nazariy tahlil jarayonida "onalarda ma'naviy saviya" tushunchasi ko'p qatlamli psixologik tizim sifatida talqin qilindi va u oddiy axloqiy me'yorlarga rioya qilish darajasi bilan cheklanmadi. Ma'naviy saviya – bu qadriyatlarning ongli ravishda qabul qilinishi, ichki e'tiqodga aylanishi va xulq-atvorda izchil namoyon bo'lishini o'z ichiga olgan yaxlit tuzilma. Onaning ma'naviy saviyasi uning shaxsiy dunyoqarashi, ichki mas'uliyati va tarbiyaviy pozitsiyasi orqali namoyon bo'ladi. Nazariy integratsiya asosida ma'naviy saviyaning uch asosiy psixologik komponenti ajratildi: kognitiv, affektiv va xulq-atvoriy. Kognitiv komponent qadriyatlarni anglash, axloqiy tushunchalarni idrok etish va ularni ongli ravishda baholashni o'z ichiga oladi, affektiv komponent esa empatiya, vijdon, mas'uliyat hissi kabi emotsional holatlarni ifodalaydi. Xulq-atvoriy komponent esa mazkur qadriyatlarning kundalik faoliyatda amaliy ifodasini aks ettiradi va shaxsning ma'naviy rivojlanishi aynan shu uchlikning uyg'unligi bilan belgilanadi [10].

Bundan tashqari, ma'naviy saviya ichki motivatsiya bilan chambarchas bog'liq ekani aniqlashtirildi. Ichki qadriyatlar asosida qaror qabul qiladigan shaxslar tashqi bosim ta'siriga kamroq beriladi. Bu esa onaning barqaror tarbiyaviy pozitsiyasini shakllantiradi [11]. Shuningdek, ma'naviy saviya shaxsning refleksiv qobiliyati bilan ham bog'liq bo'lib, o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholash imkonini beradi [12].

1-jadval

Onalarda ma'naviy saviyaning psixologik komponentlar

Komponent	**Mazmuni**	**Psixologik ifodasi**
Kognitiv	Qadriyatlarni anglash va baholash	Axloqiy qarorlar, tafakkur izchilligi
Affektiv	Emotsional sezgirlik va empatiya	Vijdon, mas'uliyat, rahmdillik
Xulq atvoriy	Qadriyatlarning amaliy namoyoni	Izchil tarbiya uslubi, shaxsiy namuna

Mazkur jadval ma'naviy saviyani bir butun tizim sifatida tushunishga imkon beradi, komponentlarning har biri mustaqil ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular o'zaro chambarchas bog'langan. Agar kognitiv anglash mavjud bo'lib, affektiv sezgirlik

sust bo‘lsa, ma’naviy saviya yuzaki ko‘rinishda qolishi mumkin va xulq-atvoriy komponent esa ichki qadriyatlarning real hayotda namoyon bo‘lish darajasini ko‘rsatadi. Nazariy tahlilim shuni ham ko‘rsatdiki, onalarda ma’naviy saviya faqat individual sifat emas, balki ijtimoiy ta’sirlar bilan shakllanuvchi jarayondir va bu ijtimoiy-madaniy muhit, diniy va milliy qadriyatlar, oila tajribasi bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi [13]. Ma’naviy identifikatsiya jarayoni shaxsning o‘zini ma’lum qadriyatlar tizimi bilan bog‘lashini anglatadi. Bu holat ichki barqarorlik va psixologik yaxlitlikni ta’minlaydi [14]. Shuningdek, nazariy umumlashtirish natijasida onaning ma’naviy saviyasi oilaviy tizimda yetakchilik rolini bajarishi aniqlashtirildi. Ona ko‘pincha axloqiy mezonlarni belgilovchi, nizolarni muvozanatlashtiruvchi va ijtimoiy normalarni uzatuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bilan ham mos keladi, ya’ni bola kattalarning xulq-atvorini kuzatish orqali qadriyatlarni o‘zlashtiradi [15].

2-jadval

Onalarda ma’naviy saviyaning funksional yo‘nalishlari

Yo‘nalish	**Tavsifi**	**Oiladagi ta’siri**
Axloqiy yo‘nalish	Me’yor va qadriyatlarni belgilash	Bolada axloqiy me’yorlar shakllanishi
Emotsional yo‘nalish	Ematiya va qo‘llab-quvvatlash	Psixologik xavfsizlik muhiti
Regulyativ yo‘nalish	Konfliktlarni boshqarish	Oilaviy barqarorlik
Motivatsion yo‘nalish	Ijobiy namuna ko‘rsatish	Shaxsiy rivojlanish

Ikkinchi jadval ma’naviy saviyaning faqat ichki sifat emasligini, balki faol ijtimoiy mexanizm ekanini ko‘rsatadi. Axloqiy va emotsional yo‘nalishlar birgalikda bolada xavfsizlik va ishonch hissini shakllantiradi va regulyativ va motivatsion funksiyalar esa oilaning ichki uyg‘unligini saqlashga xizmat qiladi. Shu tariqa ma’naviy saviya oilaviy tizimning barqaror ishlashida muhim omil bo‘lib namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, nazariy natijalarim onalarda ma’naviy saviyani ko‘p o‘lchamli psixologik konstruktsiya sifatida talqin qilish imkonini berdi, u shaxsiy identifikatsiya, ichki motivatsiya, axloqiy tafakkur va emotsional yetuklikni birlashtiruvchi tizimdir. Bunday yondashuv mazkur tushunchani ilmiy jihatdan aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Olib borilgan nazariy tahlil natijalarim shuni ko‘rsatadiki, onalarda ma’naviy saviya tushunchasi oddiy axloqiy fazilatlar yig‘indisi emas balki, u shaxsning ichki qadriyatlar tizimi, emotsional yetukligi va ijtimoiy mas’uliyatini birlashtiruvchi murakkab psixologik konstruksiyadir. Muhokama jarayonida aynan shu murakkablikni chuqurroq ochib berish zarur bo‘ladi sababi, ma’naviy saviya nazariy jihatdan aniqlanmas ekan, u tarbiya jarayonida abstrakt tushuncha bo‘lib qolaveradi. Avvalo, ma’naviy saviyani shaxsning axloqiy identifikatsiyasi bilan

bog‘lash maqsadga muvofiqdir, zamonaviy psixologik tadqiqotlar axloqiy identifikatsiya darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar ijtimoiy mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga moyil ekanini ko‘rsatadi [16].

Onalarda bu jarayon yanada sezilarli namoyon bo‘ladi. Chunki ona oilaviy qadriyatlarning asosiy tashuvchisi sifatida ko‘pincha normativ mezonlarni belgilaydi. Agar uning ichki e’tiqodi barqaror bo‘lsa, tarbiya jarayonida izchillik saqlanadi. Aks holda esa qarama-qarshi signallar yuzaga keladi va bola axloqiy noaniqlikni boshdan kechirishi mumkin. Muhokamada yana bir muhim jihat — ma’naviy saviyaning emotsional intellekt bilan bog‘liqligi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori emotsional sezgirlik va o‘zini boshqarish qobiliyati shaxsning axloqiy xulq-atvorini mustahkamlaydi [17].

Ona o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olgan sari u farzand bilan muloqotda sabrliroq va tushunuvchanroq bo‘ladi va bu esa oilada psixologik xavfsizlik muhitini yaratadi. Demak, ma’naviy saviya nafaqat kognitiv darajada, balki affektiv yetuklik orqali ham namoyon bo‘ladi vas hu bilan birga ma’naviy saviya va hayot mazmunini anglash o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Mazmunlilik hissi mavjud bo‘lgan shaxslar o‘z faoliyatini ongli ravishda qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiradi [18]. Onalarda bu holat tarbiya jarayoniga chuqur mas’uliyat bilan yondashishda aks etadi. Agar onaning hayotiy pozitsiyasi mustahkam bo‘lsa, u farzandiga faqat nazariy ko‘rsatmalar bermaydi, balki shaxsiy namuna orqali ma’naviy mezonlarni singdiradi. Muhokama davomida ijtimoiy kontekst omilini ham hisobga olish zarur chunki, global madaniy jarayonlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli muhit qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda onaning ma’naviy saviyasi ichki filtr vazifasini bajaradi. U tashqi axborotni tanqidiy baholab, oilaviy muhitga moslashtiradi. Ijtimoiy psixologiya doirasidagi tadqiqotlarim shuni ko‘rsatadiki, kuchli ichki identifikatsiyaga ega shaxslar tashqi bosimga nisbatan barqarorroq bo‘ladi [19].

Bu jihat ayniqsa urban muhitda dolzarbdir. Yana bir muhim masala — ma’naviy saviyaning rivojlanish jarayoni , u tug‘ma sifat emas balki, u ijtimoiy tajriba, refleksiya va shaxsiy o‘sish orqali shakllanadi. Insonning o‘zini anglash darajasi ortgan sari ma’naviy yetuklik ham chuqurlashadi . Onalarda bu jarayon ko‘pincha onalik tajribasi davomida kuchayadi. Farzand tarbiyasi shaxsni qayta ko‘rib chiqishga, o‘z qadriyatlarini qayta baholashga undaydi. Shu ma’noda, onalikning o‘zi ma’naviy rivojlanishning katalizatori bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, onalarda ma’naviy saviya individual va ijtimoiy omillar kesishgan nuqtada shakllanadi. U shaxsiy identifikatsiya, emotsional intellekt, hayot mazmuni va ijtimoiy mas’uliyatni birlashtiradi. Bu tushunchani psixologik jihatdan chuqurroq o‘rganish kelgusida tarbiya, oilaviy maslahat va ma’naviy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mazkur maqolamda onalarda ma’naviy saviya tushunchasi psixologik nuqtai nazardan nazariy tahlil qilindi va uning tarkibiy mohiyati aniqlashtirildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy saviya oddiy axloqiy sifatlar yig‘indisi emas, balki qadriyatlar tizimi, ichki e’tiqod, emotsional yetuklik va xulq-atvor

izchilligini o‘zida mujassam etgan murakkab psixologik konstruktsiyadir. Onaning ma’naviy saviyasi oilaviy muhitda namoyon bo‘lib, tarbiya jarayonining yo‘nalishini belgilaydi. Tadqiqot natijasida ma’naviy saviyaning uch asosiy komponenti ajratildi: kognitiv, affektiv va xulq-atvoriy. Kognitiv komponent qadriyatlarni anglash va baholashni ifodalasa, affektiv komponent empatiya va vijdon kabi ichki his-tuyg‘ular bilan bog‘liqdir. Xulq-atvoriy komponent esa mazkur qadriyatlarning kundalik hayotdagi amaliy ifodasini aks ettiradi. Ushbu komponentlarning uyg‘unligi onaning ichki yaxlitligini ta’minlaydi va oilaviy iqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muhokama natijalari shuni ham aniqladiki, ma’naviy saviya ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy urban muhit, axborot oqimining kuchayishi va qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida onaning ichki barqarorligi yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy yetuklik mavjud bo‘lgan taqdirda, ona tashqi ta’sirlarni tanqidiy baholab, oilaviy muhitni muvozanatda saqlay oladi. Shu tariqa, onalarda ma’naviy saviya tushunchasini psixologik jihatdan chuqur o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. U sog‘lom shaxs rivojlanishi, ijtimoiy mas’uliyat va jamiyat barqarorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Kelgusida mazkur masalani empirik tadqiqotlar asosida yanada kengroq o‘rganish, shuningdek, onalarning ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi psixologik dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schwartz S.H. An overview of the Schwartz theory of basic values. Online Readings in Psychology and Culture. 2012;2(1). DOI: https://doi.org/10.9707/2307-0919.1116

2. Narvaez D., Lapsley D.K. Moral identity, moral functioning and moral development. Human Development. 2009;52(3):162–176.DOI: https://doi.org/10.1159/000215070

3. Steger M.F., Frazier P., Oishi S., Kaler M. The meaning in life questionnaire: Assessing the presence of and search for meaning in life. Journal of Counseling Psychology. 2006;53(1):80–93. DOI: https://doi.org/10.1037/0022-0167.53.1.80

4. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist. 2000;55(1):68–78. DOI: https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68

5. Hitlin S., Piliavin J.A. Values: Reviving a dormant concept. Annual Review of Sociology. 2004;30:359–393. DOI: https://doi.org/10.1146/annurev.soc.30.012703.110640

6. Vansteenkiste M., Ryan R.M., Soenens B. Basic psychological need theory: Advancements and future directions. Motivation and Emotion. 2020;44:1–31. DOI: https://doi.org/10.1007/s11031-019-09818-1

7. Saroglou V. Religion, spirituality and moral development. Current Opinion in Psychology. 2020;40:132–136. DOI: https://doi.org/10.1016/j.copsyc.2020.09.005

8. Grant A.M., Franklin J., Langford P. The self-reflection and insight scale: A new measure of private self-consciousness. Social Behavior and Personality. 2002;30(8):821–836. DOI: https://doi.org/10.2224/sbp.2002.30.8.821

9. Aquino K., Reed A. The self-importance of moral identity. Journal of Personality and Social Psychology. 2002;83(6):1423–1440. DOI: https://doi.org/10.1037/0022-3514.83.6.1423

10. Brackett M.A., Rivers S.E., Salovey P. Emotional intelligence: Implications for personal, social, academic, and workplace success. Social and Personality Psychology Compass. 2011;5(1):88–103. DOI: https://doi.org/10.1111/j.1751-9004.2010.00334.x

11. Martela F., Steger M.F. The meaning of meaning in life. Journal of Positive Psychology. 2016;11(5):531–545. DOI: https://doi.org/10.1080/17439760.2015.1137623

12. Jetten J., Haslam S.A., Haslam C. The social identity approach in psychology. Annual Review of Psychology. 2012;63:1–26. DOI: https://doi.org/10.1146/annurev-psych-120710-100449

13. Damon W., Menon J., Bronk K.C. The development of purpose during adolescence. Applied Developmental Science. 2003;7(3):119–128. DOI: https://doi.org/10.1207/S1532480XADS0703_2

14. Bandura A. Social cognitive theory: An agentic perspective. Annual Review of Psychology. 2001;52:1–26. DOI: https://doi.org/10.1146/annurev.psych.52.1.1

15. McRae C.S., Ochsner K.N., Mauss I.B., Gabrieli J.J.D., Gross J.J. Gender differences in emotion regulation. Emotion. 2020;20(6):998–1006.

16. Nomaguchi K.M., Milkie M.A. Parenthood and psychological well-being: A decade review. Journal of Marriage and Family. 2020;82(1):198–223.

17. R.N. Alimardanova. Oila bir butun tizim sifatida. Inter education & global study, 4. (149-156) 2024.

18. R.N. Alimardanova. Onalar dunyoqarashi va farzandlar psixologik rivojlanishi / Inter education & global study, 440-446. 2024.

19. R.N.Alimardanova. O‘zbekistonda onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning etnik xususiyatlari. Inter education & global study 3 (6), 541-550. 2025.

UDK 338.48-6:159.942

Нурматова Ситора Шавкатовна,
старший преподаватель кафедры туризма PROFI UNIVERSITY

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИМИДЖ КАК ФАКТОР КОГНИТИВНОГО И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ВЫБОРА ТУРИСТСКОЙ ДЕСТИНАЦИИ

Аннотация. В статье рассматривается национальный имидж как значимый психологический детерминант, определяющий когнитивные и эмоциональные основания выбора туристской дестинации. Установлено, что процесс принятия туристского решения обусловлен не только рациональными оценками, но и системой восприятия, ассоциативных представлений и эмоциональных откликов, формируемых образом страны. Доказано, что национальный имидж функционирует как когнитивная структура, упорядочивающая представления о дестинации, тогда как культурный брендинг способствует усилению эмоциональной вовлечённости туристов. Сделан вывод о целесообразности учета психологических детерминант при анализе туристского поведения и формировании стратегий продвижения туристских дестинаций.

Ключевые слова: национальный имидж, туристская дестинация, когнитивный выбор, эмоциональное восприятие, туристское поведение.

MILLIY IMIDJ TURISTIK DESTINATSIYANI KOGNITIV VA EMOTSIONAL TANLASH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy imidj turistik destinatsiyani tanlashning kognitiv va emotsional asoslarini belgilovchi muhim psixologik determinant sifatida ko‘rib chiqiladi. Turistik qaror qabul qilish jarayoni nafaqat ratsional baholashga, balki mamlakat obrazi orqali shakllanadigan idrok etish tizimi, assotsiativ tasavvurlar va emotsional munosabatlarga ham bog‘liqligi aniqlangan. Milliy imidj destinatsiya haqidagi tasavvurlarni tartibga soluvchi kognitiv struktura sifatida namoyon bo‘lishi, madaniy brending esa turistlarning emotsional jalb qilinishini kuchaytirishi isbotlangan. Turistik xulq-atvorni tahlil qilishda va turistik destinatsiyalarni targ‘ib qilish strategiyalarini shakllantirishda psixologik determinantlarni hisobga olish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: milliy imidj, turistik destinatsiya, kognitiv tanlov, emotsional idrok, turistik xulq-atvor.

NATIONAL IMAGE AS A FACTOR OF COGNITIVE AND EMOTIONAL CHOICE OF A TOURIST DESTINATION

Abstract. This article examines national image as a significant psychological determinant shaping the cognitive and emotional foundations of destination choice.

It is demonstrated that tourists' decision-making processes are influenced not only by rational evaluations but also by perceptions, associative representations, and emotional responses related to a country's image. The study substantiates that national image functions as a cognitive structure organizing destination perceptions, while cultural branding enhances tourists' emotional engagement. The findings highlight the importance of incorporating psychological determinants into the analysis of tourist behavior and the development of destination promotion strategies.

Key words: national image, tourist destination, cognitive choice, emotional perception, tourist behavior.

Современное развитие мирового туризма характеризуется устойчивым восстановлением после пандемии COVID-19 и переходом к новым формам конкурентоспособности, среди которых всё более значимую роль играют нематериальные детерминанты туристского поведения. В последние годы национальный имидж рассматривается в научной литературе как один из ключевых факторов, который определяет когнитивные и эмоциональные основания выбора туристской дестинации, формируя у потенциальных путешественников устойчивые ассоциации, ожидания и эмоциональные оценки еще до фактического взаимодействия с туристским продуктом [1–2].

Международные органы, такие как Всемирная туристская организация ООН (UN Tourism), подтверждают, что восстановление глобального туризма идет опережающими темпами, причём серьёзный вклад в динамику отрасли обеспечивается за счёт привлечения внимания к культурно-историческому наследию и формированию привлекательного образа дестинаций. В частности, по данным UN Tourism, Республика Узбекистан вошла в ТОП-7 стран мира по темпам роста въездного туризма в 2025 году, продемонстрировав рост международных визитов на 73 % по сравнению с уровнем 2019 г. и значительное укрепление своих позиций в Европейском регионе [3–4].

Узбекистан, обладая богатым культурно-историческим потенциалом и уникальным расположением на легендарном Шёлковом пути, переживает значительные изменения в своей туристической отрасли. За последние годы страна реализует комплексные меры по либерализации визового режима, инфраструктурному развитию, расширению спектра турпродуктов и продвижению на международных рынках, что отражено в росте количества иностранных гостей: более 10,7 млн туристов посетили Узбекистан в 2025 г., при этом доходы от экспорта туристических услуг превысили 4,4 млрд долларов США [5–6]. Эти изменения не только свидетельствуют о восстановлении отрасли, но и о её устойчивом развитии в условиях глобальной конкуренции.

В национальной политике развития туризма также прослеживается явная ориентация на укрепление международного имиджа страны. Так, в Указе Президента Республики Узбекистан от 13 августа 2019 г. № УП-5781 «О мерах по дальнейшему развитию сферы туризма» приоритетными направлениями

провозглашены повышение туристской привлекательности и продвижение национального туристского продукта. Дальнейшее развитие указанных положений отражено в Указе Президента от 15 мая 2025 г. № УП-87 «О мерах по повышению роли и значения туризма в экономике», направленном на кардинальное увеличение потоков иностранных туристов и активизацию маркетинговых и имиджевых инструментов [7, 8]. Однако при всей государственной поддержке акцент научных исследований остаётся преимущественно на институциональных и экономических аспектах, в то время как психологические механизмы туристского выбора изучены фрагментарно.

На наш взгляд, для обоснованного понимания современного туристского поведения необходимо рассматривать национальный имидж не только как маркетинговый инструмент, но и как психологическую категорию, отражающую когнитивные структуры восприятия, эмоциональные реакции и ценностные предпочтения туристов. Такой подход требует междисциплинарной методологии, объединяющей экономическую теорию, психологию восприятия и поведенческую науку, что обеспечит более глубокое понимание механизмов выбора туристской дестинации и позволит совершенствовать государственную и корпоративную практику продвижения туристских направлений.

В зарубежной научной литературе национальный имидж рассматривается как ключевой когнитивно-эмоциональный детерминант туристского выбора. Существенный вклад в разработку данной проблематики внесли C. Michael Hall и Noel Scott, которые интерпретируют имидж дестинации как совокупность воспринимаемых образов, эмоций и ассоциаций, формирующих ожидания туриста до начала путешествия. В их работах подчёркивается, что национальный имидж воздействует не только на рациональную оценку привлекательности страны, но и на эмоциональную вовлечённость потенциального туриста [9].

Значительное развитие концепция получила в исследованиях Gwang Hyun Kim и Jihye Park, где национальный имидж анализируется через призму когнитивных представлений (безопасность, культура, инфраструктура) и эмоциональных реакций (доверие, симпатия, чувство притяжения), оказывающих прямое влияние на намерение посетить страну [10;11].

В трудах Richard George национальный имидж рассматривается как фактор туристской лояльности, формирующий повторный спрос и позитивные поведенческие намерения. Автор подчёркивает, что эмоциональная составляющая имиджа зачастую оказывает более сильное влияние на выбор дестинации, чем объективные экономические параметры [12].

Проблематика национального бренда как элемента когнитивного выбора туристов глубоко раскрыта в работах Simon Anholt, где национальный имидж трактуется как стратегический нематериальный актив, формирующий устойчивые ассоциации страны в сознании международной аудитории. Его

концепция nation branding широко используется в туристских исследованиях для анализа восприятия дестинаций [13].

В контексте эмоционального восприятия туристских территорий важны исследования Nigel Morgan и Annette Pritchard, которые доказывают, что национальный имидж дестинации формируется через символы, нарративы и культурные коды, воздействующие прежде всего на эмоциональную сферу туриста [14].

В постсоветской научной традиции вопросы имиджа территории и его влияния на туристский спрос рассматриваются в работах А. Ю. Александровой, где подчёркивается роль национального образа в формировании доверия и когнитивной оценки туристского риска. Автор акцентирует внимание на том, что имидж страны выступает фильтром интерпретации туристской информации [15; 16].

В узбекских исследованиях проблематика национального имиджа в туризме затрагивается преимущественно в контексте продвижения туристского потенциала страны. В работах З. С. Абриева национальный имидж рассматривается как фактор формирования внешнего спроса и эмоционального восприятия Узбекистана на международном туристском рынке, однако когнитивно-эмоциональный механизм выбора дестинации раскрыт фрагментарно [17; 18].

Для достижения поставленной цели и обеспечения высокой степени верифицируемости результатов в работе применяется комплексная методология, базирующаяся на принципах системного анализа и поведенческой экономики.

Эмпирический этап исследования включает в себя:

Контент-анализ цифрового следа: Систематизация и интерпретация вербализованных эмоций и когнитивных оценок иностранных туристов на глобальных платформах (TripAdvisor, Google Maps). Это позволяет выявить латентные (скрытые) факторы удовлетворенности.

Анкетный опрос: Формализованное интервьюирование иностранных граждан ($n \geq 400$) с использованием многомерных шкал Лайкерта и семантического дифференциала. Данный инструментарий направлен на количественное измерение степени влияния когнитивных установок и аффективных состояний на итоговый выбор.

Статистический анализ: Применение корреляционно-регрессионного анализа для выявления тесноты связи между элементами национального имиджа и намерением совершить повторный визит (лояльность).

Национальный имидж — это совокупность представлений, ассоциаций и оценок, формируемых у иностранцев относительно страны. Он охватывает не только визуальные символы и культурные маркеры, но и репутационные характеристики: безопасность, гостеприимство, инфраструктура, культурный капитал.

Национальный имидж — это системное представление о стране, сложившееся в массовом сознании и базирующееся на образах, символах, ассоциациях, историческом опыте, репутации и культурных архетипах [19].


Структура национального имиджа в современной научной интерпретации опирается на модель конкурентной идентичности, предложенную С. Анхольтом [20].

Таблица-1

Компонент	Описание
Туризм	Впечатления о стране как о туристическом объекте
Экспорт	Восприятие продукции и услуг из этой страны
Правительство	Международная политика, внутренние реформы
Люди	Образ нации, менталитет, образование и т.д.
Культура и наследие	Культурные символы, история, искусство
Инновации и бизнес	Технологичность, инвестиционная среда

Национальный имидж влияет на: мотивацию иностранных туристов посетить страну, восприятие безопасности, уровня сервиса, конкурентоспособность туристического продукта, доверие к стране и её нарративу. **Диаграмма 2**: Основные факторы формирования национального имиджа (по результатам опроса иностранных туристов, %)

Диаграмма-2



Культурный брендинг выступает как инструмент создания уникального конкурентного предложения страны в международном туристском пространстве [21]. В частности, эмпирическое исследование, проведённое среди 468 китайских туристов, показало, что позитивный национальный имидж снижает вероятность девиантного («нецивилизованного») поведения за счёт усиления идентичности, патриотических установок и психологической причастности к принимающей стране [22]. Культурный брендинг в данном контексте рассматривается как процесс использования уникальных культурных кодов и знаковых элементов страны с целью формирования

устойчивой эмоциональной связи между дестинацией и целевой аудиторией [23].

Таблица-3

Ключевые элементы культурного имиджа Узбекистана в восприятии иностранных туристов

Компонент	Пример (в контексте Узбекистана)
Национальная кухня	Плов, самса, лепёшка, чайхана
Историко-культурные символы	Регистан, Шахи-Зинда, Айвазовский и Навои
Искусство и ремёсла	Керамика Риштана, икат, резьба по дереву
Музыка и фольклор	Шашмаком, баксия, народные инструменты
Национальные праздники	Навруз, День независимости, традиции махалли
Язык и литература	Улугбек, Алишер Навои, Чингиз Айтматов

Культурный брендинг помогает выделить страну на фоне других, предлагая аутентичные впечатления, связанные с её историей, обычаями, кухней, традиционными ремёслами и искусством. Благодаря этому туристы воспринимают страну не просто как территорию, а как живой культурный организм, который предлагает уникальный опыт. Также Культурный брендинг способствует тому, чтобы страна вспоминалась, ассоциировалась с определёнными символами и имела позитивную узнаваемость в мире. Узнаваемость укрепляется через участие в международных выставках (туризм, культура, кухня), фестивали (например, фольклорные или кинофестивали), продвижение в медиа и социальных сетях. На пример Южная Корея активно использовала культурный брендинг через «Korean Wave»: сериалы, музыка, мода — и добилась огромной популярности в Европе и Центральной Азии. Это усилило положительный имидж страны и вызвало волну туристического интереса.

Следовательно, культурный брендинг влияет на Лояльности туристов и это не просто повторное посещение страны, а формирование глубокой эмоциональной привязанности. Культурный брендинг способствует этому, создавая уникальные и трогательные культурные впечатления, которые остаются в памяти надолго. К примеру, в Узбекистане всё активнее развиваются гастрономические туры и этнотуризм, где гости могут попробовать плов, научиться готовить лепёшку в тандыре или поучаствовать в празднике Навруз. Это повышает эмоциональную лояльность и способствует возвращению туристов.

Культурный бренд страны может существенно повлиять на экспорт товаров и услуг — особенно в таких сферах, как: ремесленные изделия (керамика, икат, вышивка), национальная кухня (чай, специи, сладости), культурные форматы (кино, музыка, танцы), традиционная косметика и мода.

Integratsiyalashgan yondashuv tarix darslarida kreativ ko‘nikmalarni shakllantirishning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv tarixiy materialni boshqa fanlar — adabiyot, geografiya, falsafa, iqtisodiyot, san’at va hatto tabiiy fanlar bilan uzviy bog‘lash orqali o‘quvchilarda voqea-hodisalarni kompleks va tizimli idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday integratsiya o‘quvchilarga tarixiy jarayonlarni faqat faktlar ketma-ketligi sifatida emas, balki ko‘p omilli va o‘zaro bog‘liq tizim sifatida anglash imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar sabab-oqibat aloqalarini chuqur tahlil qilish, turli nuqtai

nazarlarni solishtirish va umumlashtirilgan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini egallaydilar. Integratsiyalashgan yondashuv, shuningdek, o‘quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki ular turli fanlardan olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash, muammolarga noodatiy yechimlar topish va innovatsion fikrlar ilgari surishga o‘rganadilar. Bu esa o‘z navbatida fanlararo tafakkur, moslashuvchan fikrlash va kognitiv faollikni oshiradi.

O‘quvchi markazli metodika esa ta’lim jarayonining markaziga o‘quvchini qo‘ygan holda uning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Ushbu yondashuvda o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va fasilitator rolini bajaradi, o‘quvchilar esa faol subyekt sifatida bilimni mustaqil ravishda o‘zlashtiradi. Tarix darslarida talaba markazli metodika o‘quvchilarga tanlov imkoniyatini berish, ochiq savollar qo‘yish, ijodiy topshiriqlarni tashkil etish va muammoli vaziyatlar orqali ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, o‘quvchilarga tarixiy voqealarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, muqobil ssenariylar ishlab chiqish yoki tarixiy shaxslar faoliyatini baholash vazifalari berilishi mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etish, dalillar bilan asoslash va refleksiv tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, talaba markazli metodika o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, ularni o‘rganishga faol jalb etadi hamda ijodiy faollikni oshiradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat bilim egallaydilar, balki o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘rganish va kreativ faoliyatga tayyor shaxs sifatida shakllanadilar.

Loyiha va interfaol mashg‘ulotlar tarix darslarida o‘quvchilarning kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish, axborotni izlash, saralash va tahlil qilish hamda o‘z natijalarini tizimli ravishda taqdim etish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Loyiha asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar muayyan tarixiy muammo yoki mavzu yuzasidan izlanish olib boradilar, turli manbalarni o‘rganadilar, ularni taqqoslaydilar va umumlashtirilgan xulosalar chiqaradilar. Bu jarayon ularning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirib, mustaqil bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Interfaol mashg‘ulotlar esa o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlab, ularni fikr almashish, muhokama qilish va birgalikda muammolarni hal etishga jalb etadi. Masalan, debatlar, rol o‘yinlari, “aqliy hujum”, klaster va konseptual xaritalar tuzish kabi metodlar o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni, kommunikativ ko‘nikmalarni va jamoada ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Loyiha va interfaol mashg‘ulotlar uyg‘unligi o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni amaliyotda qo‘llash, o‘z fikrini asoslash va taqdim etish qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi.

Refleksiya va tanqidiy baholash esa o‘quvchilarda ongli va chuqur o‘rganish jarayonini ta’minlovchi muhim pedagogik tamoyillardan biridir. Refleksiya jarayonida o‘quvchilar o‘z faoliyatini, fikrlarini va o‘rganilgan bilimlarni tahlil qiladilar, o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar hamda kelgusidagi faoliyatlarini

rejalashtiradilar. Bu esa ularda o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tanqidiy baholash esa o‘quvchilarga axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, solishtirish va baholashni o‘rgatadi. Tarix darslarida bu jarayon turli manbalarni taqqoslash, tarixiy voqealarga turlicha yondashuvlarni o‘rganish va asoslangan xulosalar chiqarish orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar xatolarni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilishni o‘rganadilar va ularni tahlil qilish orqali yangi, samaraliroq yechimlar ishlab chiqadilar. Natijada, refleksiya va tanqidiy baholash o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, analitik yondashuv va kreativ muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularni faol va ongli o‘rganuvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, tarix darslari orqali o‘quvchilarda kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish — bu faqat tarixiy faktlarni yodlash yoki voqea-hodisalarni tushunish bilangina cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning ijodiy, tanqidiy va tadqiqotga yo‘naltirilgan tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar tarixiy bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol tahlil qiluvchi, baholovchi va yangi g‘oyalarni ilgari suruvchi subyektga aylanadi.

Tarixiy materialni interfaol metodlar, loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, rol o‘yinlari va muhokamalar orqali o‘qitish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Bu esa ularning nafaqat o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi, balki real hayotiy vaziyatlarda ham to‘g‘ri va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, tarix darslarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini ham mustahkamlaydi. Jumladan, ular muloqot qilish, jamoada ishlash, o‘z fikrini asoslash va boshqalarning nuqtai nazarini hurmat qilish kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni egallaydilar. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirib, kelajakda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, ongli va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan tarix darslari o‘quvchilarda o‘rganishga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantiradi, ularning fanlarga qiziqishini oshiradi hamda uzluksiz o‘qib-o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bu esa ta’limning samaradorligini oshirish bilan birga, shaxsning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tarix darslarida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv zamonaviy ta’limning muhim talabi bo‘lib, u o‘quvchilarni innovatsion fikrlaydigan, muammolarni samarali hal eta oladigan va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois tarix ta’limi jarayonida kreativlikni rivojlantiruvchi metod va texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish, ularning samaradorligini ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2017.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Xo'jaev N.X. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2018.
4. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
6. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1956.
7. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington, 1974.
8. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
9. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. – Moskva, 2005.
10 Polat E.S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva, 2007.
11 Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2016.

UDK 37.015.3:159.923.4

Qodirova Surayyo Do‘stqobilovna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

UMUMTA’LIM FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablaridagi ta’lim jarayonining o‘ziga xosliklari, o‘quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirish, pedagoglarning o‘z ustida ishlashi davr talabi ekani, bolaning temperamentini inobatga olgan holda munosabat bildirish, topshiriqlar berish samarasi albatta natijali bo‘lishi haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, psixolingvistika, shaxs, ta’lim, tarbiya, temperament, o‘quv mashg‘ulotlari, rivojlanish.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности образовательного процесса в средних школах, развитие учащихся как личностей, необходимость самосовершенствования учителей, а также эффективность реагирования и выдачи заданий с учетом темперамента ребенка.

Ключевые слова: учитель, психолингвистика, личность, образование, воспитание, темперамент, обучение, развитие.

DEVELOPMENT OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL COMPETENCIES IN THE PROCESS OF TEACHING GENERAL EDUCATION SUBJECTS

Abstract. This article discusses the specifics of the educational process in secondary schools, the development of students as individuals, the need for teachers to work on themselves, and the effectiveness of responding and giving assignments taking into account the child's temperament.

Keywords: teacher, personality, psixolingvistika,education, upbringing, temperament, training, development.

Bugungi kunda umumta’lim maktab o‘qituvchilari ta’lim jarayoni ishtirokchilari bo‘lmish o‘quvchilarini qay darajada bilishadi? Ular bilan ishlash jarayonida ularning o‘zlariga xos tarzda yondasha olishayaptimi? Shaxs sifatida barcha yaxshi sifatlarning ularda jamlanishi uchun samarali yo‘ldan borishayaptimi? Umuman olganda o‘quvchilarning temperamentini bilish

o‘qituvchilarga nima beradi? O‘quvchilarga esa temperamentlar haqidagi bilim nima beradi?

Pedagogik faoliyatning tuzilishi, o‘qituvchining o‘ziga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlari bilan bog‘liqdir. O‘qituvchi faoliyati o‘zaro komponentlardan iborat. Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashkilotchilik.

Uzoq yillar mobaynida olimlar inson til va nutqini psixologik fenomen sifatida o‘rganishni rad etib kelishgan bo‘lsa-da, psixolingvistlar til va nutqni inson ruhiyatining oynasi sifatida izohlanishini fanda isbotlashdi.

Ma’lumki, insonni ilm olishi hissiyotlaridan boshlanadi. Ma’lumotlar esa verbal va noberbal muloqot asosida yetkaziladi. Bugungi kunda butun tilshunoslik fanidagi eng xarakterli progressiv tendentsiya, psixolingvistik tadqiqotlarning asosiy mavzusi insonning yaxlit idrokidir. Psixolingvistika - nutqning hosil bo‘lishi, nutqni idrok etish va jarayonlarini fayl tizimi bilan o‘zaro bog‘lanishi holatida o‘rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikannng sintezidan paydo bo‘lgan. Psixolingvistika insoniy nutq faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy materiallarni ishlab chiqarish, ularni tajriba eksperimentlar yo‘li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbai bo‘yicha tilshunoslikka yaqin bo‘lgan psixolingvistika o‘z ta’minoti usullari bo‘yicha psixologiyaga yaqin turadi. Psixolingvistika bir qator amaliy masalalar (ona tili, ayniqsa, kerakli tilni o‘rgatish; maktabgacha bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari; miyadagi nutqiy markazlar kasalliklari klinikasi; nutqiy ta’sir ko‘rsatish muammolari (xususan hayotiy axboroti rivojlanishida va targ‘ibot ishlarida); sud psixologiyasi va kriminalistika (mas, kishilarni sifatga qarab tanib olish, baholash); mashina tarjimasi hamda nutqiy axborotni EHMga muammolari va boshqani nazariy zarurati tufayli o‘tgan asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan. “Psixolingvistika” termini o‘tgan asrning 60-yillari o‘rtalarida amerikalik olimlar amaliyotiga taalluqli. O‘zbekistonda ushbu sohada bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali to‘liq tadqiq etilmagan yo‘nalishlardan biri sifatida qolmoqda. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda ta’kidlash kerakki, maktab o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri shaxsni tarbiyalash! Xo‘sh “shaxs” kim va qanday bo‘lishi kerak?

Shaxs tushunchasi bu individualligi, ongi, axloqiy qadriyatlari va jamiyatdagi o‘ziga xos roli bilan ajralib turuvchi insonning ijtimoiy-psixologik qiyofasi bo‘lib, u hayotda o‘zini anglab, rivojlanib, o‘zini o‘zi boshqara oladigan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi oliy darajadagi mavjudotdir. Bu tushuncha insonning tabiiy mavjudligidan yuqori maqom bo‘lib, tarbiya, muhit va tajriba orqali shakllanadi va uning o‘ziga xosligi (fikrlari, his-tuyg‘ulari, xulq-atvori)ni o‘z ichiga oladi.

Maktab dargohining esa asosan 2 ta vazifasi bor.

1. Bolani ijtimoiy muhitga moslashtirish.
2. Bola hayotida albatta qo‘l keladigan hayotiy ilmlarni berish.

Ta’kidlaganimizdek, maktab oldida turgan asosiy vazifasi o‘sib kelayotgan avlodning faol fuqarolik holatida tarbiyalash o‘qituvchi shaxsiga ma’lum bir talablarni qo‘yadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga

intilishi kerak, buning uchun esa u eng qiyin nazariy savollarni oson o‘zlashtirilishi uchun o‘quv materialni tanlash va qayta ishlashi lozim. Birinchi navbatda ta’lim oluvchilarning faoliyati faol bo‘lmasa, chuqur bilim va o‘zlashtirish jarayoni amalga oshirilmaydi. Muhit, ta’lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi. Nemis psixologi V.Shtern: ta’lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg‘a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta’lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo‘lib ilgari surdi va uni: ta’lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o‘z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab, beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta’lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga, xalaqit bermaslik, balki ta’lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveytsariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgandir. J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o‘sishi o‘zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o‘ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o‘tadi.

Bugungi ilm hissiy intellektni har bir inson hayotida o‘rni beqiyos ekani haqida gapirarkan, inson avvalo o‘zini o‘ziga xosligini aniqlab olishi kerakligini ta’kidlayman. Ta’lim jarayonida qo‘llash uchun “O‘zim haqimda”metodini tavsiya qilamiz. Ishtirokchilar oldindan berilgan o‘zlari haqidagi o‘zlarining fikrlarini maxsus oldindan tayyorlangan qog‘ozlarga yozishadi. Ma’lum muddatdan keyin o‘quvchini do‘sti “U haqida” deb yozilgan qog‘ozlardagi savollarga javob berishadi. Bu metodni og‘zaki va yozma tarzda o‘tkazish mumkin. Amalda bu metodni qo‘llaganimizda quyidagi xulosaga kelindi:

Sangvinik	Melanxolik	Xolerik	Flegmatik
Flegmatiklarga nisbatan nutqda so‘zlarning variantliligidan goydalanishadi, suhbatlashayotganda suhbatdoshga tez-tez murojaat qiladi, fonetik xatolar va takrorlardan foydalanishga moyil, melanxoliklarga nisbatan “Men” so‘zini ko‘proq ishlatishadi	Qaysidir voqeiylikni gapirayotganda sukutdan ko‘p foydalanishadi, xoleriklarga nisbatan olganda biror topshiriq bersangiz ko‘pincha rad etishadi,	Ko‘p hollarda flegmatiklarga nisbatan suhbatdoshga murojaat qilishadi, oshkora insonlarning gapini bo‘lish holatlari mavjud, melanxoliklarga nisbatan gapirish tezligi yuqori, sangviniklarga nisbatan stenistik modallik yuqori	Melanxoliklarga nisbatan “Men” so‘zini ko‘proq ishlatishadi, bo‘lib o‘tgan biror voqeiylik natijasidagi munosabatlarni aniqlashtirishga harakat qilishadi, sangviniklarga nisbatan aniqlashtiruvchi jumlalardan ko‘proq foydalanishadi

Shu o‘rinda quyidagi tushunchalarga aniqlik kiritishni joiz deb bildik.

Stenistik (grek. “kuch”)- his-tuyg‘ular, qo‘zg‘alish, tetiklik, bosimning kuchli ifodasi. Astenistik (grek “quvvatsizlik”, “holsizlik”) - insonni energetik faolligini kamligi. Bunga sabab sog‘inch, qayg‘u, mudom norozilik tuyg‘usi, kayfiyatsizlik ham sabab bo‘lish mumkin.

Bundan tashqari o‘quvchilarga sinf rahbarlar, psixologlar tomonidan inson psixikasi haqida ilmlarning berilishi ham yaxshi natija beradi. Temperamentlar haqida ma’lumot berilishi, bu ilmni amalda qo‘llanilishi kelajakda ularning o‘zgalar bilan sifatli munosabat, muomala o‘rnata olishlariga ham yordam beradi. Ayrim insonlar orasida temperamentning yaxshi yoki yomonligi haqida fikrlar yuradi. Biz bunga javoban quyidagini keltiramiz. V.D.Nebilitsin fikriga ko‘ra, “temperament hech qanday tarzda insonning mazmun tomonini (dunyoqarashi, qarashlari, e’tiqodlari, qiziqishlari va boshqalarni) tavsiflamaydi, insonning qadr-qimmatini yoki ma’lum bir odam uchun mumkin bo‘lgan yutuqlar chegarasini belgilamaydi. Bu faqat faoliyatning dinamik tomoni bilan bog‘liq”. Biz esa qo‘shimcha qilamiz. Temperament muloqot, munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Olib borilgan aksariyat tadqiqotlardan kelib chiqqan umumiylikni quyidagi jadvalda aks ettirdik:

"Sof" sangvinik odam (yuqori ekstraversion va past nevrotikizm) tezda yangi sharoitlarga moslashadi, odamlar bilan tezda yaqinlashadi va muloyim. Tuyg‘ular osongina paydo bo‘ladi va o‘zgaradi, hissiy tajribalar, odatda, sayozdir. Mimika boy, tezkor, ifodali. U biroz notinch, yangi taassurotlarga muhtoj, impulslarini yetarlicha tartibga solinmagan, ishda belgilangan tartib yo‘q, hayotda tizimga qat’iy rioya qilishni bilmaydi. Shu nuqtai nazardan, u energiyani teng taqsimlay olmaydi, keskinlikni, qat’iyatni, diqqat barqarorligini va sabr-toqatni talab qiladigan vazifani muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Jiddiy maqsadlar bo‘lmasa, chuqur fikrlamaydi, ijodiy faoliyatda yuzaki va nomuvofiqlik rivojlanadi.	Xolerik (yuqori ekstraversiya va yuqori nevrotikizm) qo‘zg‘aluvchanlikni kuchayishi bilan ajralib turadi, harakatlar vaqti-vaqti bilan bo‘ladi. U harakatlarning keskinligi va ikkilanuvchanligi, kuchliligi, hissiy tajribalarni yorqin ifodalashi bilan ajralib turadi. Biror ish boshlasa bor kuchi bilan harakat qilishga moyil. Jamiyat manfaatlariga ega bo‘lgan temperament tashabbuskorlikda, g‘ayratda, printsiplarga sodiqlikda namoyon bo‘ladi. Ma’naviy hayot bo‘lmagan taqdirda, xolerik temperament o‘zini tez-tez asabiylashish, samarasizlik, o‘zini tuta olmaslik, hissiy vaziyatlarda o‘zini boshqara olmaslikda namoyon bo‘ladi.
Flegmatik. Xulq-atvor faoliyatining nisbatan past darajasi bilan ajralib turadi, uning yangi shakllari asta-sekin rivojlanib boradi, ammo doimiydir. Harakatlarda, mimikada va nutqda sekinlik va xotirjamlik, tenglik, barqarorlik, hissiyot va kayfiyat chuqurligi mavjud. Qat’iy va o‘jar "hayot	Melanxolik. Uning reaktsiyasi ko‘pincha stimulning kuchiga mos kelmaydi, ularning zaif ifodasi bilan hissiyotlarning chuqurligi va barqarorligi mavjud. Unga uzoq vaqt davomida bir narsaga diqqatini jamlash qiyin. Kuchli ta’sirlar ko‘pincha melanxolikda uzoq vaqt intuitiv reaktsiyaga sabab bo‘ladi (qo‘llar

ishchisi". U kamdan-kam hollarda o‘zini yo‘qotadi, ta’sir o‘tkazishga moyil emas, kuchini hisoblab chiqadi, masalani oxirigacha yetkazadi, hattoki munosabatlarda, mo‘tadil odam, behuda suhbat qilishni yoqtirmaydi. Energiyani tejaydi, isrof qilmaydi. Sharoitga qarab, ba’zi hollarda flegmatik odamga "ijobiy" xususiyatlar - chidamlilik, fikr chuqurligi, barqarorlik, puxtalik, boshqalarga - sustlik, atrof-muhitga befarqlik, dangasalik va iroda etishmasligi, qashshoqlik va his-tuyg‘ularning zaifligi, faqat odatdagi harakatlarni bajarish istagi yuqori deb ta’riflash mumkin.	tushishi). U motorli ko‘nikmalar va nutqning vazminligi va sustligi, uyatchanligi, qat’iyatsizligi bilan ajralib turadi. Oddiy sharoitlarda melanxolik chuqur, mazmunli odam bo‘lib, yaxshi ishchi bo‘lishi mumkin, hayotiy vazifalarni muvaffaqiyatli uddalay oladi. Noqulay sharoitlarda u yopiq, qo‘rqinchli, xavotirli, himoyasiz odamga aylanishi mumkin, bunday hayotiy sharoitlarning umuman unga loyiq bo‘lmagan ichki tajribalariga moyil.

Nutqni psixolingvistik tahlil qilish, temperament xususiyatlarini nutqda namoyon bo‘lishi haqida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan, shulardan biri S. L. Rubinshteyn bo‘lib, u o‘z ilmiy izlanishlarida temperamentning namoyon bo‘lishi asosan ovozning ohangi, kuchi, tezligi, ritmi, psixologik vaziyatlarda ritm va tempni amaliyotda aks etishi, nutqi va hislarini harakatlarida aks ettirishida namoyon bo‘ladi deb hisoblaydi. Insonning yurishi, uning yuz ifodalari va gavda harakatlari, tez yoki sekin harakati, asabiyligini ifodasi, shoshqaloqligi, nutqning kuchli shiddatliligi bizga shaxsning o‘ziga xoslig va temperamentini aniqlashga yordam beradi (SLRubinshteyn, 1946).

Kelajakda eng talabgir yo‘nalishlardan biri bo‘lgan bu sohadagi ilm barcha uchun kerak bo‘lishiga ishonamiz. Insonlarni o‘qiy olish, ularni faoliyati: hislar ifodasi, tashqi ko‘rinishi, tafakkur tarzi, nutqi, yuz ifodasi va gavda harakatlari orqali shaxsiga aniqlik kiritish mumkin bo‘ladi. Aytish mumkin-ki, insonni o‘ziga xosligi asosida tahlil qilish aniq va mukammallikka asos bo‘lishi mumkin. Mutaxassis bunday tahlil ortidan tahlilga tortilgan shaxsning keyingi faoliyatini ham ayta olishi, shaxs sifatida xarakteridagi muammolarni bilib, unga yechimlar ham tavsiya qilish mumkin. Bu yo‘nalishda ijod qilgan bir qator olimlarni ishlarida o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фрумкина Р.М. ПСИХОЛИНГВИСТИКА: ЧТО МЫ ДЕЛАЕМ, КОГДА ГОВОРИМ И ДУМАЕМ, МОСКВА-2004.

2. Нестерова Ольга Александровна. ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ. Нижний Новгород – 2016 АВТОРЕФЕРАТ.

3. Глухов В., Ковшиков В. Психолингвистика. Теория речевой деятельности. М.: Изд-во: АСТ , 2007. – 318 с

4. Nikolayev G.N. Shaxsning kommunikativ kompetensiyasi: qo‘llanma. - Burgut, 1997, p. 282-28.

5. https://logoprofy.ru/articles/view/emocii-i-cuvstva

UDK 378.4:94(575.1)

Tojiboyev Ravshanbek Isaqjan o'g'li,
PROFI UNIVERSITY "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

TARIX FANINING OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITILISHI TARIXI

Annotasiya. Mazkur maqolada tarix fanining oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi tarixi va uning evolyutsiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tarix ta'limining antik davrdan to zamonaviy universitet tizimigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Yevropa universitetlari, islom madrasa an'analari, shuningdek, XIX–XX asrlarda shakllangan zamonaviy oliy ta'lim tizimida tarix fanining o'rni va o'qitish usullari tahlil etiladi. Maqolada tarix ta'limida maqsad va vazifalarning davr talablariga mos ravishda o'zgarib borgani ilmiy manbalar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tarix ta'limi tarixi, oliy ta'lim, universitet an'analari, tarix fanining shakllanishi, ta'lim evolyutsiyasi.

ИСТОРИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ НАУКИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В статье анализируется история преподавания истории в высших учебных заведениях и ее эволюция. Рассматриваются основные этапы развития исторического образования от античности до современной университетской системы. Анализируются традиции европейских университетов, исламских медресе, а также особенности преподавания истории в XIX–XX веках. Показано, как цели и задачи исторического образования менялись в зависимости от социально-политических условий.

Ключевые слова: история исторического образования, высшее образование, университетские традиции, преподавание истории, эволюция образования.

THE HISTORY OF TEACHING HISTORY AS A SCIENCE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article examines the history and evolution of teaching history in higher education institutions. The main stages of the development of history education from antiquity to the modern university system are analyzed. Special attention is paid to European university traditions, Islamic madrasah education, and the transformation of history teaching in the nineteenth and twentieth centuries. The study demonstrates how the goals and objectives of history education have changed in response to social and political contexts.

Keywords: history education history, higher education, university traditions, teaching history, educational evolution.

Tarix fanining oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi jamiyatning intellektual taraqqiyoti, davlatchilik an'analari hamda ilmiy tafakkur rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab va ko'pqirrali jarayondir. Universitet ta'limi paydo bo'lgan dastlabki davrlardanoq tarix fani ta'lim tizimida muhim o'rin egallab kelgan bo'lsada, uning mazmuni, maqsadi va o'qitish usullari turli tarixiy bosqichlarda keskin farq qilgan. Bu holat tarix fanini o'qitishni statik emas, balki doimiy o'zgaruvchan, jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchi dinamik jarayon sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim tizimida tarix fanining vazifasi faqat o'tmish voqealarini bayon qilish bilan cheklanmagan. U har bir tarixiy davrda muayyan ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy funksiyalarni bajargan. Masalan, antik davrda tarix fani fuqarolik tarbiyasining muhim vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, o'rta asrlarda u diniy-ma'naviy qarashlarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Yangi davrda esa tarix fani milliy davlatchilik g'oyalarini shakllantirish va legitimasiya qilish vositasi sifatida qo'llanilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida tarix fanini o'qitish tarixini o'rganish nafaqat ta'lim evolyutsiyasini, balki jamiyatning intellektual ustuvorliklari, ilm-fanga bo'lgan munosabati va davlat siyosatida tarix fanining tutgan o'rnini ham anglash imkonini beradi. Shu ma'noda mazkur tadqiqot tarix fanining universitet ta'limidagi o'rnini tarixiy-evolyusion nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

Tarix fanining oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi tarixi masalasi bir qator fanlararo tadqiqotlar doirasida o'rganilgan. Bu masala tarixshunoslik, ta'lim tarixi, pedagogika va falsafa fanlari kesishmasida joylashgan bo'lib, uning tahlili kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy adabiyotlarda tarix ta'limi tarixi asosan universitet instituti rivoji bilan bog'liq holda yoritiladi.

Yevropa universitet ta'limi tarixi bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlardan biri Walter Rüegg universitetni o'rta asr Yevropasining eng muhim intellektual instituti sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, universitetlarda tarix fanining mustaqil fan sifatida shakllanishi uzoq vaqt talab etgan. Ilk universitetlarda tarix fani ilohiyot, huquq va falsafa fanlariga bo'ysungan holda o'qitilgan.

Tarix ta'limi tarixi masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda Georg G. Iggers alohida o'rin tutadi. U XX asr tarixshunosligi rivojini tahlil qilib, tarix fanining universitet ta'limida metodologik plyuralizm asosida o'qitila boshlanganini ta'kidlaydi. Iggers'ga ko'ra, tarix fanini o'qitishda yagona "to'g'ri" nazariyadan voz kechilishi ta'lim jarayonini mazmunan boyitgan.

Tarix fanini o'qitish tarixini o'rganishda islom sivilizasiyasidagi ta'lim an'analari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Islom madrasalarida tarix fanining o'qitilishi alohida predmet sifatida emas, balki umumiy ilmlar tizimi doirasida amalga oshirilgan. Ibn Xaldun tarix fanini ijtimoiy qonunlar asosida o'rganishni taklif qilib, tarixiy bilimni nazariy jihatdan asoslab bergan. Uning "Muqaddima"

asari tarix fanini ilmiy fan sifatida o‘qitishga zamin yaratgan muhim manba hisoblanadi.

XIX asr tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi tarixida tub burilish davri hisoblanadi. Aynan shu davrda tarix fani mustaqil akademik fan sifatida institusionallashdi, uning metodologiyasi, tadqiqot standartlari va o‘qitish shakllari shakllandi. Bu jarayon, avvalo, Germaniya universitetlarida yuzaga kelgan ilmiy islohotlar bilan bog‘liq.

Nemis tarixshunosi Leopold von Ranke tarix fanini “haqiqiy bo‘lganidek” (wie es eigentlich gewesen) o‘rganish g‘oyasini ilgari surib, manbalarga tayanishni tarixiy tadqiqot va ta’limning asosiy tamoyili sifatida belgiladi. Ranke metodi tarix fanini adabiy-axloqiy bayondan ilmiy tahlil darajasiga ko‘tardi. Universitetlarda tarix fanini o‘qitishda arxiv hujjatlari, asl manbalar bilan ishlash majburiy elementga aylandi. Bu yondashuv tarix ta’limini tadqiqot bilan uzviy bog‘lab, “ta’lim orqali tadqiqot” modeliga asos soldi. [6]

Ranke ta’sirida tarix fanini o‘qitishda professor markaziy figura sifatida shakllandi. Universitet talabalari faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki ilmiy tadqiqot jarayoniga jalb etilgan sub'ektga aylandi. Bu holat tarix fanini o‘qitish mazmuni va metodlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

XIX asr boshlarida Wilhelm von Humboldt tomonidan ishlab chiqilgan universitet modeli tarix fanini o‘qitish tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Humboldt modeliga ko‘ra, universitet ta’limining asosiy vazifasi tayyor bilim berish emas, balki ilm yaratish va mustaqil fikrlashni shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim. Bu g‘oya tarix fanini o‘qitishga ham tatbiq etildi.

Humboldt modeli asosida tarix fanini o‘qitishda:

- ilmiy tadqiqot bilan ta’limning birligi;
- akademik erkinlik;
- talabaning mustaqil izlanishi.

Asosiy tamoyil sifatida qaror topdi. Bu yondashuv tarix fanini o‘qitishni mexanik ma’ruza shaklidan ilmiy seminar va manba tahliliga asoslangan ta’limga aylantirdi. Keyinchalik ushbu model Yevropa va AQSh universitetlarida tarix ta’limi uchun namuna bo‘lib xizmat qildi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, G‘arb universitetlarida tarix fanini o‘qitishda liberallashuv va plyuralistik yondashuvlar ustuvor bo‘la boshladi. Eric Hobsbawm tarix fanini tanqidiy tahlil vositasi sifatida baholab, tarix ta’limi jamiyatdagi ijtimoiy adolat va tengsizlik masalalarini ochib berishga xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi.

Shu davrda tarix ta’limida global tarix, postkolonial tahlil, gender tarixi, madaniy tarix kabi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishlar tarix fanini o‘qitish mazmunini yanada boyitib, talabalarda ko‘p qirrali tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qildi.

Mazkur tadqiqot tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi tarixini kompleks va tizimli o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda tarixiy, pedagogik va falsafiy yondashuvlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Tarix ta’limi tarixi o‘z tabiatiga ko‘ra fanlararo xususiyatga ega bo‘lgani sababli, tadqiqot metodologiyasi ham bir

necha ilmiy an'analarga tayanadi. Xususan, tarixshunoslik, ta'lim tarixi, didaktika va bilim sosiologiyasida ishlab chiqilgan nazariy qarashlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotda tarixiy bilimning ijtimoiy shartlanganligi haqidagi g'oya markaziy o'rin tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, tarix fanining o'qitilishi uning ilmiy mazmuni bilan cheklanmay, balki jamiyatning siyosiy, madaniy va mafkuraviy ehtiyojlari bilan ham belgilanadi. Mazkur qarash E. H. Carr [1], R. G. Collingwood [2] va Eric Hobsbaum [11] asarlarida nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ularning fikricha, tarixiy bilim ham, tarix ta'limi ham muayyan ijtimoiy kontekst mahsuli hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqotda universitet ta'limi rivojiga oid Wilhelm von Humboldt [7] konsepsiyasi muhim nazariy asos sifatida qo'llanildi. Humboldt modeli ta'lim va tadqiqotning birligi g'oyasiga asoslanib, tarix fanini o'qitishni ilmiy izlanish bilan uzviy bog'lash zarurligini ta'kidlaydi. Bu konsepsiya tarix fanining universitetlarda mustaqil akademik fan sifatida shakllanishini tahlil qilishda metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi asosiy ilmiy metodlar qo'llanildi:

1. Tarixiy-tahliliy metod. Tarixiy-tahliliy metod orqali tarix fanining oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi turli tarixiy davrlar kesimida o'rganildi. Ushbu metod ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni xronologik izchillikda tahlil qilish imkonini berdi. Antik davr, o'rta asrlar, yangi davr va zamonaviy universitet tizimida tarix fanining o'qitilishi alohida bosqichlar sifatida ko'rib chiqildi.

Bu metod tarix ta'limi mazmunining davr talablariga mos ravishda qanday o'zgarib borganini, tarix fanining maqsad va vazifalari qanday transformasiyaga uchraganini ochib berishga xizmat qildi.

2. Qiyosiy-ta'limiy tahlil. Qiyosiy-ta'limiy tahlil metodi orqali turli sivilizasion va ta'lim an'analarida tarix fanining o'qitilishi o'zaro taqqoslandi. Yevropa universitetlari, islom madrasa an'analari, shuningdek, sovet va g'arb oliy ta'lim modellarida tarix fanining o'qitilishidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.

Bu metod tarix fanini o'qitish tarixida yagona universal model mavjud emasligini, balki har bir ta'lim tizimi o'zining ijtimoiy-siyosiy kontekstiga mos yondashuvni shakllantirganini ko'rsatishga imkon berdi.

3. Kontent-tahlil. Kontent-tahlil metodi tarix fanini o'qitishga oid ilmiy adabiyotlar, ta'lim standartlari, universitet o'quv dasturlari va klassik manbalar mazmunini tahlil qilishda qo'llanildi. Bu metod orqali tarix ta'limiga oid asosiy tushunchalar, maqsadlar va metodik yondashuvlar aniqlandi.

Kontent-tahlil, ayniqsa, XIX–XX asrlarda tarix fanining universitet ta'limida qanday mazmunda o'qitilganini aniqlashda samarali bo'ldi. Manbalarda qaysi tarixiy mavzular ustuvor bo'lgani, qanday metodik uslublar qo'llanilgani tahlil qilindi.

4. Konseptual umumlashtirish. Konseptual umumlashtirish metodi orqali tarix fanining oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishiga oid turli ilmiy qarashlar va ta'lim amaliyotlari umumlashtirildi. Bu metod tarix ta'limi tarixidagi alohida tendensiyalarni tizimli ravishda bayon etish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarix fanining ta’lim tizimidagi ilk shakllari antik sivilizasiyalar doirasida vujudga kelgan. Garchi antik davrda zamonaviy ma’noda “oliy ta’lim muassasasi” tushunchasi mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, Afina va Rimdagi falsafiy maktablar, ritorika o‘choqlari va ilm-fan markazlari tarix fanining ta’limiy funksiyasini shakllantirgan.

Antik Gresiyada tarix fanining ta’limiy ahamiyati fuqarolik tarbiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Gerodot va Fukidid asarlari nafaqat tarixiy manba, balki yosh avlodni siyosiy voqelikni anglashga o‘rgatuvchi ta’limiy matn sifatida qo‘llanilgan. Gerodot tarixni xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni anglash vositasi sifatida qaragan bo‘lsa, Fukidid tarixiy voqelikni sabab-oqibat munosabatlari orqali tahlil qilishni ilgari surgan. Bu yondashuvlar tarix fanini o‘qitishda tahlil va fikrlashga asos bo‘lgan ilk namuna sifatida baholanadi.

Antik Rimda esa tarix fanining ta’limiy ahamiyati yanada kuchaydi. Siseron tarixni “hayot muallimi” (historia magistra vitae) deb atab, uni yoshlarni axloqiy va siyosiy tarbiyalash vositasi sifatida baholaydi. Rim ta’lim tizimida tarix fanini o‘qitish ritorika bilan uyg‘un holda amalga oshirilgan bo‘lib, tarixiy misollar orqali davlatchilik va huquqiy tafakkur shakllantirilgan.

O‘rta asrlarda Yevropa universitetlari shakllanishi bilan ta’lim tizimida ilohiyot, huquq va falsafa fanlari ustuvor o‘rin egalladi. Bu davrda tarix fanining o‘qitilishi mustaqil fan sifatida emas, balki ilohiyot va huquq fanlariga yordamchi sohalar sifatida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asr universitetlarida tarix fanining asosiy vazifasi diniy ta’limotlarni mustahkamlash va bibliyaviy tarixni sharhlashdan iborat bo‘lgan. Universitetlarda tarix fanini o‘qitish asosan xronologiya, shajara va muqaddas matnlar tahlili doirasida cheklangan.

Shu bilan birga, o‘rta asr oxiriga kelib, gumanizm harakati ta’sirida tarix fanining ta’limiy mazmuni o‘zgara boshladi. Petrarka va boshqa gumanistlar tarixni insoniy tajribani anglash vositasi sifatida qayta baholadilar. Bu jarayon keyinchalik universitetlarda tarix fanining mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari tarix fanining oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi uzoq tarixiy evolyutsiya jarayonini bosib o‘tganini ko‘rsatadi. Bu evolyutsiya tarix fanining mazmuni, maqsadlari va o‘qitish usullari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi, ilm-fan rivoji hamda ta’lim paradigmalari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanganini tasdiqlaydi. Antik davrdan to zamonaviy universitet modellarigacha bo‘lgan jarayon tarix fanining ta’limiy funksiyalari doimiy ravishda qayta talqin qilib borilganini namoyon etadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, antik va o‘rta asrlar davrida tarix fanining asosiy vazifasi axloqiy-tarbiyaviy va mafkuraviy xarakter kasb etgan. Yangi davrda esa tarix fanining universitet ta’limidagi maqomi tubdan o‘zgarib, u mustaqil akademik fan sifatida institusionallashgan. XIX asrda shakllangan klassik universitet modeli tarix fanini o‘qitishni ilmiy tadqiqot bilan uyg‘unlashtirib, manbalarga tayanish, tanqidiy tahlil va metodologik qat'iylikni ta’limning markaziy elementiga aylantirdi.

XX asrda tarix fanini o‘qitishda metodologik plyuralizm, fanlararo yondashuv va ijtimoiy tarix konsepsiyalarining keng qo‘llanilishi ta’lim mazmunini yanada

boyitdi. Sovet ta'lim modeli esa tarix fanini o'qitishda qat'iy mafkuraviy cheklovlar mavjud bo'lganiga qaramay, tizimli va markazlashgan o'quv jarayonini shakllantirdi. Zamonaviy davrda esa globallashuv va raqamlashuv ta'sirida tarix fanini o'qitish tanqidiy fikrlash, global dunyoqarash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilmoqda.

Shu asosda quyidagi amaliy va ilmiy takliflarni ilgari surish mumkin:

– tarix fanini o'qitishda uning tarixiy evolyutsiyasini hisobga olgan holda o'quv dasturlarini shakllantirish;

– oliy ta'lim muassasalarida tarix fanini o'qitishni ilmiy tadqiqot bilan uzviy bog'lash;

– tarix ta'limida manbalar bilan ishlash va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini ustuvor maqsad sifatida belgilash;

– raqamli texnologiyalarni tarix fanini o'qitishga ilmiy-metodik asosda joriy etish;

– tarix fanini o'qitish orqali talabalarda global dunyoqarash va fuqarolik ongini shakllantirish.

Mazkur tadqiqot natijalari tarix fanining oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishiga doir keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Carr E.H. What is History? – London, 2008.
2. Collingwood R.G. The Idea of History. – Oxford, 1994.
3. Tosh J. The Pursuit of History. – London, 2015.
4. Burke P. History and Social Theory. – Cambridge, 2005.
5. Iggers G.G. Historiography in the Twentieth Century. – Hanover, 2005.
6. Ranke L. The Theory and Practice of History. – London, 2011.
7. Humboldt W. The Limits of State Action. – Cambridge, 1969.
8. Bloch M. The Historian's Craft. – Manchester, 1992.
9. Febvre L. A New Kind of History. – London, 1973.
10. Braudel F. On History. – Chicago, 1980.
11. Hobsbawm E. On History. – London, 1997.
12. Bentley M. Modern Historiography. – London, 2007.
13. Stearns P. World History. – Boston, 2010.
14. Hunt L. Writing History in the Global Era. – London, 2014.

UDK 94(575.1):378.016

Usmanov Bekzod Xasanbekovich,
PROFI UNIVERSITY "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TARIX FANINING O'QITILISHIGA DOIR JAHON TAJRIBASIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotasiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida tarix fanini o'qitish jarayonida jahon tajribasida shakllangan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Xususan, kompetensiyaviy, interaktiv, muammoli-tadqiqotli hamda raqamli ta'limga asoslangan metodlarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Yevropa davlatlari, AQSh va Osiyo mamlakatlarida tarix ta'limida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar qiyosiy tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari tarix fanini o'qitish samaradorligini oshirish, talabalarda tanqidiy fikrlash va tarixiy tafakkurni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tarix ta'limi, oliy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar, raqamli ta'lim, jahon tajribasi.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ ИСТОРИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ В МИРОВОМ ОПЫТЕ

Аннотация. В статье анализируются современные подходы к преподаванию истории в высших учебных заведениях на основе мирового опыта. Рассматриваются компетентностный, интерактивный, проблемно-исследовательский и цифровой подходы в историческом образовании. Проводится сравнительный анализ практик преподавания истории в странах Европы, США и Азии. Результаты исследования показывают значение современных методов в формировании критического мышления и исторического сознания студентов.

Ключевые слова: преподавание истории, высшее образование, компетентностный подход, интерактивные методы, цифровое образование, мировой опыт.

MODERN APPROACHES TO TEACHING HISTORY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: GLOBAL EXPERIENCE

Abstract. This article analyzes modern approaches to teaching history in higher education institutions based on global experience. Special attention is paid to competency-based, interactive, problem-based, and digital approaches in history education. A comparative analysis of teaching practices in Europe, the United States, and Asian countries is conducted. The findings highlight the importance of modern pedagogical methods in developing students' critical thinking and historical awareness.

Keywords: history education, higher education, competency-based approach, interactive methods, digital education, global experience.

XXI asrda oliy ta'lim tizimi jahon miqyosida tub transformasiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu transformasiya, avvalo, ta'limning maqsadlari, mazmuni va o'qitish usullarining qayta ko'rib chiqilishi bilan bog'liq. An'anaviy bilim berishga asoslangan ta'lim modeli o'rnini talabaga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va natijaga asoslangan ta'lim paradigmalari egallamoqda. Bu jarayon ayniqsa gumanitar fanlar, jumladan tarix fanini o'qitishda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Tarix fanini o'qitish masalasi zamonaviy ta'lim nazariyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarix fani nafaqat o'tmish voqealarini yod olishga qaratilgan bilimlar tizimi, balki talabalarda ijtimoiy ong, fuqarolik mas'uliyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, shuningdek, tanqidiy fikrlash va tarixiy tafakkurni shakllantiruvchi muhim gumanitar fan sifatida qaraladi. Zamonaviy jamiyatda tarixiy xotirani shakllantirish va saqlash masalasi ta'lim orqali amalga oshiriladi.

Taniqli tarixshunos E. H. Carr tarix fanining vazifasini "o'tmish va hozir o'rtasidagi doimiy muloqot" sifatida ta'riflab, tarixiy bilim ob'ektiv va o'zgarmas haqiqat emasligini, balki har bir davr talablari va ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib qayta talqin qilinishini ta'kidlaydi [7]. Uning fikricha, tarix fanini o'qitish jarayonida talabalar tayyor xulosalarni qabul qiluvchi emas, balki tarixiy voqelikni tahlil qiluvchi faol sub'ektga aylanishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, tarix fanini o'qitishda an'anaviy leksiya-ma'ruza usulining cheklangan imkoniyatlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tanqid qilinmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tarix ta'limi talabani passiv tinglovchi emas, balki faol tahlilchi, manbalar bilan ishlovchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida shakllantirishga qaratilmoqda. Bu esa kompetensiyaviy, interaktiv, muammoli-tadqiqotli va raqamli yondashuvlarni o'quv jarayoniga joriy etishni taqozo etadi.

So'nggi o'n yilliklarda tarix ta'limi metodologiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazmuniy jihatdan bir nechta asosiy yo'nalishlarda jamlangan. Ularning markazida tarix fanini o'qitishda bilimlarni mexanik o'zlashtirishdan voz kechib, tarixiy fikrlashni shakllantirish g'oyasi turadi. Bu yondashuv tarix fanining mazmuni va maqsadlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Amerikalik olim Sam Wineburg tarixiy fikrlashni shakllantirish ta'limning asosiy vazifasi ekanini ta'kidlab, tarix fanini o'qitishda talabalarni manbalar bilan ishlashga o'rgatish muhimligini ko'rsatadi. Uning fikricha, tarixiy fikrlash "tabiiy" ravishda shakllanmaydi, balki maxsus pedagogik strategiyalar orqali rivojlantiriladi [1]. Wineburg tarixiy hujjatlarni tahlil qilish, manbalarning ishonchliligini baholash va turli nuqtai nazarlarni solishtirish ko'nikmalarini tarix ta'limining asosiy komponenti sifatida belgilaydi.

Kanada tadqiqotchilari Peter Seixas va Tom Morton tomonidan ishlab chiqilgan "The Big Six Historical Thinking Concepts" modeli tarix ta'limida ilmiy asoslangan va amaliyotga joriy etilgan konsepsiya hisoblanadi. Ushbu model tarixiy

ahamiyatni aniqlash, dalillar bilan ishlash, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish, o‘zgarish va davomiylikni anglash, tarixiy nuqtai nazarni hisobga olish hamda etik baholash kabi olti asosiy kompetensiyani qamrab oladi [2]. Bu konsepsiya tarix fanini o‘qitishda talabalarning analitik va refleksiv fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yevropalik olim John Tosh tarix ta’limini jamiyatning “tanqidiy xotirasi” sifatida ta’riflab, uning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratadi [3]. Uning ta’kidlashicha, tarix fanini o‘qitishda talabalarga tayyor xulosalar emas, balki tarixiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish imkoniyati yaratilishi lozim.

Mazkur tadqiqotda sifat tahliliga asoslangan qiyosiy-analitik metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqot doirasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh va Osiyo davlatlarida tarix fanini o‘qitishga oid ilmiy adabiyotlar, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari hamda pedagogik amaliyotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: kontent-tahlil orqali tarix ta’limiga oid ilmiy manbalarning mazmuni o‘rganildi; qiyosiy pedagogik tahlil yordamida turli mamlakatlar tajribalari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi; konseptual umumlashtirish usuli orqali zamonaviy tarix ta’limiga xos umumjahon tendensiyalar shakllantirildi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar — OECD va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim strategiyalari tahlil qilinib, ularning tarix fanini o‘qitishda kompetensiyaviy va faol ta’limga yo‘naltirilgani aniqlandi [8].

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, jahon oliy ta’lim muassasalarida tarix fanini o‘qitishda bir nechta ustuvor yondashuvlar shakllangan bo‘lib, ular ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim natijasini talabaning faqat bilim hajmi bilan emas, balki uning amaliy, ijtimoiy va intellektual faollikka tayyorligi bilan baholashni nazarda tutadi. John Biggs tomonidan ishlab chiqilgan “constructive alignment” modeliga ko‘ra, ta’lim maqsadlari, o‘qitish usullari va baholash vositalari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi lozim [4]. Bu yondashuv tarix fanini o‘qitishda talabalarda tahlil, baholash va xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interaktiv ta’lim texnologiyalari tarix fanini o‘qitishda talabalarning bilish faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bonwell va Eison faol ta’lim usullari talabalarning akademik natijalarini yaxshilashini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5]. Debat, keys-tahlil va rolli o‘yinlar tarixiy voqelikni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar tarix ta’limida yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Daniel Cohen va Roy Rosenzweig raqamli tarixni tarixiy bilimni yaratish, saqlash va tarqatishning yangi shakli sifatida ta’riflaydilar [6]. Onlayn arxivlar va virtual muzeylar tarix fanini o‘qitishda vizuallik va interaktivlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, jahon tajribasi tarix fanini o‘qitishda an'anaviy bilim uzatishga asoslangan modelning imkoniyatlari cheklanganligini ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’lim sharoitida tarix fanini o‘qitish talabani faol bilish jarayoniga jalb

etuvchi, tanqidiy fikrlash va tarixiy tafakkurni shakllantiruvchi yondashuvlarga tayanishni talab etadi.

Kompetensiyaviy, interaktiv va raqamli ta'lim modellari tarix fanini o'qitish samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarda fuqarolik ongi, ijtimoiy mas'uliyat va tarixiy xotirani shakllantirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarida tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kompleks joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Seixas P., Morton T. The Big Six Historical Thinking Concepts. – 2013.
2. Tosh J. The Pursuit of History. – 2015.
3. Biggs J. Teaching for Quality Learning at University. – 2014.
4. Bonwell C., Eison J. Active Learning. – 1991.
5. Cohen D., Rosenzweig R. Digital History. – 2006.
6. Carr E.H. What is History? – 2008.
7. OECD. Education 2030. – 2018.
8. Lee P. History Education and Historical Literacy. – 2011.
9. Hunt L. Writing History in the Global Era. – 2014.
10. Bentley M. Modern Historiography. – 2007.
11. Stearns P. World History. – 2010.
12. Black J. Using History. – 2005.
13. McCullagh C. The Logic of History. – 2004.
14. Evans R. In Defence of History. – 1999.
15. Phillips M. Rethinking Historical Thinking. – 2016.
16. Taylor T. History Teaching and Learning. – 2012.
17. UNESCO. Rethinking Education. – 2015.
18. Foster S. Teaching History Creatively. – 2013.
19. Barton K., Levstik L. Teaching History for the Common Good. – 2004.
20. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts. – 2001.

UDK 159.9.019.4:796.01

Туракулова Дурдона Боходировна,
Базовый докторант Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация. В статье рассматривается проблема ментального благополучия и стрессоустойчивости профессиональных спортсменов в условиях современного спорта высших достижений. Раскрыта роль программ развития стрессоустойчивости, основанных на когнитивно-поведенческих интервенциях, релаксационных техниках, визуализации и моделировании стрессовых ситуаций. Обоснована необходимость комплексного и персонализированного подхода к психологическому обеспечению подготовки спортсменов, включающего мониторинг психического состояния и коррекцию тренировочных воздействий.

Ключевые слова: ментальное благополучие спортсменов; психологическая стрессоустойчивость; спорт высших достижений; психоэмоциональный стресс; психологическая регуляция деятельности; тревожно-депрессивная симптоматика; эмоциональный дистресс.

PROFESSIONAL SPORTCHILARNING PSIXOLOGIK STRESSGA CHIDAMLILIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy yuqori natijalar sporti kontekstida professional sportchilarning ruhiy salomatligi va stressga chidamliligi masalalari tadqiq etiladi. Kognitiv-xulq-atvor intervensiyalari, relaksatsiya usullari, vizualizatsiya va stressni modellashtirishga asoslangan stressga chidamlilikni rivojlantirish dasturlarining o‘rni tahlil qilingan. Sportchilar tayyorgarligini psixologik qo‘llab-quvvatlashda individual yondashuv, jumladan, ruhiy holatni monitoring qilish va mashg‘ulot jarayonlarini muvofiqlashtirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sportchilarning ruhiy salomatligi; psixologik stressga chidamlilik; yuqori natijalar sporti; psixoemotsional zo‘riqish; faoliyatning psixologik tartibga solinishi; xavotir-depressiv simptomlar; emotsional distress.

PSYCHOLOGICAL STRESS RESISTANCE OF PROFESSIONAL ATHLETES

Abstract. This article examines the issue of mental well-being and stress resilience in professional athletes in the context of modern high-performance sport. The role of stress resilience development programs based on cognitive-behavioral

interventions, relaxation techniques, visualization, and stress simulation is explored. The need for a comprehensive and personalized approach to psychological support for athlete training, including monitoring mental state and adjusting training interventions, is substantiated.

Key words: mental well-being of athletes; psychological stress resistance; high-performance sport; psychoemotional stress; psychological regulation of activity; anxiety-depressive symptoms; emotional distress.

В условиях динамичного развития мирового спорта феномен ментального благополучия и психологической устойчивости спортсменов привлекает большое внимание как со стороны научного сообщества, так и со стороны международных спортивных организаций. В частности, Международный олимпийский комитет и Всемирная организация здравоохранения подчёркивают необходимость системного подхода к обеспечению ментального благополучия спортсменов как важнейшего условия их профессиональной эффективности и долгосрочной спортивной карьеры.

Психологическая стрессоустойчивость профессиональных спортсменов представляет собой один из важнейших компонентов их успешной деятельности, который обеспечивает способность сохранять концентрацию, проявлять эмоциональную стабильность и демонстрировать адекватное поведение в условиях высоких требований и интенсивных нагрузок, свойственных их профессии.

Воздействие стресса на результативность настолько велико, что понимание того, как эти факторы влияют на спортсменов и как можно минимизировать их негативное влияние, имеет фундаментальное значение. Подготовка к стрессовым событиям является важной частью тренировки, а чрезмерная нагрузка без восстановления приводит к неблагоприятным последствиям. В то время как целенаправленные тренировочные техники помогают спортсмену справляться с типичным соревновательным стрессом и выполнять навыки под давлением.

На уровень стрессоустойчивости спортсменов существенно влияют множество факторов, среди которых выделяются индивидуальные особенности, социальные факторы команды и условия спортивной деятельности.

Социальные факторы, такие как поддержка со стороны тренера, коллег по команде и близких, играют важную роль в снижении уровня стресса и укреплении внутренней устойчивости. При негативном влиянии даже опытные тренеры могут стать источником стресса. Совместная работа в межличностных отношениях формирует доверие, создает положительный психологический климат, способствует развитию командного духа и уверенности в своих силах. Важное значение имеет и восприятие спортсменом своей роли в команде, а также степень взаимодействия внутри спортивной среды, которая может либо усиливать стрессовые нагрузки, либо служить источником поддержки.

Современные эмпирические исследования свидетельствуют о высокой распространённости психопатологических симптомов и расстройств в среде профессиональных спортсменов: около 19,6 % испытывают выраженный эмоциональный дистресс, 26,4 % сталкиваются с нарушениями сна, а 33,6 % демонстрируют симптомы тревоги и депрессивных состояний. Кроме того, по данным научных обзоров, в течение года психические расстройства диагностируются у 5–35 % профессиональных атлетов, тогда как проявления тревожно-депрессивной симптоматики отмечаются почти у 45 % спортсменов.

Спортсмен демонстрирует оптимальные результаты, когда уровень стресса и возбуждения находится в пределах умеренного диапазона. Небольшое беспокойство полезно для результата, но слишком высокий или низкий уровень вреден. Ментальная устойчивость и уверенность в себе усиливают результативность, тогда как низкая мотивация и страх неудачи снижают её.

Программы развития стрессоустойчивости у профессиональных спортсменов представляют собой систематизированные комплексы психологических, тренинговых и образовательных мероприятий, направленных на укрепление внутренних ресурсов и повышение адаптивных возможностей. Одним из ключевых аспектов таких программ является внедрение психологических вмешательств, основанных на использовании техник когнитивно-поведенческой терапии, релаксационных методов, аффирмаций и визуализации. Эти подходы способствуют снижению уровня тревожности, развитию навыков саморегуляции и формированию позитивных установок, что в совокупности повышает устойчивость к стрессовым воздействиям.

Тренировочные режимы устойчивости включают регулярные упражнения, моделирующие стрессовые ситуации, и направлены на практическое закрепление навыков адаптации. В их рамках происходит последовательное усложнение сценариев, позволяющее спортсменам научиться управлять эмоциями и сохранять концентрацию в экстремальных условиях соревнований. Такой тренировочный процесс помогает сформировать автоматические реакции и повысить уровень психологической гибкости, что подтверждается положительными результатами в управлении напряжением и снижении количества ошибок в критические моменты.

Различные формы коллективных тренировок, ролевых игр и психологических тренингов способствуют укреплению командного духа, развитию доверия и улучшению взаимодействия внутри команды. Это, в свою очередь, создает благоприятную среду для обмена опытом и совместного преодоления стрессовых ситуаций. Эффективность программ развития стрессоустойчивости достигается посредством комплексного использования различных методов, что позволяет адресовать индивидуальные особенности спортсменов и создавать персонализированные подходы. Особое значение имеют постоянный мониторинг прогресса, внедрение обратной связи и коррекций на основе динамики психологического состояния.

Анализ современного состояния психологии спорта показывает, что к настоящему времени созрели предпосылки концептуального оформления психологической теории спортивной деятельности, обладающей необходимым потенциалом для решения прикладных психологических задач, выдвигаемых современным спортом. К ее существенным характеристикам можно отнести:

– структурно-функциональный и структурно-генетический анализ психологических механизмов регуляции деятельности спортсменов, позволяющий определить вклад каждого этапа многолетней подготовки спортсменов в формирование психологических предпосылок их выхода на пик достижений;

– личностно-деятельностный подход к оценке потенциальных возможностей спортсменов, на основе которого могут быть установлены ресурсы и ограничения самореализации высококвалифицированных спортсменов, обусловленные присущими им устойчивыми сочетаниями индивидуально-психологических свойств, что, в свою очередь, позволяет разрабатывать программы психологического обеспечения подготовки спортсменов, способствующие раскрытию сильных сторон их психической индивидуальности и компенсации слабых;

– принятие во внимание долговременности включения спортсменов в спортивную деятельность, превращения ее в специфический образ жизни, направленный на поддержание и совершенствование профессиональной формы, и возникновения в связи с этим долговременных регуляторов деятельности, определяющих устойчивый уровень психических нагрузок, переносимых спортсменами.

Представленные индивидуально-психологические и социальные факторы выступают не только детерминантами стрессоустойчивости, но и объектами целенаправленного психологического воздействия. Их вариативность и динамический характер предполагают возможность коррекции посредством специально организованных программ психологической подготовки. Следовательно, разработка и внедрение программ развития стрессоустойчивости являются закономерным этапом оптимизации профессиональной деятельности спортсменов.

Анализ проблемы стрессоустойчивости в спорте высших достижений целесообразно осуществлять в рамках структурно-функционального подхода к психологической регуляции деятельности. Данный подход позволяет рассматривать спортивную деятельность как систему, функционирующую в условиях хронического психического напряжения. В этом контексте положения Б.В. Вяткина и В.А. Голочека приобретают концептуальное значение.

Суть современного спорта высших достижений заключается в постоянной соревновательной активности и высокой степени конкуренции. Б.В. Вяткин (2012) характеризует спорт высоких достижений как

специфическую деятельность, осуществляемую в ее главном звене — соревнованиях — в условиях ярко выраженного психического стресса.

В.А. Голочек (2017), рассматривая спорт высших достижений как модель для изучения феномена «психологических ниш», подчеркивает, что в данном виде деятельности взаимодействие «своих» и «чужих» просматривается наиболее рельефно, соперничество не замалчивается и «не камуфлируется благовидными мотивировками». Характеризуя спорт высших достижений, автор также указывает на такие его особенности, как предельное напряжение физических и психических возможностей, безальтернативность исхода встречи для конкурентов (взаимоисключение успешности друг друга и отсутствие вторичной выгоды для проигравшего), высокая личностная значимость исхода состязаний, короткий период жизни человека в спорте и наличие четко дифференцированных критериев оценки успешности спортсмена.

Перспективы дальнейших исследований в данной области связаны с разработкой внедрения цифровых технологий мониторинга психоэмоционального состояния, что позволит повысить точность и оперативность психологического сопровождения.

В заключение следует подчеркнуть, что обеспечение психологической стрессоустойчивости профессиональных спортсменов является стратегической задачей современного спорта высших достижений. Комплексный и научно обоснованный подход к формированию ментальной устойчивости способствует не только повышению спортивных результатов, но и сохранению психического здоровья, продлению профессионального долголетия и гармоничному развитию личности спортсмена.

Список литература:

1. Логинова, И. О. Психология спортивной карьеры: учебное пособие / И. О. Логинова, Н. Н. Вишнякова, М. С. Севостьянова. — Красноярск : КрасГМУ им. проф. В.Ф. Войно-Ясенецкого, 2021. — 235 с. — Текст : электронный // Лань : электронно-библиотечная система;

2. Bohodirovna, T. D. (2025, September). THE SCIENCE OF STAYING STRONG: COGNITIVE AND EMOTIONAL PREDICTORS OF STRESS RESILIENCE. In CONFERENCE OF ADVANCE SCIENCE & EMERGING TECHNOLOGIES (Vol. 1, No. 3, pp. 220-222);

3. Gouttebarge, V., Castaldelli-Maia, J. M., Gorczynski, P., Hainline, B., Hitchcock, M. E., Kerkhoffs, G. M., Rice, S. M., & Reardon, C. L. Occurrence of mental health symptoms and disorders in current and former elite athletes: a systematic review; 2019.

4. Gupta S and McCarthy PJ The sporting resilience model: A systematic review of resilience in sport performers. Front. Psychol. 13:1003053. doi: 10.3389/fpsyg.2022.1003053; 2022.

5. Kegelaers J Are we really studying resilience in sport? A critical review of adopted methodologies. Front. Psychol. 14:1270887. doi: 10.3389/fpsyg.2023.1270887; 2023.

6. Reardon, C. L., Hainline, B., Aron, C. M., Baron, D., Baum, A. L., Bindra, A., Budgett, R., Campriani, N., Castaldelli-Maia, J. M., Currie, A., Derevensky, J. L., Glick, I. D., Gorczynski, P., Gouttebarge, V., Grandner, M. A., Han, D. H., McDuff, D., Moun.

UDK: 373.3:159.9

Erkinov Muslimbek Mo'yiddin o'g'li,
Turon universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA NIZOLARNI BARTARAF ETISHDA DIALOGIK MULOQOT MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchi o'rtasida yuzaga keladigan nizolar ko'pincha kommunikativ buzilishlar, ijtimoiy idrokdagi xatolar hamda refleksivlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Mazkur maqolada talaba va o'qituvchi o'rtasidagi nizolarning psixologik mohiyati dialogik metodologiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Dialogik yondashuv shaxsni faol subyekt sifatida talqin qilib, shaxslararo munosabatlarni intersubyektiv muloqot makonida shakllanadigan jarayon sifatida izohlaydi. Tadqiqotda pedagogik ijtimoiy idrok, empatiya, refleksiya hamda shaxslararo tushunish jarayonlarining nizolarni oldini olish va konstruktiv hal etishdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: dialogik metodologiya, pedagogik muloqot, talaba-o'qituvchi munosabatlari, shaxslararo tushunish, pedagogik ijtimoiy idrok, empatiya, refleksiya, konflikt, kommunikativ jarayon, ijtimoiy-perseptiv jarayonlar, nizolarni konstruktiv hal etish.

МЕХАНИЗМЫ ДИАЛОГОВОГО ОБЩЕНИЯ ПРИ УРЕГУЛИРОВАНИИ КОНФЛИКТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. Конфликты, возникающие между студентом и преподавателем в образовательном процессе, часто связаны с коммуникативными нарушениями, ошибками социального восприятия и недостаточным уровнем развития рефлексивности. В данной статье психологическая сущность конфликтов между студентом и преподавателем анализируется с точки зрения диалогической методологии. Диалогический подход рассматривает личность как активного субъекта и интерпретирует межличностные отношения как процесс, формирующийся в интерсубъективном пространстве общения. В исследовании раскрывается роль педагогического социального восприятия, эмпатии, рефлексии и процессов межличностного понимания в предупреждении и конструктивном разрешении конфликтов.

Ключевые слова: диалогическая методология, педагогическое общение, отношения студент–преподаватель, межличностное понимание, педагогическое социальное восприятие, эмпатия, рефлексия, конфликт, коммуникативный процесс, социально-перцептивные процессы, конструктивное разрешение конфликтов.

MECHANISMS OF DIALOGIC COMMUNICATION IN RESOLVING CONFLICTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. Conflicts arising between students and teachers in the educational process are often associated with communication breakdowns, errors in social perception, and an insufficient level of reflexivity development. This article analyzes the psychological nature of conflicts between students and teachers from the perspective of dialogical methodology. The dialogical approach interprets the individual as an active subject and explains interpersonal relations as a process formed within the intersubjective space of communication. The study highlights the role of pedagogical social perception, empathy, reflection, and interpersonal understanding in the prevention and constructive resolution of conflicts.

Keywords: dialogical methodology, pedagogical communication, student–teacher relationships, interpersonal understanding, pedagogical social perception, empathy, reflection, conflict, communicative process, socio-perceptual processes, constructive conflict resolution.

Ta’lim jarayonida yuzaga keladigan nizolar ko‘pincha kommunikativ jarayonlarning buzilishi, ijtimoiy idrokdagi xatolar hamda shaxslararo tushunish darajasining yetarli emasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro tushunish darajasi nizolarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va hal etilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan ko‘plab muammolar aslida ob’ektiv sabablar bilan emas, balki subyektiv talqinlar, stereotiplar hamda noto‘g‘ri ijtimoiy idrok bilan bog‘liqdir.

An’anaviy pedagogik tizimlarda o‘qituvchi ko‘pincha bilim manbai, nazorat qiluvchi va baholovchi subyekt sifatida talqin qilinadi, talaba esa ta’sir obyekti sifatida qaraladi. Bunday subyekt–obyekt modeli talabaning ichki semantik dunyosi, individual ehtiyojlari va motivatsion xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada pedagogik muloqot monologik xarakter kasb etadi va bu holat nizoli vaziyatlarning kuchayishiga olib keladi.

Monologik pedagogik pozitsiya nizoli vaziyatlarda bir qator psixologik belgilar orqali namoyon bo‘ladi. Jumladan, talabaning xulq-atvori faqat intizomiy muammo sifatida talqin qilinadi, uning individual psixologik xususiyatlari e’tiborga olinmaydi hamda kommunikatsiya asosan baholovchi va nazorat qiluvchi xarakterga ega bo‘ladi. Bunday sharoitda talaba o‘zini tushunilmagan, qadrsizlangan yoki rad etilgan shaxs sifatida his qilishi mumkin. Natijada qarshilik, passiv agressiya yoki ochiq konflikt shakllari paydo bo‘ladi.

Dialogik metodologiya shaxsni faol subyekt sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, insonning psixologik rivojlanishi va o‘zini anglash jarayoni muloqot orqali shakllanadi. Shaxsning ichki dunyosi boshqa insonlar bilan o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladigan intersubyektiv makonda namoyon bo‘ladi. Shu sababli talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi nizolarni hal etish avvalo kommunikativ jarayonni dialogik asosda qayta qurishni talab etadi.

Dialogik yondashuv bir qator asosiy tamoyillarga tayanadi. Birinchidan, inson yopiq tizim emas, balki doimiy dialogik jarayonda mavjud bo‘lgan subyektdir.

Ikkinchidan, haqiqiy tushunish faqat o‘zaro muloqot va mas’uliyat jarayonida yuzaga keladi. Uchinchidan, kommunikatsiya inson rivojlanishining muhim determinanti hisoblanadi. Mazkur tamoyillar pedagogik munosabatlarning ham intersubyektiv xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Dialogik muloqot bir necha muhim psixologik komponentlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi komponent pozitsion tenglikni tan olishdir. Bu formal tenglikni emas, balki har bir ishtirokchining o‘z ichki haqiqatiga egaligini tan olishni anglatadi. O‘qituvchi talabaning fikrini jiddiy qabul qilganida talaba o‘zini faol subyekt sifatida his qiladi. Ikkinchi komponent empatik idrokdir. Talabaning ichki motivlari, emotsional holati va ehtiyojlarini tushunish nizoli vaziyatdagi keskinlikni kamaytiradi. Uchinchi komponent baholovchi pozitsiyaning cheklanishidir. Doimiy baholash va taqqoslash talabalarda himoya reaksiyalarini kuchaytiradi. Dialogik yondashuvda baholashdan ko‘ra tushunishga ustuvor ahamiyat beriladi. To‘rtinchi komponent refleksivlik bo‘lib, u o‘qituvchining o‘z kommunikativ uslubi va reaksiyalarini tahlil qilish qobiliyatini anglatadi.

Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi nizolarni psixologik jihatdan tahlil qilish hamda ularni konstruktiv yo‘l bilan hal etish muammosi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida muhim metodologik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masalani ilmiy asoslashda shaxslararo muloqot, ijtimoiy idrok, empatiya, refleksiya va konfliktologiya nazariyalariga oid ko‘plab psixolog olimlarning qarashlari metodologik asos vazifasini bajaradi.

Amerikalik psixolog **Karl Rodjers** gumanistik psixologiya doirasida shaxslararo munosabatlarda samimiylik, empatiya va shartsiz qabul qilish tamoyillarining muhimligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, insonlar o‘rtasidagi konstruktiv muloqot faqatgina o‘zaro hurmat, samimiy munosabat va ichki tajribalarni tushunishga intilish mavjud bo‘lgan sharoitda yuzaga keladi. Rogers pedagogik muloqotda o‘qituvchining talaba shaxsiga nisbatan ochiqligi va empatik munosabati talabaning o‘zini erkin ifoda etishiga hamda shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Bunday kommunikativ muhit nizoli vaziyatlarning keskinlashuvini kamaytiradi hamda o‘zaro tushunishni kuchaytiradi.

Shaxslararo munosabatlarning psixologik mexanizmlarini tushuntirishda **Erik Fromm**ning gumanistik-falsafiy qarashlari ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Fromm insonning asosiy ehtiyojlaridan biri boshqa insonlar bilan mazmunli munosabatlar o‘rnatish ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, insonlar o‘rtasidagi nizolar ko‘pincha begonalashuv, o‘zaro tushunmaslik va muloqotning yuzaki xarakter kasb etishi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli Fromm insoniy munosabatlarda hamkorlik, hurmat va mas’uliyat tamoyillarini muhim omillar sifatida ko‘rsatadi.

Shaxslararo konfliktlarning psixologik tabiatini o‘rganishda nemis-amerikalik psixolog **Kurt Levin** tomonidan ishlab chiqilgan maydon nazariyasi ham muhim metodologik asos hisoblanadi. Lewin shaxs xulq-atvori shaxsiy omillar va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida shakllanishini ta’kidlaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, konfliktlar ko‘pincha turli motivlar, maqsadlar va ehtiyojlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik natijasida yuzaga keladi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi

va talaba o‘rtasidagi nizolar ham aynan shu psixologik kuchlarning o‘zaro to‘qnashuvi bilan izohlanadi.

Shaxslararo idrok va ijtimoiy bilish jarayonlarini tushuntirishda amerikalik psixolog **Fritz Heider**ning atribusiya nazariyasi alohida o‘rin tutadi. Heider insonlar boshqa odamlarning xatti-harakatlarini tushuntirishda ko‘pincha ularning shaxsiy xususiyatlariga ortiqcha urg‘u berishini ta’kidlaydi. Bunday talqinlar ko‘pincha vaziyat omillarini e’tibordan chetda qoldiradi. Ta’lim jarayonida bu holat o‘qituvchining talaba xulq-atvorini uning shaxsiy sifatlari bilan izohlashiga olib kelishi mumkin. Natijada kommunikativ tushunmovchiliklar yuzaga keladi va nizolar kuchayadi.

Shaxslararo nizolarni konstruktiv hal etish jarayonini tushuntirishda norvegiyalik tadqiqotchi **Johan Galtung** tomonidan ishlab chiqilgan konflikt nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Galtung konfliktni ijtimoiy munosabatlarning tabiiy elementi sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko‘ra, konfliktning o‘zi destruktiv hodisa emas, balki uni qanday hal etish strategiyasi tanlanishi muhim hisoblanadi. Agar konflikt muloqot, tushunish va hamkorlik asosida hal etilsa, u shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, amerikalik psixolog **Tomas Gordon** tomonidan ishlab chiqilgan samarali muloqot modeli ham pedagogik munosabatlarni tushunishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Gordon o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi nizolarni hal etishda faol tinglash, ochiq muloqot va o‘zaro hurmat tamoyillarining ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, nizolarni bartaraf etishning eng samarali yo‘li bu tomonlarning o‘z ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etishlari hamda o‘zaro maqbul yechimlarni izlashidir.

Zamonaviy psixologiyada shaxslararo munosabatlarni dialogik nuqtai nazardan talqin qilishda fransuz faylasufi va psixologi **Emmanuel Levinas**ning qarashlari ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Levinas boshqa inson bilan uchrashuvni insoniy mavjudlikning asosiy sharti sifatida ko‘radi. Uning fikricha, boshqa insonning mavjudligini tan olish va uning ichki dunyosiga hurmat bilan yondashish haqiqiy muloqotning asosini tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, shaxslararo nizolarni tushunish va ularni konstruktiv tarzda hal etish uchun kommunikativ jarayonlar, ijtimoiy idrok, empatiya va refleksivlik kabi psixologik omillarni kompleks ravishda tahlil qilish zarur. Mazkur nazariy qarashlar talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishga hamda pedagogik muloqotda dialogik tamoyillarni qo‘llashning ilmiy asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Shaxslararo tushunish jarayonida ijtimoiy idrok muhim rol o‘ynaydi. Rus psixologiyasida boshqa insonni idrok etish nazariyasining ilmiy asoslari A.A.Bodalev tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarda boshqa insonni tushunish uning individualligini ochib berishga qaratilgan murakkab kognitiv jarayon sifatida talqin qilinadi. Insonni adekvat tushunish darajasi uning kommunikativ tajribasi, stereotiplari va munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshqalarni adekvat tushunish bilan o‘zini adekvat tushunish o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. O‘z shaxsiy xususiyatlarini noto‘g‘ri baholaydigan shaxslar ko‘pincha o‘zlarining salbiy sifatlarini boshqalarga proyeksiya qiladilar. Bu esa shaxslararo idrokning buzilishiga hamda nizoli vaziyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Pedagogik ijtimoiy idrok ikki asosiy darajadan iborat. Birinchi daraja kognitiv daraja bo‘lib, u boshqa inson haqidagi tasavvurlar va bilimlar tizimi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi daraja emotsional daraja bo‘lib, empatiya bilan bog‘liqdir. Empatiya boshqa insonning hissiy holatini anglash, unga hamdardlik bildirish hamda uning hissiy tajribalarini baham ko‘rish qobiliyatini ifodalaydi.

Empatiya shaxslararo munosabatlarning muhim psixologik mexanizmlaridan biridir. U kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlaridan tashkil topadi. Kognitiv komponent boshqa insonning hissiy holatini tushunishni bildiradi. Affektiv komponent hamdardlik va rahm-shafqat hislarini o‘z ichiga oladi. Xulq-atvor komponenti esa boshqa insonni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy harakatlarda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik empatiya dialogik muloqot jarayonida shakllanadi. Bunday muloqotda talaba o‘qituvchi ta’sirining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining talaba shaxsiga nisbatan samimiy e’tibori, mehribonligi va qo‘llab-quvvatlashi pedagogik empatiyaning asosiy ko‘rinishlari hisoblanadi.

Nizoli vaziyatlarda ijtimoiy idrokning ayrim xatolari ham kuzatiladi. Ularga fundamental atribusiya xatosi, stereotiplash, proyeksiya hamda selektiv idrok kiradi. Fundamental atribusiya xatosida talabaning xulq-atvori uning shaxsiy xususiyatlariga bog‘lab talqin qilinadi, vaziyat omillari esa e’tibordan chetda qoladi. Stereotiplash talabalarga umumiy yorliqlar berishga olib keladi. Proyeksiya esa o‘qituvchining o‘z hissiy holatini talaba xatti-harakatlariga ko‘chirish orqali namoyon bo‘ladi.

Dialogik metodologiya ushbu idrok xatolarini refleksiv qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. O‘qituvchi o‘z interpretatsiya mexanizmlarini anglay boshlaganida nizoning semantik tuzilmasi ochila boshlaydi. Bu jarayon konfliktni ayblash modeli asosida emas, balki tushunish modeli asosida hal etish imkonini yaratadi.

Ta’lim muhitida nizolarning oldini olish ko‘p jihatdan psixologik xavfsizlik darajasiga bog‘liqdir. Psixologik xavfsizlik inson o‘z fikrini qo‘rqmasdan ifoda eta oladigan, kamsitilish yoki rad etilishdan xavotir sezmaydigan muhitni anglatadi. Dialogik pedagogik model o‘zaro hurmat, ochiq kommunikativ makon, emotsional kompetentlik va hamkorlikka asoslangan baholash tizimini o‘z ichiga oladi.

Dialogik yondashuv asosida nizolarni hal etish bir necha bosqichlardan iborat. Avvalo vaziyat baholovchi hukmlarsiz tasviriy tarzda tahlil qilinadi. Keyingi bosqichda tomonlarning emotsional holati aniqlanadi. So‘ng nizoning semantik darajasi, ya’ni uning ortida turgan ehtiyojlar, motivlar yoki qadriyatlar qarama-qarshiligi aniqlanadi. Shundan so‘ng pozitsiyalar qayta ko‘rib chiqilib, muqobil yechimlar ishlab chiqiladi hamda o‘zaro maqbul strategiya shakllantiriladi.

Dialogik metodologiyani ta'lim jarayonida qo'llash bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Jumladan, ijtimoiy-perseptiv aniqlik oshadi, talabalarning ichki motivatsiyasi kuchayadi, ishonchli pedagogik muhit shakllanadi hamda agressiv yoki passiv qarshilik shakllari kamayadi. Shu bilan birga, dialogik muloqot talabalarda empatiya, kommunikativ kompetentlik va refleksiv tafakkurni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi nizolar ko'pincha kommunikativ buzilishlar, noto'g'ri ijtimoiy idrok va refleksivlik yetishmasligi bilan bog'liqdir. Dialogik metodologiya ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish hamda konstruktiv tarzda qayta tashkil etish imkonini beradi. Dialog nafaqat muloqot shakli, balki ma'no yaratishning intersubyektiv makonidir. Ushbu makon tiklanganida konflikt destruktiv hodisa bo'lib qolmaydi, balki shaxs rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omilga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Брушлинский А. В. Психология субъекта. — Москва: Институт психологии РАН, 2003. — 272 с.
2. Gergen K. J. Relational Being: Beyond Self and Community. — Oxford: Oxford University Press, 2009. — 418 p.
3. Johnson D. W., Johnson R. T. Joining Together: Group Theory and Group Skills. — Boston: Allyn & Bacon, 2017. — 672 p.
4. Deutsch M., Coleman P. T., Marcus E. C. The Handbook of Conflict Resolution: Theory and Practice. — San Francisco: Jossey-Bass, 2014. — 944 p.
5. Бодалев А. А. Психология общения. — Москва: Институт практической психологии, 1996. — 256 с.
6. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. — Санкт-Петербург: Питер, 2001. — 288 с.
7. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — Санкт-Петербург: Питер, 2002. — 720 с.
8. Михальченко Г. Ф. Психология эмпатии и межличностных отношений. — Москва: Наука, 2000. — 224 с.
9. Rogers C. R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. — Boston: Houghton Mifflin Company, 1961. — 420 p.
10. Fromm E. The Art of Loving. — New York: Harper & Row, 1956. — 192 p.
11. Lewin K. Field Theory in Social Science: Selected Theoretical Papers. — New York: Harper & Row, 1951. — 346 p.
12. Heider F. The Psychology of Interpersonal Relations. — New York: Wiley, 1958. — 322 p.
13. Galtung J. Peace by Peaceful Means: Peace and Conflict, Development and Civilization. — London: Sage Publications, 1996. — 292 p.
14. Gordon T. Teacher Effectiveness Training. — New York: Three Rivers Press, 2003. — 384 p.

UDK: 37.091.33:159.9

Sobirova Lobar Raximovna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
"Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari"
kafedrasi o'qituvchisi

O'SMIR YOSHLARDA KREATIV FIKRLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHDIDLARDAN HIMOYALASHDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlik davrida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik tahdidlarning mohiyati, ularning shaxs rivojiga salbiy ta'siri hamda kreativ ta'limning ushbu tahdidlardan himoyalashdagi psixologik-pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Kreativ ta'limning o'smirlarning tanqidiy fikrlashi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy kompetensiyalarini rivolantirish orqali salbiy ijtimoiy ta'sirlarga qarshi psixologik immunitetni shakllantirishi tasvirlab berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, o'smirlik yoshi davri, psixologik himoya, ijtimoiy moslashuv, tanqidiy fikrlash, ruhiy boylik, aqliy hujum, moslashuvchanlik.

РОЛЬ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ЗАЩИТЕ ПОДРОСТКОВ ОТ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ

Аннотация. В данной статье научно анализируется природа социально-психологических угроз, возникающих в подростковом возрасте, их негативное влияние на личностное развитие, а также психолого-педагогический потенциал творческого воспитания в защите от этих угроз. Описывается формирование психологического иммунитета к негативным социальным влияниям путем развития критического мышления, психологической устойчивости и социальных компетенций подростков.

Ключевые слова: творческое мышление, подростковый возраст, психологическая защита, социальная адаптация, критическое мышление, духовное богатство, мозговой штурм, адаптивность.

THE ROLE OF CREATIVE THINKING IN PROTECTING ADOLESCENTS FROM SOCIO-PSYCHOLOGICAL THREATS

Abstract. This article scientifically analyzes the nature of socio-psychological threats that arise during adolescence, their negative impact on personal development, and the psychological and pedagogical potential of creative education in protecting against these threats. The formation of psychological immunity against negative social influences by developing critical thinking, psychological stability, and social competencies of adolescents is described.

Keywords: creative thinking, adolescence, psychological protection, social adaptation, critical thinking, spiritual wealth, brainstorming, adaptability.

Bugungi kunda jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va axborot texnologiyalariga oid tezkor o‘zgarishlar o‘smirlar psixikasiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, tengdoshlar bosimi, destruktiv axborot oqimi va ijtimoiy rollar ziddiyati o‘smir shaxsining shakllanish jarayonida ijtimoiy-psixologik tahdidlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘smirlarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularni psixologik jihatdan himoyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda kreativ ta’lim muhim pedagogik-psixologik resurs sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlik yoki o‘tish davri bu — bolaning katta insonga aylanishining uzoq va qiyin bosqichi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti o‘smirlarni 10 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan bolalar va yoshlar deb belgilaydi. Bu davrda inson nafaqat jismonan, balki psixologik jihatdan ham o‘sadi. O‘smirlar asta-sekin o‘zini kata odan deb his qila boshlaydi, lekin ko‘p odat va xususiyatlari bolalarcha bo‘lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o‘smirlikdagi asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o‘smirlarda o‘ziga, atrof-muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyalarni yuzaga keltiradi. O‘smir ikki tomonlama bosimga duch keladi: bir tomondan gormonal, ikkinchidan, u psixologik jihatdan ulg‘ayib, oilasidan ajralib chiqadi. O‘smirlar miyasida haqiqiy inqilob sodir bo‘ladi. Mana shunday vaqtda o‘smirlar ijtimoiy-psixologik tahdidlarga moyillik darajasi oshadi. Ayni shu vaqtda bunga yechim sifatida kreativ ta’lim orqali o‘smirlarga ruhiy, ma’naviy yordam berish mumkin.

Kreativ fikrlash o‘zi nima? Kreativlik (inglizcha “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda tayyor tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma’nosini ifodalaydi. Kreativ fikrlash – bu yangi, original va qimmatli g‘oyalar, yechimlar topish, muammolarni nostandart tarzda hal qilish, mavjud bilimlarni yangi kontekstlarda qo‘llash va turli tushunchalar o‘rtasida yangi aloqalar o‘rnatish qobiliyatidir, bu jarayon tasavvur, tajriba va sinov-xatolarga tayanadi,. Bu nafaqat san'atda, balki kundalik hayotda ham qo‘llaniladigan, turli fikrlarni birlashtirish orqali innovatsiyalar yaratishga yordam beradigan jarayondir.

Kreativ fikrlash insonning analitik va ijodiy qobiliyatlarini birga rivojlantirib, hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, kreativ fikrlar turli sohalardagi bilimlarni o‘zaro bog‘lash natijasida shakllanadi. Shuning uchun yangi narsalarni o‘rganish va tajribalar orttirish kreativ fikrlashni oshiradi. Kreativ fikrlash yangi va o‘ziga xos g‘oyalarni yaratish jarayonidir. U an’anaviy yondashuvlardan tashqariga chiqishni talab qiladi. Bu ko‘nikma muammolarni ijodiy hal qilishga yordam beradi. Kreativ fikrlash hayotning barcha jabhalarida muhimdir. U innovatsiyalar va san’at sohasida katta rol o‘ynaydi. Ijodkorlik odamlarni o‘ziga xos qiladi. Zamonaviy dunyoda kreativ fikrlash talab qilinadi. Tez o‘zgaruvchan muhitda yangi yechimlar zarur. Kreativ fikrlash muvaffaqiyatning kalitidir.

Kreativlik — bu faqatgina san’atga xos xususiyat emas, balki hayotiy strategiyadir. J.P. Guilford nazariyasiga ko‘ra, divergent fikrlash o‘smirga bitta muammoning ko‘plab yechimlarini ko‘rish imkonini beradi. Ijtimoiy-psixologik

tahdidlar ko‘pincha "tuzoq" printsipiga asoslanadi (tanlov qoldirmaslik). Kreativ fikrlovchi o‘smir esa o‘zida bu "tuzoq"dan tashqariga chiqish imkoniyatini (out of the box) shakllantiradi. O‘tkazilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, kreativlik darajasi yuqori o‘smirlarning internetdagi turli xavfli oqimlarga qo‘shilib qolish ehtimoli, nazorat qilinadigan guruhga nisbatan 35-40% ga pastroq.

Kreativ fikrlash qanday ishlaydi? Kreativ fikrlash o‘ziga xos jarayondan iborat. U muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishni talab qiladi. G‘oyalar erkin oqimda shakllanadi. Bu jarayon cheklovlarni olib tashlaydi. Kreativ fikrlash assotsiatsiyalarga asoslanadi. Odamlar turli g‘oyalarni birlashtiradi. Yangi aloqalar topiladi va yechimlar yaratiladi. Bu jarayon tasavvur va tajribaga bog‘liq. Kreativ fikrlash sinov va xatolarni o‘z ichiga oladi. Har bir g‘oya sinovdan o‘tkaziladi. Muvaffaqiyatsizlik yangi imkoniyatlar ochadi. Bu jarayon doimiy rivojlanishdir.

Kreativ fikrlash bir nechta elementlardan iborat. Tasavvur ijodiy g‘oyalarni shakllantirishda muhimdir. U chegarasiz fikrlash imkonini beradi. Tasavvur yangi imkoniyatlarni ochadi. Moslashuvchanlik kreativ fikrlashning yana bir elementi. U muammoni turli yo‘llar bilan hal qilishni talab qiladi. Har xil yondashuvlar sinab ko‘riladi. Bu yangi yechimlarni topishga yordam beradi. Qat’iyat kreativ fikrlashda zarur. Ijodiy jarayon vaqt va kuch talab qiladi. Muvaffaqiyatsizlikka qaramay davom etish muhim. Bu muvaffaqiyatga olib keladi.

Kreativ fikrlash turli shakllarda bo‘ladi. Divergent fikrlash bir muammoga ko‘p yechim topadi. U turli g‘oyalarni bir vaqtda o‘rganadi. Bu tur ijodiy loyihalarda keng qo‘llaniladi.Konvergent fikrlash eng yaxshi yechimni tanlashga yordam beradi. U g‘oyalarni tahlil qilib, optimal variantni aniqlaydi. Bu tur muammolarni aniq hal qilishda ishlatiladi. San’atdagi kreativ fikrlash estetik yondashuvni talab qiladi. U rassomlik, musiqa yoki adabiyotda qo‘llaniladi. Bu tur his-tuyg‘ular va tasavvurni birlashtiradi. Ijodkorlik san’atning asosidir.

Kreativ fikrlash innovatsiyalarni rivojlantiradi. Yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratiladi. Bu iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Kreativlik jamiyatni oldinga olib boradi. Ta’limda kreativ fikrlash muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar ijodiy loyihalarda ishtirok etadi. Bu ularning tasavvurini va muammo hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ta’lim yanada qiziqarli bo‘ladi. Kreativ fikrlash shaxsiy rivojlanishga yordam beradi. Odamlar o‘ziga xos yechimlar topadi. Bu o‘ziga ishonchni oshiradi. Kreativlik hayotni boyitadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun mashq kerak. Aqliy hujum (brainstorming) g‘oyalarni erkin chiqarishga yordam beradi. Barcha takliflar qayd qilinadi va tahlil qilinadi. Bu ijodiy oqimni boshlaydi. Yangi tajribalar kreativlikni oshiradi. Sayohat, kitob o‘qish yoki yangi mashg‘ulotlar foydalidir. Turli tajribalar yangi g‘oyalarni ilhomlantiradi. Bu tasavvurni kengaytiradi. Meditatsiya va dam olish kreativ fikrlashni kuchaytiradi. Stress g‘oyalarni cheklaydi. Tinch muhitda fikrlar erkin oqadi. Bu ijodiy jarayonni yaxshilaydi.

Kreativ fikrlashda to‘siqlar mavjud. Qat’iy qoidalar va cheklovlar ijodkorlikni pasaytiradi. Odamlar an’anaviy yondashuvlardan chiqa olmaydi. Bu yangi g‘oyalarni to‘sadi. O‘ziga ishonchsizlik kreativlikka xalaqit beradi. Odamlar o‘z g‘oyalarini rad etishi mumkin. Qo‘rquv va shubha ijodiy jarayonni to‘xtatadi. Bu

to‘siqni yengish uchun jasorat kerak. Vaqt yetishmasligi kreativ fikrlashni cheklaydi. Tez qarorlar ijodiy yechimlarni pasaytiradi. Tinch vaqt ijodkorlikni oshiradi. Bu muvozanatni topish muhim.

O‘zbekistonda kreativ fikrlash rivojlanmoqda. Ta’lim tizimida ijodiy loyihalar joriy qilinmoqda. Maktablar va universitetlar o‘quvchilarni ijodkorlikka undaydi. Bu yoshlarni ilhomlantiradi. San’at va madaniyat sohasida kreativlik muhim o‘rin tutadi. O‘zbek rassomlari va yozuvchilari o‘ziga xos asarlar yaratadi. Bu milliy madaniyatni boyitadi. Kreativlik O‘zbekiston imidjini oshiradi. Startaplar va innovatsiyalar O‘zbekistonda ommalashmoqda. Yoshlar yangi biznes g‘oyalarni taklif qilmoqda. Bu iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi. Kreativ fikrlash mamlakat kelajagi uchun muhim.

Texnologiyalar kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Raqamli vositalar ijodiy loyihalarni osonlashtiradi. Grafik dasturlar va ilovalar san’at va dizaynni rivojlantiradi. Bu kreativlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Sun’iy intellekt kreativ jarayonlarga yordam beradi. U g‘oyalarni tahlil qilib, yangi takliflar beradi. Ammo inson ijodkorligi asosiy o‘rinda qoladi. Texnologiya faqat yordamchi vositadir. Ijtimoiy tarmoqlarda kreativ kontent ommalashmoqda. Odamlar o‘z g‘oyalarini ulashadi va ilhomlanadi. Bu global ijodiy hamjamiyatni yaratadi. Texnologiya kreativlikni kengaytiradi.

Kreativ fikrlash kelajakda o‘smirlar uchun yanada muhim bo‘ladi. Innovatsiyalar va texnologiyalar yangi imkoniyatlar ochadi. Odamlar murakkab muammolarni ijodiy hal qiladi. Kreativlik global raqobatda asosiy omil bo‘ladi. Ta’lim tizimlari kreativ fikrlashga urg‘u beradi. O‘quv dasturlari ijodiy loyihalarga asoslanadi. Bu yoshlarni innovatsiyalarga tayyorlaydi. Kreativ fikrlash ta’limning markazida bo‘ladi. O‘zbekistonda kreativ fikrlash iqtisodiy va madaniy rivojlanishga yordam beradi. Startaplar va san’at loyihalari ko‘payadi. Bu mamlakatni global maydonda muvaffaqiyatli qiladi. Kreativlik kelajakni shakllantiradi.

Kreativ fikrlash jamiyatni rivojlantiradi. Yangi g‘oyalar ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Odamlar innovatsion yechimlar taklif qiladi. Bu jamiyatni yanada adolatli qiladi. Kreativ fikrlash madaniyatni boyitadi. San’at, musiqa va adabiyot yangi shakllar oladi. Bu milliy o‘zlikni mustahkamlaydi. Kreativlik jamiyatning ruhiy boyligidir. Kreativ fikrlash yoshlarni ilhomlantiradi. Ular yangi g‘oyalarni sinab ko‘radi va muvaffaqiyatga erishadi. Bu jamiyatda faollikni oshiradi. Kreativlik jamiyatning taraqqiyot dvigatelidir.

Kreativ ta’lim — o‘smirni faqat bilim oluvchi emas, balki axborotni tahlil qiluvchi va yangi mazmun yaratuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Ijtimoiy tahdidlar (axborot xurujlari, yot g‘oyalar, ijtimoiy manipulyatsiya) sharoitida kreativ ta’lim “ma’naviy filtr” va “psixologik qalqon” vazifasini o‘taydi.

Quyida kreativ ta’limning ijtimoiy tahdidlarga qarshi kurashdagi asosiy rollari va mexanizmlari keltirilgan:

1. Manipulyatsiyaga qarshi "Kognitiv immunitet"

Ijtimoiy tahdidlar ko‘pincha inson hissiyotlariga ta’sir qilish orqali uni boshqarishga intiladi. Kreativ ta’lim o‘smirda savol berish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

• Mexanizm: o‘smir tayyor qoliplarni rad etadi va axborotning "negaligi" va "qandayligi"ni qidiradi.

• Natija: propaganda va yolg‘on xabarlarning (feyk) mantiqiy xatolarini tezda aniqlaydi.

2. Standart bo‘lmagan vaziyatlarda qaror qabul qilish

Ijtimoiy tahdidlar (masalan, guruh bosimi yoki kiber-tazyiq) o‘smirni boshi berk ko‘chaga tushirib qo‘yishni ko‘zlaydi. Kreativ ta’lim esa divergent fikrlash (bir muammoga ko‘p yechim topish) orqali chiqish yo‘lini ko‘rsatadi.

• Rollari:

• Moslashuvchanlik: o‘smir kutilmagan ijtimoiy xavfga duch kelganda vahimaga tushmaydi.

• Alternativlik: “Agar hamma shunday qilsa, men qanday boshqacha yo‘l tutsam xavfsiz bo‘ladi?” degan strategiyani qo‘llaydi.

3. Ijtimoiy izolyatsiyadan ijodiy hamjamiyatga

Ko‘p ijtimoiy tahdidlar (masalan, diniy ekstremizm) yolg‘iz qolgan, o‘zini namoyon qila olmagan yoshlarni nishonga oladi. Kreativ ta’lim o‘smirga o‘z-o‘zini realizatsiya qilish maydonini beradi.

• Loyihaviy yondashuv: o‘smir ijtimoiy foydali loyihalar, startaplar yoki san’at bilan band bo‘lsa, unda jamiyatga daxldorlik hissi yuqori bo‘ladi.

• Himoya: ijodiy jamoalarga mansublik hissi uni destruktiv guruhlar ta’siridan himoya qiladi.

Kreativ fikrlash – bu yangi, original g‘oyalar va yechimlarni yaratish qobiliyatidir, u nafaqat shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantiradi, balki innovatsiyalarni joriy etish, ta’lim jarayonini samarali qilish va shaxsiy rivojlanishni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Kreativ fikrlashning asosiy vazifalaridan biri – murakkab va notanish vaziyatlarda muammolarni ijodiy usulda hal qilish imkonini berishdir, bu esa shaxsning tanqidiy fikrlash, tahliliy qobiliyat va qaror qabul qilish jarayonlarini kuchaytiradi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida kreativ fikrlash nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat uchun, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun ham zarurdir. O‘zbekistonda kreativ fikrlash kontseptsiyasi ta’lim va madaniyat sohasida faol rivojlanmoqda, bu esa o‘smir yoshlarni yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga ilhomlantiradi, ularning ijodiy salohiyatini oshiradi hamda iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir qiladi. Shu bilan birga, kreativ fikrlash o‘smirlarni turli ijtimoiy-psixologik tahdidlardan, masalan, stress, xavotir yoki ijtimoiy marginalizatsiyadan samarali himoya qiladi.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, kreativ fikrlash o‘smir shaxsida bir qator muhim xususiyatlarni shakllantiradi: psixologik barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, ijobiy shaxsiy identifikatsiya va tanqidiy fikrlash. Bu qobiliyatlar talabalarning nafaqat o‘quv jarayonida, balki kundalik hayotdagi qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini ham mustahkamlaydi. Shu sababli

ta'lim muassasalarida kreativ ta'lim texnologiyalarini tizimli va doimiy joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatga tayyorlik, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarni uyg'unlashtirish imkoniyati yaratiladi. Kelajakda bunday qobiliyatlar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, innovatsion iqtisodiyotga tayyor avlodni shakllantirish va madaniy rivojlanish uchun muhim omil sifatida yanada katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta'lim muassasalarida kreativ fikrlashga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik vositalarni tizimli joriy etish va uning samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. (2020). Pedagogik texnologiyalar va kreativ ta'lim. Toshkent: O'qituvchi.
2. Karimova V.M. (2019). Shaxs psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Xudoyberdiyev O'. (2021). O'smirlar psixologiyasi va tarbiyasi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Rasulova D.Sh. Ta'limda kreativ yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2020.

UDK 338.48-051:378

Saydaliyeva G.O.,
PROFI UNIVERSITY devonxona mudiri,
"Turizm" kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

TURIZM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, turizm sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar — ixtisoslashgan ta'limning yetishmasligi, nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut, raqamli transformatsiya sharoitida zarur kompetensiyalarning shakllanmaganligi, soft skills rivojlanish darajasining pastligi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, ta'lim, fan va biznes integratsiyasi, texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish, uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish hamda hududiy turistik resurslardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm iqtisodiyoti, malakali kadrlar, inson kapitali, raqamli transformatsiya, soft skills, turistik resurslar, xizmat ko'rsatish sifati, ta'lim va biznes integratsiyasi.

ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В СФЕРЕ ТУРИЗМА

Аннотация. В данной статье анализируется роль туристической отрасли в национальной экономике, её значение в создании новых рабочих мест и обеспечении регионального развития. Наряду с этим рассматриваются существующие проблемы подготовки квалифицированных кадров, отвечающих современным требованиям туристической индустрии, в частности недостаточность специализированного образования, разрыв между теорией и практикой, несформированность необходимых компетенций в условиях цифровой трансформации, а также недостаточный уровень развития «мягких навыков» (soft skills). Кроме того, разработаны научно-практические предложения по интеграции образования, науки и бизнеса, внедрению современных технологий в учебный процесс, совершенствованию системы непрерывного повышения квалификации и эффективному использованию региональных туристических ресурсов.

Ключевые слова: экономика туризма, квалифицированные кадры, человеческий капитал, цифровая трансформация, soft skills, туристические ресурсы, качество обслуживания, интеграция образования и бизнеса.

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN TRAINING QUALIFIED PERSONNEL IN THE TOURISM SECTOR

Abstract. This article analyzes the role of the tourism sector in the national economy, emphasizing its importance in job creation and regional development. It also examines existing challenges in training qualified personnel who meet modern industry requirements, including the lack of specialized education, the gap between theory and practice, insufficient development of competencies in the context of digital transformation, and the low level of soft skills formation. Furthermore, the study proposes scientific and practical recommendations aimed at strengthening the integration of education, science, and business, introducing modern technologies into the educational process, improving the system of continuous professional development, and ensuring the effective utilization of regional tourism resources.

Keywords: tourism economy, qualified personnel, human capital, digital transformation, soft skills, tourism resources, service quality, education-business integration.

So‘nggi yillarda turizm milliy iqtisodiyotimizning o‘sish omillaridan biri sifatida boshqa turli tarmoqlarni ham rivojlantirish drayveriga aylandi. Ayniqsa, yangi ish o‘rinlari yaratishda ushbu soha beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Sohaning normativ-huquqiy asosi takomillashtirilib, muntazam ravishda tadbirkorlarga soliq imtiyozi, preferensiya taqdim etilib, milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ‘ib qilish uchun sharoit yaratilmoqda, viza tartibi liberallashtirilib, qulay sayyohlik muhiti shakllantirilmoqda. Bunday keng ko‘lamli islohotlar natijasida turizm sohasi tobora rivojlanib bormoqda. 2024-yil davomida diyorimizga jami 8,6 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Ularga 2,7 milliard dollarlik xizmat ko‘rsatildi. Ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 1,5 barobar ko‘p. Yevropa va boshqa mintaqalar hamda qo‘shni davlatlardan keluvchilarning o‘rtacha xarajati 2022 yilga nisbatan 1,5 barobar oshgan. Turizmdan keladigan daromad esa 3,6 milliard dollarni tashkil etdi.

Qo‘shma Shtatlar 2024-yilda 2,36 trillion-dollar iqtisodiy daromad keltirgan holda dunyodagi eng hukmron turizm iqtisodiyoti unvonini saqlab qoldi, keyingi o‘rinlarni esa Xitoy (1,3 trillion dollar), Germaniya (488 mlrd. dollar), Yaponiya (297 mlrd. dollar) va Buyuk Britaniya (295 mlrd. dollar) kabi turizm industriyasidan oladigan daromadi jihatidan dominant davlatlar egalladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik yo‘nalishi sifatida rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi tomonidan yangi turizm yo‘nalishlarini ochish, ichki va tashqi turizmni qo‘llab-quvvatlash, hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, mehmonxona xo‘jaligini kengaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday o‘zgarishlar, o‘z navbatida, yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda.

Sohani yanada taraqqiy ettirish, oldimizga qo‘yilgan yuksak maqsadlarga erishishda yetuk, zamonaviy kadrlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham sayyohlik yo‘nalishida kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, bu borada xalqaro

hamkorlikni kengaytirish masalalarida ham muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

"Bugun biz Samarqandda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlaydigan va ularning malakasini oshiradigan, dunyoda o'xshashi yo'q Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasini ochdik.

Ishonchim komilki, ushbu Akademiya global ta'lim xabiga aylanadi va jahon turizm sanoatini yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi.

Kelgusi o'quv yilidan boshlab O'zbekiston iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlarni taqdim etadi va davlatlaringiz vakillarini bu dasturda faol ishtirok etishga chaqiradi".

Zamonaviy turizm – bu texnologik innovatsiyalar, iste'molchilarning o'zgaruvchan xohish-istaklari va global muammolar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadigan jadal rivojlanayotgan biznes turi. Bu, o'z navbatida, kadrlar tayyorlash tizimiga yangi, yanada murakkab vazifalarni qo'yadi. Bugungi kunda xodimlarni asosiy ko'nikmalarga o'rgatish endi yetarli hisoblanmaydi. Keng ko'lamli vakolatlarga ega va tez o'zgaruvchan muhitga moslasha oladigan mutaxassislar talab qilinmoqda.

Turizm sohasi mehnat bozorida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassis nafaqat professional bilimga, balki yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga, xorijiy tillarni bilish qobiliyatiga, servis madaniyatiga, stressga chidamlilikka va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Turizm xizmatining sifati bevosita inson omiliga bog'liq bo'lgani sababli kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligi butun sohaning raqobatbardoshligini belgilaydi.

Jahon iqtisodiyotida sayohat va sayyohlik sanoatining ulushi 9 foizni, global yalpi ichki mahsulotning bir foizini tashkil etadi, 27,4 million kishi bu sohada ish bilan ta'minlangan va butun dunyo bo'ylab 330 millionga yaqin ish o'rinlarini yaratadi. Germaniya turizm sohasida eng yuqori bandlik darajasiga ega, bu sektorda 2,6 million kishi ishlaydi. Undan keyingi o'rinlarni Italiya (1,7 million kishi) va Ispaniya (1,6 million kishi) egallaydi. O'zbekistonda esa turizm biznesida band bo'lganlar soni 245,7 ming kishi (2023-yil) ni tashkil etadi.

Turizm sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda, birinchi navbatda, bu sohani harakatga keltiruvchi mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda turistik korxonalarda xodimlar faoliyatini to'g'ri tashkil etib ular salohiyatidan to'g'ri foydalanish turizm xizmatlar bozorida korxonaning iqtisodiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Hattoki, turizm sohasida ayrim muammolar (sotish hajmi va undan bo'ladigan daromadning qisqarishi, rivojlanishning aniq yo'nalishlarga ega emasligi, boshqaruv usullari va tizimlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar, turizmda xizmat ko'rsatuvchi malakali, zamon talablariga javob beradigan kadrlar va mutaxassislarni yetishmasligi va boshqalar) sohada malakali kadrlarni tayyorlash orqali hal qilinadi. Ammo, O'zbekistonda zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlashda quyidagi bir qator kamchiliklar kuzatilmoqda:

- ixtisoslashgan ta'limning yetishmasligi. Turizm sohasidagi xodimlarning katta qismi ixtisoslashgan ma'lumotga ega emas. Bu shuni ko'rsatadiki, ish beruvchilar diplomdan ko'ra ko'proq kasbiy ko'nikmalarga e'tibor qaratishga majbur bo'lib qolmoqdalar. Bu esa xodimlarni o'qitish uchun o'zlarining korporativ ta'lim markazlari va kurslarini yaratishga, qo'shimcha sarmoya sarflashga olib kelmoqda;
- nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut. Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimlari, odatda, zamonaviy bozor talablariga javob bermaydi. O'quv dasturlari har doim ham ish beruvchilarning ehtiyojlariga mos kelmaydi. Natijada, universitet va kollej bitiruvchilari samarali ishlash uchun zarur ko'nikmalarga ega emaslar va ish beruvchilar yangi xodimlarni mustaqil ravishda o'qitishlari kerak;
- tadbirkorlik va iqtisodiy bilimlarning kamligi;
- mavjud muammoni tahlil qilish va yechishda zamonaviy yondashuvning yetishmasligi;
- raqamli transformatsiya. Sayyohlik sanoatiga onlayn xizmatlar, sun'iy intellekt va virtual haqiqatni kiritish xodimlardan yangi ko'nikmalarni talab qiladi. Mutaxassislar raqamli platformalar bilan ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va mijozlar uchun moslashtirilgan takliflarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak;
- kadrlarning barqaror rivojlanish bo'yicha bilimga ega emasliklari;
- mijozga moslashtirish. Bugungi kunda sayyohlar individual yondashuv va noyob tajribalarni kutmoqdalar. Bu xodimlardan, nafaqat, yuqori darajadagi xizmatni, balki rivojlangan moslashuvchan ko'nikmalarni (soft skills) ham talab qiladi, masalan, hamdardlik, xushmuomalalik, nostandart vaziyatlarni hal qilish qobiliyati.

Shu o'rinda yana bir kamchilikni ta'kidlash joiz, yurtimizga kelayotgan sayyohlarning deyarli barchasi ma'lum destinatsiya bo'yicha (ya'ni, Toshkent va Xiva shaharlari, Samarqand hamda Buxoro viloyatlariga turizmning tarixiy, madaniy, etnik va gastronomik turlari bo'yicha odatiy diqqatga sazovor joylarga) tashrif buyurishadi. Chunki mehmonlar "O'zbekiston" deganda faqatgina tarixiy obidalar, boy madaniyat va turfa taomlarni ko'z oldilariga keltiradilar. Bu manzarani esa ularga turizm sohasidagi xodimlar berishadi. Sababi soha vakillarining o'zlari ham viloyatlar, ulardagi salohiyat va resurslar haqida kam ma'lumot hamda bilimga egaliklaridir. Yurtimizning har bir viloyatini turistik resurslarini o'rgangan holda, yangi va nostandart turmarshrutlar ishlab chiqib, ularni xorijiy sayyohlarga sotish orqali o'sha hududning iqtisodiyotini ham rag'batlantirish mumkin. Masalan, Orol dengizi hamda Qizilqum cho'li oralig'ida joylashgan Ustyurt platosi va Sulton Uvays kanyonlari, Qoraqolpog'istondagi "Kuylovchi" qum tepaliklar resurslarini o'rganib ekoturizm yo'nalishini boyitish, Urgutdagi O'ra-to'ba yerosti ko'li, Boysundagi Amir Temur g'orini o'rganish orqali esa speleo turizmni rivojlantirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni muvaffaqiyatli bartaraf etish uchun kadrlar tayyorlash tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratishi kerak:

- ta'lim, fan va biznesni integratsiyalash (o'quv dasturlarini bozorning haqiqiy ehtiyojlariga moslashtirish);
- yagona turizm portalini ishlab chiqish (ta'lim sohasi va biznes vakillari o'zaro faoliyatini rivojlantirish uchun);
- texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish. Virtual simulyatorlar, onlayn kurslar va interaktiv platformalardan foydalanish talabalarga zamonaviy texnologik yechimlar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'rganish imkonini beradi;
- uzluksiz ta'lim va malaka oshirish. Sanoatdagi o'zgarishlarning tezligini hisobga olgan holda, allaqachon ishlayotgan mutaxassislar uchun qo'shimcha ta'lim dasturlari va malaka oshirish kurslarini yaratish muhimdir;
- "yumshoq ko'nikmalar" ("Soft skills") ni rivojlantirish (muloqot madaniyati, mijozlarga individual yo'naltirilganlik, stressga chidamlilik, jamoa bilan ishlash qobiliyati, kreativlik, nostandart muammolarni hal qilish qobiliyati va boshqalar).

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda turizm sohasida kadrlar tayyorlash – bu turizm sanoati kelajagiga sarmoya qilishdir. Faqat malakali va izlanuvchan xodimlargina sifatli turmahsulot yaratish, yuqori darajali xizmat ko'rsatish hamda raqobatbardoshlilikni saqlab qolishga qodir bo'lishadi. Ta'lim tizimini rivojlantirish va uni biznes bilan o'zaro birlashtirish – turizmni yanada takomillashtirish uchun harakatga keltiruvchi kuchga aylantiradigan mutaxassislar tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi, Samarqand, 2025-yil 16-oktabr.
2. Yo'ldoshev N., Abdukarimov K. Turizm asoslari. — Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2020.
3. Морозов М. А., Морозова Н. С. Особенности подготовки кадров для индустрии туризма и гостеприимства в условиях перехода к цифровой экономике // Профессорский журнал. Серия: рекреация и туризм. 2019. № 4 (4) С. 3-14
4. https://www.unwto.org/tourism-statistics
5. www.atlasreal.com
6. https://uza.uz/oz/posts/ozbek-turizmi-2024-yil-qanday-yutuqlarga-erishdi_673628.

UDK: 159.922.7

Тураев Озодбек Уйғун оглы,
преподаватель университета Турон

ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируются причины возникновения девиантного поведения молодежи в процессе социализации, а также социально-психологические механизмы его профилактики. Комплексно рассматриваются основные факторы, влияющие на поведение молодежи, включая семью, образовательные учреждения, среду сверстников, средства массовой коммуникации и цифровое пространство. Кроме того, освещаются процессы формирования социальных норм и ценностей, новые поведенческие тенденции в условиях глобализации, а также современные подходы к их профилактике. В статье обосновывается эффективность комплексных профилактических мер и социально-психологических воздействий, направленных на снижение девиантного поведения среди молодежи.

Ключевые слова: Социализация, девиантное поведение, поведение молодежи, профилактика, социально-психологические факторы, социальные институты, семья, образование, глобализация, цифровая среда.

YOSHLARDA DEVIANT XULQ-ATVORNING IJTIMOIYLASHTIRISH JARAYONIDA PROFILAKTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar orasida deviant xulq-atvorning ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga kelish sabablarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va uning profilaktikasi uchun ijtimoiy-psixologik mexanizmlar yoritiladi. Tadqiqotda yoshlarning xulq-atvoriga ta’sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, oila, ta’lim muassasalari, tengdoshlar muhiti, ommaviy axborot vositalari va raqamli makon kompleks tarzda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy norma va qadriyatlarning shakllanish jarayonlari, globalizatsiya sharoitidagi yangi xulqiy tendensiyalar va ularni oldini olishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqolada yoshlar orasida deviant xulq-atvorni kamaytirishga qaratilgan kompleks profilaktik chora-tadbirlar va ijtimoiy-psixologik ta’sirlarning samaradorligi ilmiy asos bilan ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiylashuv, deviant xulq-atvor, yoshlar xulqi, profilaktika, ijtimoiy-psixologik omillar, ijtimoiy institutlar, oila, ta’lim, globalizatsiya, raqamli muhit

PREVENTION OF DEVIANT BEHAVIOR AMONG YOUTH IN THE PROCESS OF SOCIALIZATION

Abstract. This article provides a scientific analysis of the causes of deviant behavior among youth within the process of socialization, as well as the socio-psychological mechanisms for its prevention. The study comprehensively examines the main factors influencing youth behavior, including family, educational institutions, peer environment, mass communication media, and the digital space. Furthermore, the formation of social norms and values, emerging behavioral trends in the context of globalization, and modern approaches to their prevention are discussed. The article substantiates the effectiveness of integrated preventive measures and socio-psychological interventions aimed at reducing deviant behavior among young people.

Keywords: Socialization, deviant behavior, youth behavior, prevention, socio-psychological factors, social institutions, family, education, globalization, digital environment.

На современном этапе развития общества формирование молодежи как социально активной, духовно зрелой и психологически устойчивой личности приобретает особое значение. Молодежь сегодня сталкивается с многочисленными вызовами: быстрыми социальными изменениями, глобализацией, информационным перегрузом, усилением конкуренции в образовательной и профессиональной сферах, что требует от них высокой степени социальной адаптивности, критического мышления и личной ответственности. С этой точки зрения проблема девиантного поведения молодежи является актуальным направлением исследований не только в психологии и педагогике, но и в социологии, культурологии и правоведении.

Различные негативные факторы, возникающие в процессе социализации, могут приводить к отклонению поведения молодежи от нормативных стандартов. К ним относятся неблагоприятные семейные обстоятельства, отсутствие должного воспитательного и образовательного воздействия, влияние девиантных сверстников, негативное воздействие медиа и цифровой среды, социальное давление и стрессовые ситуации. Все эти факторы способны формировать у молодежи устойчивые привычки и установки, противоречащие социальным нормам, что делает профилактику девиантного поведения важной задачей как для семьи, так и для образовательных и государственных институтов.

Социализация — это процесс усвоения индивидом социального опыта, ценностей, норм и правил поведения, существующих в обществе, который протекает непрерывно на протяжении всей жизни человека. Эффективность этого процесса во многом зависит от деятельности социальных институтов. Семья, образовательные учреждения, среда сверстников и средства массовой коммуникации являются основными агентами социализации и непосредственно влияют на формирование поведения молодежи. Семья обеспечивает базис эмоциональной поддержки, передает моральные и культурные ценности, формирует личностные установки, которые определяют будущие социальные действия молодежи.

Образовательные учреждения, в свою очередь, не только предоставляют знания, но и формируют социальные и когнитивные навыки, развивают критическое и творческое мышление, коммуникативные компетенции, способность к сотрудничеству и коллективной деятельности. Учителя и педагоги выступают посредниками между социальными нормами и личностью, направляя поведение подростков в конструктивное русло, организуя профилактическую работу и обучая навыкам саморегуляции.

Среда сверстников оказывает значительное влияние на поведение молодежи, так как в подростковом возрасте формируется социальная идентичность, происходит сравнение с другими, и групповая динамика способна как стимулировать позитивное развитие, так и способствовать девиантным проявлениям. Кроме того, современная молодежь активно взаимодействует с цифровой средой, где информационные потоки могут содержать как позитивные модели поведения, так и опасные социальные стереотипы. В связи с этим развитие медиаграмотности, критического восприятия информации и навыков цифровой безопасности становится неотъемлемой частью процесса социализации.

Таким образом, социализация молодежи представляет собой сложный и многокомпонентный процесс, в котором успех зависит от комплексного и системного воздействия семьи, образовательных учреждений, сверстников и цифровой среды. Интеграция воспитательных, образовательных, правовых и информационных инструментов позволяет не только минимизировать риски девиантного поведения, но и формировать активных, социально ответственных и психологически устойчивых членов общества, способных самостоятельно принимать решения, адаптироваться к изменениям и поддерживать позитивные социальные ценности [1– 247 с].

1. Причины девиантного поведения молодежи имеют многогранный характер и тесно связаны с социальными, психологическими и культурными факторами. В первую очередь следует подчеркнуть роль семейной среды. Семья, как первичный институт социализации, формирует начальные поведенческие нормы личности. Нездоровая атмосфера в семье, конфликты между родителями, недостаток внимания к ребенку или чрезмерная строгость могут приводить к возникновению негативных психологических состояний у молодежи, что, в свою очередь, способствует формированию девиантного поведения [2 – 1094 с].

Образовательные учреждения также занимают важное место в процессе социализации молодежи. Система школьного и высшего образования выполняет не только образовательную, но и воспитательную функцию. Однако в некоторых случаях отсутствие индивидуального подхода в образовательном процессе, игнорирование психологических особенностей учащихся и слабый педагогический контроль могут приводить к негативным последствиям. Поэтому в современной системе образования необходимо широко внедрять личностно ориентированный подход.

Влияние группы сверстников на поведение молодежи также крайне велико. В подростковом возрасте мнение сверстников часто превосходит авторитет родителей или учителей. Присоединение к негативным группам, социальное давление и процессы подражания (имитации) могут стимулировать молодежь к нежелательным действиям. Этот процесс объясняется в социальной психологии через концепцию конформизма [3– 702 с].

2. В современном обществе процессы глобализации вносят новые механизмы воздействия на поведение молодежи. Быстрое развитие информационных технологий превратило цифровое пространство в неотъемлемую часть жизни молодежи. Социальные сети, интернет-ресурсы и средства массовой информации внедряют в сознание молодежи различные социальные и культурные ценности. Однако неконтролируемый и нефильтрованный поток информации может способствовать формированию негативных стереотипов, агрессивных моделей поведения и усилению индивидуализма [4– 575 с].

С этой точки зрения профилактика девиантного поведения молодежи требует комплексного и системного подхода. Профилактика девиантного поведения требует комплексного подхода:

1. Семейная профилактика: повышение педагогической и психологической грамотности родителей, создание здоровой морально-психологической атмосферы, установление доверительных отношений с детьми.

2. Образовательная профилактика: совершенствование работы психологических служб, индивидуальная работа с учащимися, организация воспитательных мероприятий, психологические тренинги и консультации.

3. Досуг и социальные активности: участие в спорте, искусстве, научных кружках и социальных проектах защищает молодежь от негативного влияния среды.

4. Правовая и информационная профилактика: повышение правовой культуры молодежи, развитие медиаграмотности, формирование цифровой культуры и защита от негативного информационного воздействия.

Отклоняющееся поведение и девиантное поведение молодежи являются одними из важных проблем процесса социализации. Эта проблема связана с множеством факторов, среди которых особое значение имеют семейная среда, система образования, влияние друзей и окружающей среды, а также глобальные и цифровые тенденции современного общества. Роль семьи является первичной и наиболее значимой. Здоровая психологическая и нравственная атмосфера, педагогическая и психологическая грамотность родителей, а также доверительные отношения с детьми являются основными инструментами формирования правильного поведения молодежи.

Образовательные учреждения также играют значительную роль в социализации молодежи. Совершенствование деятельности психологических служб, усиление индивидуального подхода, организация воспитательных

мероприятий и проведение психологических тренингов являются эффективными механизмами защиты молодежи от негативного поведения. Кроме того, активное участие в спорте, искусстве, научных кружках и социальных проектах защищает молодежь от негативного влияния социальной среды и вовлекает их в полезную и позитивную деятельность.

Повышение правовой культуры среди молодежи, развитие медиаграмотности и цифровой грамотности также имеют важное значение для профилактики отклоняющегося поведения. Это позволяет защитить их от негативного информационного потока, способствует усвоению положительных социальных норм в обществе и формирует у молодежи критическое мышление, умение анализировать получаемую информацию и принимать обоснованные решения в различных жизненных ситуациях.

Кроме того, особое внимание следует уделять формированию ценностных ориентиров, развитию эмпатии и навыков конструктивного взаимодействия в коллективе. Участие молодежи в волонтерских инициативах, общественных проектах и социально значимых мероприятиях способствует внутренней мотивации к соблюдению социальных норм и развитию чувства ответственности перед обществом.

Таким образом, профилактика поведения молодежи требует комплексного, системного и непрерывного подхода, включающего сочетание семейного воспитания, деятельности образовательных учреждений, влияния сверстников, медиапространства и цифровых технологий. Интеграция правового, информационного и социального образования обеспечивает успешный процесс социализации, укрепляет психологическую устойчивость и формирует у молодежи навыки, необходимые для адаптации к современным социальным условиям.

В результате молодежь формируется как активный, социально ответственный член общества, способный критически воспринимать информацию, соблюдать нормы и правила, проявлять инициативу в позитивных социальных проектах, эффективно взаимодействовать с окружающими и принимать самостоятельные решения, направленные на личное и общественное благо. Такой подход позволяет не только снижать уровень девиантного поведения, но и создавать основу для устойчивого и гармоничного развития общества в целом.

Список литературы:

1. Bandura A. Теория социального научения. – Нью-Йорк: General Learning Press, 2001. – 247 с.
2. Giddens A. Социология. – Кембридж: Polity Press, 2006. – 1094 с.
3. Merton R. K. Социальная теория и социальная структура. – Нью-Йорк: Free Press, 2002. – 702 с.
4. Parsons T. Социальная система. – Лондон: Routledge, 2005. – 575 с.
5. Каримов И.А. Высокая нравственность – непобедимая сила. – Ташкент: Маънавият, 2008. – 176 с.

6. Абдуллаева К.А. Проблемы девиантного поведения молодежи в процессе социализации. – Ташкент: Фан, 2019. – 152 с.

7. Кодиров Б.Р. Отклоняющееся поведение подростков и его профилактика. – Ташкент: Учитель, 2017. – 134 с.

8. Ганиев О.С. Основы социальной педагогики. – Ташкент: Университет, 2020. – 210 с.

UDK: 159.922.2:316.77

O'rinboyev Humoyun Muhammadjon o'g'li,
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

PSIXOLOGIK KOMPLEKSLARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA NAMOYON BO'LISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur ish psixologik komplekslarning shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'lish mexanizmlarini kuzatish asosida ochib berishga qaratilgan. Unda mavzu yuzasidan olimlarning ilmiy izlanishlari keltirilib, muallif tahlili bayon qilinadi. Tahlil natijasida aniqlanishicha, psixologik komplekslar mexanizmlari bir necha asosga ko'ra ifodalanadi. Jumladan, avtomatik reaksiyalari, proeksiya va identifikatsiya, kompensatsiya, dissotsiatsiya hamda kognitiv selektiv idrok komplekslarning shaxslararo munosabatlardagi mexanizmlaridir.

Kalit so'zlar: pastlik, ustunlik, to'liqsizlik, aybdorlik, rad etilish komplekslari, kompensatsiya, repressiya, shaxsiy va kollektiv ongsizlik, "implicit learning", dissotsiatsiya.

MECHANISMS OF MANIFESTATION OF PSYCHOLOGICAL COMPLEXES IN INTERPERSONAL RELATIONSHIPS

Annotation. This work aims to reveal the mechanisms of manifestation of psychological complexes in interpersonal relations based on observation. It presents scientific research of scholars on the subject and provides the author's analysis. The analysis reveals that the mechanisms of psychological complexes are expressed on several grounds. In particular, automatic reactions, projection and identification, compensation, dissociation, and cognitive selective perception are the mechanisms of complexes in interpersonal relations.

Key words: Inferiority complex, superiority complex, guilt complex, rejection complex, compensation, repression, personal, unconscious, collective unconscious, implicit learning, dissociation.

МЕХАНИЗМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЛЕКСОВ В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. Данная работа направлена на раскрытие механизмов проявления психологических комплексов в межличностных отношениях на основе наблюдения. В ней представлены научные исследования ученых по данной теме и изложен авторский анализ. В результате анализа выявлено, что механизмы психологических комплексов выражаются на нескольких основаниях. В частности, автоматические реакции, проекция и идентификация, компенсация, диссоциация, а также когнитивное селективное восприятие являются механизмами проявления комплексов в межличностных отношениях.

Ключевые слова: комплекс неполноценности, комплекс превосходства, комплекс вины, комплекс отвержения, компенсация, репрессия, личное бессознательное, коллективное бессознательное, имплицитное научение (скрытое обучение), диссоциация.

Sir emaski, hozirgi kunda ilmiy o‘rganish chegaralaridan biroz uzoqlashgan mavzu hisoblangan psixologik komplekslar shaxs psixologik hayotida muhim o‘rin egallaydi. Psixologik komplekslarning shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lish mexanizmlarini o‘rganish bir qator fundamental sabablarga ko‘ra dolzarb hisoblanadi:

Birinchidan, xitoylik o‘smirlar va kattalar o‘rasida o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, yomon natijaga erishganlar orasida pastlik kompleksi yuqori bo‘ladi. Nogironlar orasida esa bu ko‘rsatkich 62% dan oshiq. Shu bilan birga, longitudinal tadqiqotlar ko‘rsatishicha, noto‘liq oiladagi o‘smirlarda pastlik kompleksi agressiyaga sabab bo‘lib, depressiya va o‘zini past baholashga olib kelishi aniqlangan. Munosabatlarning past darajasi esa ruhiy salomatlikni yomonlashuvi xavfini yuzaga keltiradi. Psixologik komplesklarning shaxslararo munosabatlar doirasida o‘rgangan tadqiqotlar juda ko‘p.

Ikkinchidan, zamonaviy jamiyatda shaxslararo munosabatlarning murakkablashuvi, ijtimoiy aloqalarning virtualizatsiyalishishi, identitiklik inqirozi kabi tendensiyalar psixologik komplekslarning yangi shaklda namoyon bo‘lishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, yosh avlod vakillaring o‘zini namoyon qilish, jamiyat tomonidan qabul qilinish, va tan olinish bilan bog‘liq komplekslarining kuchayishi kuzatilmoqda.

Mazkur biz tarafimizdan dolzarb deb hisoblangan muammolarga yechim taklif qilish uchun kuzatuv tadqiqotlaridan foydalanishni maqsad qilganmiz, ya’ni tadqiq qilinayotgan masala bo‘yicha turli olimlarning fikri beriladi va biz tomonimizdan umumlashtiruvchi tahlil bayon qiladi.

Ushbu ishning maqsadi psixologik kompekslarning shaxslararo munosabtalarda namoyon bo‘lish mexanizmlarini ko‘rsatib berishda ifodalanadi.

Oldinga qo‘ygan maqsadimizga erishish uchun esa quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- Psixologik komplekslarning tabiati va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- Shaxslararo munosabatlarda psixologik komplesklarning o‘rni va namoyon bo‘lish xususiyatlari.

Masalani ko‘rib chiqishda taklif qilinayotgan yondashuv psixoanalitik maktab qarashlari bilan asoslanadi. Chunki, komplekslarning o‘rganilish an’anasi psixoanaliz maktabida juda keng o‘rganilgan bo‘lib, asosiy klassik namoyondalar – A.Adler, G.Yung, K.Horny kabi nomlar bilan bog‘liq. Komplekslaring asosiy nazariya sifatida maydonga kelishi G.Yung nomi bilan bog‘liq bo‘lsa ham, aslida uning rivoji butun analitik psixologiya asosida yotadi. Shunday bo‘lsa-da, komplekslar o‘rganilishining keyingi daraja olib chiqqan olim bu K.Yung edi. U bu ishga ma’lum so‘zlarga oid xotira assotsiatsiyalarini tadqiq qilgandan keyin kirishib, shu asosda hissiy ohangga ega komplekslarga quyidagicha ta’rif berdi: “ma’lum bir

psixologik holatning kuchli bosimga ega, ma'lum hissiyot tomonidan qo'zg'atilgan, shu bilan birga ongning odatiy munosabatiga mos kelmaydigan obrazi". U spesifik emotsiyalar orqali psixik bog'langan barcha xotiralarni o'z ichiga oladigan dissotsiatsiyalangan mayda bo'lak – shaxsiyat kabi harakat qiladi.

Komplekslarni K.Yung shunday obrazli qilib ta'riflagan: "ular og'zingizga noto'g'ri so'zni solib qo'yadi, kimnidir tanishtirmoqchi bo'lganingizda uning ismini unuttiradi, kontsertda pianinoda eng mayin parcha chalinayotgan paytda tomog'ingizni qitiqlaydi…". Shaxslararo munosabatlarda komplekslar namoyon bo'lishining ilk mexanizmi avtomatik va ongsiz reaksiyalardi. Shaxs muayyan vaziyatda (masalan, obro'li odam bilan uchrashganda) o'zini tuta olmaydi, noto'g'ri javob qaytaradi yoki keraksiz so'z aytadi. Bu uning ongsizidagi kompleks (masalan, pastlik kompleksi) tomonidan boshqarilayotganidan dalolat beradi. Shaxslararo muloqotda bunday reaksiyalar tushunmovchilik va nizolarni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy talqinlarga ko'ra, komplekslarning bir necha o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularning ba'zilari yuqorida eslatib o'tilganiga qaramay tavsiflash o'rinli bo'ladi:

- Ongsizlik va mustaqillik;
- Emotsional yadro;
- Assotsiatsiyalari;
- Psixik energiya;
- Avtomatik reaksiya;
- Neytral yoki patologik bo'lishi.

Komplekslarning turlari ko'p va har qaysi kompleksning markazida universal tajriba hisoblanmish arxetip yotadi. Yunga ko'ra, asosiy psixologik komplekslarga anima va animus kiradi. Boshqa muhim va ko'p uchraydiganlari esa ota, ona, qahramon, keyingi davrlarda e'tirof etilganlari esa aka-uka va opa-singildir. Shu bilan birga, turli davrlarda mazkur mavzuni o'rgangan turli olimlar komplekslar doirasini keyangishiga hissa qo'shishgan.

Komplekslar aslini olganda barcha normal shaxslarga xos bo'lsa-da, salbiy komplekslar inson psixik hayotini qiyinlashtirib yuborishi bilan xavfli.

Yung fikricha, komplekslarning zararli ta'siri qachonki biz uni zaryadsizlantirganimizda yoki undagi psixik energiyani boshqa yo'nalishga transfer qilganimzda, yani emotsional jihatda assimilyatsiya qilganimizdagina to'xtashi mumkin. Ongsizlikdagi kompleks esa o'z mustaqilligini saqlab qoladi, psixik energiyasini to'xtatish Ego uchun qiyin kechadi, uni tushunish imkonsiz bo'ladi. Natijada u yoki bu tarzda Egoga ham ta'sirini o'tkazadi, u esa dissotsiatsiyalarni kuchaytirishga majbur bo'lib, psixikaning parchalanishiga olib keladi. Yung xulosa qilishicha, kompleks ongsiz holatda qolar ekan, assotsiatsiyalar bilan boyishi va yana-da kengayishi mumkin, ammo hech qachon tuzalmaydi [2].

Yuqorida asosan, komplekslarning avtonom xususiyatiga e'tibor qaratildi. Endi esa K.Yung nazariyasi asosda J. Jakobiy tomonidan komplekslarning namoyon bo'lish shakllari ajratib ko'rsatilganligiga diqqat qaratamiz:

- kompleks ongsiz holatda bo'lib, yetarli darajada energiyaga ega emas, shu sababdan ham hali mustaqil hisoblanmaydi; shunga qaramasdan, psixikaning tabiiy

jarayonlarini bloklab qo‘yishi mumkin, masalan, til toyishi yoki shu kabi boshqa belgilar;

- kompleks yetarlicha energiyaga va ma’lum avtonomiya ega bo‘lib, Ego bilan ziddiyatga kirisha oladigan ikkinchi ego sifatida faoliyat yuritadi, shu tariqa shaxsni ikki qarama-qarshi ziddiyatli holatda qoldirishi mumkin va uni ichki jihatdan ikkiga bo‘lib yuborish xavfini tug‘diradi, masalan, obsessiv-kompulsiv buzilishlar. Shaxslararo munosabatlarda bu hol dissotsiativ shaxsiyat xulqiga mos kelib, bir vaqtning o‘zida sherigiga nisbatan ham mehr, ham nafrat hissini tutib turish; bir daqiqada muloyim, ikkinchi daqiqada esa tajovuzkor bo‘lish bilan izohlanadi.

- kompleks psixik tuzilmadan mutaloq ajralib, avtonom holatiga keladi va shaxsning ikkilanishi holatidagi buzilishi sodir bo‘ladi yoki mustaqil komplekslar soni va tabiatiga ko‘ra bir necha shaxslarga parchalanishi mumkin;

- agar kompleks juda kuchli darajada zaryadlangan bo‘lsa, u Egoni to‘liq egallab olishi va Ego nomidan “gapirishi” mumkin. Bunday holatda Ego bilan kompleks o‘rtasida qisman yoki to‘liq identifikatsiya ro‘y beradi. Hodisa ona kompleksli erkaklar yoki ota kompleksli ayollarda yaqqol ko‘zga tashlanadi: ota-onaning buyruqlari, istak-xohishlari, o‘y-fikrlari Egoni egallab oladi. Kompleks bilan Ego o‘rtasidagi yuqori identifikatsiyada esa odam o‘zini turli tarixiy shaxslarga, qahramonlarga, diniy obrazlarga yoki hayvonlarga aynanlashtirish kuzatiladi. Kompleksning ayan shu shakli, shaxslararo munosabatlarda proeksiya va identifikatsiya ko‘rinishida yuzaga keladi. Bu yerda shaxs o‘zidagi kompleksni sezmaydi, aksincha, uni boshqa odamda (masalan, hamkasbi yoki sherigida) ko‘radi va unga nisbatan munosabatini shu asosda quradi. Natijada, munosabatlar real odamga emas, balki kompleksga qaratilgan reaksiyaga aylanadi.

- komplekslar Egoga ma’lum bo‘ladi, ammo bu intellektual darajada bo‘lgani bois, u o‘zining dastlabki kuchini saqlab qoladi. Faqat hissiy kontentlarni integratsiya qilish va uning mazmuni tushunish orqali sodir bo‘ladigan emotsioanl tajriba komplekslar kuchun bartaraf etishi mumkin.

K.Yung asosan, komplekslarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning tabiati, ko‘lami haqida mulohaza yuritgan bo‘lsa, A.Adler asosan, komplekslarning eng ko‘p uchraydigan turiga bevosita e’tibor qaratgan. U ko‘p yillar mobaynida shifokor bo‘lib ishlagani uchun u pastlik (inferiority) kompleksini alohida ajratib ko‘rsata oldi. Uning fikricha, fiziologik yoki ijtimoiy jihatdan o‘z kamchiligiga berilgan subektiv baho pastlik kompleksini paydo qiladi – bu muhim nutqa. Organik nuqson yuzaga keladigan dunyoga nisbatan dushmanona munosabat, har qanday ijtimoiy yoki iqtisodiy kamchiliklar uchun ham xos [3]. Ushbu fikrlarning keyinchalik rivojlantirilgan tezisi shuki, tug‘ma moyillik, obyektiv tajriba va muhitdan ham muhimrog‘i – ularning subyektiv baholanishi.

Harakat va umumiy jismoniy rivojlanishda orqada qolish, ba’zi turdagi buzilishlar – duduqlanish, ko‘rish va eshitish apparatidagi nuqsonlar, tug‘ma yoki erta orttirilgan nuqsonlarga egalik, haddan tashqari xunuklik, shu bilan birga, kasal va zaif, beso‘naqay, no‘noq – bularning barchasida kuchliroq shaxslarga nisbatan pastlik hissi yuzaga keladi va butun umrga qolishi mumkin. Qiziq jihati shuki, pastlik hissiga sabab bo‘luvchi yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlar rivojlanishning

keyingi davrida yo‘qolib ketishi mumkin, ammo hissiy jihatdan shaxs ongida qoladi. Bu holatni A.Adler pastlik kompleksi deb atagan. Uyatchanlik, qat’iyatsizlik, ishonchsizlik, tortinchoqlik, qo‘rqoqlik, qo‘llab-quvvatlashga kuchli ehtiyoj, bo‘ysunuvchan itoatkorlik, shuningdek, mazoxistik fantaziyalar va istaklar pastlik hissiga mos keladi. Kompekslarning muhim ta’siriy oqibatlari shuki, bolaning butun instinktiv hayoti kuchayib, ustunlikni qo‘lgan oladi hamda bola impulslari tomonidan boshqarila boshlaydi. Atrofdan kelgan eng kichik salbiy holat ham o‘ziga va atrof-muhitga qarshi qasos fikrini paydo qiladi, bolalikdagi buzilishlar va yomon odatlar isyonkorona saqlanib qoladi. O‘ziga nisbatan ishlatilgan salbiy holatlarga juda sezgir bo‘lib qolishi sababli, dastlab oilasi, yaqin qarindoshlari bilan, keyinchalik esa uning atrof-muhitini tashkil qiluvchi odamlarning yo‘l-yo‘riq va yaxshi niyatlarini noto‘g‘ri tushunadi, ulardan keladigan har qanday tanqid yoki kichik jazoga ta’sirchan bo‘lib qoladi.

Pastlik kompleksining natijasi deb hisoblangan ustunlik kompleksi A.Adler tomonidan pastlik hissining noto‘g‘ri kompensatsiyasi shakli, ya’ni simptom sifatida talqin qilingan. Bu orqali shaxs o‘ziga va boshqalarga o‘zining shaxsiy ustunligini namoyish etadi, biroq bu ijtimoiy jihatdan foydasiz yo‘l bilan amalga oshadi. Pastlik va ustunlik komplekslari odatda bir-birini to‘ldirib keladi. Biz qachonki pastlik kompleksiga ega shaxsga duch kelsak, unda ustunlik kompleksi ham borligini kuzatish mumkin va aksincha ustunlikka intilayotgan shaxsiyat o‘zida pastlik kompleksini yashirayotgan bo‘ladi. Agar inson maqtanchoq bo‘lsa, ko‘p hollarda bu uning o‘zini atrofdagilardan past his qilayotganidan darak beradi. Kompleksning muhim nuqtasi shuki, u atrofdagilardan o‘zini past deb his qiluvchi odamni “tenglashtirish” uchun nosog‘lom yo‘lga burib yuboradi, ijtimoiy foydali jihatdan o‘zini tenglashtirish o‘rniga shaxsiylikka e’tibor qaratadi. Komplekslar shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lish mexanizmining uchinchi ko‘rinishi kompensatsiyadir. Bunda shaxs o‘zining ichki zaifligini (pastlik hissini) yashirish uchun tashqi dunyoda haddan tashqari tajovuzkor, hukmron yoki kamsituvchi munosabatni tanlaydi. Bu esa atrofdagilar bilan sog‘lom hamkorlik o‘rnatishga to‘sqinlik qiladi.

Ustunlik kompleksi pastlik hissiga ega shaxsning qiyinchiliklardan qochish usullaridan biridir. Aslida u ustun bo‘lmasa-da, o‘zini shunday hisoblash unga chidab bo‘lmas pastlik hissini yolg‘ondan yashirish imkonini beradi. Shu yerda komplekslar miyaning tabiiy xususiyati ekanligi eslatib o‘tilishi lozim. Shu ma’noda komplekslar himoya mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’lum emotsional shok yoki psixologik travmalar miyaning yana zararlanishiga qarshi o‘laroq psixologik komplekslarni yuzaga keltiradi. Ularning asosiy vazifasi ma’lum hissiy tonga ega bo‘lgan vaziyatga shaxsni olib kirmaslik, chunki u yerda xotirada qolgan yoqimsiz tajriba bor. Normal insonda ustunlik kompleksi mavjud emas. To‘g‘ri, o‘z ustunligini ko‘rsatadigan tabiiy vaziyatlar mavjudki, masalan, raqobat asosiga qurilgan o‘yin, mehnat faoliyatlarda atrofdagilardan samaradorli ko‘rsatkichga ega shaxs o‘zini shu sohada ustun his qilishi mumkin. Ammo muhim nuqta shuki, bu ustunlik hissi shaxs xulq-atvorini boshqarmaydi va boshqa sohalarda u o‘zini ustun emasligiga tabiiy qaraydi. Ustunlik kompleski va sog‘lom ustunlik hissi farqini shu

yerda ko‘rish mumkinki, birinchidan, sog‘lom ustunlik hissi faqatgina, shaxs haqiqatdan ustun bo‘lgan sohalarda namoyon bo‘ladi va bu hissiyot shaxs xulqini boshqarmaydi. Ustunlik kompleksi esa shaxsni barcha sohalarda ustun ekanligini ta’kidlaydi va shaxs xulqini belgilab beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar esa psixologik komplekslarning neyrobiologik asosga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Avstraliyalik olimlar guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra, Yungning kompleks nazariyasi neyrobiologik asosga ega bo‘lib, kompleks paytida maxsus miya markazlari ishga tushadi [4]. Jumladan, miyaning “mirror neuron” hududlaridan “boshqani” idrok qilish, ijtimoiy anglash markazlari, “anterior insula” hududida hissiy o‘zini sezish, og‘riq va rad etilish bilan bog‘liq jarayonlar hamda “dorsal cingulate gyrus” da esa ichki konflikt monitoring, o‘zini kuzatish, “men va boshqa” farqini tahlil qilishga javob beradigan markazlar faollashadi. Ya’ni, kompleks – bu oddiy fikr emas, u real “emotsional og‘riq tizimi”ni ishga tushiradi.

Komplekslar ongli kogntitiv jarayonlarni buzishi mumkinligi aniq bo‘lsa-da, ongsiz kognitiv jarayonlarga ta’siri noma’lum. Ushbu maqolamizning maqsadi kognitiv jarayonlarni tahlil qilish bo‘lmsa-da, Y. Shin, J. Lee, O. Han, B. Rhilar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini keltirib o‘tish o‘rinlidir. Chunki, klassik psixoanaliz doirasida o‘rganilivchi komplekslarni zamonaviy metodlar bilan tadqiq qiluvchi yondashuvlar kam. Tadqiqotchilar uchun qiziq bo‘lgan jihat, komplekslar (odatda ongli fikrlashni buzishi ma’lum) aslida, ongsiz darajadagi bilish jarayonlariga, xususan, “implicit learning”ga qanday ta’sir qilishini tekshirish edi. Ishning xulosasiga ko‘ra, komplekslar ongli kognitiv jarayonlarni buzishi mumkin bo‘lsa-da, ular “implicit learning” vazifasida subyektlarning diqqatini va ish faoliyatini kuchaytirgan. Ya’ni, ishtirokchilar kompleks bilan bog‘liq so‘zlar paydo bo‘lgan ketma-ketliklarning qoidalarini tezroq va aniqroq o‘rganib oldilar. Bu komplekslar nafaqat ongga, balki ongsiz jarayonlarga ham faol ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Mavzu bo‘yicha to‘plangan adabiyotlar va ularning tahlili quyidagi xulosalarni keltirib o‘tishimizni taqozo qiladi:

Birinchidan, komplekslar shaxslararo munosabatlarda ongsiz avtomatik reaksiya shaklida ko‘rilib, muloqotda bunday reaksiyalar tushunmovchilik va nizolarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, barcha ongsiz kontentlar qatori komplekslar ham preoksiya va identifikatsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxs bu holda o‘zidagi psixologik hissiy zaryadlangan reaksiyalarni sezmaydi, balki, boshqa odamda ko‘radi. Shu tariqa endi munosabatlar shaxsga emas, undagi kompleksga qaratilgan bo‘ladi.

Uchinchidan, Adlerga ko‘ra, shaxsdagi psixologik kompleks shaxslararo munosabatlarda albatta kompensatsion mexanizmlar sifatida maydonga keladi. Shaxs o‘zidagi pastlik hissini yashirish uchun albatta uni qaysidir shaklda yashiradi.

To‘rtinchidan, J. Yakobining Yung asarlariga bag‘ishlangan tahliliy asariga ko‘ra, yetarlicha zaryadlangan kompleks dissotsiatsiya sifatida o‘zini namoyon qiladi va shaxslararo munosabatlarda ambivalent reaksiyalar ko‘rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jung C. G. Collected Works of C. G. Jung, Volume 18: The Symbolic Life: Miscellaneous Writings (G. Adler, R. f. C. Hull, Eds.). Princeton University Press. 202. – 1976.
2. Jolande Jacobi. Complex Archetype Symbol in the Psychology of C. G. Jung. Bollingen Foundation Inc., New York, N.Y. Princeton University Press. 11. – 1974.
3. A.Adler. Understanding human nature. Fawcett Publications, Greenwichconn. – C.55. – 1954.
4. L. Petchkovsky, M. Petchkovsky, P. Morris, P. Dickson, D. Montgomery, J. Dwyer, P. Burnett. fMRI responses to Jung‘s Word Association Test: implications for theory, treatment and research. Journal of Analytical Psychology. – C. 409–431. – 2013.
5. Y.W Shin, J.S Lee, O.S Han, B.Y Rhi. The influence of complexes on implicit learning. Journal of Analytical Psychology. – 2005.
6. Huadong Shen, Mu Li, Li Li. Influence of Social Exclusion on the Inferiority Feeling of Community Youth Iran J Public Health. – C.1576-1584. – 2022.
7. Ramazan Akdoğan. A model proposal on the relationships between loneliness, insecure attachment, and inferiority feelings. Personality and Individual Differences. Volume 111. – C.19-24. – 2017.

UDK 796.015.82

Usmanov Boburjon Komiljon o'g'li,
Namangan davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

KO'P YILLIK TAYYORGARLIK TIZIMIDA SPORT SELEKSIYASI MEZONLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Annotatsiya. Maqolada ko'p yillik tayyorgarlik tizimida sport seleksiyasi mezonlarining tarkibiy tuzilishi va ularning samaradorligi metodologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda uzoq muddatli sportchi rivojlanishi (LTAD) modellari asosida fiziologik, psixologik, antropometrik va taktik ko'rsatkichlarning o'zaro uyg'unligi o'rganiladi. Iste'dodlarni aniqlashda prognoz modellarining haqiqiyligi, subyektiv xatoliklarni kamaytirish hamda seleksiya jarayoniga fanlararo yondashuvni joriy etish masalalari yoritilgan. Yakunda yuqori samarali sport tizimlarida seleksiya paradigmalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sport seleksiyasi, ko'p yillik tayyorgarlik, LTAD, iste'dodni aniqlash, fiziologik ko'rsatkichlar, psixologik baholash, prognoz haqiqiyligi, samaradorlikni optimallashtirish.

КРИТЕРИИ СПОРТИВНОГО ОТБОРА В СИСТЕМЕ МНОГОЛЕТНЕЙ ПОДГОТОВКИ И ОЦЕНКА ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ

